


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

*R. A. Mavlonova, N. X. Rahmonqulova,
B. A. Normurodova, K. O. Matnazarova*

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

DARSLIK



TOSHKENT – 2014

Ushbu darslikda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish mazmuni, milliy qadriyatlar, an'analar, milliy tarbiyaning turlari, maqsad va vazifalari, allomalarimizning tarbiya haqidagi o'giltlari, sinf rahbarining ish faoliyati, sinf jamoasini o'r-ganish, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalshtirish; o'quvchi ma'naviyatini shakllantirishda ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarining vazifalari, maktab, oila va mahalla hamkorligi ishlari kabi masalalar keng yoritib berilgan.

Mazkur darslik pedagogika yo'nalihidagi oliy o'quv yurti o'quvchilari va magistrлари, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, umumta'lim maktablari o'qituvchilari hamda pedagogika kasb-hunar kolleji o'quvchilari, ota-onalar va barcha qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: *Sh. Mardonov, p.f.d., professor*
X. Sanaqulov, p.f.n., dotsent

KIRISH

Jamiyatimizning ma'naviy yangilanishi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan, demokratik huquqiy davlat qurish, kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustivor mezoni sifatida muhim rol o'ynaydi.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: „Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot — bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishida o'ziga xos ta'sir o'tkazadi“¹.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni shakllantirish ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Mana shu ma'noda bugungi mustaqillik sharoitida kadrlar tayyorlashning milliy modelini ro'yogha chiqarish, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim-tarbiyani ongli ravishda idrok eta oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlik hissini yuragiga tuya oladigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutish bilan birga, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishtan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iborat.

¹ Karimov I. A. „Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch“. — T.: „Ma'naviyat“, 2008, — 40, 41- b.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi asosiy tarmoyillardan biri ta'lim tizimini isloh qilish, o'qituvchi va murabbiylarni yuqori malakali mutaxassislar qilib tayyorlash.

Buyuk islohotlarni amalga oshirishda O'zbekiston sharoitida mustaqil fikrlovchi yoshlarning bo'lishi davr taqozosidir. Respublikada olib borilayotgan siyosatning bosh omillaridan biri ham teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdan iborat.

O'quvchilarga tarbiya berish ularga ta'lim berish bilan mustahkam va yaxlit birlikda amalga oshiriladi. Ammo tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, shakl hamda uslublari mavjud. O'quv tarbiyaviy jarayonining uzviyligi mакtab oldiga qo'yilgan eng muhim pedagogik qoidalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o'quv jarayoni bilan bog'langandir. Yoshlarning kundalik ehtiyojlari, intilishlari, talab va qiziqishlarini faqat dars jarayoni bilan qoniqtirib bo'lmaydi. Sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar o'qituvchilar faoliyatining barcha qirralarini qamrab olmog'i lozim. Har bir o'quvchi bilan yakkama-yakka ishslash, uni ijtimoiy-ruhiy jihatdan o'rganish sinf faoliyatiga yangicha mazmun olib kiradi. Yoshlarning g'oyaviy-siyosiy ongiri shakllantirish orqali ularda atrof-muhitga, jamiyatga ongli munosabatda bo'lish, jonayon Vatanni cheksiz sadoqat bilan sevish, xalqimizning milliy qadriyatlarini e'zozlash hissini tarkib toptiradi.



I BOB. TA'LIM VA TARBIYA TIZIMI

*Ta'limdi tarbiyadan, tarbiyani
esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi — bu
sharqona qarash, sharqona hayot
falsafasi.*

Islom Karimov

1.1. I. A. Karimovning ta'lim tizimidagi islohotlari va barkamol insonni ma'naviy tarbiyalash masalalari

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan texnologiyalari yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish katta ahamiyatga ega. Bu taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk, zamonaviy bilimlar va murakkab texnologiyalarini egallagan, iymoni butun, irodasi baquvvat, teran fikrlaydigan, yuksak salohiyatga ega bo'lgan kadrlar hal etadi. Yurtimizning kelajagi mammakatimizning intellektual salohiyatiga, aql-zakovotiga, milliy ta'lim-tarbiya tizimini jahon andazalari asosida takomillashtirishga, uning milliy zaminini mustahkamlashga, kadrlar tayyorlashga bevosita bog'liq. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzuksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi.

Bu haqda Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov shunday deydilar: „Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'analrimizning saqlanishi madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'likdir“.¹ Ilm-fan, madaniyat va ma'rifat har

¹ Karimov I. A. „O'zbekiston XXI asrga intilmoqda“. — T.: 2000- y.

qanday mamlakat va xalqni yuksaklikka ko'taradi, uning taraqqiyotini ta'minlaydi, kelajagini oldindan ko'rsatib beradi.

O'zbekiston Respublikasida jahonning rivojlangan mamlakatlari kabi ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya tizimini shakllantirish, barcha sohalarda zamонавиъ axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kenga;tirishga mustahkam zamin yaratilmoqda. Endilikda mamlakatning iqtisodiyoti, insonlar hayoti va jahon hamjamiyatidagi o'rni axborot-texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomonidan, fan-texnika yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi. Va har qaysi inson Olloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste'dodini avvalc o'zi uchun, oilasi, millati va xalqi, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas. Shunday ekan, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish bosh g'oya, shu g'oyaning yetakchi targ'ibotchisi, tarbiyachisi o'qituvchi hisoblanadi. Erkin fuqarolik, huquqiy demokratik jamiyat qurishda ta'lim-tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil --- bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kaimoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojiri ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllan-

tiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lif va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota-onas, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zatur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'igan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lif-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lif va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Shunday ekan, yosh avlod tarbiyasida komil inson taqdiri turibdi. Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlanТИrish — O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarни yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go-zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.¹

Ma'naviyati yuksak shaxslar yurtni tanitadi. Shaxsni esa uning ma'naviy qiyofasi tanitadi. Ma'naviyat tarbiyadan boshlanadi. Ta'lif-tarbiyasisiz ma'naviyatning bo'imasligi barchaga ayon haqiqatdir. Prezidentimiz I. Karimov „Tafakkur“ jurnali bosh muharriri E. A'zam bilan suhbatda ulug' alloma Abdulla Avloniyining „Tarbiya — biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasi, jamiyat-

¹ Rahimjonov N. „Yoshlar iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda oila-ning roli“. — T., 2005 (B.M.I.)

mizning ertangi taqdiri farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liq"¹ degan fikrini alohida ta'kidlab o'tgan edi. Chunki buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zлari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lган bo'lsa, hozirgi vaqtدا ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy barkamollik „hayot qонуни илмини idrok etish“ demakdir. Ilmning har qanday ko'rinishi esa ta'lim-tarbiya orqali ustoz-muallimlar boshchiligidagi beriladi. Ushbu ma'noda umumta'lim maktablari mazkur masalani hal qalishda asosiy bo'g'in hisoblanadi. Umumiyligi ta'lim oldiga qo'yilgan muhim masala umuminsoniy va milliy qadrya'larga tayangan holda ta'lim-tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g'eyasini kuchaytirish, xalqchillashtirish, uning uzviyiligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti „Tafakkur“ jurnali muxbiri bilan bo'lган suhabatda shunday degan edilar: „Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iyemoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lган insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmusni kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qildirishi lozim. Donolarning aytishicha, inson o'z umri davomida uch yumushni bajarishi: ko'chat o'tkazishi, uy qurishi, farzand tarbiyalashi kerak. Lekin men oxirgi yumushni, albatta, birinchi o'ringa qo'ygan bo'lar edim. Ko'chat o'tkazish mumkin, uy qurish mumkin, ammo o'zingdagи eng yaxshi xususiyatlarni farzandlaringga singdirsang va ular sendan ko'ra yaxshiroq va aqlliyoq bo'lishi uchun hamma ishni qilsang, bu maqsadni har qancha hurmat qilsa arziydi, deb hisoblayman“.²

¹ Avloniy A. „Turkiy guliston yohud axloq“. — T.: „O'qituvchi“. 1992. — 14 b.

² Karimov I. A. „O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. — T.: 2000- y.

Biz barkamol avlod yoki bilimli shaxs deganda ma'naviy dunyosi boy, aql-zakovatli, savodli, hayot tajribalarini to'g'ri o'zlashtirgan shaxsni tushunamiz. Bugungi kunda yosh avlodning bilimli bo'lishining o'zi yetarli emas, shu bilan birga, ular zimmasida insoniylik, mehribonlik, samimiylilik kabi fazilatlar bo'lishi kerak. O'tmishta nazar tashlar ekanmiz, ajdodlarimiz ilmiy salohiyatiga, ular qoldirgan boy tarixiy, ma'naviy-mada-niy merosga havas bilan emas, balki hayrat bilan qaraymiz. Ajdodlarimiz bosib o'tgan shonli yo'l biz uchun ibrat va tarbiya manbayidir. Mustaqillik bizga ma'naviy mulkimizni, ulug' bobolarimiz ruhini shod etish imkonini qaytarib berdi. Istiqlol tufayli o'tmishta tariximizga munosabat ijobiy tomoniga o'zgardi. Bobolarimiz merosini o'rganib idrok etmoqdamiz. Ulug' boba-kalonlarimiz Imom Al-Buxoriy, Imom At-Termizi, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi allomalarimizning insoniy ma'naviy yetuklikka chorlovchi diniy, axloqiy va huquqiy hikmatlari qaytadan jaranglay bosh-ladi. Bugungi kunda avlod-ajdodlarimiz tarixi tiklanayotganligi mustaqilligimizning ajoyib samarasidir. O'tmishti o'rganish va undan foydalananish bilan insonlarning ongi shakllanadi. Xotirasiz barkamol kishi bo'limganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi. Shu ma'noda yurtboshimiz Islom Karimovning quyidagi so'zlarini keltirish joizdir: „Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkanning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorini tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rinn tutadi“.¹ Ajdodlar xotirasini pok tutish ularning tarixiy an'analariga, vasiyat va o'gitlariga, milliy qadriyatlariga, axloqiy-ma'rifiy qarashlariga, avlodlarga qoldirgan madaniy merosiga sodiqlik va shularga amal qilish demakdir. Mustaqillik — bu bizga ajdodlarimiz qoldirgan boy va muqaddas ma'naviyatdir. Ma'naviyat tushunchasi juda keng qamrovli. Ma'naviyat inson uchun moddiy ehtiyoj emas, siyosiy zaruriyat ham emas. Ma'naviyat

¹ **Karimov I. A.** „Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman“. „Xalq so'zi“ gazetasi, 2000-yil, 10-iyun.

insonning o‘z möhiyati oldidagi mahsulligidir. Shu o‘rinda yurtboshimiz I. A. Karimov ma’naviyat tushunchasini quyidagicha izohlaydilar. „Ma’naviyat — insonni ruhan pokianish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir“.¹

Milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish o‘sib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarimizni ma’naviy tarbiyalashning asosi bo‘lmo‘gi lozim.

Zero Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, „Biz quradigan jamiyat O‘zbekiston xalqining munosib turmushini va erkinligini kafolatlashi, milliy qadriyatlarni va madariyatlarni qayta tiklanishiri, insonning ma’naviy-axloqiy barkamolligini ta’millashi kerak“. Demak, ta’lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish umumiy ta’lim maktabi o‘quchilarining ma’naviy madaniyatini shakllantirishning muhim omilidir. Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarni tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifani ado etishda bizinchgi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o‘rnimizga keladigan yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o‘zimizga yaxshi tasavvur qilamiz. Yuksak ma’naviy madaniyatli insonda vatanga muhabbat, samimi do’stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mustahkam e’tiqod, iymon, nafosat, axloqiy madaniyat singari fazilatlar mujassamlashadi. Uning sifat darajasi kishilarning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga, xalqning ma’naviy merosiga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda hur va ozod xalqimiz barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma’rifatda, fan va texnikada, madaniyat va san’atda nimaiki yangi va ilg‘or jihatlar bo‘lsa, shunga dadillik bilan intilmoqda. O‘zbek diyorida, tarixda ko‘p marta bo‘lganidek, yana yangidan o‘zimizning betakror va

¹ Karimov I. A. „Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch“. — T.: „Ma’naviyat“, 2008- y.

ilg'or, iqtidorli va eng muhimmi, insonlarga kerakli qadriyatlarimiz barpo etiladi. Ma'naviy madaniyatning negizi hisoblangan umum-insoniy va milliy qadriyatlar shaxslar ijtimoiy tuzumiga munosabati, turli ma'rifiy ma'naviy g'oyalilar, tushunchalar, qarashlar, tasavvurlar tizimining mahsulidir. Ma'naviy madaniyatning mohiyatini namoyon etuvchi obyekt shaxs hisoblanadi.

Respublikarniz Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek, „Inson o'z umri davomida qanday yutuq va natijalarga erishmasin, qayerda, qanday lavozimda ishlamasin, maktab dargohida olgan ta'lif-tarbiyasi uning yetuk shaxs va malakali mutaxassis bo'lib shakllanishida ulkan ahamiyatga ega. Muxtasar aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'Ichab, qiyoslab bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ma'rifatparvar bobolarimizning fikrini davom ettirib, agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir, desak, o'yaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz“. Binobarin, biz davlatimiz kelajagini o'z qobig'imizga o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o'z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko'rarniz. Mana shu o'rinda, aytish joizki, yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayat tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur. Ayniqsa, boshlang'ich sinflardan boshlab murg'ak qalblarda axloq-odobga oid sodda tushunchalardan boshlab, sekin-astalik bilan milliy qadriyatlarmiz elementlarini singdirib borish katta ahamiyatga ega, ular ta'lif-tarbiya jarayonida o'zbekona ibratomuz urf-odatlarimizdan xabardor bo'lib boradilar. Insoniy fazilatlarni kichik hikoyalar, tanbehlar va rivoyatlar orqali anglab, axloqan tarbi-

yalanadilar. Salbiy xislatlardan o'zlarini saqlab, ota-bobolarmizdan meros qolgan udum va qadriyatlarni tiklashga, amal qilishga hissa qo'shishga intiladilar. Bu esa ularning milliy mafkuramizning asl mohiyatini tushunishga olib keladi. Eng asosiyi bizning davlat demokratik tamoyillarga asoslangan holda, barcha mafkuralarning yashash huquqini ta'minlovchi institut sifatida ish ko'rishini tushunib yetadilar. Shu sababli ma'naviy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga kiritib, yoshlarni axloqan pok va ruhan tetik, sog'lom aqlli qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Bu masalalarni hal etishda ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarish asosiy vazifamiz hisoblanadi. Buning uchun tarbiyaviy ishlar tizimida sinfdan va maktabdan tashqari ta'limning shakllari va mazmunini tubdan yangilash, o'quvchilarning qiziqishlari va ota-onalarning xohish-istiklari asosida to'garaklar tashkil etish, milliy hunarmandchilik, badiiy-estetik yo'nalishlardagi to'garaklar ni ko'paytirish, yoshlarda sog'lom turmush tarzi hamda faol hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim mazmuni bevosita shaxsga yo'naltirish va ta'lim oluvchilarning shaxsiy ijodiy qobiliyatlarini boyitish, mavjud irakoniyatlarini rivojlantirishda ularning qiziqish va ishtiyoqlarini hisobga olgan holda ta'limni ijtimoiylashtirish, individuallashtirish, insoniylik va insonparvarlik, bolalar va o'smirlarning jismoniy, intellektual, ma'naviy-axloqiy, estetik, kommunikativ qibiliyatlarini rivojlantirish, ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni takomillashtirish zarur.

1.2. Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi har tomonlama barkamol intellektual salchiyatga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashga bog'liq. O'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Bugungi kunda ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida

yaratib kelingan ulkan, bebahо ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim vazifa bo'lib qoldi. Bu borada Prezidentimiz Islom Karimov o'z ma'ruzalarida quyidagicha fikr bildirganlar. „Xalqimiz tayanchi — ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanishimiz lozim“. Zero ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarda xalqimizga xos bo'lgan insonning axloqiy ruhiy kamolot masalasi yetakchi o'rин tutadi. Insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklar bisotida donishmandlarning pand-nasihatlari va o'gitlari, tarbiya haqidagi fikrlari alohida o'rин egallaydi. Donishmandlarning pand-nasihatlari umrboqiy ma'naviy boylik hisoblanadi. Chunki ular hayotdan, hayot tajribalaridan kelib chiqqan va ezgu orzu niyatni ifodalaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, eng qadimgi tarbiya haqidagi fikrlar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Bu fikrlar insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyatning yillar davomida rivojlanishi natijasidan dalolat beradi. Shuning uchun ham har bir davrda yashab ijod etgan mutafakkir allomalarimiz „tarbiya“ so'zini turlicha izohlaganlar. Tarbiya — arabcha so'zdan olingen bo'lib, parvarish qilmoq, ta'lim bermoq, o'rganish, odob o'rgatish, mehribonlik ko'rsatish, himoya qilish singari ma'nolarni anglatadi. Bu o'rinda tarbiyaviy manba sifatida Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lmish „Avesto“ katta ahamiyatga ega. „Avesto“da insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri, ishi birligiga katta e'tibor berilgan. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab, undan keyin yaratilgan barcha ma'rifiy asarlarga asos bo'lgan, desak, xato qilmagan bo'lamiz. Mana shunga asosan, „Aveste“ning eng asosiy manbasi bo'lgan Zardushtiylik to'g'risida so'z borganda u to'g'rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini ta'kidlash lozim. Ayniqsa, „Avesto“da inson tarbiyasiga, insonlarning jamiyatda tutgan o'rniga munosabati to'liq yoritilgan. Zardusht ta'limotida tarbiya haqida quyidagicha fikr bildirilgan. „Tarbiya — hayotning eng muhim tirdagi (tayanchi) bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u, avvalo, yaxshi o'qishni va so'ngra esa yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin va yana yaxshi ovqat-

lanadigan xalqdan yaxshi nasl — sog'lom avlod qoladi“, deb ta'kidlanadi. Tarbiya ijtimoiy hodisa. Tarbiya kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan vujudga keldi, taraqqiy etdi, jamiyatning o'zgarishi bilan tarbiya ham o'zgarib bordi. Tarbiya xulqni boshqarish va belgilash, bir-birini talab etadigan va belgilaydigan tarkibiy qismlar — axloqiy ong, axloqiy faoliyat va axloqiy mu-nosabatlarning murakkab yig'indisidir. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyuşhtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchilarning shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya — o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot — dunyo-qarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya deb tarbiyachi o'zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirishi uchun uiarning ruhiyatiga ma'lum maqsadga ko'ra tizimli ta'sir ko'rsatishiga aytildi. Tarbiya bola tuz'ilganidan umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Tarbiya — biror maqsadga qaratilgan jarayon, u doimo muayyan rejaga ega bo'ladi va buning uchun maxsus vakolati mayjud bo'lgan kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarning axloqi va odobi, iymoni va vij-doni, bilimi, malakasi, xatti-harakati, yo'nalishi, tarixiy tajribasi, davri talablari va ehtiyojlari, istiqlol vazifalari bilan uy-g'unlashtirib shakllantirishga, rivojlantirishga harakat qilganlar. O'z oldiga inson kuchi, bilimi va irodasi bilan bajarilishi mumkin bo'lgan muayyan maqsadlarni qo'ygan davlatlai ham ta'lim-tarbiya ishlariga befarq qaramagan. O'rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari, o'gitlari shunday kuchga egaki, ular yoshlari qalbida insoniylik urug'larining unishiga, katta hayot yo'lliga olib chiqishiga yordam beradi. Shu bois biz uchun qadrli bo'lgan allomalarimizdan Bahovuddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jorniy, Jaloliddin Devoniy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Asqar Zunnunov va boshqa-larning ta'lim-tarbiya va ma'rifat haqidagi g'oyalardan keng foy-

dalanish bugungi kun talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Bahovuddin Naqshbandning ta'lif-tarbiya haqidagi fikr-mulohazalari va pand-u nasihatlari g'oyat qimmatlidir. U bar-kamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta'kidlab, shunday degan edi: „Adab xulqni chiroyli qilish, so'z va fe'lni soz qilishdir... Adab saqlash -- muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug'i hamdir. Agar adabdan ozgina nuq-songa yo'l qo'ysangiz ham, nimaiki qilsang, beadablik ko'rindi. Odam o'zini bir xil sifat va ko'rinishda olib yurishi lozimki, toki odamlarda unga tasarruf (ta'sir qilish) ta'masi paydo bo'lmasin“.

Abu Nasr Forobiy birinchi bo'lib ta'lif va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir. „Ta'lif so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya esa, amaliyat, ish-tajriba bilan, ya'ni shu yo'l orqali amalga oshiriladi“, deydi u.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, har bir shaxs munosib odam bo'lishi uchun unga ta'lif va tarbiya zarurdir. U ta'lif orqali nazariy kamolotga erishadi. Tarbiya orqali esa kishilar bilan muloqotni, axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni o'rganadi. Forobiy bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida „qattiq“ yoki „yumshoq“ usullardan foydalanish kerak, deb hisoblaydi:

1. Tarbiyanuvchilar o'qish-o'rganishga moyil bo'lsa, ta'lif-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llanadi.
2. Tarbiyanuvchilar o'zboshimicha, itoatsiz bo'lsa, qattiq usul qo'llanilishi lozim, degan fikrni bildiradi.

Yusuf Xos Hojib tarbiyani juda murakkab jarayon deb tushunadi. U tarbiya kishini e兹gulikka o'rgatmog'i kerak. Ezguning har ishi chiroyli, har bir qadami go'zal. Ezgulik aslo qarimaydi. Tarbiya beldan madorni, tandan quvvatni, ko'zdan nurni, dil-dan oromni talab qiladi, degan fikrni bildiradi.

Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borishni ta'kidlaydi: „Yosh bola ilm bilan adabni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand be-adab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqtigil. Bolalarga

muallimlar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingning ko'nglida gina qo'masin".

Abu Rayxon Beruniy inson va axloqiy tarbiya haqida fikr yuritar ekan, „Insonga yer yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, Shuning uchun har bir inson yuksak axloqli bo'lishi lozim“, deydi.

Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi haqida fikr bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'yishdan boshlashni lozim deb topadi. „Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki olıyanob vazifasi, bola tarbiyasi bilan avvalo ota-ona shug'ullanishi kerak“, deydi.

Umar Xayyomning ta'kidlashicha, tarbiyaning maqsadi „sog'lom fikr, ziyrak aql va o'tkir zehnga ega bo'lgan insonni shakllantirishdan iborat bo'lmog'i kerak“. Faqat chuqur zehngina barkamol xalqni qondira oladigan ilhomga erishishi va uning yordami bilan yuksak aql-idrok, farog'atni hosil qilish mumkin, lekin shuning o'zi kifoya qilmaydi, inson yuksak axloqqa ega bo'lishi yaqinlarini sevishi lozim.

Alisher Navoiy bola tarbiyasi bilan oila hamda maktabda shug'ullanish, shuningdek, bola tarbiyasini olib borish jarayonida namuna uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida urg'u beradi. Tarbiya va ta'lim ishlari o'qituvchi hamda ota-onalar tomonidan olib borilishi lozim. Mutafakkir bolalar bilan munosabatda bo'lish chog'ida ular tomonidan yo'l qo'yilgan xatoliklarni bartaraf etishda ularga jismoniy jazo berishdan saqlanish, aksincha, hushmuomalalik bilan yo'l qo'yilgan xatolarning mohiyatini ularga tushuntirish zarurligini, biroq bu o'rinda ma'lum me'yorga arnal qilish zarurligini aytadi. Alisher Navoiy o'qituvchining, ayniqsa, talabchan bo'lishi bolalarning puxta bilim olishlari va ularda axloqiy sisatlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Allome ma'lum fan asoslari yoki muayyan kasb-hunar sirlarini o'rganishga layo-qatli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga alohida ahamiyat berish jamiyat uchun katta foyda keltiradi, qobiliyatsizni tarbiyalashga urinish befoydadir, egen xulosaga keladi va bu o'rinda quyida-gilarni bayon etadi: „Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zu'lmdir, qo-

biliyatsizga tarbiya — xayf. Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik bilan uni nobud qilma“,¹ degan fikrni bildiradi.

Abdurahmon Jomiy, avvalo, tarbiya haqida fikr yuritar ekan, har bir narsani ham parvarish etsa, undan yaxshi natija chiqishini, insonni ham yaxshi tarbiya etsa, u barkamol bo‘lishini alohida ta’kidlaydi.

Jaloliddin Devoniy „Bolaning tarbiya olishi, odob-axloqli bo‘lishi uning keyingi tarbiyasiga bog‘liq. Chunki hayotda har kuni bola ko‘radigan, muloqotda bo‘ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon tomondan ta’sir etadi. Bolada har kuni insoniy xislatlar: yurish-turish qoidalari, xushmuomalalik, ota-onva boshqa katta yoshlilarni hurmat qilish, to‘g‘rilik va rostgo‘ylikni o‘rganish, shirinsuxanlik, kamtarlik, so‘zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o‘rganiladi“, deydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’lim-tarbiya ishini ijtimoiy hayot, jahon miqyosida sodir bo‘layotgan voqealar bilan bog‘liq holda olib borishni talab etadi. U yoshlar tarbiyasida, oila, ota-onalar alohida mavqega ega ekanini, mактаб tarbiyasi bilan oila tarbiyasi uzviy birlikda olib borilishi kerakligini ta’kidlaydi.

Munavvarqori bolalar tarbiyasida faqat ota-onalar emas, balki muallim va keng jamoa javobgar ekanligini aytib, ulardan bolalarni axloqli qilib tarbiyalashni talab etadi. U yoshlarni bilimlarni puxta egallahsga, mehnat qilishga, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli bo‘lishga chorlaydi, ota-onalarni farzandlarida ma’naviyat, nafosat, go‘zallik tuyg‘ularini rivojlantirishga da’vat qiladi. Munavvarqorining fikricha, yosh avlodni tarbiyalash bilangina millatni uyg‘otish, Vatanni ozod qilish, xalq ma’naviyatini yuksaltirish, turmushni farovonlashtirish mumkin. Adib yoshlidan bolalarda mehnatga qiziqish, g‘ayrat, jasorat fazilatlarini tarbiyalashni tavsiya etadi.

Abdulla Avloniyning fikricha, axloq bu xulqlar majmuyidir. Xulq esa, kishida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishida yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar, ularni muayyan sharoit yo-

¹ Yuqorida nomi qayd etilgan asar, 17- bet;

4-7764/1

mon qiladi. Avloniyning ta'kidlashicha, axloq tarbiyasi xususiy ish emas. Bu tarbiya ijtimoiy ishdır. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Hamza Hakimzoda fikricha, maktab bolalarni ilmli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o'rgatishi kerak, maktabda dunyoviy fanlar o'qitilishi lozim. Aqliy tarbiyada bolalar tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini, tabiat hodisalarini, ularning o'zaro bog'liqligini bilishlari kerak. Shundagina bolalar jamiyat va xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan bo'lib yetishadilar. Zero, insonparvar odamgina kishilarni, ota-onani qadrlaydi, insoniy huquqlarni himoya qiladi, ularga hurmat-ehtiromda bo'ladi. Uning uqtirishicha, axloqiy tarbiyada bolalarda insonparvarlik tuyg'usini rivojlantirish, bolalarni barkamol inson, go'zal axloqli bo'lib yetishishi uchun oilada sog'lom muhit, tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak.

Asqar Zunnunovning fikricha, tarbiyada bilim va tajribaga ega bo'lgan, milliy qadriyatlardan xabardor o'qituvchi bolalarni bilimli, go'zal xulqli qilib yetishtirishi shubhasizdir. Ammo ularning bolalarga beradigan tarbiyasi tarbiyaning asosiy zamini bo'lgan oila, tarbiya ilmidan xabardor ota-ona, ayniqsa, iffat, sharm-hayo, or-nomus, sabr durdonalaridan ziynatlangan, baxt-saodat mujassam bo'lgan ona tarbiyasi darajasida bo'lmaydi.

Shu o'rinda yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganlari-dek, „Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'llim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak“. Bu esa ta'llim va tarbiya ishini uyg'ur holda olib borishni talab etadi. Jamiyatimiz komil insonni tarbiyalashda, uning ma'naviyatini shakllantirishda eng asosiy o'rinni egallaydi. Komil inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi hisoblanadi. Komil inson deganda biz, avvalo, yuksak ongli, mustaqil fikrlaydigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kshilarni tushunamiz. Tarbiya — vijdon ishi; ta'llim esa fanning vazifasi. Keyinchalik, inson voyaga yetgach, bilimning bu ikki turi biri-birini to'ldiradi.

Tarbiyaga jamiyat a'zolari o'rtasida qaror topgan munosa-batlarni saqlab turish uchun juda zarur bo'lgan bilimlarni uz-luksiz egallash, deb qarash mumkin. Tarbiya ishida har bir kishining individual qobiliyatini rivojlantirish haqida g'amxo'rlik qilish bilan, ayni chog'da, ularda atrofdagilarga nisbatan mas'-uliyat hissini tarbiyalashga ham e'tibor bermoq zarur. Davlatning gullab-yashnashi, xalqning farog'ati ollyjanob xulq-odobga bog'liq, ollyjanob xulq-odob esa tarbiya tufaylidir. Tarbiya, asosan, bizning dilimizga jamiyat uchun foydali bo'lgan fazilat urug'larini sochmog'i lozim. Tarbiya faqat inson zehnini o'stirish va unga ma'lum hajmdagi bilimni singdirishgina emas, balki u insonda mehnatga tom ma'nodagi chanqoqlik hissini uyg'otmog'i lozim. busiz odam hayotda na e'tiborli va na baxтиyor bo'la oladi. Tarbiya, bu nisbatan keksaroq avlodning o'z tajribasi, o'z ehtirosi, o'z e'tiqodini yosh avlodga topshirishi demakdir. Tarbiyaning bosh vazifasi odamni yaxshi qadam bosishga majbur etishgina emas, balki bu yaxshi ishlardan huzurlanishga ham o'rgatishdir; faqat ishlabgina qolmay, ishni sevish ham kerak. Tarbiya bizni yo'ldan ozdirmay turishining o'zi kifoya emas, u tobora bizni yaxshilab bormog'i lozim. Nazarimizda bo'lalarning a'zoyi badani va ruhiyatini tabiat qanday yaratgan bo'lsa, shundayligicha qoldiraverishdan qoniqmaymiz, biz ularning tarbiyasi va o'qishi haqida g'amxo'rlik qilamiz, toki yaxshi yanada yaxshilanishi, yomon esa o'zgarib, yaxshi bo'lishi kerak. Tarbiya odamda mehnatga ko'nikma va mehrni kuchaytirmog'i lozim, u insonga hayotda o'ziga loyiq ish topa bilish imkoniyatini bermog'i zarur. Tarbiya qiyin ish va tarbiya shart-sharoitlarini yaxshilash har qanday kishining ham muqaddas burchlaridan biridir. Zero, o'zini va tevarak-atrofdagilarni ma'lumotli qilishdan ham ko'ra muhimroq ish yo'q. Har bir mamlakatda insonni voyaga yetka-zish san'ati idora etish uslubi bilan shu qadar chambarchas bog'lanib ketganki, ijtimoiy tarbiyaga doir u yoki bu muhim o'zgarishni davlat tuzumining o'ziga o'zgartirish kiritmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Chinakam tarbiya yuksak ezungulikdir, aks holda, u hech nimaga yaramaydi. Barcha kashfiyotlar ichida eng go'zali yaxshi tarbiya olgan insondir. Tarbiya

ikki negizga — axloq va oqiliikka tayanmog'i lozim; birinchisi yaxshi fazilatni o'stirsa, ikkinchisi o'zgalar illatidan himoya qiladi Biz tarbiyalayotgan insonda axloqiy soflik, ma'naviy boylik, jismoniy barkamollik uyg'anlashib ketmog'i lozim.

Xalq og'zaki ijodida tarbiya haqidagi hikmatli so'zlar

Odamlar o'z sirlarini jon-jahdlari bilan yashiradilar-u, bosh-qalarnikini saxiylik bilan yoyadilar.

Nodon o'trnishidan saboq olmaydi, kelajakni o'ylamaydi, u faqat bugungi kun bilan yashaydi.

Nodonning hatto haqiqati ham o'z ziyoniga ishlaydi.

Yo'qotish hamisha alamlı.

Hayotda hammasi aks: istaganingga intiliç yetolmaysan, istamaganing oyog'ingning ostidan chiqaveradi.

Xotig'jam bo'limguncha ishing unmaydi.

Ham baxt, ham davlat kamdan-kam hollarda birga bo'ladi.

Kundalik tashvishlardan baland ko'tarila olmagan ulug' bo'-lolmaydi.

Birovning boshiga ish tushsa, bir-biridan suyunchi oladigan ko'payadi.

Odamlar yaxshilikka bosh qo'shishmasa ham, yomonlikda bir jon-u bir tan.

Dushmanlik, ko'pincha, biz sira kutmagan tomondan keldi. Bizni, ko'pincha, shubhalanish xayolimizga ham kelmaydigan kishilar chuv tushirib yurishadi (*Xalq og'zaki ijodidan*).

Zimmangda farz bo'lgan narsani qarz va burch o'tnida ko'r. Bu hol qalbing-u dilingga rohat baxsh etib, sharafing va obro'yingni saqlash uchun eng to'g'ri yo'ldir.

O'z vaqtidan kechikib berilgan in'om-ehson mahkam tortilgan zanjir misoli qattiq bo'g'uvchidir (*Hadisdan*).

O'zi sazovor bo'limgan hamd-u sano-yu maqtovlarni talab qilish uyatsiz, telba odamlarning odatlaridandir (*Hadisdan*).

Tavba qilgan kishi umrinining nihoyasi (xotimasi) umrinining boshidir (ya'ni onadan tug'ilgan kabi gunohsizdir), uning ishlari Allah taolo nazdida aybli bo'lmaydi (*Hadisdan*).

Kimning xulqi xush, fe'l-aftori to'g'ri bo'lsa, u tilaklariga yetadi, istiqboli porloq bo'ladi (*Yusuf Xos Hojib*).

Inson faqat niyatnigina yo'qotishdan qayg'urish kerak, chunki har qanday xayrli ish niyatsiz durust bo'lmaydi (*Hakim at-Termiziy*).

Badantarbiya bilan mashg'ul bo'linsa, hech qanday dori-darmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan bir tartibga rioxal qilmoq ham shart (*Ibn Sino*).

Do'stlarning do'stligi mashaqqat va mehnat chog'ida bilinur (*Xoja Ahror Valiy*).

Tarbiya uch qismdan iborat: badan tarbiyasi, aql tarbiyasi, axloq tarbiyasi (*Fitrat*).

Ilmning avvali sukut, so'ng eshitish, so'ng yod olish, so'ng amal qilish, so'ng uni tarqatishdir (*Imom G'azzoliy*).

Qiyinchilik aqlning charxi-yu g'ayratning qayrog'i bo'lar ekan (*Abdulla Qahhor*).

Ishga yarat qolsa ilming bir muddat,

Yana oshirmoqqa aylagil shiddat (*Mirzo Ulug'bek*).

Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'limgay (*Imom al-Buxoriy*).

O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar.

Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lar (*Yusuf Xos Hojib*).

Qobliyatli odamni tarbiya qilmaslik — zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya xayfdir. Tarbiyangni ayab, uni nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoye ketkazma (*Az-Zamahshariy*).

Har qanday mushkul ish aql egalari tufayli isloh qilinur (*Alisher Navoiy*).

Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga, mashqqa (*Arastu*).

Maktab — dunyo imoratlarining eng muqaddas va qadrlisidir. Maktabning chin va haqiqiy ma'nosini bilgan millatlar jonlari, mollari bilan himmat va g'ayratlarini sarf etib, millatning taraqqiy rivojiga ijтиҳод qilurlar (*Behbudiy*).

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan muqaddas vazifadir (*A. Avloniy*).

Hayot yo'lida birinchi masala maktab masalasıdır (*Abdurauf Fitrat*).

Tc'g'ri bolalarga, hali ular bola ekan, ota-onalar vasiylik qilishlari kerak, biroq ayni paytda ular bir umr bola bo'lib qolmaydigan tarzda tarbiyalanishlari lozim (*X. Viland*).

Izzat-hurmat ota va onani, shunungdek, bolalarni ham qo'sriqlab turuvchi posoondir: u ota-onani kulfat va g'amdan, bolalarni esa vijdon azobidan qutqaradi (*O. Balzak*).

Tarbiya — buyuk ish: tarbiya bilan inson qismati hal etiladi (*V. Belinsky*).

O'qish — tarbiya deb ataluvchi gulning faqat birligina gulbaragi, xo'los (*V. Suxomlinskiy*).

O'qitish ikki barobar o'qish demakdir (*J. Juber*).

Inson tarbiyasining bosh yo'li ishonchdir (*K. Ushinskiy*).

Inson uchun nondon so'ng eng muhimi maktab (*J. Danton*).

O'z shogirdlarda mehnatdan zavqlanish hissini uyg'ota bilgan muallim sharafga loyiq (*E. Xabbard*).

Kitoblar keksalikda eng yaxshi do'st, ayni paytda, yoshlikning eng aziz rahnamosidir (*S. Smayls*)

Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do'stlardir (*V. Gyugo*).

Ocamning qanday odamligini hamisha u o'qiydigan kitoblardan bilish munlin (*S. Smayls*).

Hayotda hech narsa mashaqqatli mehnatsiz qo'lga kiritilmaydi (*Goratsiy*).

Mehnat chinakam oliyjanoblikning yagona unvoni hisoblanadi (*R. Rollan*).

Tinmasdan gapirib, birovga quloq solmaslik mag'rurlik belgisidir (*Demokrit*).

Ulug' ishlar uchun tolmas sabot kerak. Past odamlarning g'ururi shundan iboratki, ular doimo o'zlari haqida gapiradilar, chinakam insonlarning g'ururi esa o'zi haqida mutlaqo gapirmaslidir (*F. Volter*).

Faqat bir ezgulik bor — bilim va faqat bir yomonlik bor — jaholat (*Sugrot*).

Insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa -- tarbiyadir (*Demokrit*).

Fan olg'a siljigan sayin beto'xtov yangilanib boradi (*Viktor Gyugo*).

Oz bo'lsa ham bilmoq uchun ko'p o'qimoq zarurdir (*Monteskye*).

1.3. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati

„Milliy tarbiya“ tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, uning milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyati, umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli, xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirishdan iborat.

Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklaniishi, biror-bit jamiyat imkoniyatlarni, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan oq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilib kelingan g'oyat ulkan, beba ho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarning tiklanishini, milliy o'zlikni anglashni xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlari bilan uzviy bog'liq, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Jamiyatimizning, xalqimizning ming yillik ma'naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash o'z taqdirini o'zi belgilash, tarixiy xotiraga, madaniy-tarixiy birlikka ega bo'lish yo'lidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi. Ma'naviy qadriyatlarning yana bir qudratli manbayi an'anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan iboratdir. Kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g'amxo'rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan.

Axloqiy tarbiya — shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan

va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish, ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me'yordadir.

Axloq (lotincha „moralis“ — xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi. Axloqiy me'yordar to'g'risidagi bilimlar o'quvchilar ongiga ta'lim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o'quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida ko'rindi.

„Axloq“, „xulq“ va „atvor“ so'zлari arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida qo'llaniladi. Ayrim odamlar „Axloq — kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me'yorlari maj-muyi“ deyishsa, boshqalar esa „Axloq — ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, hamma sohalarda kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi“, deyishadi. Axloq me'yorlari xulq-atvorning reguliyatori sifatida odat me'yorlariga zid xatti-harakat axloqsizlik harakati deb qaraladi. Shunisi ham borki, huquq majburiy bo'lsa, axloq ixtiyoridi. Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo'lishga o'rgatadi. Axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillash-tirish uchun kurashiladi. Xalq ta'limi tizimida o'qitish tarbiyalanuvchilarning axloqiy mukammallashishi bilan bog'liq bo'ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi. Shaxsnинг jamoat va vatanga, mehnatga, kishilarga, o'z xulqiga munosabatlari quyidagilarda o'z aksini topgan:


- a) jamiyatga, vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash;
- b) mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
- c) atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat, yuqori muomala madaniyatiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish;
- d) shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonini Al-pomish, To'maris, Shiroq kabi xalq qahramonlari, Amir Temur, Ulug'bek, Bobur singari davlat arboblari va sarkardalarimiz, Ibn Sino, Beruniy kabi olim-u fuzalolarimiz qarashlariga tez-tez murojaat qilishimiz, yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ishining asosini tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda tarbiya borasidagi jahon standartlariga ham e'tiborni qaratmoq lozim. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlarga muvoffiq ravishda tarbiyalash — tarbiyalanuvchi shaxs axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishini talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy his-tuyg'ular o'quvchilarga atrofdagi kishilarning xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalarining turli yosh davrlarida shakllanish darajasi turlichadir. Jumladan, axloqiy onglilik, axloqiy qadriyatlar, axloqiy his-tuyg'ular. Axloqiy tarbiyani rivojlantirishning bir necha usullari mavjud (1- shaklga qarang).

Aqliy tarbiya. Aqliy tarbiyani shakllantirishda faqat tushuncha va faktlardan foydalanishning o'zi yetarli emas, buning uchun fikrlash, isbotlash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, asosiy ma'lumotni ajratib olish kabi jarayonlarni ham faol qo'llash lozim bo'ladi. Aqliy mehnatni to'g'ri tashkil qilish o'quvchilarga mustaqil bilim olishda eng muhim element bo'lib hisoblanadi. Aqliy tarbiya o'quvchilarda aqliy mehnatni to'g'ri tashkil etish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish malakasining hosil bo'lishiga ko'maklashadi. Aqliy tarbiya o'quvchilarda didaktikani jamlab olish xususiyati, xotirani mustahkamlash, fikrlash operatsiyalarini ratsional o'tkazish kabi malakalarni o'stiradi.

Aqliy tarbiyasi yetuk, o'tkir zehnli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik — bu donolik. Donolik — bu insonning eng buyuk va olivjanob fazilatidir. Donolik noyob ne'matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalq donoligida „Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo'lmas“, deyiladi.

Axloqiy tarbiya usullari



1- shakl. Axloqiy tarbiyani rivojlantirishning usullari.

Ekologik tarbiya. Ekologiya so'zi „tom“ yoki „uy“ degan ma'nori anglatib, nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan birinchi bor fanga kiritilgan. Ekologiya fani hozirgi bozor munosabatlari davrida ko'pgina tarmoqlarga ega: o'simliklar ekologiyasi, zooekologiya, tuproq ekologiyasi, inson ekologiyasi va boshqalar. Ekologiya fani tanlab olingan bir yoki bir necha obyektning yashash sharoiti me'yorlarini o'rganadi va yashashning

umumiylar darajasini aniqlashga yordam beradi. Bu yo'nalishdagi ishlar bizga ekologik bilimlarni yetkazadi, ammo bu bilan insoniyat cheklanib qolmaydi. Davr talabiga ko'ra, yana boshqa yo'nalishda ham ish olib borish talab etilmoqda. U ham bo'lsa ekologik tarbiya masalasidir.

Ekologik tarbiya, albatta, ekologik bilim asosida shakllanadi, lekin u o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ekologik tarbiya insonda tabiatga nisbatan to'g'ri, oqilonan munosabatni shakllantirish masalasi ustida ish olib boradi va o'z oldiga o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishdek maqsadni qo'yadi. Ekologik tarbiyaning mazmuniga ekologik onglilik, ekologik his-tuyg'ular (tabiatga, insonlarga, hayotga nisbatan munosabatlar) kiradi.

Demak, ekologik tarbiya inson hayotida, jamiyatda, vatanda muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik tarbiyaning shakllanishiga ekologik bilimlarni egallash bilan bir qatorda ekologik munosabatlarni ham shakllantirib borish zarur. Ekologik munosabatlarga quyidagi kabi komponentlarni kiritish mumkin:

1. Hayotga munosabat.
2. Yaxlitlik hissini tarbiyalash.
3. Javobgarlik hissini tarbiyalash.
4. Tabiat go'zalliklarini his etish.

Huquqiy tarbiya. Huquqiy tarbiya — bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy munosabatlarni, qonunga itoatkor xulqatvor ko'nikmalari va odatlarni shakllantiruvchi uyushgan, aniq maqsadni ko'zlagan ifodasidir. Huquqiy tarbiyani bolaning kichik yoshidan boshlab amalga oshira boshlash, huquqiy axborotlarning birinchi darajali tus olishiga erishish, shaxsning umumiylar duniyoqarashi va ijtimoiy yo'naltirilganligining tarkibiy qismi tarzida huquqiy qarashlariga asoslanishi zarur.

O'sib kelayotgan yosh avlod huquqiy tarbiyasining xususiyatlari yangi jamiyatning o'z xarakteri, turmush tarziga asoslanadi. Ularning tamoyili jihatdan yangi, yanada murakkab muammolarni hal etish zarurligini ifoda etadi. Avvalo, huquqiy tarbiya yosh avlodni kamol toptirishning samarali vositasi sanaladi.

Yuqorida qayd qilingan mulohazalar huquqiy tarbiyaning yaxlit tizimi quyidagilardan iboratligini ifodalaydi:

Birinchidan, huquqiy tarbiya subyektlariga: davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari, mansabdor shaxsiar va boshqalar kiradi.

Ikkinchidan, huquqiy tarbiya obyektlariga: mansabdor shaxslar, fuqarolar, ichki ishlar idoralari xodimlari kiradi.

Uchinchidan, huquqiy tarbiya mazmuniga: huquqiy ta'lim, huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlari kiradi

To'rtinchidan, huquqiy tarbiya shakllariga: ma'ruzalar, seminarlar, suhbatlar, viktorinalar kiradi.

Beshinchidan, huquqiy tarbiya metodlariga: ishontirish, rag'batlantirish, majburlash kabilalar kiradi.

Oltinchidan, huquqiy tarbiya vositalariga: matbuot, radio, televideniya, adabiyot va san'at asarlari, ko'rgazimali tashviqot hamda targ'ibot vositalari kiradi.

Mustaqillik sharoitida huquqiy madaniyat bilan huquqiy tarbiyaning bog'liqligi yanada ortadi.

Mehnat tarbiyasi. Mehnat tarbiyasi oldida turgan asosiy vazifa o'quvchilarga mehnat ta'limiga oid ilmiy bilimlar berish, mehnat qurollari bilan muomala qilishga o'rgatib, hayctga, ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashdir. Bu vazifalarni ikki turkumga ajratish mumkin. Birinchidan, mehnatga bo'lgan munosabat jarayonidagi zarur bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Yoshlarda xalqi, vatani manfaati yo'lida mehnat qilish xohishini tarbiyalab, mehnatga hayotiy zarur faoliyat deb qarashlarini tarkib toptirishga erishiladi. Ikkinchidan, guruh vazifaiali, mehnat faoliyatini bajarish jarayonida zarur bo'ladigan bilimlar o'zlashtiriladi, fan asoslari, politexnik ta'lim o'rganiladi.

Mehnat tarbiyasi tushunchasi umumiy bo'lib, bu tushuncha bir qancha xususiy tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Birinchisi, politexnik ta'lim — bu ishlab chiqarishning barsha sohalariga taalluqli bo'lgan ilmiy asoslarni va prinsiplarni, mehnat ko'nikma va malakalari, oddiy mehnat qurollari bilan muomala qilish kabilarni o'zlashtirishni taqozo qiladi.

Ikkinchisi, bu — umumiy mehnat. Umumiy mehnat o'quvchilarri mahsulot ishlab chiqariladigan faoliyatga jalg etishni taqozo qiladi.

Uchinchisi, ijtimoiy-foydali mehnat. Bu mehnat turi ko‘p-chilik foydasiga ishlashni nazarda tutadi (temir-tersak, mukulatura yig‘ish, sinf, maktabni ta‘mirlashga yordam berish, maktab uchastkasida ishlash).

To‘rtinchisi, o‘z-o‘ziga xizmat qilish. U maishiy xizmat turiga kirib, sinf, maktab ozodaligini saqlash, ish joyini, kiyim-kechagi, o‘quv qurollarini ozoda, tartibli saqlashni nazarda tutadi.

Beshinchisi, uy mehnati, bu ham maishiy mehnat turiga kirib, uyda ozodalikka riosa qilishni, ota-onaga uy ishlarida yordam berishni taqozo qiladi.

Jismoniy tarbiya. Jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlama rivojlantirish tizimidagi o‘z vazifasini bajarish bilan birga, u quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan: salomatlikni mustahkamlash, inson organizmini chiniqtirish va o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishiga yordam berish; harakat ko‘nikmalarini va malakalarini shakllantirish harnda takomillashtirish; o‘g‘il bolalarni armiya safariga tayyorlash; badantarbiya va sportning mohiyati harnda ijtimoiy roli haqidagi ma’lumotlardan xabardor qilish. Jismoniy tarbiyaga, ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan buyon davlat darajasida ahamiyat berilmoqda. Jismoniy tarbiya va sport ishlariga hukumatimiz tomonidan katta g‘amxo‘rlik qilinmoqda.

Estetik tarbiya. Hayotda tabiat go‘zallikning manbasidir. U estetik tuyg‘ularni, bolalarning kuzatuvchanligini va tasavvurini rivojlantirish uchun juda boy material beradi. Bundan tashqari, san‘at ham estetik tarbiya vositasi hisoblanadi. San‘at orqali estetik tarbiyalash pedagogikada badiiy tarbiya deb ataladi. U quyidagi metodlardan foydalangan holda olib boriladi:

1. Badiiy asarlarni namoyish qilish va ijro etish.

2. Badiiy asarlarni tahlil qilish va baholash.

3. San‘atshunoslik bilimlaridan xabardor qilish, san‘atning har xil turlarini — ifoda vositalari, tarixi va nazariyasini xarakterlovchi muayyan ma’lumotlar jamg‘armasiga ega bo‘lish zarur.

4. Badiiy faoliyatining xilma-xil shakllarida mashqlar o‘tkazib, ijodiy qobiliyatlarni, mustaqil tasvirlash ko‘nikmalari va malakalarini rivojlantiradi.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya lotincha „estezio“ —go‘zallikni his qilaman) — o‘quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish va to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘s-tirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, ular tomonidan go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Nafosat tarbiyasi „badiiy tarbiya“ sifatida ham qo‘llaniladi. Umuman, nafosat tarbiyasi keng ma’noga ega bo‘lib, faqat san‘at vositasidagina emas, balki hayot, mehnat, ijtimoiy munosabatlar, tabiat va boshqalar vositasida go‘zallikni his qiliшга yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni o‘z ichiga oladi. Badiiy tarbiya esa, san‘at (adabiyot, musiqa, qo‘shiq, tasviriy va san‘-atning boshqa yo‘nalishlari) vositasida shaxsda estetik his-tuyg‘ularni shakllantirishni nazarda tutadi. Nafosat tarbiyasi insonda go‘zallikni his qilish tuyg‘usining shakllanishiga yordam beradi, uni rivojlantiradi. Inson doimo o‘z hayotini go‘zallik asosida qu-rishga intiladi. Nafosat tarbiyasi axloqiy, aqliy, huquqiy, eko-logik, jismoniy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqidir. Tabiat, adabiyot, teatr, musiqa, she’riyat, tasviriy san‘at va boshqalarga bo‘lgan muhabbat shaxsning har tomonlama rivoj-lanishiga xizmat qiladi. Nafosat tarbiyasi axloqiy tarbiyani sama-rali tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Nafosatdan rohatlanishda faqat san‘at asarlarigina emas, balki ezgu ishlar, jamoaga hur-mat, sadoqat, vijdonan mehnat qilish muhim o‘rin tutadi. Na-fosat tarbiyasining mohiyati shundan iboratki, u go‘zallikka bo‘lgan munosabatni qaror toptiradi. Go‘zallikka bo‘lgan tuyg‘uni rivojlantirmay turib, yuqori mehnat madaniyatiga erishib bo‘lmaydi.

Mehnat faoliyatida paydo bo‘lgan go‘zallik butun tarixiy ta-raqqiyot bosqichlarida rivojlanib bordi, u mehnat faoliyatining o‘ziga ham ta’sir ko‘rsata boshladi. Mehnat jarayonida tayyor-langan har bir buyum (tovar)ning ahamiyati insonning tabiiy ehtiyojlarini qondirishi jihatidangina emas, balki uning qanchalik go‘zalligi bilan ham baholanadi. Go‘zallik bu hayotning o‘zi, tabiat hamda inson mehnati natijalari, insoniy munosabatlar-ning mukammalligidir.

O'smirlarda go'zallik ijodkorligiga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi. Bunday holat ilk yoshlik davrida ham saqlanib qoladi. Biroq bu davrda badiiy qobiliyat aksariyat o'quvchilarda o'zgacha bo'ladi. Ular, ko'pincha, musiqa va raqsga qiziqa boshlaydilar. Demak, o'quvchilarning nafosat bilan oshnoligi turli yosh davrlarida o'g'il va qiz bolalarda o'ziga xos xususiyat kasb etadi.

Nafosat tarbiyasi — shaxsning estetik ongi, munosabatlari hamda nafosat faoliyatining vujudga kelishi va takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajalarga ega. Nafosat tarbiyasi shaxsning nafosat madaniyatini egallashiga yo'naltirilgan bo'lib, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi. Jamiyatda shaxsning nafosat madaniyati tushunchalari mavjud. Jamiyatning nafosat madaniyati deganda insoniyatning butun rivojlanish tarixi jarayonida to'plagan moddiy va ma'naviy qadriyatlari mazmuni tushuniladi. O'quvchi shaxsining nafosat madaniyati uning jamiyat madaniy merosini faol, ijodiy o'zlashtirishi natijasida hosil bo'ladi. Shaxs nafosat madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari — bular nafosat ongi, nafosatni his etishga bo'lgan ehtiyoj, uni qondirish yo'lida tashkil etilgan munosabatlardir.

Nafosat ongi — go'zallik, go'zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg'usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi. Nafosat madaniyati go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichidir.

Nafosat ongi go'zallikni qadrlash va uni boyitish, amaliy harakatni keng ko'lamba tashkil etish asosida takomillashib boradi. Nafosatning asosiy xususiyatlari, ya'ni tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda nafosat idrokining psixologik qonuniyatlarini hisobga olish lozim. Bu xususiyatlar ilk yoshdagи bolalarga xos hamda rivojlanish, nafosat tajribasi, tasavvurlarning shakllanganlik darajasiga bog'liq.

Demak, tarbiyachi, o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifalaridan biri o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga

olgan holda, eng murakkab hodisalar hamda go'zallik shakllari, nafosat muammolarini anglab yetishi lozim.

Bu tuyg'u go'zallik qonuniyatları g'oyasi bilan yashashga undaydi. Olam va inson go'zalligi, mardlik, jasorat, yuksak insoniy g'oyalarni o'zida aks ettirgan san'at asarlari insonlarni go'zallikni his qilish, ularga intilib yashashga undab kelgan. O'quvchilarning go'zallik bilan bevosita muloqotda bo'lislari ularga ko'proq hissiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham o'qituvchi, tarbiyachilar tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida o'quvchilarni badiiy jihatdan yuksak bo'lgan asarlar va tabiat manzaralari bilan tanishtirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Nafosat tarbiyasining vazifalari quyidagilardan iboratdir: o'quvchilarda nafosat his-tuyg'usi, fikr-mulohaza, didni tarbiyalashi, ularning ijodiy qobiliyatları, go'zallikni sevishga bo'lgan hayotiy ehtiyojini o'stirishdan iborat. Xullas, məktəb o'quvchilari o'rtaida nafosat tarbiyasini tashkil etishda samarali shakl, metod va vositalardan oqilonqa foydalanish ijobiy natijalar beradi.

1.4. Ma'naviy qadriyatlar — ta'lim-tarbiyaning omili

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar o'zining ko'lami va ahamiyati jihatidan tarixiy voqeadir. Bu jarayonlar jamiyatimiz ma'naviy va ijtimoiy hayotida tub burilishlarni boshlab berdi va ular o'zbek xalqining bundan keyingi taqdirini belgilab berishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimiz istiqlolining eng dastlabki kunlaridanoq, buyuk ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizni, xalqimizning yaratgan boy madaniy merosini avaylab-asrash va keyingi avlodga yetkazish oldimizda turgan muhim masalalardan biridir. Ma'lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodni qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq.

Yurtboshimiz I. Karimov „Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch“ asarida ma'naviyatning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, bugungi globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini

asrash va yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidlaydilar. Inson hayotida moddiy ehtiyojlar qanchalik muhim ahamiyat kasb etsa, ma'naviy ehtiyojlarga talab undan ham kuchliroq ekanligini ta'kidlamoq zarur. „Ma'naviyat“ tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab ta'riflarini keltirish mumkin. Yurtboshimiz Islom Karimov o'z ma'ruzalarida „Men bu boradagi fikrlarni inkor etmagan holda, „Ma'naviyat“ tushunchasining mazmuni faqat „ma'ni“, „ma'no“ degan so'zlar doirasida chegaralanib qolmaydi, deb o'yayman. Ma'naviyat odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iy-mon-e'tiqodini butun qilishida yorqin namoyon bo'ladi. Ma'naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib singib boradi. Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rinn tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.“.

Qadriyatlar — inson uchun ahamiyatli bo'lgan millat manfaatlari yo'lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiyadolat, tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilik, halollik, burchga sondiqlik singari fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Qadriyatlar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi, ya'ni:

- *tabiiy qadriyatlar* (yashash uchun zarur bulgan tabiiy shart-sharoitlar);
- *iqtisodiy qadriyatlar* (ishlab chiqarish kuchlari va vositalari);
- *ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar* (erkinlik, tenglik,adolat, tinchlik, hamkorlik);
- *ilmiy qadriyatlar* (bilimlar, tajribalar, yutuqlar);
- *falsafiy qadriyatlar* (g'oyalar, mafkuralar, konsepsiylar);

- *badiiy qadriyatlar* (san'at, adabiyot, madaniyat);
- *diniy qadriyatlar* (iymon, e'tiqod, vijdon, savob).

Shu bilan birga, fanda qadriyatlarning milliy va umuminsoniy turlarga ajratilishi an'ana tusiga kirgan. Milliy qadriyatlar ma'lum bir millat, xalq va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (ma'naviy) boyliklari yig'indisidan iboratdir.

Qadriyatlar turli-tuman bo'lib, bular ichida „eng oliv qadriyat — inson“ hisoblanib, qolgan barcha qadriyatlar unga xizmat qiladi. Inson qadriyatining ma'naviy, tarixiy hamda ta'limiylar jihatlari o'ziga xos yangicha fikrlash va yondoshishlarga asoslanadi. Jamiatda milliy qadriyatlarni o'z qalbida mustahkam saqlash, atrof-muhit, tabiat va hayotni go'zal, farovon qilish, demokratiya asoslari hamda jamiatda amal qilayotgan progressiv g'oyalar buyuk qadriyat hisoblanadi. Inson qadriyati uning dastavval o'z-o'ziga va shu jamiatga bo'lgan hurmati hamda munosabati, xulq-atvori bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bu insonga o'z xulq-atvorini tartibga solishi, o'ziga nisbatan talabchanlik va nazoratni kuchaytirishga imkon beradi. Insonning shaxsiy qadr-qimmati milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlardan bo'lib, uni yuksaklikka olib boruvchi oliyanob bir kuchcir. Shu jihatdan qadriyatlar insonning ijtimoiy erkinligini va ma'naviy pokligini ta'minlovchi bir buyuk manbadir. Bir so'z bilan aytganda, mutafakkir olimlar yuksak ma'naviy qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar doirasida talqin etdilar va targ'ib qildilar. Jamiatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma'naviy omillarni yuksak baholadilar. Shu ma'noda o'sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish zaruriyati yuzaga keldi. Axloq kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topgan, takomillashib kelgan me'yor va qoidalardan iborat bo'lib, ular kishilarning jamiatga bo'lgan munosabatlarini tartibga soladi. Bu me'yor va tartib-qoidalar kishilardan jamiyat uchun zarur bo'lgan axloqqa ega bo'lishlikni talab qiladi. Axloq insonning dunyoqarashi, xulqini belgilovchi insoniy fazilatdir. Shu bois dunyoqarash o'zgarmagancha inson ham o'zgarmaydi.

O‘zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta’rif beradi: „Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladigan kitob axloq deyilur“.

Axloq — inson hayotida o‘z-o‘zini idora qilish me’yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo‘lish madaniyatini, halol ishlab, to‘g‘ri hayot kechirish mezonlarini o‘rgatadi. Axloq — tarixiy hodisa. Axloqiy qonun-qoidalar barcha zamonlar uchun bir xil, o‘zgarmas bo‘lishi mumkin emas. Muayyan jamiyat uchun ayrim axloqiy qoidalar to‘g‘ri bo‘lsa, boshqa davrga kelib noto‘g‘ri bo‘lib qolishi mumkin. O‘zbekona, milliy axloqda otabobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o‘tgan saboqlari va bizga doimo madad bo‘lib turgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma’naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Shuning uchun ham yurtboshimiz „Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch“ degan hikmatli shiorni yanada balandroq ko‘tardilarki, yuksak ma’naviyat mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biri bo‘lib qoldi. Barkamol insonni axloqiy tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida mutafakkirlarimiz bir qator asarlar yaratishgan. Chunonchi, Kaykovusning „Qobusnom“¹, Sa’diyning „Guliston“, „Bo‘ston“, Amir Temurning „Temur tuzuklari“, Abdurahmon Jomiyning „Bahoriston“, Alisher Navoiyning „Mahbub ul-qulub“, Husayn Voiz Koshifiyning „Axloqi muhsiniy“ va boshqalarini ko‘rsatishimiz mumkin. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’limtarbiya sohasida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ta’lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o‘rinni egalladi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlarga e’tibor kuchaydi. Bugungi kun yoshlari mustaqilligimizni mustahkamlashda o‘z e’tiqodi, g‘ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadilar. Ular jamiyatda, jamoada xalqlar va millatlar o‘rtasida do’stlik, sog‘lom turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan muhitni vujudga keltirishga intiladilar.

Komil insonni shakllantirishda mактабда, oilada sog'lom ma'naviy muhit barqaror bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog'lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topad. Kishi o'z hayotida axloqiy karnolotga qanchalik ko'p intilsa, shunchalik o'z xato-kamchiliklarini anglab boradi. Turon zaminimiz xalqlari axloqiy tarbiya sohasida boy an'analarga ega. Axloq-odob insonning jamiyatga bo'lgan munosabatining negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham o'quvchida jamiyatga bo'lgan hurmatni yuksaltirish mustaqilligimizni mustahkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo'lishga, o'zini-o'zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo'lgan e'tiqodni rivojlantirishga olib keladi. Maktab o'quvchilarini dars va darsdan tashqari jarayonlarda do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, birovring dardiga darmon bo'lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimiz kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntirishlari darkor. Ma'naviy-axloqiy tarbiya — ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi: jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar, o'z navbatida, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy axloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tuzimini takomillashtirishda boshlang'ich mактаб muhim o'rин egallaydi. Insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg'otish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir. Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarishdir. lymon va insof, so'z va ish birligi, insonparvarlik yangi qurilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo'lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas'uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim.

Yoshlarni tarbiyalashda sharqona va milliy axloq-odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. O'quvchining jamiyatga bo'lgan munosabatida milliy birlik, birdamlik va hamkorlik tuyg'ulari, turli xalqlarga bo'lgan hurmat kabilalar yaqqol namoyon bo'lishi zarus. O'zbekiston mustaqilligi, yurtimiz ravnaqi yoshlarni o'qish, izlanish va mehnatdan qochmaydigan, har qanday qiyinchiliklardan hayiqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat bilan qarash ruhida tarbiyalashni talab qiladi. Shunga ko'ra bugungi jamiyatimizda yashayotgan har bir yosh kelgusida shu o'lkaning haqiqiy egasi bo'lib yetishishi, uning gullab-yashnashi haqida qayg'urishi, erishgan yutuqlarini mustahkamlashi lozim. Diyorimizda mustakqillik tantanasi tufayli ta'lim-tarbiya tizimida tub o'zgarishlar vujudga keldi. Milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma'naviyatni yuksaltirish, ayniqsa, sharqona odob-axloq an'analariga e'tiborni kuchaytirish shular jumlasidandir. O'lcamizda buyuk rejalar, bonyodkorlik ishlari aql-idrok, sabr-qanoat bilan, tarixiy an'analarimiz, tajribalarimizni hisobga olgan holda qadam-baqadam amalga oshirilmoqda.

An'ana --- bu o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rnini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruhi tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalardir.

Odat („urf-odat“) — kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari. Masalan:

- kichiklarning kattalarga salom berishi;
- erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish;
- mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish;
- bayram arafasida kasal, ojiz, qiyngalganlardan habar olish;
- yordam lozim bo'lganlarnikiga hasharga borish kabilalar o'zbek xalqining yaxshi odatlari hisoblangan.

Agar an'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning hamma sohalariga xos bo'lib, hodisalarning juda keng doirasini qamrasa, odat ijtimoiy hayotning ma'lum sohalarida, ya'ni:

- kishilar turmushi;
- mehnati;
- xulq-atvori;
- muloqoti;
- oilaviy munosabatlarda ko'proq mavjud bo'ladi.

Marosim — an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik, tantanavor vaziyatda o'tadigan o'zining umumiy qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo'lgan hayotiy tadbir. Masalan:

- ism qo'yish marosimi;
- nikohdan o'tish marosimi;
- xotirlash marosimi;
- urug' qadash marosimi;
- o'rimga kirish marosimi va boshqalar.

Odat kundalik hayotning turli vaqtida uchrashi mumkin bo'lsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi.

1.5. Shaxs ma'naviy yuksalishida qadriyatlarning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida rivojlanish va taraqqiyot yo'liga tushgan bugungi kunning istiqboli — ke-lajagini belgilash va ta'minlash ko'p jihatdan hozirgi yosh avlodni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashga bog'liq. Bu haqda donishmand Suqrot naql qiladi: „Tarbiya qiyin ish va tarbiya shart-sharoitlarini yaxshilash har qanday kishining ham muqaddas burchilaridan biridir, chunki o'zini va tevarak-attrofdagilarni ma'lumotli qilishdan ko'ra muhimroq ish yo'q“. Donolar topib aytadi. Zero, har qanday jamiyat taraqqiyoti, inson kelajagining istiqboli ayni ta'lim-tarbiya masalasiga borib taqalishi haqiqat. Shu nuqtayi nazardan, bugun yurtimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati kundek ravshan“.

Bunday muhim ishni, diyorimizdagi barcha xalqlar ma'naviy yuksalishining muhim omili bo'lgan bolalarni boshlan-

g‘ich maktabdanoq (haftaning dushanba kuni Davlat bayrog‘ini baland ko‘tarib, Davlat madhiyasini aytib dars o‘tishdan boshlaboq) ozodlik va mustaqillikni anglash hamda ularni qadrlash ruhida tarbiyalash, tarixiy-milliy xususiyatlarimizga mos kela-digan ta’lim tizimini yaratish orqali amalga oshirilmoqda. Bunda, ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, xalqimizning an’analarini, madaniyati va ilm-fan bobidagi ko‘p asrlik tajriba-larini o‘rgatish ijobjiy pedagogik samaralarni beradi. Shuning bilan birga jamiyatimizda yashovchi har bir ongli kishi, mustaqil va erkin fikrga ega bo‘lgan shaxs va fuqarolik jamiyatni ma’naviyatini shakllantirish va shu asosda rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Shu sababli ham o‘qituvchining serqirrali va murakkab kasbiy faoliyati zamirida yosh avlodni odobli, e’tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish yordamida dunyoqarashini kengaytirish kabi muhim vazifalar yotadi.

Ma’lumki, jamiyat ma’naviy hayotini rivojlantirish o‘sha jamiyatda faoliyat ko‘rsatuvchi kishilarning intellektual salohiyati: ma’naviyati va ma’rifati, madaniyati va san’ati, ilm-fani va ta’lim-tarbiyasi to‘g‘risidagi bilim (tushunchalarning nechog‘liq ilmiy asoslanganligi, to‘g‘ri nazariy va amaliy negizlar asosida shakllanganligiga bog‘liq. Shu sababli ham bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ilmiy dunyoqarashini jahon ta’limi talablariga mos qilib shakllantirish o‘ta muhim muammodir. Bu muammo yechimini topishda biz, avvalo, shaxs, ya’ni bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldiga qo‘yilgan quyidagi vazifalarga e’tiborni qaratdik:

- har bir bolada mavjud bo‘lgan layoqat, ishtiyoy va qobiliyatlarini erkin va samarali rivojlantirishga erisha olishlik;
- ijobjiy (axloqiy, mas’uliyat, qat’iyat, iroda, jasorat, mehrmuruvvat va shu kabilar) sifatlarni, milliy va fuqarolik his-tuy-g‘usini hamda milliy g‘ururni o‘stirishga erishish;
- ilmiy dunyoqarash va e’tiqod; ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruratlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash; ijtimoiy-siyosiy faollikni tarbiyalashga tayyor holda bo‘lishga erishish va shu kabilar.

Demak, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratishi, ya'ni ularni o'qishga, ta'lim olishga qiziqtirishi va ishtiyoq uyg'otishi bilan birga ularning idrok etish, fikrlash qobiliyatlarini, dunyo-qarashini kengaytirish kabi sifatlarini o'stirishga o'z kasbiy faoliyatini to'liq safarbar etmog'i lozim. Bunda ular o'z o'quvchilarining ruhiy holati va imkoniyatlari, layoqati, yetukligi (yoshi nuqtayi nazaridan), ma'naviy ehtiyoji, yashash muhit (oiladagi turmush tarzi va ular yashaydigan jaroa — mahalla-dagi muhit umumsog'ligi) kabi omillarni e'tiborga ola bilish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim.

Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z kasbiy sohalarida quyidagi xislatlarga ega bo'lishi lozim bo'ladi: o'z o'quvchilarini sevish va ular bilan ishlashga qiziqish; pedagogik faoliyatni sevish va bu faoliyatni o'zining hayotiy ehtiyojiga aylantirish; ruhiy va pedagogik jihatdan ham ziyrak, kuzatuvchan, sinchkov bo'lish; pedagogik taktik va tasavvurga hamda tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lish; adolatlilik, dilkashlik, talabchanlik va qat'iyatlilikni uyg'un holda olib bora olishlik; maqsadga intilishda to'g'ri yo'lni tanlay olishlik; vazminlik, dilkashlik, o'zini idora qilishlik, shuningdek, kasbiy faoliyatga layoqatning yuksakligi va shu kabilar.

Shuning bilan birga bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisi yoshlardagi burchga mas'uliyat (javobgartlik hissi)ni tarbiyalash sir-asrorlarini mukammal egallamog'i lozim. Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz natijalarining ko'rsatishicha, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisinining ma'naviy qiyofasi shakllanishiда, asosan, quyidagilarga e'tibor berish kerak ekan:

— oila, mahalla va maktabni muqaddas deb bilish;

— bola xatti-harakatini tahvil qila bilish va rejalashtirilgan ta'lim-tarbiya, bola ongi va tasavvuriga mos qilib, halol va harom, to'g'rilik va egrilik, yaxshi va yomon, mardlik va no-mardlik, ma'naviyatlilik va vaxshiylik kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini singdira olish qobiliyatiga ega bo'lish;

— bolaning erkin, mustaqil va to'g'ri, keng ko'lamli fikrlashini shakllantirishning shakl, usul va vositalarining optimal variantlarini tanlay olish;

- o'tmish boy milliy-ma'naviy merosimizga hurmat uyg'ota bilish uslubiyatini yarata bilish;
- milliy g'ururni uyg'otish, davlat ramzlariga hurmat va unga mos g'ururni shakllantirish, fidoyilikni shakllantirishning sir-asrorlarini o'rgata bilish;
- o'z o'quvchilarini go'zal, ziyrak, aqlli, ongli, milliy g'u-rurli, sezgir, sinchkov, farosatli, madaniyatli, ma'naviyatli va shu kabi xislatlarni shakllantirishga innovatsion yondashuvlar qila olishga erishish;
- o'z o'quvchilarini vatanparvar, baynalminalchi, fuqarolik burchini chuqur his qiluvchi va shuningdek, milliy istiqlol g'o-yalariga sodiq ma'naviyatli kishilar darajasida tarbiyalashga yangicha munosabatlarni shakllantirish va shu kabilar.

Yuqorida bayon qilingan bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituv-chisining ma'naviy qiyofasi va kasbiy sohasi bo'yicha ifodalangan maqsad va vazifalarni amaliy faoliyatda keng joriy etishda, ularning zamonaviy kasbiy faoliyatlarini mustahkam egallashida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning roli va o'rni beqiyosdir. Chunki ular tufayligina barkamol avlod tarbiyasini zamon talabi asosida olib borish mumkin va ular kelajak avlodni ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashning asosiy negizlari hisoblanadi.

Umuminsoniy qadriyatlar. Odamzodning yashashi, umrguzaronligi, farzandlari hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy va axloqiy sohalariga taalluqli bo'lgan umumjamiyat miqyosidagi qadriyatlar butun insoniyat va jamiyatga tegishli bo'lganidan umuminsoniy qadriyatlar deb ataladi.

Tabiatni muhofaza qilish, ekologik tarbiya va madaniyatni rivojlantirish, insoniyatning sihat-salomatligini saqlab qolish, xavfli kasalliklarning o'zaro hamkorlikda oldini olish, oziq-oq-qatga, yoqilg'i va energiyaga bo'lgan tanqislikni tugatish, madaniy boyliklarni, kishilik jamiyatni taraqqiyotidagi rivojlanishning muntazam davomini ta'minlashga erishish, tinchlikni saqlashga erishish va shu kabilar umuminsoniy qadriyatlar bo'lib hisoblanadi.

Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilinishi, dunyodagi ko'plab xalqlar (elat-

lar, millatlar)ning o'tmishdagi, hozirdagi hamda istiqboldagi (*kecha > bugun > ertaga* tizimi bo'yicha) taraqqiyeti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi, o'zida jahon sivilizatsiyasining yaxlit va bir butunligini ifodalaganligi bilan mintaqaviy va milliy qadriyatlardan tubdan farq qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlarning va millatlarninggina emas, balki bashariyat (insoniyat)ning mulkidir.

Demak, umuminsoniy qadriyatlar eng oliv qadriyat bo'l mish odamning o'zidan boshlab, uning turmush tarzi, hayot mazmuni, oilasi, jamoasidagi o'rni bilan bog'liq bo'lgan butun inson yat va jamiyatga tegishli bo'lgan jihatlar ekan.

Umuminsoniy qadriyat jamiki insoniyatga xos bo'lgan, ularning insoniy fazatlari, xislatlarini ifodalaydigan an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, fikrlar, g'oyalar, qarashlar, ta'limotlar va shu asosda yuritiladigan faoliyat bo'lib, undan ta'limtarbiya sohasida samarali foydalanish ko'plab istiqbolli muammolarni hal qilishga imkoniyat yaratadi. Shuning bilan birga umuminsoniy qadriyatlardan samarali foydalanish bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisining dunyoqarashini kengaytirishga va hattoki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

„Sivilizatsiya — axborotni to'plash, tahlil qilish va undan foyda anish hamda atrof-muhit va o'zi haqida axborot yaratish uchun eng ko'p ma'lumot olishga qodir bo'lgan moddaningyuqori turg'un holatidir“.

Shu sababli ham hozirgi davrda har bir inson, har bir fuqaro o'zligini chuqr anglashi, boy milliy intellektual mulkni egallashi, boyishini umuminsoniy qadriyat bilan uyg'unlashuvi negizida amalga oshirishi ta'lim va tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi.

Intellekt (*lotincha intellectus*) — bilish, tushunish, idrok etish demakdir. U insonning aqliy qobiliyati bo'lib, inson miyasining dunyonи aks ettirish va shaxsning voqelikka bo'lgan munosabatlarini boshqarib turadigan faoliyati, hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rga-

nish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribasini qabul qilish qobiliyati; turli muammolarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqeа-hodisalarни oldindan bilish.

Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlashda innovatsion yondashuvlar qilishning yana bir ko‘rinishi har qanday fan bo‘yicha ta’lim berishda ma’naviy tarbiya vositalaridan foydalanish, ayniqsa, ma’naviy-qadriyatlardan foydalanish o‘zining ijobiy pedagogik samaralarini beradi.

Ma’lumki, intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so‘zlash va h. k. ruhiy jarayonlar kirdi.

Umuman olganda, qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli, obyekt-subyekt munosabati natijasida yuzaga chiqadigan hodisalar majmuasidan iborat bo‘lib, qadriyat tushunchasi kishilarning turli sohadagi turmush zarurati asosida, avvalo, ishlab chiqarish, turli mehnat yo‘nalishlari sohalaridagi faoliyat uchun foya keltiradigan narsa, hodisalar majmuasi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi. So‘ngra asta-sekin subyekt faolligining orta borishi bilan nisbatan mustaqil soha sisatida amal qila boshlaydi.

Demak, qadriyatlarning kishilarga, oilaga, jamoaga, jamiyatga, qolaversa, davlatga foydasini tegar ekan, faqatgina ulardan oqilona va odilona, maqsadga muvofiq ravishda foydalanish lozim, aks holda reaksiyon qadriyatlarning ham paydo bo‘lish ehtimoli bor. Biz o‘quvchilarimiz ongiga progressiv qadriyatlarimizni singdirmog‘imiz lozim, chunki bizning vazifamiz yoshlarimizni bunyodkor g‘oyalalar bilan, ya’ni milliy istiqlol g‘oyalari bilan qurollantirishimiz kerak. Ana shundagina jamiyatimiz va davlatimizning faol ishtirokchisiga aylanamiz, barkamol shaxsni tarbiyalashga erishamiz, aks holda yoshlarimiz vayronkor g‘oyalalar, ya’ni har xil ekstremistik oqimlar g‘oyalari ta’siriga tushib qolishi mumkin.

Umuman olganda, atrof-tevarakka bir nazar tashlaylik, qancha qiziq va ahamiyatli narsa-hodisalar bor. Odamlar yuribdi, quyosh charaqlab turibdi, radiordan kuy taralyapti, televizorda qiziq eshittirish va ko‘rsatuylar berilyapti, soat munta-

zam ravishda vaqt ni ko'rsatib turibdi, telefon jiringlayapti, nonushta uchun choy qaynayapti, nonushtagacha dasturxonda turli-tuman noz-ne'matlar tayyor turibdi va hokazo, sizning yuragiingiz urib turibdi.

Bularning hammasini bilish uchun inson sezish, idrok qiliш va shu kabi xislatlarga ega bo'lish kerak. Yuqorida qayd etilgan narsa va hodisalar inson ongi faoliyati mahsuli bo'lib, ular dastlab ilmiy qadriyatlar ko'rinishida vujudga kelgan, keyin asta-sekin ulardan iste'molda keng foydalanish natijasida ular moddiy, ma'naviy, ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, progressiv va ba'-zan reaksiyon qadriyatlarga aylangan (masalan, atom bombasi).

Demak, olim-u allomalarimizning bizga qoldirgan boy tarixiy merosi qadriyat hisoblanib, u insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan intellektual mulkdan iborat bo'ladi.

Bu tarixiy merosimizdan, avvalo, fan va ta'llim taraqqiyotida, kishilar turmush sharoitini yaxshilashda, oila kamoliga erishishda, jamoa manfaatlarini yuksaklikka ko'tarishda, jamiyat taraqqiyoti saviyasini tezlashtirishda va davlatning iqtisodiy hamda ma'naviy-ma'rifiy qudratini yuksaltirishda foydalanish maqsadga muvosiq bo'lib, bundan pirovard maqsadimiz xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyotini o'zida mujassam qilgan Ozod va obod Vatan qurishdan iborat.

Yuqorida qayd etilgan umuminsoniy va ilmiy qadriyatlarni ongli ravishda bilish uchun bo'lajak mutaxassisidan sinchkovlik, sezuvchanlik, idrok qilishlik va shu kabi xislatlarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Demak, umuminsoniy va ilmiy qadriyatlari bo'lajak mutaxassislar ma'naviyatining shakllanishida, ularning kasbiy rivojlanishida mustahkam asos bo'lib, uning yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishning samarali yo'llaridan biri kafolatlanadi. Bu esa „XXI asr — aql-zakovat asri — axborotlashtirishning jamiyat sari asri“dagi uzlusiz ta'llim tizimining faol ishtirokchisini tayyorlashga mustahkam asos bo'ladi.

Bu bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisining ilmiy dunyoqarashini kengaytirish jarayonini texnologiyalashtirishni talab etadi.

1.6. Intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish

Mamlakatimizning istiqboli ko‘p jihatdan barkamol intellektual salohiyatli avlodni shakllantirish va unga mos ta’limtarbiya olib borishga bog‘liq va bunga mustaqil respublikamizdagi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning tezkor sur’atlar bilan rivojlaniishi, fan-texnika va texnologiyalar sohalarida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarning ta’lim-tarbiya sohasiga keng joriy etilishi asos bo‘lmoxda. Bu asoslar o‘z Vatanini va xalqini sevadigan, milliy mafkuramizga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsnii shakllantirishdek muammo yechimini hal etishni ta’lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasi-gacha ko‘tardi.

Bu boradagi ishlarning ahamiyatliliginiz Prezidentimiz quydagicha ta’kidlagan edilar: „Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e’lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o’zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz“.¹

Bu haqda O‘zbekiston Respublikasining „Ta’lim to‘g‘risida“gi Qonuni, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ va ta’limni isloh qilish borasidagi boshqa me’yoriy hujjatlarida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va shu asosda intellektual salohiyatli ma’naviy barkamol avlodni shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muhim masalalardan ekanligi ta’kidlangan.

Ayniqsa, bu borada „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da „Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mu-kammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim sharti“ ekanligi asoslangan. Insoniyat paydo bo‘libdiki, unda yashovchi ongli insonlar tinch va farovon, baxtli-saodatli, sihat-

¹ Karimov I. A. „Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish — bosh yo‘limiz“. — T.: „Ma’rifat“, 2002- yil 16- fevral. 1 – 2- b.

salomat umr kechirishni orzu qiladilar. Demak, baxtli, ma'nan va jismonan sog'lom hayot kechirish inson umrinning mazmunini belgilaydi. Mustaqillik xalqimizning o'z turmush tarzini, ya'ni umr mazmunini belgilash imkoniyatini berdi va ular milliyligimizga xos turmush kechira boshladi. Bunday baxtni qo'lga kiritishimizda Yurtboshimizning milliy davlat siyosati asosiy omil bo'ldi. „Sog'lom hayot“, „Sog'lom turmush tarzi“, „Sog'lom avlod“, „Sog'lom millat“, „Sog'lom e'tiqod“, „Sog'lom xalq“, „Sog'lom ong“, „Sog'lom muhit“, „Barkamol avlod“, „Komil inson“ va shu kabi tushunchalar xalqimiz turmush faoliyatining asosiga aylana boshladi. Bular Vatanimiz ijtimoiyma'naviy qiyofasini yuksaltirishda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Erkin va mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodkor, inmilliy mafkuramizga sadoqatli bo'lgan intellektual salohiyatli barkamol shaxsni shakllantirish fan-texnika va texnologiyalarining eng so'nggi yutuqlaridan ta'lim-tarbiya sohasida keng foydalanishni taqozo etadi va bu bilan jahon andazalari talablariga to'liq javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyolashga erishiladi.

Bunda „XXI asr — intellektual asr“ning, ya'ni axborotlashgan jamiyatning faol ishtirokchilarini tarbiyalash eng muhim dolzarb muammolardan biri bo'lib, unda aqliy mehnatning rivojlanishini ta'minlovchi intellekt va bilimlar ro'yobga chiqariladi hamda iste'molda ulardan foydalaniladi. Ushbu muammo yechimi hal etishda jamiyatni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lish, axborotlarni ishlab chiqish va undan rejalashdirilgan mafkurdarca samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, shaxs tarbiyasi jarayoni ijtimoiy muammo bo'lib, uning yechimi esa har bir inson o'sha jamiyatning to'laqonli faol a'zosi bo'lishligi bilan belgilanadi. Ma'lumki, har doim ham inson ma'naviy karnoloti va intellektual salohiyatini, ya'ni inson dunyoqarashi darajasini to'g'ri belgilab olish imkonini beravermaydi. Quyidagi ketma-ketlik esa inson kamolotini jismoniy va ma'rifiy d'arajalar asosidagi bosqichlarini belgilaydi: chaqaloq; go'dak; c'quvchi; o'quvchi-shaxs; mutaxassis; yuqori malakali mutaxassis. Ammo bu ketma-ketlik orqali to'la ma'nodagi shaxs

kamolotini uning dunyoqarashi kengligi nuqtayi nazaridan baholab bo'lmaydi.

Avvalo, dunyoqarash nima?

„Dunyoqarash — falsafa fanining eng muhim kategoriyalardan biri bo'lib, falsafaning asosini tashkil qiladi, olam va odam haqida bir butun qarashlar, g'oyalar tizimini yaratadi. Eng muhimmi, insonning olamga munosabati, dunyodagi o'rni, mohiyati, hayotiy yo'nalishi, o'zligini anglash kabi savollarga javob beradi. Zeroki, falsafaning asosi ham sog'lom aql tafakkuri va uning rivojiga mos keladigan dunyoqarashni yaratishdir. Buning uchun inson, eng avvalo, mukammal bilimga ega bo'lishi lozim“.

„Dunyoqarash — dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari“.

„Dunyoqarash — shaxsning shaxsligini, ma'naviyatini, ijtimoiylashuvi doirasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir“.


„Dunyoqarash — tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmuyi bo'lib, u shaxsni ma'lum qolipdan o'z shaxsiy qiyofasiga ega, tabiatda munosib o'rin egallahga chorlaydi“.

„Dunyoqarash — odamning tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi qarashlari, tasavvurlari va tushunchalari sistemasidir“.

„Dunyoqarash — tabiat va jamiyatga, ularning hodisalariga bo'lgan ilmiy, mafkuraviy, ma'naviy, ilohiy qarashlar tizimi“.

Yuqorida keltirilgan, ya'mi dunyoqarashga berilgan qomusiy va falsafiy lug'atdagi ta'riflar hamda pedagogik va psixologik ta'riflardan ko'rinish turibdiki, dunyoqarash tushunchasi odamning onadan tug'ilishi bilan dunyoni ko'rishidan boshlanib, yuksak intellektual salohiyatni egallagunga qadar rivojlanib boradi. Ular „*aql → ong → fikr → ilm → bilim → qarash → g'oya → ta'lifor*“ tizimi orqali rivojlanib, takomillashib boradi. Demak, yuqorida qayd etilganidek, ongning mavjudligidan fikr va ularni

ifodalovchi ma'lumotlar shakllanib, ong tafakkurning shakllanishida mustahkam asos bo'lib hisoblanadi. Shu sababli ham kishi ongida, uning qalbidagi e'tiqodi asosida dunyoqarash shakllanadi, ya'ni dunyoqarash — odamning tevarak-atrofdagi olamga va undagi o'zining tutgan o'rniqa qarashlaridan kelib chiqqan tizim, kishilarning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlar yig'indisi (2- shakl).



2- shakl. Inson dunyoqarashi va uning tarkibiy qismlari.

Dunyoqarash kishilarning yoshi, hayot tajribasi, intellektual salohiyati, maskurasi va shu kabilalar bilan bog'liq ravishda rivojlanib, takomillashib boradi.


Dunyoqarash insonning o'zini va dunyonи zaruriy ravishda anglas ni hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu borada hozirgi yoshlarimiz ongini o'stirish va tafakkurini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular orqali ularni intellektual salohiyatli, siyosiy ongli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratiladi. Bu esa erkin va mustaqil fikr'aydigan, o'zligini anglay oladigan, ya'ni har xil zararli oqimlarga qo'shilib ketavermaydigan bo'lajak mutaxassislar, tayyorlashda mustahkam asos bo'la oladi. Shaxsning dunyoqarashi, ayniqsa, ilmiy dunyoqarashning kengligi ularning

asosiy tarkibiy qismlari: aql, ong, fikr, ilm, bilim, ilmiy bilim, ilmiy qarash, e'tiqod, ilmiy tafakkur va shu kabilarga bog'liq. „Dastlab individ dunyoni hissiy sezadi (dunyoni his qilish). Bunda individ voqelikni bevosita hissiy in'ikos etish natijasida anglaydi. Keyin voqelik haqida to'plangan bilimlar asosida individual dunyoqarash paydo bo'ladi. Bu dunyoni anglash deyiladi. Shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o'zini anglashi ham shakllanib boraveradi. Shu tariqa dunyo haqidagi barcha bilimlar yuksak darajada umumlashtiriladi va yaxlit dunyoqarash hosil bo'ladi“.


Demak, ayrim odamning aqli, ongi bilan bog'liq holda shakllangan dunyoqarash individual dunyoqarash bo'ladi va uning muayyan ijtimoiy jamoa (guruh, qatlarm, sinf, millat, elat, xalq va jamiyat miqyosi)dag'i ijtimoiy ongi asosida shakllangan dunyoqarashni ijtimoiy dunyoqarash deyiladi. Bu jarayonda individual dunyoqarashning kengayib borishi ijtimoiy dunyoqarashni yuksaltirishga asos bo'ladi va ular doimo bir-biri bilan muntazam aloqadorlikda bo'lib, bir-birini rivojlantiradi. Bu jarayon shaxs kamoloti bosqichi ketma-ketligida yaqqol seziladi. Bu borada olib borilgan olimlarning ilmiy izlanishlari shuni ko'r-satadiki, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishda ularga shaxs ijodiy kamoloti ijobiy pedagogik samara berar ekan. Bu ketma-ketlik odam shaxs darajasiga erishgandan keyingi intellektual salohiyatga ega bo'lgandan boshlab baholansa, o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishni to'g'ri yo'nga qo'yish imkoniyati tug'iladi va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida asosli ravishda foydalanishga erishiladi (3- shaklga qarang).

Shu sababli ham o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish va ularning ma'naviyatini yuksaltirishni samarali amalga oshirish uchun shaxs intellektual kamolotini quyidagi ketma-ketlikda ifodalashni lozim topdik (4- shaklga qarang).

Ma'lumki, tarbiya inson paydo bo'lishi bilan birga boshlanib, uning jismonan baquvvat, ma'nani yetuk bo'lib shakllanishi doimo ulug'lanib kelingan va jismonan baquvvat insonlarni polvon, ham jismonan, ham ma'naviy yetuk insonlarga pahlavon, deb nom berilgan.



3- shakl. Yaxlit dunyoqarash shakllanishining tashkiliy tuzilmasi.



4- shakl. Shaxs intellektual kamolotining ketma-ketlikda ifodalananishi.

Demak, dunyoqarash insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida rivojlanib borgan va ular taraqqiyot jarayoni davomida turli ko‘rinishlarni olgan. Albatta, ularning ko‘rinishlari mazmun-mohiyati jihatidan ham turli yo‘nalishlarda bo‘ladi. Shu sababli ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish, ularning mos ko‘rinishlarini tanlash ham o‘ziga xos ijodiy jarayondir. Inson o‘z hayoti davomida o‘zidan oldin o‘tgan kishilarning turmush tajribasiga (tarziga), to‘plangan bilim, ko‘nikma va malakalariga, ya’ni qadriyatlariga tayanadi. Shu sababli ham dunyoqarash, ayniqsa, ilmiy dunyoqarash kishilarning axloq me’yorlari, hayotni yaxshilash borasidagi ongli intilishlari, qiziqishlari mehnat faoliyatiga va turmush tarziga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ular hayotida katta amaliy ma’no (mazmun) kasb etadi. Shundagina biz ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda ma’naviy yetuk, erkin va mustaqil fikrlaydig‘an, „XXI asr -- intellektual asr“ning faol ishtirokchisi bo‘lgan mutaxassis tayyorlashga erishiladi.

Ma’lumki, kishining kamoloti yuksak intellektual salohiyatini boyitishga bog‘liq bo‘ladi va shu asosda buyuk maqsadlar sari intiladi, jamiyat hamda davlatga foydasi tegib yashaydi, natijada uning hayot mazmuni shakllanadi. Shaxs kamoloti ma’naviy yetuk, barkamol avlodni shakllantirish bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi va bunday jarayon u yashab turgan ijtimoiy muhit hamda unga mos tarbiya bilan belgilanadi. Bunda yoshlarimizning dunyoqarashini quyidagicha shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi, ya’ni o‘tmishimiz buyuk ekan, ma’naviyatimiz ildizlari nihoyatda chuqur bo‘lib, u 3000 yillik tarixga ega ekan, bugun o‘z intellektual salohiyatingizni yuksaltirishga keng imkoniyatlar yaratilgan ekan, endi biz ularga xos va mos avlod bo‘lishimiz uchun nima ishlar qilishmiz kerak?

Albatta, bu borada ota-bobolarimizning bizga qoldirgan buyuk merosini avaylab, asrab, boyitib, kelajak avlodga yetkazishni o‘ylashimiz kerak va bunda bugungi mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanmog‘imiz lozim. Ana shundagina o‘tmish ajdodlarimizga munosib va bugungi imkoniyatni qadrlay oladigan savodli farzand bo‘la olamiz. Bu esa o‘tmish ajdodlarimiz xoti-

rasiga chuqur hurinat bo'lib, u „ertaga“ jamiyatimiz taraqqiyotiga ta'sir etuvchi mustahkam poydevor bo'ladi. Unga ko'ra odam bolasi poklik va halollik mezonlariga asosan yashashi kerak.

„Poklik“ deganda yeyish, ichish, kiyinish va yurish-turishda insoniylikni saqlash, „Halollik“ deganda esa oqilona umr kechirish tushunilgan.

Demak, buyuk bobolarmizning o'lmas merosi bugungi yosh-larning ma'naviy tarbiyasida va ayniqsa, ularning milliy dunyo-qarashi kengayishida bitmas-tuganmas xazinadir. Ularni ibrat-namuna qilib ko'rsatish orqali yoshlар ongida quyidagi insonpar-varlik fazilatlari yanada yuksaladi:

- mardlik;
- botirlik;
- pahlavonlik;
- mehnatsevarlik;
- kattalarga hurnat va kichiklarga izzatda bo'lishlik;
- do'stlik va muhabbat tuyg'ulariga sadoqatli bo'lishlik.

Shu sababli ham bugungi yoshlарimiz dunyoqarashini shakllantirish va yuksaltirishda ular ongiga millat, ona tuproq, ona-Vatan, xalq va uning tarixiy ildizlari asosidagi boy milliy-ma'naviy merosimiz haqidagi ra'lumotlarni ta'lim-tarbiyaning barcha ja'bolarida singdirib borishimiz lozim.

Shuning bilan birga yoshlар ongida millat, milliy axloq, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy salohiyat, Vatan tuyg'usi, Vatan qayg'usi, Vatan sog'inchi va shu kabi tushunchalarni singdi ib borish ham ularning milliy dunyoqarashini kengaytirishga asosiy omillardan biri bo'lishligi, shubhasiz. Bunda inson kamoloti uchun milliy tarbiyamizga xos bo'lgan mehr-oqibat, hurmat-izzat, muruvvat, or-nomus, bag'rikenglik va shu kabilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Demak, milliy xususiyatlarimizga mos tarbiyani olgan va olayotgan yoshlарimiz muntazam ravishda kamol topib boraveradi hamda ularning dunyoqarashi ham unga mos ravishda yuk-salib boradi.

Umuman olganda, barkamol avlodni tarbiyalash o'zining ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy-uslubiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari

bilan murakkab va mas'uliyatli dinamik jarayondir. Biz bu jarayonni amalga oshirish ketma-ketligini quyidagicha ifodalashni lozim topdik:

- taraqqiyotning o'zbek modeli (O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining beshta tamoyili, ya'ni jamiyatni isloh qilishning beshta tamoyili);
- barkamol avlod orzusi va unga erishmoq yo'li;
- orzuga erishishda barkamol avlod vazifalari va burchlari;
- orzuga erishishda uzlusiz ta'llim tizimi o'rni va roli;
- orzuni ro'yobga chiqarishda zaruriy uzlusiz ta'llim tarkibi
- kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bosqichlari.

Barkamol avlod tarbiyasining bu qayd etilgan ketma-ketligiga O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining beshta tamoyili asos qilib olingan bo'lib, barkamol avlodning amaliy faoliyatgacha bo'lgan jarayonini o'z ichiga olgan va o'z xususiyatiga ko'ra barkamol avlod tarbiyasiga kompleks yondashuvdir.

1.7. Ta'llim tizimida o'quvchilarining intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida uning globalashuv jarayoni kechmoqda. Bu esa, ta'llim mazmuni fan va ishlab chiqarish talablariga mos kelishi zarurligini taqozo etadi. Ta'llim mazmunining fan va ishlab chiqarish talablariga mos kelishi mehnat bozori va jamiyat madaniy hayotining barqarorlashuvini ta'minlaydi, uning kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Bularning barchasi pirovard natijada jamiyatning asosiy muammlarini yechishga ko'maklashadi. Fan va ishlab chqarish sohalari ning samarali faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat beradi.

Yurtboshimiz I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda, „Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlat qurish yo'liga qadam qo'yib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o'tishni ta'minlar ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va

ilg‘or texnologiyalarni egallagan insonlarga o‘z oldimizga qo‘ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o‘zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz“.¹

Mustaqillikimiz sharofati bilan ta’lim tizimi tubdan yangi landi va bu o‘quvchilarning intellektual faoliyat ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirishni taqozo etmoqda. Chunki O‘zbekiston jamiyatida aqliy mehnatning mavqeyi keskin oshmoqda. Shuning uchun ham o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish va kasb-hunarga yo‘llash jarayonida ularga nazariy, texnik va umummadaniy bilimlarni c‘zaro mutanosiblikda taqdim etish zaruriyati vujudga kelmoqda. O‘quv munozarasi o‘quvchilar bilish faoliyatini dinamikasini tavsiflovchi jarayon sifatida muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ma’lumki, o‘quvchilarining fikrlari ko‘proq erkin va barqaror bo‘ladi. Ular o‘zlarining ishchanlik qobiliyatlarini ta’minlaydigan darajada axborotlarni qabul qilish imkoniyatlarga egadirlar. Shuningdek, moddiy borliq manzarasini ifodalovchi ilmiy haqidatlarini bilishga intiladilar. Atrofdagilar, sinfdoshlari, tengdoshlari bilan ko‘proq muloqotga kirishishga harakat qiladilar. Ularda ma’naviyat, bilishga oid ehtiyojlar tarkib topa boshlaydi. Bu esa, o‘quv munozarasiga kirishish uchun qulay imkoniyatlarni ta’minlaydi. Natijada o‘quvchilarining tafakkuri rivojlanadi. Ular o‘z faoliyatlarini va xulq-atvorlarini mustaqil boshqarishga harakat qiladilar. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilar o‘quv munozarasiga kirishishga tayyor bo‘ladilar. O‘qituvchi o‘quvchilardagi bunday holatni aniq hisobga olgan holda o‘quv munozarasi mavzularini tanlashi lozim.

O‘quv munozarasini tashkil etishda o‘quvchilarining ko‘tarinki tarzdagi bilish-qiziqishlari munozara jarayonining asosi sifatida xizmat qiladi. Bu davrda o‘quvchilar axloqiy jihatdan mukammallahish bosqichiga kiradilar. Ular o‘zlarini uchun muhim qarorlar qabul qilishga harakat qiladilar. O‘z faoliyat soha-

¹ Prezident I. A. Karimovning „Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash — mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti“ mavzusidagi Xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqidan. -- Toshkent, 2012- yil, 17- fevral.

larini erkin tanlashga intiladilar, bu esa, 8 — 10 yoshli o'quvchilarning muhim sifatlaridan biridir. Bu davrda o'quvchilar ruhiy jihatdan barqaror, intensiv tarzda rivojlanish pallasiga kira-dilar. Ular o'zлari kuzatgan hodisa va jarayonlarni, alohida maq-sadga yo'naltirilgan tahlillarni amalga oshiradilar va asosiy, yetakchi holatni ajrata oladilar. Bu yoshdagи o'quvchilar obrazli-ko'rgazmali tafakkurdan aniq, ilmiy fikrlashga o'tadilar. Shu bilan bir qatorda, ularning tasavvurlari ham bosqichma-bosqich kengayib boradi. Bu tasavvurlar sinfdan sinfga o'tgan sari oydin-lashadi va barqarorlashadi, o'quvchilar asta-sekin o'z harakat-larini bohqarish ko'nikmalarini egallay boshlaydilar. Ularga uzoq davom etadigan, qiziquvchanlik, ko'tarinkilik, quvonchlarga boy kayfiyat xosdir. Ba'zi o'quvchilarda esa, salbiy holatlar ham kuzatiladi. Bunday salbiy holatlar ular bilan o'tkaziladigan mu-loqot jarayonlariga va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'quvchilarda asta-sekin nekbinlikdan uzoqlashish kayfiyati vu-judga keladi. Shu bilan bir qatorda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zlarining ehtiyojlari bilan imkoniyatlari orasidagi tafovutlarni anglab yetmaslik holati kuzatiladi. Ular aksariyat hollarda o'zлari haqidagi fikrlarni to'g'ri qabul qila olmaydilar, ularda o'z faoliyatlarini tanqidiy baholash ko'nikmasi yetarlicha shakllanmaganligi namoyon bo'ladi. Natijada ularda „Ko'pchilik meni yomon ko'radi“, „Ular menga e'tiborsiz“ degan tasavvur hosil bo'ladi. Bunday toifadagi o'quvchilar asta-sekin o'z sinfdoshlari, tengdoshlari, hatto kattalarning fikrlari bilan ham hisoblashmay qo'yadilar. Natijada ular o'quv munozarasi jarayonida o'z guruhdoshlariga nisbatan noxayrixohlik bilan yonda-shadilar, ularning fikrlari bilan hisoblashmasdan, o'z fikrlarini ustun qo'yishga harakat qiladilar. Bunda o'qituvchi odil hakam sifatida ish tutishi lozim. Bunday jarayon o'quvchilarda, ko'pincha, muloqot vaqtida yuzaga keladi va buni muvaffaqiyatlari tarzda amalga oshirish natijasida quyidagilar ta'minlanadi:

— o'quv munozarasini tashkil etishda psixologik-pedagogik omillarga tayanish natijasida o'quvchilarning ongi, tashqi olamga munosabati, xulq-atvori tarkib topadi. O'quvchining o'ziga xos shaxs sifatida shakllanish jarayoni va faoliyati jadallahshadi, o'zini

ijtimoiy-madaniy j hatdan subyekt sifatida namoyon qilish imkoniyati kengayadi;

— o'quv munozarasi o'quvchining ongi, dunyoqarashi va faoliyatini rivojlantiruvchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, o'quv munozarasi eng zarur o'quv va ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarni jadal o'zlash-tirishga ko'maklashadi.

Shuning uchun ham, birinchi navbatda, o'quv munozarasining mavzulari, uning tavsifi, axborotlarning yo'nalishi, hamkorlikdag'i o'quv faoliyati tavsifi va o'quvchilarni intellektual, ma'naviy, axloqiy rivojlantirish imkoniyatlarini aniq belgilab olish lozim. O'quv munozarasi jarayonida bilimlar va g'oyalarni ayirboshlash imkoniyati kengayadi.

O'quv munozarasi jarayonida o'quvchilarni ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilgan vaziyatlar, o'z fikrlari, harakatlari, qarorlarining haqqoniyligini assoslashga sharoit yaratiladi. O'quv munozaralarini tizimli tarzda tashkil etish natijasida o'quvchilar o'quv jarayoniga ongli ravishda yondasha boshlaydilar, bilimlarni mustahkamlab, ko'proq axborotlarni egallashga intiladilar. Jamiyatdag'i turli muammolarni biliш va ular haqida fikr-mulohaza yuritishga harakat qiladilar. Ularda biliш va mu-loqot jarayonlarida mustaqil chiqishlar qilish, o'z fikrlari bilan o'rtoqlashish, turli vaziyatlardan xulosalar chiqarish, o'z bilimlarini tasniflash, guruhlash, sinfdoshlari va tengdoshlariga teztez savollar bilan murojaat qilish, turli axborotlarni va xohish-istiklarni muhokama hilish istagi kuchayadi. Ma'lumki, munozara jarayoni o'quvchilarda o'quv jarayoniga nisbatan kuchli ehtiyoj va intilish hosil qilishi lozim.

Ular biliш jarayoniga nisbatan fikriy-qadriyatli munosabatda bo'lislari talab etiladi. Ularning fikrlari, dunyoqarashlari asta-sekin qadriyat darajasiga ko'tariladi. Bu esa, o'quvchilarda ijobiy xulq-atvorni barqarorlashtiradi. Ular tizimli tarzda ijtimoiy qadriyatlat, ularning mohiyatini anglashga erishadilar. Bu o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga ko'maklashadi.

O'quv munozarasi jarayonida o'quvchilar o'z fikrlari, qarashlari, nuqtayi nazarlari, orzu-istiklari bilan o'rtoqlashadilar.

Shu tariqa o'quv munozarasi ko'proq shaxsga yo'naltirilgan ta'lif jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilar bu jaryonning shuruchaki ishtirokchilari emas, balki teng huquqli subyektlari sifatida o'quv-biluv faoliyatiga kirishadilar. Ularda o'z tengdoshlari bilan izchil muloqot o'rnatish ehtiyoji qaror topadi. Bu jarayonda o'quvchilar o'zaro hamkorlikda ilmiy haqidatlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida hamkorlik qilish uchun qulay sharoyt va pedagogik vaziyat vujudga keladi. Bu esa o'quvchilarga mavjud vogelikni o'qituvchi rahbarligida to'liq idrok etish uchun sharoit yaratadi. O'quv jarayonida o'z-o'zini namoyon qilish barqaror shaxsiy ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Bu o'quvchining tanlovi va xulq-atvori bilan bog'liq tarzda vujudga keladi. O'quv munozarasi davomida o'quvchilarda faollik, harakatchanlik kabi sifatlar tarkib topadi. Bunday o'quvchilar toliqishlariga qaramasdan, munozara jarayonida faol ishtirok etishga ehtiyoj sezadilar. Shu bilan bir qatorda, o'quv munozarasi o'quvchilarda o'z xulq-atvorlarini nazorat qilish va asosiy mavzudan chalg'immaslik sifatlarini ham tarkib toptiradi. Ularda o'z g'oyalarini tatbiq qilish, nuqtayi nazarlarini bayon etish va sheriklarini uning haqqoniyligiga ishontirish istagi kuchayadi. Ular o'z diqqat-e'tiborlarini muhokama qilinayotgan muammoغا ko'proq jalb etishga harakat qiladilar. Shu bilan bir qatorda, bu jarayonga o'zlarining maqsadlari, mayllari, qiziqishlarini mujassamlashtirishga intiladilar. Shu tariqa ularda xohishlar tizimi vujudga keladi. Ular barqaror maqsadlarga erishishga harakat qiladilar.

O'quvchilarda o'quv munozarasiga kirisha olish ko'nikmasi yuqori darajasi quyidagilarda namoyon bo'ladi. Bunday o'quvchilar guruh a'zolari bilan osongina til topisha oladilar. Ularning yuqori darajada intellektual rivojlanganligi tufayli, turli muammolarning muhokamasi yengil kechadi. Ular nafaqat muhokamaning turli usul va vaziyatlarini yengil o'zlashtira oladilar, balki o'zлари ham yangi usullarni ishlab chiqib, munozara jarayonining samarali kechishini ta'minlaydilar. Bunday o'quvchilar munozara natijalarini bashorat qila oladilar. Ular munozara

jarayoniga har tomonlama chuqur qiziqish bilan kirishadilar. Bu jarayon ular uchun fikr almashinish, o'zligini namoyon qilish va g'oyaligini ommalashtirish vositasidir. Munozara jarayonida ular hissiy, ijodiy erkinlikka erishadilar. Faol axborot alma-shinisni imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayonda sheriklarning o'zaro ta'siri, ularning xulq-atvorini ijobjiy jihatdan o'zgartirishga ko'maklashadi. O'quv munozarasi jarayonida kuzatuv-chanlik sheriklarining xayollari, kayfiyatlarini his etish imkonini beradi. Bu jarayonda o'quvchilarning hayotiy prinsiplari qaror topadi. Munozara jarayonida vujudga keltirilgan erkin tanlov vaziyati o'quvchilar xulq-atvorining erkin, ularning tanloviga asoslangan holda tarkib topishiga imkon beradi. Jamoaviy tarzda tashkil etilgan o'quv munozarasi har bir o'quvchiga o'z fikrini chuqur o'yagan holda bayon qilish, dalillar yordamida asoslash, isbotlash, o'z guruhdoshlarini ishontirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning shaxsiy tajribalarini oshiradi va fikrlash doiralarini kengaytiradi.

Aksariyat o'quvchilarda o'z faoliyatini bir xilda baholash ko'nikmasi mavjud. O'quvchilar o'zlarining imkoniyatlari, qobiliyatlarini aniq hisobga ola biladilar. Bu esa ularda muvaffaqiyatlarini mustahkamlash, o'z kuchlariga ishonish hamda harakatlar ni barqarorlashtirish imkonini beradi. O'quv munozarasi jarayonide jamoa bo'lib ishlash, guruhdoshlariga ko'maklashish, shaxsiy mas'ullik, nafaqat o'zining shaxsiy, balki guruhdoshlarining muvaffaqiyatlari uchun ham kurashish tuygusi, harkorlik istaklari vujudga keladi. Ma'lumki, dunyoqarash odamlarni ham birlashtirishi, ham bir-birlaridan ajratishi mumkin. Dunyoqarash asosida kishilar orasida bir-birlarini tushunish, hurmat, o'zaro yordam kayfiyati vujudga keladi. Shuning uchun ham o'quvchilarda o'zaro hamjihatlikka asoslangan insonparvar dunyoqarashni shakllantirish nihoyatda zarurdir. O'quvchilar orasida hamjihatlikni vujudga keltirish uchun ta'lim jarayonida o'quv munozarasidan unumli foydalanish maqsadga muvosifqdir. Shuning uchun ham o'quv munozarasi va suhbat turli ta'limiy topshiriqlarni bajarishda o'quv jarayonining tarkibiy qismi sifatida xizmat qilishi kerak. O'quv munozarasi davomida ta'lim-

tarbiya nafaqat o'qituvchining, balki o'quvchilarning ham birgalikdagi umumiy faoliyatidir. O'quvchilar hamda o'qituvchi, gar-chand ularning maqsadlari turli-tuman bo'lsa-da, munozara jarayonida birdek ishtirok etadilar. O'qituvchi uchun har bir o'quvchi munozara jarayonining subyekti bo'lib, u ishtirokchilarni ijodiy hamkorlikka undaydi. Agar o'quvchilar hamkorlikda harakat qilsalar, o'quv jarayonining natijasi kafolatlanadi.

O'quv munozarasi ta'larning guruqli, interfaol jarayonidir. Bu jarayonda munozara qilish, imitatcion o'yinlar tashkil etish va rollarni bajarish imkoniyati kengayadi. Bular orasida o'quv munozarasi eng sermahsul metod hisoblanadi. Bu jarayonda muayyan muammoga oid ko'plab savollarni bayon qilish va ularni tahlil etish imkoniyati vujudga keladi. Masalan: bahs, polemika, debat hamda disput kabilar.

Bahs deganda, ko'pincha, shaxslararo qarama-qarshiliklar va ularni yechishga intilish jarayoni tushuniladi.

Polemika esa, qarama-qarshi tomonlar g'oyalarining to'qnashuvidir.

Debat — muayyan yig'ilishlarda qarorlar qabul qilish, fikrlar almashish jarayoni hisoblanadi.

Disput — bahslashish, muammoni oydinlashtirish va hukm chiqarishdan iborat jarayondir.

Disput ochiq munozara hamdir. O'quv jarayonida munozara metodini qo'llash muammoli ta'limga uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayonda o'quv dasturi materiallarini o'zlashtirish samaradorligi ortadi. Agar o'quvchilar an'anaviy ta'limga jarayonida o'qituvchilar hamda darsliklardan tayyor bilimlarni olsalar va ulardan bilish vazifalarini yechish talab etilsa, o'quv munozarasi davomida muayyan bilimlarni egallash uchun mustaqil izlanadilar va fikrlaydilar. O'quv munozarasi jarayonida o'quvchilarda muayyan o'quv predmetiga oid maxsus bilim va ko'nikmalar shakllanadi. Agar darsda o'quv mavzusi bilan bog'liq holda muayyan muammoni yechish zaruriyati vujudga kelsa, o'quv munozarasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'quv munozarasi asosida tashkil etilgan ta'limga jarayonida o'quvchilar ijtimoiy hamda ilmiy muammolarni yechishga safarbar etilishlari lozim.

Munozara va disput darslarining maromi va tarkibini belgilash uchun pedagogik jarayonni chiqur tahlil etish lozim. Bu o'rinda o'qituvchining chamalash mahorati muhim ahamiyatga ega. Har bir o'quv predmeti doirasida munozara darslari haddan tashqari tig'iz bo'lmasligi kerak. Chunki barcha o'quv mavzulari munozaralari emas. Buning uchun muammoli, munozara qilish uchun qujay bo'lgan o'quv mavzularini tanlab ola bilishi lozim. Har bir o'quv predmeti tarkibida o'quvchilarni munozaraga undovchi mavzular mayjud. Yangi mavzu o'tilgandan keyin ushbu yo'nalishdagi bilimlar va ko'nikmalarning shaxs va jamiyat hayotida qanday o'rin egallashi haqida batafsil munozara qilish maqsadga muvofiqdir. Agar shunday tarzdagi munozaralar tashkii etilmasa, o'quv jarayonining samaradorlik darajasi past bo'lishi bilan bir qatorda, o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlasa, ularda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari ham cheklanadi. Bunday muhokamalar suhbat va erkin munozara tarzida ham amalga oshirilishi mumkin.

Bunday sharoitda o'qituvchi munozararing quruq bahsdan iborat bo'lib qolmasligi uchun barcha pedagogik chora-tadbirlarni qo'llashi lozim. O'qituvchi va o'quvchilar ham munozara jarayonining samarali kechishi uchun tug'ilgan savollarga aniq javob qaytarish imkonini beradigan bиринчи darajali manbalar va adabiyotlar bilan tanishgan bo'lishlari kerak. Munozaralarda o'quvchilar turli g'oyalar va yondashuvlarning tarafdoqlari sifatida namoyon bo'ladilar. O'quv munozarasining dastlabki bosqichidan boshlab o'qituvchi jarayon samaradorligini ta'minlashga intilishi kerak. O'quv munozarasining samarali kechishi uchun o'qituvchi quyidagi talablarga rioya etishi zarur:

- munozara holatini vujudga keltiradigan savollar ijtimoiy pedagogik jihatdan dolzarb, didaktik jihatdan o'quvchilarga qiziqarli bo'lishi;
- ta'lim mazmuniga mos kelishi;
- keng ko'lamli ilmiy-texnikaviy, jamoatchilik salohiyatiga ega bo'lishi;
- muntazam aqliy faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'-lishi;

- u nafaqat o‘z fanini, balki yondosh o‘quv fanlarini ham bilishi;
- o‘quv fani mazmunini davrning dolzarb muammolari bilan bog‘lay olishi;
- fan, texnika va texnologiyalar sohasida yaratilgan yangi kashfiyotlardan xabardor bo‘lishi va h. k.

O‘quv munozarasining samarali kechishida o‘qituvchining nutqi, muloqot madaniyati alohida ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra o‘qituvchining nutqi badiiy, ilmiy, aniq hissiyotlarga to‘la, ta-sirchan, sinfda hissiy-axloqiy vaziyatni vujudga keltirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Shu bilan bir katorda, o‘qituvchining nutqi ma’lumotlarga boy, o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirishlari uchun foydali bo‘lishi talab etiladi. O‘quv munozarasi davomida o‘quvchilarning bir-birlariga nisbatan o‘zaro to‘g‘ri va madaniy munosabatda bo‘lishlarini ta’minlash alohida ahamiyatga ega. O‘quv munozarasi jarayonida vujudga kelgan qaramaqarshiliklar esa, tarbiyaviy maqsadlarning takomillashuviga ko‘maklashadi. O‘quvchilar munozara jarayonida sinfdoshlari bilan munosabatlarni qayta qurish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ular hamkorlikdagi o‘quv faoliyati jarayonida chidamli, e’tiborli bo‘lish, muloqotga kirishish, o‘z kamchiliklarini ko‘ra olish, ularni bartaraf etish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Shunga ko‘ra, o‘qituvchining munozara jarayonidagi faoliyatiga bir qator talablar qo‘yiladi. Bunday talablarga rioya qilish natijasida munozara jarayonida o‘zaro hamkorlikka asoslangan holda kutilgan natija qo‘lga kiritiladi.

O‘quv munozarasi jarayonida, birinchi navbatda, o‘quvchilarning intellektual faolligi ta’milanadi. Axborotlarni qabul qilib olish va o‘zaro almashinish, farazlarning o‘zaro siljishi, subyektdan subyektga qarab harakatlanishi, har bir o‘quvchida shaxsiy nuqtayi nazarning shakllanishi, o‘rtaga tashlangan muammoning muhokama qilinishi, shuningdek, o‘quvchilarning xulq-atvorida ham faollik vujudga keladi, sheriklar va ishtirokchilar bilan muloqot muammosi orasida aloqadorlik ta’milanadi. Buning natijasida tashabbuskorlik hamda aniq yo‘nalish olish sohasidagi kamchiliklar bartaraf etiladi.

O‘quv munozarasi jarayonida nafaqat bilimlar va axborotlar almashinushi ta’mirlanadi, balki o‘quv-biluv mayllari, o‘zaro nazorat, o‘z-o‘zini namoyon qilish ehtiyoji hamda o‘zaro do‘s-tona munosabatlар qoror topadi. O‘qituvchi esa bu jarayonda shaxslararo munosabatlarni tarkib toptirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘quvchilarini yangi guruhlarga biriktirish va bir guruh-dan ikki yoki uchta kichik guruhlarni tashkil etishga erishiladi. O‘quv munozarasi jarayonida o‘quvchilarda o‘qish, o‘rganishga nisbatan kuchli mayllar hosil bo‘ladi, aqliy mehnatga nisbatan ishtiyoq uyg‘onadi. O‘quvchilar munozara jarayonida o‘z nuqtayi nazarlarini muvofiqlashtira olmagan taqdirdagina o‘qituvchiga murojaat qiladilar.



Savol va topshiriqlar

1. Barkamol inson deganda nimani tushunasiz?
2. I. A. Karimov ma’naviyat tushunchasiga qanday izoh bergan?
3. Milliy tarbiyaning tarixi va bugungi kuni haqida fikringiz.
4. Tarbiya haqidagi hikmatli so‘zlardan misollar keltiring.
5. Milliy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
6. Qadriyat va ma’naviy qadriyat deganda nimani tushunasiz?
7. Intellekt deganda nimani tushunasiz?
8. Dunyoqarash nima?





2.1. Jamoada shaxsni tarbiyalash

Jamoa (lotincha „komandus“ so‘zining tarjimasi bo‘lib, *yig‘ilma, omma, bирgalикдаги мажлис, бирлашма, гурух* ma’nolarini beradi) bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega, umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamonaviy talqinda „jamoa“ tushunchasi ikki xil ma’noda ishlataladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo‘lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan, ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o‘quv yurti jamoasi, xo‘jalik jamoasi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o‘quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi. O‘quvchilar jamoasi o‘ziga xoslik kasb etuvchi muhim belgilarga ega. Quyida jamoa va uning xususiyatlari (belgilari) borasida so‘z yuritamiz.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me’yorlari o‘z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mayjud munosabatlar tizimida namoyon bo‘lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o‘zaro birlik, uzviylik, aloqadorlik yuzaga keladi. Shu bois jamoa hayotining aniq (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g‘oyaviy xususiyat kasb etishi uning yetakchi belgisi sanaladi. Har bir jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy aloqadorlikda mayjud bo‘ladi. Muayyan jamoaning har bir a’zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o‘z jamoasi bilan bирgalikda ishtirot etadi. Jamoa a’zolarining intilishlarini tushunish, jamoa oldiga qo‘yilgan maqsad mohiyatini chuqur his etish hamda uning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni va rolini to‘g‘ri baholay olish jamoa a’zolarining umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsad, qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatları o‘rtasidagi birlikni namoyon etadi hamda jamoaning bo‘linishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Hat bir jamoa o‘z-o‘zini boshqarish organiga ega va umumiy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog‘lanadi. Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan bиргалидаги faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g‘oyaviy yo‘nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o‘z aksini topishi muhim ahamiyatga ega. Jamoa xususiyatini aniqlashda kishilar guruhining yagona ijtimoiy tizimini o‘rnata olishdagi usuli, ya’ni jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblandi. Birgalikdagi faoliyat umumijamiat ishi uchun mas’uliyat hissini uyg‘ota borib, jamoa a’zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, a’zolarda jamoaga mansublik hissining paydo bo‘lishiga ko‘maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo‘lish ehtiyojini oshiradi. Jamoa a’zolari orasida o‘zaro hissiy birlik (bir-birini yoqtirish hissi) yuzaga keladi. Ushbu munosabat, ko‘pincha, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi. Jamoa a’zolari o‘rtasidagi ruhiy birlik mazmuni ular orasida hosil bo‘lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog‘liqdir. Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim.

Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko‘rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan tashkiliy jihatlari ko‘zda tutiladi. Mazkur jihat bir tomonidan jamoa a’zolari o‘rtasida yuzaga kelgan ishchanlik munosabati mazmunini ifoda etsa, ikkinchi tomonidan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi shaxslar tomonidan jamoa a’zolarining xatti-harakatlari va intilishlarini muvofiqlashtirish yo‘lida tashkil etilayotgan boshqaruv faoliyati mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a’zolari o‘rtasidagi shaxslararo ma’naviy-ruhiy munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhn tashkil qiluvchi ayrim a’zolar o‘rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a’zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o‘rinni egallaydi. O‘quvchining jamoadagi o‘rni uning shaxs sifatida shakllanishi va kamolotga erishishiga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Maktab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo‘lganda, jamoaning

rasmiy yetakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko‘zga ko‘ringan o‘rinni egallagan holdagina u chinakam jamoa bo‘la oladi. Shuningdek, norasmiy guruhlar (mikroguruuhlar) umumjamoa ijtimoiy manfatlari uchun kurashuvchi guruhlar bo‘lgandagina jamoa o‘zini chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin. Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo‘g‘in — bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o‘quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o‘qish hisoblanadi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalarini negizida maktab jamoasi shakllanadi. Maktab jamoasi ikki muhim bo‘g‘in — o‘qituvchilar jamoasi hamda o‘quvchilar jamoasi asosida tarkib topadi. O‘quv yurtlari jamoasi tarkibida o‘quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi.

O‘quvchilar jamoasi — bu ijtimoiy ahvoli, shuningdek, saylov organlari oldidagi umumiyligi javobgarlik, barcha a’zolarning huquq va burchlari tengligi asosidagi o‘zaro birlikka ega o‘quvchilar guruhidir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o‘ynashi to‘g‘risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta’minlaydi. Lekin har qanday guruhnini ham jamoa deb hisoblab bo‘lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilarni jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhidan ajratib turadi. Jamoani tashkil etish metodikasi oxirgi kunda ancha to‘liq va mukammal ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiyligi asoslari pedagogika kursida bayon etilgan jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o‘quvchilarning faqat sinfdan tashqari faoliyatida namoyon bo‘ladigan munosabatlarini tahlil etish bilangina cheklanib bo‘lmaydi. Jamoada shaxsni yakka tartibda tarbiyalashdan maqsad maktab o‘quvchisini o‘z-o‘zini tarbiyalashga jalb etish, uni tegishli malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga bo‘yni yor bermaydigan tarbiyasi qiyin bolalar — bu, albatta, yomon o‘zlashtiruvchilar emas.

Zamonaviy sinf rahbari o'quvchilarning yomon xulq-avtori, past o'zlashtirishlarining sabablarini puxta o'rganadi. Bunda o'quvchining sinfdoshlari bilan munosabatlari, bu munosabatlarning ma'naviy asoslari eng muhim masalalardan biridir. Jamoa munosabatlari, dastavval, muayyan tamoyillarga asoslangan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga yo'naltirib turadigan o'ta mas'uliyatli munosabatlardir. Jamoada shaxsni tarbiyalashda yakka tartibdagi yondashuvning mohiyati alohida o'quvchini jamaoa faoliyatiga jalb etishdan, jamoani esa mazkur o'quvchi bilan qiziqtirib qo'yishdan ham iborat.

Jamaoa faoliyatini tashkil etishda o'quvchilarning shaxslararo real mavjud bo'lgan aloqalarini hisobga olish ikki xil maqsadga erishish: guruh a'zolarini jamaoa hayotiga jalb qilish va ular o'rta-sidagi muomalaga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Jamiyatning qanchalik rivojlanganligini oila farovonligida, shaxsning kamolotida ko'rish mumkin. Yoki shaxsning barkamolligi, oilaning to'la-to'kisligiga qarab, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy ahvolini bilish mumkin. Chunki *shaxs — oila — jamiyat* munosabatlari o'zaro mustahkam bog'langan. Shuning uchun shaxs oila, jamiyat muhitida shakllanadi, kamol topadi. Jamoa rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilar-dan biri — o'quvchilarning birligidagi faoliyatiga ishtiyobi chiqindi qog'oz (makulatura) yoki metallom (temir-tersak) toplash, kechaga tayyorgarlik ko'rish kabi muktab tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko'zga tashlanadi. Sinf rahbari jamaoaning rivojlanish darajasini belgilash uchun bolalarda ularning hozirgi va bo'lajak hayotlarida ijtimoiy ahamiyatga molik maqsad-lari mavjudligini bilishi muhim, ya'ni jamaoaning hayotiy faoliyati istiqbollarini barcha yoki yarim o'quvchilar qabul qilishini va bu istiqbollarning xususiyati qandayligini bilib olishi zarur.

Jarnoa rivojlanishining dastlabki bosqichlarida bolalar tarqoq bo'lib, ularda yakdil fikr va sinf rahbari tayanishi mumkin bo'lgan ta'sirchan faollar bo'lmaydi. Shuning uchun jamoada salbiy hodisalar ochiq muhokama qilinmaydi va mustaqil jamaoa qarori qabul qilinmaydi. Agar jamaoa rivojlanishning ikkinchi bosqichida bo'lsa, nomigagina emas, balki harakatlarini qo'llab-quvvatlay-

digan haqiqiy harakat qiluvchi faollar bo'lsa, uning ayrim o'quvchilar va jamoa oldiga muayyan talablar qo'yishini kuzatish mumkin.

2.2. Jamoaning rivojlanishida tarbiya usullari

Har bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonun-qoidalari bo'lganidek, bola tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim qonun-qoidalari bor, ularga amal qilish tarbiyaviy ishlarning samarali bo'lishini ta'minlaydi, ya'ni:

— tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;

— tarbiyaning hayot, mehnat bilan, O'zbekistonimizning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo'lida qilinayotgan ishlar bilan bog'lanishi;

— o'quvchini jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;

— tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik;

— tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi va birligi;

— tarbiyada o'quvchilarning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Tarbiya jarayonining mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi. Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi. Tarbiyaning maqsadi — har tomonlama kamol topgan, mukammal inson shaxsini tarbiyalashdir.

O'qituvchilar jamoasi ana shu maqsatlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda matabda ish sharoitlarini hisobga olgan holda o'quvchilarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

2. Tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi qoidasi tarbiyaviy ishlarning mazmun va mohiyatini, tashkil etilishini doimo yangilab turishni talab etadi. Tarbiyachilar bolalar tarbiyasini hayot bilan bog'lar ekanlar, ularga o'zlarida iymon-e'tiqodni tarbiyalash imkonini beradilar. Tarbiyaviy ishlar shunday tashkil qilinganda yoshlar jamiyat hayotida faol ishtirok etadilar, bu esa o'quvchi shaxsining tarkib topishiga yordam beradi.

Ilg'or o'qituvchilar tajribasining ko'rsatishicha, o'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyushgandagina ularga jamoatchilik ruhini

singdirib borish lozim. Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning yetakchi tamoyillari hisoblanadi. Uning umumiylashtirish asoslari quyidagilardan iborat:

1. Talaoblardan qo'yish;
2. Faollarni tarbiyalash;
3. O'quv-mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarini tashkil etish;
4. Sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish;
5. Ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Yuqorida ta'riflangan barcha qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlanish uchun qo'llanma hisoblanadi. Tarbiya usullarini tanlashda ularni jamoaning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffaqiyatning muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun har bir o'qituvchi tarbiyaviy ishni sinfdagi jamoa munosabatlarining rivojlanish darajasini aniqlashdan boshlaydi. Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tgandagina yusufiysigina qarab darajaga erishiladi. Ayrim o'quvchilar va umuman, jamoa o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va umumiylashtirish asosiy vazifasi o'qishdan iborat. Shuning uchun sinf rahbari, avvalo, bolalarning o'qishga qanday munosabatda ekanliklarini, o'zlarini darsda qanday tutishlarini, uy vazifalarini sidqidildan bajarishlari yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashning eng ishonchli usuli — o'quvchilarni ular bilan darsda, darsdan tashqarida, maktabdan tashqarida o'zaro faol hamkorlik qilish carajasida kuzatishdan iboratdir. O'qituvchi jamoaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash uchun pedagogik vaziyatlar vujudga keltirishni qo'llaydi. Lekin bunda shuni esda tutish ke-

rakki, o'quvchi kamchiliklarini hamma o'rtasida yorqin namoyish etish uning qalbini jarohatlashi mumkin. Shunday vaziyatlarni vujudga keltirish kerakki, ularning salbiy tomonlarini emas, balki har bir bolada odatdagi sharoitda boshqalardan yashiringan ijobjiy tomonlarini ham ochib berish maqsadga muvoffiqdir.

Sinf rahbari jamoaning rivojlanishi darajasiga qarab tarbiya usullarini tanlaydi. Ta'lif jarayonida jamoa munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari sinf rahbaridan katta e'tibor berishni talab etadi. Jamoa faoliyatida ko'proq muomala qilishga bo'lgan ehtiyoj yotadi. Darslarda bu ehtiyoj kam foydalaniladidi. Agar darsdagi muomalaga bo'lgan ehtiyoj to'g'ri tushunilsa, uning negizida o'quvchilarning o'zaro yordami, darslarga birgalikda foydali tayyorgarlik ko'rishi, qiziqishlari bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etiladi. Jamoa rivojlanishining har qanday darajasida sinf rahbari muayyan usullardan foydalanib, jamoatchilik fikrini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Sinf rahbari jamoa va har bir alohida o'quvchining tarbiyasi uchun ma'suldir. Shuning uchun uning jamoa tarzidagi va yakka tartibdagi shakllarini qo'shib olib borishi tarbiyaviy ishdagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bunda jamoaning shaxsga nisbatan yuksak talabchanligi kuzatiladi.

Maktablarda olib boriladigan ish faoliyati, odatda, ommaviy, jamoa, guruh va individual shakllarda tashkil etiladi. Faoliyatni tashkil etishning ommaviy shakllari ham (ya'ni ularda o'quvchilarning muayyan guruhlari ishtirok etadi) o'z mohiyatiga ko'ra uni amalga oshirish jarayonida faoliyat maqsadiga (masalan, ma'ruza, konsert va hokazo) erishish uchun qatnashchilarning o'zaro muomalasini nazarda tutmaydi. Biroq, bundan oldingi holda bo'lgani kabi, bu shakllarda bevosita tengdoshlar bilan birgalikda qatnashish ba'zi hollarda ularning faoliyatidagi ishtirokini faollashtiradi, boshqa hollarda aksincha bo'ladi. Bu ko'p jihatdan o'quvchilarning faoliyat mazmuniga, munosabatiga (ijobjiy, passiv yoki salbiy) bog'liq bo'ladi.

Faoliyatni amalga oshirish jarayonida uning maqsadiga erishish uchun o'quvchilarning o'zaro muomalaga kirishishlarini nazarda tutuvchi faoliyat shakllari jamoa shakllari deyiladi. Bu

muomala jarayonida o'quvchilar o'rtasida jamoa aloqalari vujudga keladi. Bu shakllar obyektiv jihatdan o'zida muomala uchun muayyan shart-sharoitlarga ega bo'ladi. Ular o'quvchilarga ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun vazifalarni o'zaro taqsimlab chiqish imkonini beradi, qatnashchilar o'rtasida aloqa ta'sirining paydo bo'lishiga olib keladi. Misol tariqasida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning jamoa shakllaridan biri — bilimlarning ijtimoiy ko'rigin qarab chiqamiz. U biror fan bo'yicha o'tkaziladi. Unda ikkita parallel sinf yoki bir sinfdan ikkita jamoa ishtirok etishi mumkin. Ko'rikning dasturi ishlarning har xil turlaridan (yozma, og'zaki, grafik masalalar yechish, topshiriqlarni bajarish va shu kabilar) tashkil topadi, ularni bajarish umuman olganda 40 — 60 daqiqadan oshmaydi. Ko'rik oxirida hay'at a'zolari har bir qatnashchiga va umuman jamoadagi o'rtacha bahoni e'lon qiladi. Bu o'rinda bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muomala ko'rikka hozirlik ko'rish vaqtidayoq boshlanadi va uni o'tkazish jarayonida juda samarali davom etadi. Bunga sabab shuki, ko'rikka doir dastlabki topshiriqlar jamoadan tayyorgartlik rejasini muhokama etishni, vazifalarni taqsimlash yoki guruhi bo'lib ishlashni talab qiladi. Ko'rik jarayonida muomala uning hamma qatnashchilari o'rtasida sodir bo'ladi, chunki ulardan har biri muayyan vazifaga ega bo'lib, o'z harakatlarini boshqa qatnashchilar bilan muvofiqlashtirgandagina vazifani muvaffaqiyatli bajarishi mumkin.

Jamoatchi va bilimli sinf rahbari har qanday vaziyatdan juda ustalik bilan chiqib ketadi va har tomonlama rivojlangan sinf jamoasini tashkil qiladi. Jamoani tashkil etishning samarali shakllaridan biri guruhiy ishdir. Bunda mazkur ish bolalarning tarkib jihatidan uncha katta bo'Imagan (eng ko'pi bilan kishi 5 ta bo'lishi kerak) guruhlarda amalga oshiriladi. Bunday kichik guruhlarda barcha a'zolar bir-birlari bilan bevosita muomalada bo'ladi va bir-birlariga bevosita biror ta'sir ko'rsatadilar. Jamoada muomalani tashkil etganda o'quvchilar muhitida mavjud bo'lgan haqiqiy guruhlarni nazarda tutish, bir-biriga mehr bilan qaraydigan va o'zaro do'stlashadigan bolalarni birlashtirish zarur. Pedagog bu guruhlarning xususiyatlarini, ularning yo'nalishi,

qiziqishlari, malakasi va hokazolarni bilishi, hisobga olishi va ulardan foydalanishi kerak.

Jamoa ishlini tashkil etishda va amalga oshirishda vazifalarni taqsimlash vaqtida mazkur xususiyatlarni hisobga olish ishning samaradorligini oshiradi. Bu hol guruhdagi muomalani jamoa-ning qiziqishlari sohasiga va jamoaning qiziqishlarini guruhdagi muomala sohasiga olib kiradi. Masalan, jamoa yetarli darajada obro‘ qozongan, jamoatchilik yo‘nalishiga ega bo‘lgan guruhga muayyan bir tadbirni tayyorlash va o‘tkazishga boshchilik qilishni topshirsa bo‘ladi. Qandaydir o‘ziga xos qiziqishlari bor guruhga butun jamoa uchun bu qiziqishlarga mos keladigan ishning tashabbuskori va tashkilotchisi bo‘lish taklif etiladi va hokazo.

Jamoa faoliyatini tashkil etishda o‘quvchilarning shaxslararo real, ya’ni aniq mavjud bo‘lgan aloqalarini hisobga olish ikki xil maqsadga: guruh a’zolarini jamoa hayotiga jalb qilish va ular o‘rtasidagi muomalaga ta’sir ko‘rsatish, bundan tashqari, o‘z oldilariga qo‘ygan har bir maqsadiga erishish imkonini beradi.

2.3. Jamoa ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni

Darsdan tashqari faoliyatni zamonaviy tashkil etish ijodiy jarayon bo‘lib, o‘qituvchidan chuqur bilim, malaka va xohish talab qilgani kabi o‘quvchilardan ham ularning intilishlari va ehtiyojlarini talab etadi. O‘quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish tarbiyaning mualliflik tizimini shakllantirishning yagona yo‘lidir. Bu holda tarbiya shaxs kamolotini boshqarish jarayoni, uning ijtimoiylashuvi va rivoji uchun sharoit va imkoniyatlar yaratish mezoni sifatida qaraladi. Darsdan tashqari faoliyat (dam olishni tashkil etish) esa shaxsning ijodiy imkoniyatlarini yuqoriga ko‘tarish (birinchi navbatda, o‘qituvchining), uning ijtimoiy faolligini amalga oshirish maydoni sifatida tasavvur etilishi mumkin.

Hordiq kishilarning yangilanish, tiklanish, uning jismoniy va ma’naviy kuchini ko‘paytirish, shaxsini boyitish, ijodiy faolligini chuqurlashtirish va amalga oshirish uchun ular tomoni-

dan rejalashtirilgan va mo'ljallangan shaxsiy vaqtining bir qis-midir. Shaxs o'z faoliyati asosida shakllanib boradi. Jamiyatda yashash, boshqa kishilar bilan hamkorlik qilish, o'zaro faoliyat yuritish kishining faqat jamoa ishlaridagi ishtiroki orqali shakl-lantiriladi.

Jamoaviy ijodiy faoliyat metodikasi nihoyatda samarali me-todika sifatida tarbiyani individuallashtirish tarmoyillarini, ish-nинг jamoaviy shakllarida ham tashkil etish imkoniyatini beradi.

Jamoaviy ijodiy faoliyat o'quvchilarni ijodga yo'naltiradi, harakat qilishning zarur shakllari va metodlarini topish vazifa-larini belgilaydi, maqsadni aniqlashga o'rgatadi, ishni tashkil etishga yordam beradi, jamoa va alohida o'quvchilarning tashab-busini qo'llab-quvvatlaydi va kuchaytiradi, o'z qobiliyatidan ya-nada yaxshiroq foydalanish imkoniyatlari haqida maslahat bera-di, o'quvchilar va jamoaning axloqiy jihatdan rivojlanishini ku-zatadi, tartibga soladi.

Uning vazifasi: hamkorlik sharoitini vujudga keltirish, do's-tona o'zaro yordam, ma'naviy-ruhiy sharoitni yuzaga keltirish-dan iborat. Biz jamoaviy ijodiy faoliyatni ham metodika, ham ishtirokchilarining o'zaro faoliyati loyihalashtiriladigan, pedago-gik jarayonni tashkil etuvchi texnologiya sifatida qaraymiz. Ja-moav.y ijodiy faoliyat metodikasini amalga oshirish quyidagi bosqichlar bilan uzviy bog'langan:

1. Pedagogik maqsad:

- o'qituvchi o'quvchilar guruhining ishi bilan bog'liq maq-sad va vazifalarda o'z mavqeysini belgilab oladi;
- ularni amalga oshirish mumkin bo'lgan yo'llar, shakllar va metodlarni belgilaydi;
- dastlabki suhbatni (guruh yig'ilishi, umumiy yig'ilish) o'tkazish rejasи va metodikasini ishlab chiqadi, suhbat yo'nali-shini belgilaydi;
- u yoki bu ish haqida ko'zlangan maqsad (uning o'tka-zilishi umumiy fikriga ko'ra ko'zlangan maqsadni amalga oshi-rishga yordam beradi).

Jamoaviy ijodiy faoliyat bo'yicha aniq ishni tanlashda mak-tabda an'anaga aylangan shakllarni ham hisobga olish mumkin.

2. Hamorlikda loyihalash.

Muvaffaqiyat tashabbus (ijodiy) guruhini tashkil etish. Bunda izchillik va rivojlantirishni ta'minlash lozim:

Jamoaviy ijodiy faoliyat loyihasini tayyorlash quyidagilar dan iborat:

a) ishning mazmuni;

b) tayyorlashning turli bosqichlarida hal etilishi lozim bo'l gan vazifalar;

d) ishni tayyorlash va o'tkazish dasturi.

Dasturda jamoaviy ijodiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish chog'ida bajarilishi zarur bo'lgan bir qator ishlar borki, shular asosida ijodiy guruhlar uchun vazifalar shakllantiriladi.

3. Ishni tayyorlash.

Pedagogik jarayondagi eng mas'uliyatli bo'lgan bu bosqichda quyidagilar zarurdir:

— har bir o'quvchini sezish, uning jamoadagi o'rmini belgilash, kayfiyatini his qilish;

— o'z vaqtida yordam ko'rsatishga harakat qilish;

— vaziyatdan kelib chiqib, boshlang'ich loyihamani qayta loyihalash bahonasida tashabbuskor guruhnini o'zi bilan almashtirilishiga yo'l qo'ymaslik.

4. Ishni o'tkazish.

Keyingi tahlil uchun asos bo'lgan bu bosqichda ishni loyihalash jarayonida barcha ishtirop etishi mumkin bo'lganlar va mehmonlar uchun „tomoshabinsiz“ ish qoidalarini amalga oshirish nihoyatda muhimdir.

5. Refleksiya (o'tkazilgan ish tahlili).

Maqsadi — tajriba orttirish, hamkorlik va individual faoliyat tahlili, tahlil amaliyoti va mahoratini egallash.

Vazifasi — faoliyat natijalarini baholash, topshiriq ishtiropchilarining hayotiy tajribalarini o'stirish.

6. Natijalar (istiqbolni aniqlash).

Bu bosqich jamoa bo'lib hamda uni tashkil etuvchi shaxslar shakllanishining zarur sharti hisoblanadi. Uning maqsadi hamkorlik an'analarini shakllantirish, ularni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

**Jamoaviy ijodiy faoliyat metodikasini amalga oshirish
bosqichlari:**

Bos-qich	Ishlar mazmuni	O'qituvchi faoliyati	O'qituvchi mavqeyi	Faoliyatning metod va shakllari
1	2	3	4	5
I	Pedagogik maqsad (O'qituvchining dastlabki ishi).	Pedagogik maqsadni aniqlaydi (M_1) > Model-lashadiradi: M_1 ga erishish yo'llari (mumkin bo'lgan ish), calillar (D).	Buyurmaydi, majbur qilmaydi, o'quvchilar bilan birga fikrileydi, xayrixohlik va qiziqish bilan so'zlashadi.	„Yo'naltiruvchi tadbirilar“, „Do'stona suhbat“, „Hikoya — mu-lohaza“, „Shaxsiy tajriba“.
II	Ishni hamkorlikda loyihalash (JIF loyihasi tadqiqi).	Ijodiy yoki tashabbus guruhlarining yig'ilishini tashkil qiladi.	Umumiyl ishlarda teng asoslarda ishtirok etadi.	Yig'ilishning boshlanishi: takliflarni asoslash, o'ylash uchun berilgan vazifa tahlili. Ijodiy izlanish. Oehiq munozara. Amaliy o'yin. Mayl-rag'bat uyg'otish (ma'qul-lash yoki maqtash bilan, maslahat yoki ishonch bilan) Aqliy hujum.
III	Ishni tayyorlash (bosh pedagogik vazifani bajarish).	Individual munosabatni amalga oshiradi, o'quvchi shaxsiyatining rivojlanishini ta'minlaydi (ularning faol izlanishga kirishi, o'quvchi-	Rag'batlanti-ruvchi va muvosiflashti-ruvchi vazifa bajaradi.	Garuhlarga yordam. Ishonch. Do'stona talab. Do'stona nazorat, taqdirlash, muhokama. Ish, izlanish, roman-tika, qahramonlik o'yinlari bilan mashg'ullik. JIF

<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>
		larning ijobiy sifatlarini qo'l-lash va salbiy sifatlarini bar-taraf etish, ularga qiyinchi-liklarni yengib o'tishda shaxsiy tajribalar to'p-lashlari uchun imkoniyat ya-ratish va b.).		loyihasini aniq-lash, bloklarni tayyorlash, qayta loyihalash.
IV	Ishni o'tka-zish (tah-lil uchun material-larni tan-lab olish).	„Tomoshabin-siz ishlaymiz“, „Xushxabar tayyorlaymiz“ qoidasini amal-ga oshirish.	O'quvchilarda ko'tarinki ruh, tetiklik, o'z ku-chiga ishonch va qiyinchilik-larni yengishga intilish hosil qiladi. Muhi-mmi: xotirjam-lik, sabr-to-qat, humor.	Ssenariyni blok-modul tizimida tayyorlash: tay-yorlangan alohida blok va fragment-larni yagona butunlikka keltirish. Ishda JIFning turli ko'rinishla-ridan foydalanish.
V	Tahlil. Na-tijalarini e'lon qilish.	Bajarilgan ishni tushunib yetish va tahlil qilish ehtiyojini, ja-moa va individual tahlil qiliш ko'nikma-larini tarbiya-laydi.	Bolalarga o'z-larining faoliyati natijala-rini ko'rishga, yutuq yoki rmuvaffaqiyat-sizliklarini aniqlashsga, ularni yuzaga keltirgan sa-bablarni aniq-lashga yordam beradi, „o'zi bilan“ nima	Tahlil hisoboti, kichik yozma ish. Do'stona tahlil. Jiddiy bahs. Maqtov. Mayl-xohish. Ishchan bals. Tahlil mahoratini vujudga keltirish. Mukofot. Nazorat. Talab. Muhokama. Tanqid.

<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>
			olish mumkinligiga e'tibor qaratadi.	
VI	Yaqin oradagi nati-jalar (istiqbolni aniqlash).	Ishlardagi iz-chillikni, ja-moani rivoj-lantirish sharoitlarini ta-minlaydi.	Istiqbolni ko'-rishga yordam beradi.	Hamkorlikni mu-vofiqlashtirish, hal etish uchun maqsad va vazifalarni aniqlash.

Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar va tadbirlarda ham hozirgi kun talabi asosida yangi shakllar, uslublar va usullarni qo'llash talab etilmoqda. Tarbiyaviy ishlarga yangicha yondoshuv qo'shimcha ma'lumotlarni, tavsiyalarni, texnologik usullarni foydalanishni talab qiladi. Bu tavsiyalardan har bir o'qituvchi o'quv-tarbiya jarayonida o'z imkoniyati, sharoiti, o'quvchilarining saviyasidan kelib chiqqan holda foydalanishi murunkin. Jamoaviy ijodiy faoliyat texnologiyasi bo'yicha darslar ham, bayramlar ham, tanlovlар ham, shanbaliklar ham tashkil etilishi va o'tkazilishi mumkin.

? ! Savol va topshiriqlar

1. Tarbiyaga ta'rif bering.
2. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani izohlang.
3. Tarbiyaning tarixiy ildizlari haqida fikringiz.
4. Milliy qadriyatlar deb nimaga aytildi? Ularning mazmun-mohiyatiga ko'ra turlarini aytинг.
5. I. A. Karimovning „Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch“ asarini tahlil qiling.
6. O'quvehini jamoada va jamoa orqali tarbiyalash deganda niman ni tushunasiz?
7. Jamoating rivojlanish darajasini tarbiyaga bog'liqligi.
8. Jamoa fao iyatini tashkil etish shakllari.



III BOB. TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH

3.1. Tarbiyaviy ishlarning maqsadi, vaziflari va yo‘nalishlari

Tarbiya, eng avvalo, insonning o‘ziga qaratilganligi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan, butun dunyo hamjamiyati tan olgan qadam-baqadam amalga oshirilayotgan „o‘zbek modeli“da juda to‘g‘ri belgilandi. Dunyoda birinchi bor insonning diqqat-e’tibori o‘zlikni anglashga qaratildi. O‘zligini anglash, biringchidan, uning ozod, erkin, nodir, ulug‘ siymoligini anglash va o‘zida unga amal qilish sifatlarini shakllantirib borish bo‘lsa, ikkinchidan, uning o‘ziga xos milliy-insoniylarini anglash va ularga amal qilishdan iboratdir. Yuqorida sanab o‘tilgan ikki sifat komil inson sifatining asosini tashkil etadi. Chunki komil inson sifatlarini, tarbiya sohasidagi ilmlarini xulosalab, mujassamlashtirsa, ular, asosan, 3 ta:

- Ezgu niyat, fikr;*
- Ezgu so‘z, xushmuomila;*
- Ezgu ish, ezgu faoliyatdan iboratdir.*

Shu uchta sifat o‘qitishning, ta’lim-tarbiyaning bosh maqsadi hisoblanadi. Bu bosh maqsad insonlarda, ayniqsa, yoshlarda komillik sifatlarini takomillashtirish, ularni zamonaliviy bilim, malaka, ko‘nikmalar bilan qurollantira borish, mutaxassislarda har bir sohaga mos ilm, bilim hosil qilishdan iborat bo‘lgan zamonaliviy pedagogika fani asoslarining kengayganligini ko‘rsatadi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani ta’lim-tarbiyaning zamonaliviy usullari va ularning mazmuni, vositalari bilan qurollantiruvchi fan bo‘lganligi uchun, uning metodologik asoslari, maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma’naviy rivojida shaxs kamoloti uyg‘unligi qonuniyatlardan kelib chiqadi. Ta’lim sohasida o‘qitishning vazifasi yoshlarning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo‘lgan har bir kishining aqliy-axloqiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojini ta’minlash, o‘zi xohlagan

kasbini tanlash, o'zi xohlagan shu sohada faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy-ma'naviy tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Tarbiya ma'naviy manbalar va hozirgi zamон talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyos. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini asta-sekin ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonni mushohada qilish qobiliyatি tarbiyalaydi va mushohada qilish aqlni peshlaydi. Aql ongни saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'anaviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflı mehnat va qunt, iroda talab etiladi. Buning uchun bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy, insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynaydi. Ota-onalarimiz va atrofdagilarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini ko'rjan bola shunga qarab shakllana boradi. Ular avval kattalarga taqlid qiladilar. So'ng asta-sekin qilayotgan ishlarining mohiyatini anglaydilar. Bolalarni to'g'ri tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma'naviyati, bilimi tarbiyalanganligi ham muhim ahamiyatga ega. Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradotligi tarbiyachining qanday usuldan foydalanishiga bog'liq. Usul yunoncha atama bo'lib, aynan qandaydir yo'l orqali maqsadga erishishni bildiradi. Usul axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi usullarga bo'linadi:

- 1) so'z orqali ifodalash usuli;
- 2) ko'rgazmalilik usuli;
- 3) amaliy namuna usuli;
- 4) rag'batlantirish va jazo usuli.

Yuqoridaq usullar, o'z navbatida, quyidagi guruhchalarga bo'linadi:

- a) so'z orqali uzatish, maslahat berish, ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma'ruza, suhbat va hokazolar;

- b) kinofilmlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va boshqalarni ko'rish orqali tarbiyalash;
- d) tarbiya ma'lumotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o'tnak ko'rsatish, boshqalarning amaliy mehnatini misol qilib ko'rsatish;
- e) o'quvchilarning yaxshi bajargan ishlarini o'rtoqlari oldida yoki ota-onalar majlisida ma'qullah, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy yordam, maqtov yorliqlari topshirish, suratlarini hurmat taxtasiga osish va boshqa og'zaki „rahmat“, „barakalla“ kabi rag'batlantirish usullarini kiritish mumkin.

3.2. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va rejalashtirish

Tarbiya jarayonining mazmunini bolalarga beriladigan ma'-naviy-axloqiy bilimlar tizimi, ishonch, e'tiqod, intizom, xulq-atvorning bir butun holati tashkil etadi. Mustaqil O'zbekistonning istiqlol va istiqboli uchun fidoyilik ko'rsatuvchi avlodni tarbiyalash mazmuni tamoman o'zgacha xarakter kasb etmoqda:

- fuqarolik demokratik jamiyatini barpo etish mohiyatini anglab oluvchi;
- vatanini har doim turli oqimlardan himoya etuvchi;
- diniy bag'rikenglik va mehr-muravvatli bo'lish;
- davlat siyosatini tushunish, unga fidoyi bo'lish;
- o'zligini anglash, ajdodlar merosini qadrlash;
- yuqoridaagi komil insonga xos sifatlarni tarbiyalash;
- maqsadning aniqligi, uni to'g'ri yo'naltirish madaniyat;
- tarbiyachi-o'qituvchi va tarbiyalanuvchining hamkorlik faoliyati;
- o'zini anglash, mustaqil fikrlovchi, e'tiqodlilik.

Ta'lim muassasasi tarbiyachilarining tarbiyachilik faoliyati va uni amalga oshirish metodikasini „Uchinchi ming yillikning bolasi“ qo'llanmasidan foydalanishni tavsiya etamiz. Tarbiyaviy ishlarning mazmunida bir butun yondashishdan bosh maqsad — „Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari dasturi“dagi g'oyalarni bolalarning ongida o'ziga xos va mos ravishda singdiradi:

-- xalqimizning boy an'ana, udum, urf-odatlari va ajdodlarimiz merosidan foydalanish.

— O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan adolat, haq qat va erkinlikni, ishonch-e'tiqodni tarbiyalash.

-- yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi mohiyatini izohlash.

— mehr-muruvvatlilik va bag'rikenglik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lif jarayonida tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish o'ziga xos qoidalarga ega:

a) sinf' jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganish.

b) o'quvchilarining oilavny hayoti, ota-onaning farzand tarbiyalashdagi burchi va vazifasini o'rganish.

d) kundalik o'zgarishlarga o'quvchilarining munosabati.

e) o'quvchilarining sharqona milliy urf-odat, an'analar hqidagi bilim darajasi.

f) qornusiy ma'rifatparvar, mutafakkirlar hamda hozirgi zamon shoit, yozuvchilarining ijodiyotidan namuna bilishlari.

Yuqoridaqilarni aniqlashda suhbat, anketa usullaridan foydalanish o'rinnlidir. Shundagina har bir o'qituvchi-tarbiyachilarning betakror, bir-biriga o'xshamagan tarbiyaviy tadbir rejali bunyodga keladi. Bunday rejalar tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lib, ko'zlangan maqsadga erishtira oladi.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning asosiy omillari:

- Vatanga muhabbat va insonparvarlik.
- Milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish.
- Jismoniy barkamollik (sog'lim avlod uchun).
- Ota-onalar bilan ishslash.
- Ma'naviy tarbiya (odob-axloq).
- Go'zallik tarbiyasi.
- Iqtisodiy tarbiya.
- Ekologik tarbiya.

Bu ishlarni rejalashtirishda tanlanadigan mavzular quyidagi talablarga javob berishi kerak:

⇒ Tarbiyaviy tadbirlar rejasi va undagi mavzular davr talabiga javob berishi.

- ⇒ Tanlangan mavzular milliy va umuminsoniy qadriyatlar qamrovida bo‘lishi.
- ⇒ Tarbiyaviy tadbirlar uzviylik qoidasiga amal qilingan bo‘lishi.
- ⇒ Mavzular o‘quvchilarning yoshi va bilim saviyasiga mos bo‘lishi.

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bosqichida o‘qituvchining mas’uliyatli lahzalari talaygina. Birinchidan, dasturda ko‘zda tutilgan ishlarni tayyorlangan ssenariy asosida uning borishiga tuzatishlar kiritib, vazifasini amalga oshiradi va kuzatib boradi. Ikkinchidan, o‘qituvchi butun jamoa va ayrim tarbiyalanuvchilarni kuzatib boradi, chunki u biladiki, tarbiyaviy ishlar tarbiyalanuvchilarda muayyan fazilatlarni rivojlantiradi, bu fazilatlarning shakllanganlik darajasini aniqlashga imkon beradi. Uchinchidan, o‘qituvchi tashkiliy masalalarning aniq hal etilishini kuzatib boradi. Umuman, bu bosqichdagi boshqaruv faoliyati darsdagi ayni shunday faoliyatdan kam farqlanadi, ammo u murakkabroq, chunki hisobga olish, nazorat qilish va ko‘plab omillarga tuzatish kiritish lozim bo‘ladi:

- tarbiyalanuvchilarni o‘zining ishtiroki bilan chegaralab qo‘ymaslik kerak.
- tarbiyalanuvchilarga o‘z fikrlari va hissiyotlarini erkin ifodalashlari uchun xalaqit bermaslik lozim.
- hodisalarning rivojini diqqat bilan kuzatish va uning nazoratdan chekkaga chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.
- nomaqbul harakatlarni oqilona va o‘z vaqtida tuzatish.
- bo‘lib o‘tayotgan jarayonni sezdirmasdan qayd etib borish lozim.
- natijalarни e’lon qilish.
- jamoaviy muhokama yoki individual pedagogik tahlil hamda yutuq va kamchiliklarning sabablarini ochish maqsadi qo‘yiladi.

Tarbiyaviy ishlarning tahlili

- 1) Rejada tarbiyaviy ishlarni tayyorlash va o‘tkazishning barcha ko‘rinishlari o‘z aksini topganmi?

- 2) Dastur mazmuni ko'zlangan maqsadga javob beradimi?
- 3) Ko'zlangan maqsad, vazifalar va talablarga tashkil etish darajasi javob beradimi?
- 4) Rejalashtirilgan barcha me'yorlar yetarli darajada manbalar bilan mustahkamlandimi?
- 5) Ishning qaysi bo'limi yaxshiroq amalga oshdi, nima uchun?
- 6) Tarbiyaviy ish vaqt nuqtayi nazaridan o'zgarmadimi?
- 7) Kim va nirna uchun o'z muddatida ulgurmadi?
- 8) Tarbiyaviy ishlar bir tizimni ifoda etadimi yoki nomigagina bog'langan to'plamdan iborat bo'ldimi?
- 9) Yangilik samarasini sezildimi?
- 10) Tarbiyaviy ishning emotsiyonalligi uning g'oyasiga javob berdimi?
- 11) Ishning sifati, o'quvchilarining unga munosabati qoniqtiradimi, ularni qaysi savollar o'ylashga majbur etdi?
- 12) Tarbiyaviy ishda ishtirok etgan jamoaning har qaysi a'zosi qanday bahoga loyiq?
- 13) O'quvchilarining xulqi qanday edi?
- 14) Nima uchun ayrim o'quvchilarda u yoki bu pedagogik harakatga nisbatan qarshilik ko'rsatish alomatlari paydo bo'ladidi?
- 15) Nimadan voz kechish kerak?

Tarbiyaviy ishlarda pedagogik texnologiyaning umumiy belgilari:

- tarbiyaviy ta'sir tarbiyaviy ishlarning kompleksi sifatida o'ziga o'yinlar, tarbiyaviy suhbatlar va individual jihatlarning elementlarini qamrab oladi;
- har bir ish har bir tarbiyalanuvchining axloqiy, ijtimoiy va boshqa fazilatlari shakllanganligi darajasini kompyuter orqali tashxislash bilan boshlanadi.
- tarbiyaviy ta'sir tashxislash natijalarining faol tahlili va ideal shaxs bilan qiyoslaganda muayyan fazilatlarning shakllanganlik darajasiga yetganligini anglash bilan yuzaga keladi.
- tarbiyalanuvchilar kishilar orasida hayot uchun zarur bo'lgan fazilatlarni o'zlashtiradilar, o'zlarini anglashni o'rganadilar. o'z-o'zini kamolga yetkazish yo'llarini tasavvur qiladilar;

- shaxsiy kamolotga yetish dasturi (tashxislash natijalaridan qat'iy nazar) individual maslahatlar, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish natijasida mustahkamlanadi.


3.3. Zamonaviy maktab direktorining vazifasi

Yurtimizda ta’lim tizimiga mamlakatni barqaror taraqqiy ettirishning muhim omili sifatida e’tibor qaratilayotgani qisqa fursatdayoq o‘z sararasini ko‘rsata boshladi. Bu xalqaro jamoatchilik tomonidan ham ehtirop etilmoqda. Albatta, istiqlol yillarda kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Fan-teknika va texnologiyaning zamonavy yutuqlari asosida ta’lim dasturlari takomillashtirilib borilmoqda. Tabiiyki, bunday sharoitda ta’limni boshqarish tizimida pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish, faoliyatda vujudga kelayotgan muammolarni ijobjiy hal etish borasida izlanishlar olib borish kabi dolzarb vazifalar yuzaga keldi. Jumladan, Prezidentimiz tomonidan bildirilgan quyidagi mulohazalar har bir yurdoshimiz, ayniqsa, boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotgan mas’ul rahbarlarni yanada mas’uliyatlroq bo‘lishga, hushyorlikka undaydi. Biz XXI asr — intellektual taraqqiyot asri, deb ko‘p gapiramiz. Modomiki, shunday ekan, bugungi kunda rahbar nafaqat aniq bir kasb-hunarning egasi, avvalo, o‘zining faoliyati va insoniyligi bilan xalqning ishonchiga munosib bo‘lishi, yuksak intellektual tafakkur sohibi, uzoqni ko‘ra oladigan, doimo yangilikka intilib, zamon bilan hamqadam bo‘lib yashaydigan, qat’iyatli shaxs bo‘lishi lozim.

Darhaqiqat, maktab direktori ham ta’lim muassasasi boshqaruvini zamonaviy usullarda tashkil etishi zarur. Bu esa ilg‘or tajribalarni va fan-teknika yutuqlarini muntazam o‘rganib, o‘z faoliyatiga tatbiq etib borishni, kasbiy faoliyatiga ijodiy yondoshuvni talab qiladi. Agar umumiy o‘rta ta’lim muassasasi rabbarida boshqaruv yo‘nalishlari bo‘yicha zarur bilim, tajriba, pedagogik mahorat, ko‘nikma va malakalar yetarli bo‘lmasa, ta’lim jarayonini boshqarishda vujudga keladigan turli muammolarning o‘z vaqtida, oqilona yechimini topishda uning ojizligi sezilib qo-

ladi. Ularning oldini olish hamda pedagogik xodimlar faoliyatini takom ilashtirish va natijada o'quv jarayonini rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biri boshqaruv faoliyatining ilmiy asosda tashkil etilishidir. Xalqimizda rahbar kadrlar va ularga xos xususiyatlarga sharqona yondoshuvning boy tarixiy-madaniy an'analari mavjud. Buning isboti sifatida Abu Nasr Forobiy tomonidan bildirilgan rahbarning fazilatlari to'g'risidagi fikrlarni keltirish mumkin. Unda rahbarning tabiatan nozik, farosatli bo'lib, umumiylahvol qandayligini aniq ravshan tasavvur qila olishi; voqe-a-hodisalarini xotirasida to'la-to'kis saqlab qoladigan; zehni o'tkir, zukko, o'z fikrini chiroyli so'zlar bilan ifodalaydigan, ravshan tushuntira oladigan; ta'lim olishga, bilim va ma'rifatga havasli bo'lib, uning mashaqqatlaridan qo'rqlmay, haqiqatni gapiradigan, odil va haqiqiy odamlarni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarni yomon ko'radigan; o'z qadrini biluvchi, oriyatli; tabiatanadolatparvar va o'zi zarur deb hisoblaganda chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyati, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi kabi insoniy hislatlar ta'kidlab o'tilgan. Shunga asoslanib aytish mumkinki, bugungi kunda ham maktabni boshqarish ishlari samaradorligida rahbarning shaxsiy fazilatlari muhim o'ringa ega.

Darhaqiqat, direktor shaxsi va uning ma'naviy sifatlarining qandayligi jamoa a'zolarining hamkorlikdagi innovatsion faoliyati hamda sog'lom ijodiy muhitga bevosita ta'sir ko'rsatishga tajribada ko'p guvoh bo'lganmiz. Jumladan, ularning muloqotga oson kirishuvchanligi, ochiqligi, o'zaro munosabatlarni o'rnatishda faolligi, intellektual rivojlanganligi, qo'pollikni yoqtirmasligi, ko'ngilchanligini misol qilib ko'rsatish mumkin. Zamonaviy makktab faoliyatini tashkil etish va boshqarishda ta'lim muassasasidagi barcha xodimlarning o'z mehnat faoliyati natijalaridan birdek qoniqish hosil qilishlari, jamoadagi to'g'ri mehnat taqsimoti, xodimlarning o'z vazifalariga nisbatan mas'uliyat hissining shakllanish, o'quv jarayonining hozirgi zamон talablari darajasida ilmiy asosda tashkil etish samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasi rahbarlari funksional vazifalarini qay darajada tushunib yetishlari va amalga oshirishlariga bog'liq bo'ladi (5- shak!):



5- shakl. Ta'lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari.

Axborot-tahlil funksiyasi boshqaruvda alohida ahamiyatga ega bo'lib, axborotlarni olish va tahlil qilish boshqaruv tizimining poydevori hisoblanadi. Bundan ko'zlangan birinchi maqsad — pedagogik tizimlar to'g'risida muntazam ravishda axborotlar to'plab borish, ularni chuqur o'rganish hamda obyektiv baho-lashdan iborat. Olingan xulosalar asosida boshqaruv faoliyatining, rivojlanish omillarini, aniq chora-tadbirlarini belgilash, ularning bajarilishini tashkil etish va nazorat qilib borishni yo'lg'a qo'yish lozim. Shuningdek, axborotlar ishonchli, yangi va foy-dali bo'llishi zarur.

Maqsadli-motivlashtirish funksiyasini amalga oshirishda, avvalo, ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsad umumiy ekanligini, mavjud shart-sharoitlar va vaziyatlarni hisobga olish zarur. Shuningdek, vazifalarni taqsimlashda maqsadlarning birligini saqlash, topshiriqlarning bajaruvchilar tomonidan o'z vaqtida va samarali bajarilishi uchun maqsadni belgilash jarayoniga ularni ham jalb etish, kutilayotgan natija yuzasidan oldindan tushun-

chaga ega bo'lish, topshiriqlar tahlil qilinib, ularning bajarilish muddatini aniq belgilash zarur. Bunda motivlarning xususiyatlarini hisobga olish, ya'ni ularning qaysi biri boshqaruva faoliyatini to'g'ri yo'naltirishga, qaysilari samarali harakatlar rejasini tuzishga imkoniyat yaratishini bilish o'ziga xos ahamiyatga ega.

Oldindan ko'ra bilish — rejalahshtirish funksiyasi tashkiliy shakllar, usullar, ta'sir etuvchi vositalarni aniqlaydi, nazorating me'yori va natijalarini baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogik tizim va uning ishtirokchilari faoliyatini muvofiq-lashtirish, tartibga solishga imkoniyat yaratadi. Demak, rahbar tomonidan ta'liri muassasasining holatini, erishgan natijalarini, rivojlanish imkoniyatlari va dinamikasini aniqlash, jamoadagi ruhiy rauhit, o'zaro munosabat va ehtiyojlarni o'rghanish hamda barcha uchun qulay bo'lgan o'zaro ta'sir jarayonini vujudga kel-tirish strategiyasini belgilash oldindan ko'rish — rejalahshtirish funksiyasining asosini tashkil etadi.

Tashkiliy-ijrochilik funksiyasi boshqaruva faoliyatining barcha yo'nalishlarida o'z ifodasini topadi. Ya'ni u kadrlar tanlash va ijrochilarining o'zaro ta'sir etish tizimini shakkantirish, axborotlar to'plash va ularga ishlov berish faoliyatları bilan bog'liq bo'ladi. Buning natijasida ma'lum bir pedagogik boshqaruvga xos tarkibiy tizim vujudga keladi. Uni samarali amalga oshirish o'zaro ishonch va yordam, har kimga tanlash huquqini berish, faqat maqsadni emas, balki unga erishish mezonlarini ham belgilash, xodimlarning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la namoyon etish uchun sharoitlar yaratish, tashabbuskorlikni rag'battantirish va har bir xodimning mehnatini obyektiv baholash bilan bog'liq bo'lib, jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitning vujudga kelishiда o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Nazorat-tashxis funksiyasi nazorat boshqaruva jarayonida amalga oshiriladigan barcha funksiyalar bilan bog'liq bo'ladi. Pedagogik tizimni boshqarish jarayonida ko'zlangan yo'nalishdan ma'lum bir ma'noda og'ishlar ham vujudga kelishi mumkin. Aynan shunday vaziyatlarda yo'l qo'yilayotgan xatolarning sababini o'z vaqtida aniqlash va tuzatish usullarini belgilashda na-zoratning o'rni muhim.

Tartibga solish — muvofiqlashtirish funksiyasi pedagogik tizimning holatini zaruriy, belgilangan darajada ushlab turish, uni yangi sifat darajasiga ko'tarish va pedagogik jarayonda yo'l qo'yilayotgan xatolarni tuzatish hamda ishtirokchilarning xatti-harakatlarini tartibga solish uchun xizmat qiladi. Mazkur funksiya yordamida pedagogik tizim subyektlarning faoliyati o'zaro muvofiqlashtiriladi. O'z navbatida, muvofiqlashtirish pedagogik tizimning harakat yo'nalishi bilan birga barcha bo'g'irlarning o'zaro uyg'unlashuvida yuqori darajadagi tezkorlikni talab etadi.

3.4. Pedagoglarning kasbiy faolligini oshirishda rahbarning vazifalari

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab o'qituvchi kasbining ahamiyati va nufuzini ko'tarish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan ishlar izchillik bilan ro'yobga chiqarilmoqda. Pedagoglarning moddiy turmush sharoitini yaxshilashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan bu e'tibor va g'amxo'rlik barcha o'qituvchilarning bilim, tajriba va mahoratini muntazam oshirib borish yo'lida o'z ustida ishlashi, tinmay izlanishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida tashkil etishga mas'ulligini yanada chuqur anglashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, sohaga yetuk yosh mutaxassislarning kelib qo'shilishiga keng imkoniyatlар yaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mакtab rahbarlari oldiga ham yangi vazifalar qo'yadi.

Ma'lumki inson har doim o'sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan, kadrlar salohiyatini yuksaltirishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to'g'ri tushunishlari lozim. Har qanday jamoa jamiyatning bir bo'lagi sifatida unga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni o'zida mujassam etgan bo'lishi lozim. G'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-ma'naviy va boshqa jabhalar shular jumlasidandir. Maktab rahbari boshqaruv faoliyatida qator funksiyalarni bajaradi: pedagogik jamoaning ilmiy-pedagogik faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, rejalashtiradi,

rag'batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, Shu jarayonlarni nazorat qilib boradi. Jumladan, yosh pedagogning o'zi tanlagan kasbga mehr qo'yishi, o'qituvchilik kasbining sirlarini mukammal o'rganishi va unda o'z kelajagiga nisbatan ishonch tuyg'ulari rivojlanishida ham maktab direktori katta ta'sir kuchiga ega shaxs hisoblanadi. Bundan tashqari, rahbar jamoada o'z o'rniqa ega bo'lib, u bilimi, muomalasi, ilmiy dunyoqarashi, pedagogik xodimlar bilan o'zaro munosabati, maqsadga intilish, ijtimoiy xulq va boshqalarda namuna bo'lishi zarur. Bundan jamoaning a'zosi o'ziga xos ta'sirlanadi. Rahbar boshqaruv faoliyatida o'zaro ta'sirning ikki yo'nalishi -- pedagogik jamoaga jamoaning pedagogik ta'sirini va bu o'zaro ta'sir har qanday holatda ijobjiy bo'lishini ta'minlashi zarur. Pedagogning jamoaga ta'siri uning orttirgan obro'si, bilimi, dunyoqarashi, o'zi tanlagan kasbga qiziqishi va qobilyati, o'z fanini puxta bilishi, jamoa bilan munosabati, o'z ustida ishlashi tashkilotchilik qobiliyati va tashabbuskorligi singari ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masa-lan, obro'ga ega bo'lgan mutaxassis shaxslararo munosabatlarda yuqor mavqega ega bo'ladi, jamoada uning fikr-mulohazalarini qadrlanadi, undan fikr, mulohaza so'raladi. Ammo obro' orttirishda shaxsiy sifatlarning o'zigina yetarli bo'lmay, u yoki bu mutaxassis haqidagi jamoatchilik fikri ham 10l o'ynaydi. Bu esa jamoaning pedagogga bo'lgan ta'siridir. Ya'ni jamoa pedagogning ayrim sa'y-harakatlarini rad etishi, qabul qilmasligi yoki aksincha, unga intilishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, jamoa bilan mutaxassisning ta'siri ikki xil, ya'ni ijobjiy va salbiy bo'lishi mumkin. Bunda rahbarning roli yaqqol namoyon bo'ladi. Ijobiy ta'sirni vujudga keltirishda rahbar pedagogik jamoa va ta'llim muassasasining manfaatlari bir-biriga mos kelishini istagan holda, xodimlarining muvaffaqiyat va kayfiyatları bilan qiziqish, tabassum bilan muomala qilish, xodimlarga hurmat bilan murojaat qilish, har qanday vaziyatda ham ularning shaxsiyatiga tegmaslik, ularning kamchiliklarini aytganda, albatta, ularning muvaffaqqiyatini ham e'tirof etish kabi eng maqbul uslublarni o'z faoliyatiga tatbiq etishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy maktabni boshqarish murakkab, ko'p komponentli tashkiliy tuzilishlarga ega bo'lib, bunda asosiy maqsadga, ya'ni o'quvchilarni hayotga tayyorlash, ularni mehnatga va murakkab ijtimoiy shart-sharoitlarga mustaqil ravishda tezroq moslashishlarini ta'minlashga erishishda ta'lim muassasasidagi barcha subyektlarning sa'y-harakatlarini shu maqsad yo'lida birlashtirish, o'zaro hamkorlik muhitini yaratish muhimdir.

3.5. Maktabda to'garak ishlarini tashkil etish

„Barkamol avlod“ bolalar markazlari xalq ta'limi tizimining tarkibiy qismi bo'lib, asosiy vazifasi o'quvchi-yoshlarning maktabdan va sinfdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ular ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish, ajdodlarimizning necha ming yillik madaniy merosini bugungi kun yutuqlari bilan boyitib, o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazishdan iborat. Maktabdan tashqari ta'limni milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, hududiy o'ziga xoslik asosida tashkil etib, hozirgi zamon talablari darajasida isloh qilish davr talabiga aylandi. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan davlat talablari ilmiy va hayotiy jihatdan asoslangan bo'lib, „Barkamol avlod“ bolalar markazlarining ta'lim-tarbiyaviy mazmuni va uni o'zlashtirish darajasining zaruriy quyi chegarasini belgilaydi hamda baholash mezonlarini aniqlab beradi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida „Madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'naliishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish“ zarurligi ta'kidlangan. Ta'lim sifatini yaxshilash, tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatini belgilaydi. Bola sog'lom va har tomonlama bapkamol bo'lib voyaga yetishi uchun uning qalbida o'qishga intilish hissini o'stirish, ongida kasb-hunar va mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, umummadaniy bilimlarni, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, Vatani va xalqiga nisbatan sadoqatni shakllantirish, atrof-muhitga mehr-muhabbatni tarbiyalash lo-

zim. Bola o‘zi o‘rganayotgan hunarning jamiyatdagi o‘rnini churqur anglashi lozim. Ustozlar an’anasini davom ettirish, mehnatsevarlik fazilatlari, aqlli va tadbirkor bo‘lish, halol mehnat qilish hissi bolada ilk mashg‘ulotdan boshlaboq shakllana borishi kerak. To‘garakka olti yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar jalb qilinadi. O‘quv dasturi bir yilga mo‘ljallanadi. O‘quvchi musavvirlik san‘ati tarixi, namoyandalari va ularning ish uslublarini, ishlatiladigan xomashyolar, asbob-uskunalarini, naqshning boshlang‘ich elementlarini, badiiy bezatiladigan buyumlar sifatini, miniaturalar uslubini, bir-biridan farqlanadigan ranglarni bilishi lozim. To‘garak a‘zolari musavvirlat ish uslubidagi farqlarni fahmlash, xomashyo va asbob uskunalaridan foydalana olish, amaliy bezak turlarini bir-biridan ajrata bilish, badiiy bezalgan buyumlarga ishlov berish va ularni sifatlarga ajrata olish, odam, gul, daraxt, tog‘, hayvon va binoni qalamda chizish, ranglarda bo‘yash, ko‘p kishidan iborat miniatURA kompozitsiyasini tuzib, unga rang berish, pannoga miniatURA ishslash, qutichaning ustki qismini bezash kabi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak. Shu bilan birga, davlat talablarida har bir bolaning o‘quv yili davomida o‘zi tayyorlagan buyumlardan, chizgan ijod naimunalaridan ko‘rgazma tashkil etishi ham ko‘rsatilgan.

Davlat talablarining bajarilishini baholash jarayoni, to‘garak a‘zolarining o‘quv dasturini o‘zlashtirish darajasini belgilash katta ahamiyatga ega. Ularning davlat talablarini o‘zlashtirish samaradorligi ichki nazorat shaklida aniqlanadi. Ichki nazorat to‘garak rahbari tomonidan o‘tkazilib, har chorakda va o‘quv yili yakuni asosida bola egallagan ko‘nikma va malakalar og‘zaki, yozma, test sinovlari hamda amaliy ish natijalari asosida aniqlanadi. To‘garak a‘zolarining bilim sifatini nazorat qilishda makktabdan tashqari ta‘limga qo‘yilgan davlat talablariga muvofiq, tegishli ko‘nikma va malakalar shakllanib borgani namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning doimiy ravishda to‘garak mashg‘ulotlariga tayyorlarlik bilan kelishini ta‘minlash zarur. Shundagina ularda o‘z-o‘zini muntazam ravishda tahlil qilish, yakka tartibdagi qizi-

qish va xohishlariga mutanosib ravishda to‘garak yo‘nalishlarini tanlash imkoniyati vujudga keladi. To‘garak a‘zolarining to‘la-qonli bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan bo‘shliqning oldini olish, vaqtida aniq-lash va bosqichma-bosqich bartaraf etilishini nazorat qilib borish kerak. Bolalar uchun eng maqbul pedagogik, didaktik va psixologik shart-sharoitlarni yaratish, doimiy qo‘llab-quvvat-lash, ruhlantirish va ilhomlantirish muhim ahamiyatga ega. To‘-garak mashg‘ulotlari birinchi, ikkinchi va undan keyingi o‘quv yili uchun (bitta guruhda) haftasiga ikki marta uch soatdan yoki haftasiga uch marotaba ikki soatdan, jami olti akademik soatdan o‘tiladi. Har bir to‘garak a‘zosi o‘quv yili mobaynida ixtiyoriy tarzda bir to‘garakdan boshqa to‘garakka a‘zo bo‘lib o‘tishi, bir vaqtning o‘zida bir nechta to‘garakka qatnashishi mumkin. Mashg‘ulotlarda ma‘muriyatning ruxsati va to‘garak rahbarining roziligi bilan ota-onalar ham ishtirok etishga haqli. To‘garaklarga o‘quvchilarni qabul qilish may oyidan boshlanib, 10 — 15-sentabrgacha davom etadi. Yozgi ta’tilda to‘garak rahbari bolaning qobiliyati va iqtidorini aniqlab, tegishli yo‘nalishga tavsiya qiladi. To‘garak yo‘nalishlari xilma-xil bo‘lgani bois, murabbiylar metodik ta‘minotda uncha-muncha qiyinchiliklarga duch kelishlari tabiiy. Badiiy ijodiyot yo‘nalishida faoliyat olib borayotgan to‘-garak rahbarlari o‘z hamkasblariga har tomonlama amaliy yordam ko‘rsatadilar.

To‘garak mashg‘ulotlarining maqsadi va tamoyillari

Umumiy yo‘nalishni inkor etmagan holda, shuni ta‘kidlash lozimki, to‘garak mashg‘ulotlaridan quyidagi maqsadlar ko‘zda tutiladi:

1. O‘quvchilarning milliy qadriyatlarimiz ruhida, milliy maf-kura asosida tayyorlash.
2. O‘quvchilarning qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish.
3. O‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish.
4. Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, ularni ma‘-naviy barkamol qilib tarbiyalash.

5. O'quvchilarni mustaqil fikrlash, izlash, ijodga o'rgatish, tashabbuskorlik, tashkilotchilik kabi xislatlarga tarbiyalash.
6. Ifodali o'qish, to'g'ri va ta'sirchan so'zlashga o'rgatish, o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish.
7. Darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish.
8. O'z qadriyatlarimizni unutmagan holda umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilishga o'rgatish.

Inson tanasi oziqa talab qilganidek, uning ko'ngli ham ruhiy oziqaga muhtoj. Inson harsisha hayotdan ma'no qidirib yashagan, ma'naviyat deyishimizning boisi ham shu bo'lsa kerak. Umr bo'yi ma'naviy barkamollikka intilib yashagan inson to tirik ekan, ma'naviy tashnalik so'nmaydi. Ma'naviy ehtiyoj bir kun, albatta, yuzaga chiqadi — buloq ko'z ochadi. O'qituvchini ana shu buloqning ko'zini ochuvchilar desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ma'naviyat tarbiyasida ota-bobolarimizning ma'naviy va ilmiy merosi, o'tmishta yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz namunasi katta ro'l o'yaydi. Demak, ma'naviy barkamol bo'lish uchun faqat til va adabiyotdan olingan bilimlar yetarli emas ekan. Haqiqiy ma'naviy boylik xalq tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, ajdodlarimiz ilmiy merosini ham o'z ichiga oladi. Sinfdan tashqari ishlarni olib borishda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

- ⇒ *Ilmiylik.*
- ⇒ *Ko'rgazmalilik.*
- ⇒ *Tushunarilik.*
- ⇒ *Qiziqarlilik.*
- ⇒ *Muntazamlik va izchillik.*
- ⇒ *Ixtiyorilik.*
- ⇒ *Nozariyani amaliyot bilan bog'lash.*

To'g'arak ishlarining o'zaro bog'liqligini ta'kidlagan holda, yana shuni aytish kerakki, ularning farqli tomonlari ham bor. Dars o'quv-tarbiya jarayonining asosiy shakli bo'lib, u ma'lum dasturi, reja asosida, dars jadvalida ko'rsatilgan vaqtida o'tiladi.

To‘garak mashg‘ulotlari, garchi rejalashtirilsa ham, dars jadvaliga kiritilmaydi. Sinfda, asosan, bir xil yoshdagi o‘quvchilarga dars o‘tiladi. Aqlan va jismonan sog‘lom o‘quvchi shu sinf uchun belgilangan dasturni o‘zlashtirishi shart. Sinfdan tashqari ishlarda bir paytning o‘zida har xil yoshdagи o‘quvchilar ishtirot etishi mumkin. Dars jadvaliga qo‘yilgan darslarga kirish o‘quvchi uchun shart, o‘qish majburiydir. To‘garak mashg‘ulotlarida ishtirot etish ixtiyoriylikka asoslangan. To‘garak mashg‘ulotlarini mazmun-mohiyati jihatidan olib qaralganda bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, biroq ularning bir narsa emasligi ayon bo‘lib turibdi.

? ! Savol va topshiriqlar

1. Tarbiyaviy ishlarning asosiy yo‘nalishlarini izohlab bering.
2. Tarbiyaviy ishlarning manbalariga nimalar kiradi?
3. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullarini gapirib bering.
4. Zamonaviy maktab direktorining vazifalari nimalardan iborat?
5. Kasbiy faoliyat deganda nirmani tushunasiz?
6. To‘garak ishlarini qanday tashkil etish mumkin?
7. To‘garaklarni tashkil etishda qaysi tamoyillarga amal qilinadi?
8. Qatnashgan to‘garagingiz haqida hisobot tayyorlab kelng.





IV BOB. TARBIYAVIY ISHLAR TIZIMIDA TEXNOLOGIYALAR

4.1. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiysi

„Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiysi“ Xalq ta’limi vazirligi tomonidan 1993-yili tasdiqlangan edi. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan „Ta’lim to‘g’risida“gi Qonun va „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ni, ular asosida ishlab chiqilgan hukumat va vazirlik qarorlarini hayotga tatbiq etish, ta’lim sohasini tubdan isloh qilish maqsadida mazkur Konsepsiyanı qayta ishlashga to‘g’ri keldi. Yangi tahrirdagi Konsepsiya Qori Niyoziy nomidagi O’zPFITI olimlari guruhi, Respublika Ta’lim markazi mutaxassislari va Xalq ta’limi vazirligi xodimlari tomonidan ishlab chiqildi. Shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo‘naltirilgan ushbu Konsepsiyanı tayyorlashda Xalq ta’limi xodimlari va keng jamoatchilik fikrlari inobatga olindi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiysining zaruriyati. O’zbekiston Respublikasining istiqloqliga erishuvi hamda o’z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘liga ega bo‘lishi xalq xo‘jaligining turli sohalarida, jumladan, xalq ta’limi tizimida ham o’sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasi bilan bog‘liq jarayonni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so‘nggi yutuqlari asosida yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarur. Ayniqsa, o’smirlar orasida axloqiy va ma’naviy jihatdan tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish muhimdir. Zero, axloq yo‘q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham axloqiy tarbiya shaxsning har tomonlama va erkin shakllanishida asosiy o‘rinni egallaydi.

Maktab va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari tarbiyachilari (o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, bolalar yetakchilari va boshqalar) jamoasi oldida o‘quvchilarga umuminsoniy axloq

qoidalari asosida hayot kechirishni o'rgatishdek muhim vazifa turadi. Fanni o'rganishga muhabbat uyg'otish, bilimga tashnalik fazilatlari axloqiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismidir. Bolalarning o'qishdagi muvaffaqiyatidan uning guruhdagi o'rni aniqlanadi, atrofdagilarning u bilan munosabati belgilanadi, o'qishdagi muvaffaqiyat bolaning axloqiy tarbiyasini yuqori darajaga ko'taradi.

O'quvchilar qalbida yuksak ma'naviyatlilikni shakllantirishda kitob va kitobxonlikning ahamiyati beqiyosligini tushuntirish zarur. Kitob yoshlar uchun hayot maktabidir. Bilim manbayi bo'lgan kitobni sevish, uni o'qish va ko'z qorachig'idek saqlay bilish, o'qish uchun uni tanlay olish va o'qish madaniyatini biliш kerak. Bu ishda ustoz-u murabbiylar va kutubxona xodimlari yordam berishlari lozim.

4.2. Tarbiya texnologiyasi asoslari

Bizga yaxshi ma'lumki, tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzlusiz bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi zamонавиј та'lim texnologiyasi o'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik rolini yoqlayotgan bo'lsa-da, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeyini egallay olmaydi. Chunki unda xarakter, dunyoqarash yetarlichha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga ehtiyoj sezadi. Shu bois tarbiya texnologiyasi mantiqiy hamda tarkibiy jihatdan ta'lim texnologiyasidan farq qiladi.

Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayon yotadi. O'quvchilar faoliyatni tashkil etuvchilar bo'lib, ular tomonidan erishiladigan natijalarni rejalshtirish va unga erishish usullari, bu usullarni modellashtirish, ishlab chiqarilgan reja va modellarni ro'yogga chiqarish, bu rejalarни amalga oshiruvchi shaxsnинг faoliyati va axloqini boshqarish kabilar hisoblanadi.

Tarbiya — tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar — bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar — bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan da-

rajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilim o'rgana olmaydilar.

Tarbiya jarayoni:

- maqsadga yo'nalganlik;
- ko'p omillik;
- jo'shqinlik;
- davomiylik;
- uzlusizlik;
- komplekslilik;
- variantlilik;
- ikki tomonli xarakter;
- natijalarning olisligi.

Tarbiya vazifalari:

1. *O'z vatanining fuqarosini tarbiyalash.* Tarbiyaning bu vazifalarini amalga oshirish quyidagilarni taqozo etadi:

— milliy vatanparvarlik, o'z vataniga, tarixiga, madaniyatiga iftixor tuyg'usi;

— millatlararo madaniy munosabatlar, siyosiy madaniyat.

2. *Shaxsning ma'naviyatini shakllantirish.* Ma'naviyat — kishining ichki dunyosi bo'lib, uning jamiyat va tabiatdagi „Men“i, obrazi, taqdiri va rolini ifoda etadi. Ma'naviyat darajasi — bu, ma'lum ma'noda, insoniylik mezonidir. Ma'naviyatni shakllantirish -- bu uning shaxsiy harakatlari, intilishlari, refleksiyasi bilan kishining ichki dunyosini vujudga keltirishdir.

3. *Mehnatkash insonning iqtisodiy tafakkurini tarbiyalash.* Mehnatga, kasbga hurmat va ijtimoiy-psixologik jihatdan yoshlarda mustaqillik, ijod, ishchanlik, faollik, yuqori kasbiy tayyorgarlik sifatlarini kuchaytirish zarur.

4. *Ruhiy-jismoniy sog'lomlikni tarbiyalash.* Bu axloqiy-hayotiy muvozanat va psixologik qulaylik holatini ushlab turish hamda jismoniy rivojlanish me'yordan uzoqlashi bo'lgan ketishga yo'qo'ymaslik ko'nikmalarini shakllantirishdir.

5. *Kishining tabiat bilan munosabatini uyg'unlashtirish.* Eko-logik fozija muammosi davrimizning eng dolzarb muammolaridan biridir. Kishining tabiat bilan munosabatini uyg'unlashtirish

aniq hududiy o'ziga xoslikni hisobga olgan holda o'lkashunoslik va tabiatshunoslik bo'yicha amaliy faoliyatni kuchaytirish va kengaytirishni talab etadi.

Bu esa, o'z navbatida, tarbiyalanuvchilarga nafaqat ekologik xavfsizlik qoidalarini anglab yetish, balki tabiatni qo'riqlash ishida shaxsan qatnashish zarurligiga ishonch hosil qilish imkonini ham beradi.

6. *Shaxsda individuallik va jamoaviylikni tarbiyalash*. Sobiq Ittifoq davrida pedagogika shaxsni jamoaga va jamoa orqali tarbiyalashga yo'naltirilgan edi. Hozirgi paytda ayrim pedagogik doiralarda individual tarbiya haddan tashqari maqtalmoqda. Aslida individual va jamoaviy tarbiya bir-biriga zid emas. Individuallik tabiat tuhfasi bo'lib, uni rivojlantirish zarur. Modomiki, inson jamiyatda yashar ekan, u jamiyatdagi axloq va huquq me'zonlarini, ijtimoiy fikrlarni hurmat qilishi lozim. Mehnatning aksariyat ko'rinishlari uchun jamoa harakati zarur bo'ladi. Shuftayli jamoaviylik ruhida tarbiyalash dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Ayni chog'da individual tarbiya nihoyatda muhimdir, chunki bunga dastlab yetarlicha e'tibor berilmagan edi, hozir esa buni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar talab etmoqda.

Tarbiya tizimining milliy xususiyatlari:

- milliy tarix va madaniyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, an'analar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;
- milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo'lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish.

Tarbiya tamoyillari:

Tarbiya tamoyillari — bu umumiyl qoida bo'lib, unda tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish mazmuni, metodlari shakllariga bo'lgan asosiy talablar aks etgan. Ta'lim tamoyillaridan farqli ravishda ular o'qituvchilar tomonidan tarbiyaviy vazifalarni hal etishda qo'llaniladi. Bu tamoyillarning asosiy jihatlari: majburiylik (uyg'unlilik), teng ahamiyatlilik hisoblanadi. Tarbiya tamoyillari tarbiyachilar uchun tayyor, har narsaga yaraydigan qoida emas,

chunki uni qo'llasi bilan yuqori natijalarga erishib qolimaydi. Bu tarbiyachining na tajribasini, na mahoratini almashtira oladi, ularning amalga oshirishi shaxs faoliyati bilan shakllangan.

Tarbiya tamoyillari tizimi (sistemasi):

Tarbiyaviy jarayonga tayanuvchi tamoyillar tizimida quyidagilarni ajratish mumkin:

- tarbiyaning ijtimoiy yo'nalganligi;
- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi;
- tarbiyada ijobjiy jihatlarga tayanish;
- tarbiyani insonparvarlashtirish;
- shaxsiy yondoshish;
- tarbiyaviy ta'sirning umumiyligi.

Tarbiyaning ijtimoiy yo'nalganligi. Ilg'or o'qituvchilar tarbiyani ijtimoiy institut sifatida tushunganlar. Turli davlarda yo ijtimoiy, yo davlat, yoki shaxsiy yo'nalish kasb etib, uning mazmun tamoyillari o'zgargan. Mazkur tamoyil o'qituvchining baracha faoliyati tarbiyaning davlat strategiyasiga mos holda o'sib kelayotgan avlodni tarbiya vazifalariga bo'ysundirishni talab qiladi va tarbiyachilar faoliyatini shaxsni ijtimoiylashtirishga yo'naltiradi. Bu tamoyillarni amalga oshirishning asosiy qoidalari tarbiyaviy (mehnat, ijtimoiy, o'yin va b.) faoliyat jarayonida o'quvchilarда faoliyatning ijtimoiy qimmat va muhim sababga molik, ijtimoiylashtirish suratini tezlashtirishni tashkilashtirish zaruriyati bilan bog'langan.

Tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi. Mazkur tamoyil o'qituvchilar faoliyatining ikki asosiy yo'nalishini ko'zda tutadi:

- a) tarbiyalanuvchilarni kishilarning ijtimoiy va mehnat faoliyati, unda ro'y berayotgan o'zgarishlar bilan atroflicha va darrhol tanishtirish;
- b) tarbiyalanuvchilarni haqiqiy hayotiy munosabatlар, ijtimoiy foydali faoliyatning turli ko'rinishlariga jalb qilish.

Tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi tamoyilini amalga oshirish o'qituvchidan quyidagilarni ta'minlash mahoratini talab etadi:

- tarbiyalanuvchilar tomonidan mehnatning jamiyat va alohida shaxs hayotidagi rolini tushunish;

- fuqarolarning o'sib borayotgan talablarini qondirish uchun iqtisodiy bazaning ahamiyati;
- moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi mehnat kishiliga hurmat;
- ijodiy mehnatga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish;
- zamonaliviy ishlab chiqarishning umumiylashtirishini tu-shunish;
- iqtisodiy bilimlarni egallash;
- umumiylashtirishni, mehnatni ilmiy tashkil etish;
- mehnat faoliyatiga shaxsiy va ijtimoiy qarashlarni qo'shib olib borish;
- jamiyat mulki va tabiat boyliklariga ehtiyojkorona munosabatda bo'lish;
- xo'jasizlik, mas'uliyatsizlik, boqimandalik, tekinxo'rlik ko'rinishlariga murosasiz munosabatda bo'lish.

Tarbiyaning hayot, mehnat bilan aloqasi tamoyili quyidagi shartlarga rioya qilib amalga oshiriladi:

- ijtimoiy, iqtisodiy va mehnat tarbiyasida mavhumlik va aqidaparastilikni bartaraf etish;
- tarbiyalanuvchilarining faoliyatini turli ko'rinishlarida (shu jumladan, ta'til davridagi ishlarni qo'shgan holda) ishtirok etish xohishlarini qo'llab-quvvatlash;
- tarbiyaviy ishlarda mahalliy o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish;
- qabul qilinayotgan qarorlarga mas'ullik hissini o'rgatish;
- ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda bo'layotgan o'zgarishlarga muvofiq tarbiyaning mazmuni, metodi, vosita va shakllarini yangilash.

Tarbiyaviy jarayonni shunday tashkil etish kerakki, tarbiyalanuvchilar o'z mehnatlarining kishilar jamiyatini uchun zarrurligini, ularga manfaat keltirishini sezsinlar.

Tarbiyada ijobiyligi jihatlarga tayanish. Tarbiyada foydali ishga tayanish kishidagi ijobiyligi hislatlarni va shu asosda yetarlichcha shakllanmagan yoki salbiy shakllangan sifatlarni zarur daraja va uyg'unlikda aniqlashni ko'zda tutadi.

- Tamoyilni amalga oshirish quyidagi qoidalarga asoslanadi:
- tarbiya tizimida adovat, tarbiyalanuvchining kurashi, kuch va jarayonlarini qarama-qarshi qo'yish mumkin emas;
 - ijobjiy natijalar tarbiyalanuvchi taqdirida tarbiyalovchining hamkorlik, toqat va manfaat ko'ruchchi sifatida ishtirok etish imkoniyatini beradi;
 - tarbiyalanuvchining axloqida yuzaga kelgan kamchiliklarga diqqatni qaratmaslik, ijobjiyalarini aniqlash va qo'llab-quvvatlash zarur;
 - o'quv yurtida ijobjiy tarbiyaviy muhit, ruhiy-psixologik iqlimi yuzaga keltirish, saranjom-sarishtalik, tozalikni saqlash zarur;
 - tarbiyalanuvchilarни yuqori natijalarga erishish imkoniyati mavjudligiga ishonch hosil qilish.

Terbiyani insonparvarlashtirish. Bu tamoyilga qo'yiladigan asosiy talablar:

- tarbiyalanuvchi shaxsiga insoniy munosabat;
- uning huquqi va erkinligini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchiga kuchi yetadigan va oqilonha shakllantirilgan talablarni qo'yish;
- tarbiyalanuvchining holatini, hatto u taqdim etilgan talablarni bajarishidan bosh tortgan paytda ham tushunish;
- kishining o'zi bilan o'zi bo'lish huquqini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchilar ongiga tarbiyaning maqsad va vazifalarini yetkazish;
- talab etilayotgan sifatlarni majburiy shakllantirmaslik;
- shaxsning or-nomus va qadr-qimmatini kamsituvchi jazoga yo'l qo'ymaslik;
- ma'lum sabablar bilan shaxsning haqligiga zid keluvchi sifatlarning shakllanishini uning tomonidan to'liq rad etilish huquqini tan olish.

Tarbiyaviy jarayonning insonparvarlashtirilishi uning demokratlashtirilishi bilan bevosita bog'langan. Demokratlashtirish, dastavval, tarbiyaviy tizimning barcha bosqichlarining usul va metodlarida ko'rindi. Shu ma'noda demokratlash avtoritarizmning eksidir.

Shaxsiy yondoshish. Bunday yondoshish tarbiyalanuvchilarning shaxsiy sifatlariga tayanishni ko'zlaydi va tarbiyachidan quyidagilarni talab etadi:

- shaxsning individual xususiyatlarini (xarakteri, mijozи temperamenti, qarashlari, odatlari va b.) muntazam o'r ganish va yaxshi bilish;
- mohirona tashxislash va shaxsiy sifatlarning real shakllanganlik darajasini bilish;
- tarbiyalanuvchini shaxsning rivojlanishini ta'minlovchi murakkablashib boradigan faoliyatga tortish;
- shaxsning faolligiga tayanish;
- shaxsni tarbiyalashdan o'z-o'zini tarbiyalashga o'tish, maqsadi, mazmuni, metodlarini, o'z-o'zini tarbiyalashning shakllarini belgilash mahoratini hosil qilish;
- faoliyatning muvaffaqiyatga olib keluvchi mustaqillik, tashabbus, tarbiyalanuvchilarining tashabbuskorligini, mohirona tashkil etish va yo'naltirishni rivojlantirish.

Tarbiyaviy ta'sirning umumiyligi. Bu tamoyil tarbiyaga daxldor bo'lgan barcha shaxslar, tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, pedagogik ta'sirni o'zaro to'ldirgan holda, birlashib harakat qilishlari, tarbiyalanuvchilariga kelishilgan holda talablar qo'yishlari, bir-birlariga yordam berishlari talab etiladi.

Tamoyilni amalga oshirishning asosiy qoidalari:

- tarbiyachilar tomonidan tarbiyaviy ta'sir etishning boshqa sohalarini hisobga olib borish;
- o'quvchilarining oilasi bilan aloqada bo'lish, tarbiyaviy vazifalarni hal etishda unga tayanish, tarbiyaviy harakatlarni keli shib olish;
- tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi (o'z tarbiyalanuvchilariga singdirilishi lozim bo'lgan sifatlarga ega bo'lish);
- tarbiyachining tarbiyaviy jarayondagi boshqa subyektlar bilan hamkorligida birlashtiruvchi (ayiruvchi emas) omilga tayanish;
- o'z hamkasblari, jamoasi, ijtimoiy tashkilotlar va boshqalarning ma'qul talablarining tarbiyachi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;

- tarbiyaviy ta'sir etishda an'anaviylik, tarbiyaviy jarayonda muntazamiik;
- tarbiyaviy jarayonning barcha subyektlari orasida aloqalar ni o'rnatish.

Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya jarayonining mazmuni — bu bilimlar, e'tiqodlar, ko'nikmalar, sifatlar, shaxs qiyofasi, axloqning barqaror odatlari sistemasi bo'lib, tarbiyalanuvchilar qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq ularni egallab olishlari zarur.

Tarbiyaning asosiy g'oyalari:

1. Tarbiya maqsadlari realizmi.
2. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati.
3. O'z yo'llini belgilab olish.
4. Tarbiyachining shaxsiy yo'nalganligi.
5. Ixtiyoriylik.
6. Jamoaviylikka yo'nalganlik.

Uyushgan tarbiya insonni hayotdagi uchta asosiy rolga — fuqarolikka, xodimlikka va oilaparvarlikka tayyorlashi lozim.

Fuqarolikni shakllantirish chog'ida aniq mo'jalga asoslanish:

- fuqarolik majburiyatlari — Vatan, jamiyat, ota-onalidagi majburiyat hissi, milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'usi;
- davlat konstitutsiyasi, davlat hokimiyati organlari, mam-lakat Prezidenti, davlat ramzlari (gerb, bayroq, madhiya)ga hurmat;
- mamlakat taqdiriga javobgarlik;
- jamoat tartibi va yashash madaniyati;
- mamlakatning milliy boyligi, tili, madaniyati, an'analarini asrab-avaylash;
- ijtimoiy faoliy;
- demokratik tamoyillarga riosa etish;
- tabiatni asrab-avaylash;
- o'zgalarning huquq va erkini hurmat qilish;
- faol hayotiy jarayon;
- o'z huquqini anglash va fuqarolik mas'uliyati;
- halollik, rostgo'ylik, sezgirlik, mehr-shavqat;

- o‘z ishi va qilmishlariga javobgarlik;
- xalqaro hamkorlik, boshqa mamlakatlar xalqiga hurmat va hokazo.

Xodimni farqlovchi belgilar:

- intizomlilik va mas’uliyat;
- ishchanlik va tashkilotchilik;
- urumiy, maxsus va iqtisodiy bilimlar;
- siyosiy bilimlar;
- mehnatga ijodiy yondoshish;
- qat’iyat, topshirilgan vazifani tez va sifatlari bajarishga intilish;
- kasbiy g’urur, mahoratga hurmat ko‘rsatish;
- onglilik, xushmuomalalik, tartiblilik;
- mehnat faoliyatini tajribasi;
- mehnatga, hayotga, faoliyatga estetik munosabat;
- jamoaviy, birlashib mehnat qilish layoqati;
- tashabbuskorlik, mustaqillik, Vatan, jamiyat ravnaqi uchun ko‘p va samarali mehnat qilishga tayyorlik;
- ishchanlik va uddaburonlik;
- mehnat kishilariga, ishlab chiqarish ustalariga hurmat va boshqalar.

Oilaparvarlikni farqlovchi belgilar:

- mehnatsevarlik, mas’uliyatlilik;
- xushmuomalalilik, muloyimlik, aloqa madaniyati;
- o‘zini jamoada tuta bilish;
- pokizalik, ozodalik, gigiyenik ko‘nikmalar;
- salomatlik, faol turmush tarziga ko‘nikish;
- dam olishni tashkil etish, o‘tkazish omilkorligi;
- har tomonlama bilimdonlik;
- huquqiy normalar va qonunlarni bilish;
- bolalarni tarbiyalash layoqati;
- nikohdan o‘tishga tayyorgarlik va oilaviy vazifalarni bajarish;
- o‘z otta-onalari, yoshi ulug‘ kishilarga hurmat va boshqalar.

Dunyoqarashni shakllantirish.

Dunyoqarash — bu kishi ongingin bilimlar, qarashlar, mas’ak va oliy maqsa’dalarni qamragan, tabiat va jamiyatning rivoj-

lanishiga uning munosabatini ko'rsatadigan, uning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-estetik mavqeyi va xulqini hayotning turli sohalarida belgilaydigan o'ziga xos sohadir.

Bilimlar — dunyoqarashning obyektiv komponenti sifati, shaxsning tavsifiy, tasdiqlanuvchi mulohazasi shakliga ega bo'lib, ilmiy haqiqat tarzida tasavvur etiladi.

Qarashlar — bu hikmatning tabiat va jamiyatda uchrovchi u yoki bu hodisalarini tushuntirish, bu hodisalarga o'zining munosabatini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan hukmlar, subyektiv xulosalardir.

Ishonch — bu chuqur anglangan va hayajon bilan boshdan kechirgan g'oyalar majmuyi bo'lib, ular mafkura, siyosat, axloq va san'atga daxldor bo'lgan shaxsning hayotiy mavqeyi hamda faoliyati va axloqi xarakterining barqaror ekanligini bildiradi.

Oliy maqsad — anglab yetilgan va ta'sirchan idrok etishning oliy kamoloti bo'lib, shaxsning faoliyat maqsadi va hayotiy maslagidir.

Dunyoqarash vazifalari:

- axborot in'ikosi;
- boshqaruvchi;
- baholovchi;

Dunyoqarashning asosiy ko'rinishlari:

- ilmiy;
- diniy;
- kundalik (hayotiy).

Ilmiy bilimlarning maslakka aylanishiga yordam beruvchi ruhiy-pedagogik mexanizmlar va pedagogik shart-sharoitlar:

- bilimlarni chuqur va mustahkam o'zlashtirish;
- dunyoqarash xarakteridagi barcha dalil va asoslarning mantiqan isbot etiluvchi va o'zaro zid emasligini chuqur ilmiy asoslash;
- ta'lim va tarbiyaning fuqarolik yo'nalishi;
- tarixiylik tamoyilini amalga oshirish;
- bilish aktivligi va mustaqilligini rivojlantirish;

- o‘rganayotganlarning o‘rganilayotgan materialga nisbatan hissiy munosabatini uyg‘otish;
- o‘qituvchi shaxsining ijobiylarini ta’siri.

Fuqaro — bu muayyan davlatda doimo yashaydigan, uning himoyasidan foydalananadigan, huquq va burchlar majmuyiga ega bo‘lgan shaxsdir.

Fuqaroni tarbiyalash o‘qiyotganlarda vatanparvarlik, xalqaro munosabatlar madaniyati, siyosiy madaniyatni tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Vatanparvarlik — o‘z vataniga, xalqiga sadoqat va mehrmuhabbatdir. Kishining tug‘ilib o‘sgan joyiga bog‘liqlik, ona tiliga bo‘lgan hurmat, vatan manfaatlariga sodiqlik va g‘amxo‘rlik, uning erkin va mustaqilligini himoyalash; ijtimoiy va madaniy yutuqlaridan faxlanish; tarixiy o‘tmish va axloqiy an‘analarga hurmat munosabati; o‘zining mehnati, kuchi va qobiliyatini vatan ravnaqiga bag‘ishlash hissi vatanparvarlikda namoyon bo‘ladi.

Xalqaro munosabatlar madaniyati turli xalqlarning xalqaro iqtisodiy, ma‘naviy axloqlari, turli millat vakillarining o‘zaro hurmat qilishlari, muayyan axloqiy xushmuomalalikni saqlashning, boshqa xalqlarning tili, odatlari va an‘analarini mensimaslikka yo‘l qo‘ymaslikda ko‘rinadi, bu munosabatlarning yuqori darajadagi takomili va rivojlanishini ko‘zda tutadi.

Xalqaro munosabatlar madaniyati quyidagilarni aks ettiradi:

— boshqa millat kishilariga, ularning tili, milliy urf-odatlari va an‘analariga hurmat;

— boshqa mamlakatlar va xalqlarning hayoti va madaniyati yutuqlariga qiziqish bilan qarash;

— umuminsoniy qadriyatlarini rivojlantirishga intilish.

Tarbiyalanuvchilar faoliyatining darsdan tashqari tizimini loyihalash. Darsdan tashqari faoliyat tizimi o‘qitishning nazariy va amaliy tizimini to‘ldiradi. Uning asosiy vazifasi o‘qitishdan tashqari vaqtini o‘zini-o‘zi tarbiyalash va ijtimoiy faoliyatini mehnat bilan shug‘ullanish uchun oqilona taqsimlashga yordam berishdir.

Ta’lim olayotganlarning darsdan tashqari faoliyatini loyihalash vazifalari:

- ijtimoiy moslashuv zonasini tashkil etish va o'qiyotganlarning ijtimoiy harakatchanligini ko'rsatish;
- bo'lajak mutaxassislarining kasbiy moslashuvi uchun ularga shart-sharoitlar yaratish;
- o'qiyotganlarni mustaqil o'qish yo'lli bilan ta'limni davom ettirishga yo'llash;
- har bir ta'lim oluvchining qobiliyati, qiziqishi va ishtiyoyqini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- o'quvchilarни erkin vaqtdan unumli foydalanish, damolish mahoratini egallashga o'rgatish.

Tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatları va o'ziga xos jihatlari xususidagi mayjud nazariy va amaliy g'oyalarga, pedagogik bilimlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlarini quyidagicha belgilaydi:

1. Tarbiya jarayonining umumiy loyihasi;
2. Tarbiyani tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag'bat);
3. Tarbiya maqsadi.
4. Tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar);
5. O'qituvchi (tarbiyachi) faoliyati;
6. O'quvchi (tarbiyalanuvchi faoliyati);
7. Tarbiya samarasasi (natija).

Tarbiya nazariyasi — pedagogikaning bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtayi nazardan yondeshish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi zamон pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarini aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo'lgan insonni emas, balki ijodkor, o'z iste'dodi bilan ajralib turuvchi ishbilarmon insonni tarbiyalash zamон taqozosidir.

O'quv yurtlarida tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish asosiga ilg'or milliy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlar va mezonlar, xalq

pedagogikasi, marosimlar, bayramlar, o'yinlar va boshqalar qo'yilishi kerak. Shu bilan birga, tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, jismoniy kuch-quvvati mustahkamlanadi.

4.3. Tarbiya texnologiyalari

O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qu-rish yo'lidan borar ekan, o'z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan avlod va mutaxassislarning ma'naviy shakllanishiga alohida e'tibor qaratilgan.

„Hozirgi davrda jamiyat rivojining asosiy maqsadi, — deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, — mustaqillikning milliy g'oya va mafkurasini mamlakatimizda yashayotgan har bir kishining dunyoqarashi, ma'naviy asosiga aylantirish kerak“. Milliy mafkura vazifalari maxsus tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiyaviy jarayon umumiyligi o'rtacha, o'rtacha maxsus va kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarida o'ziga xos mohiyat kasb etadi. Pedagog xodimlar, o'qituvchilar va tarbiyachilar milliy istiqlol g'oyasi bilan qurollangan bo'lib, uni har bir fuqaro ongiga yetkazish malakalariga ega bo'lishlari kerak.

Ta'lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish asosiga ilg'ori milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va mezonlar, xalq pedagogikasi, marosimlar, bayramlar, o'yinlar va boshqalar qo'yilishi kerak. Ularni tashkil qilish, o'tkazishda tarbiya texnologiyalaridan yoki interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarda o'z yurtiga mehr-muhabbat, vatanparvarlik, oilaparvarlik, kasbiy fidoyilikning shakllanishiga yordam beradi.

Tarbiyalanuvchilar faoliyatining darsdan tashqari tizimini loyihalash ularning darsdan tashqari faoliyat tizimida o'qitishning nazariy va amaliy qismini to'ldiradi. Uning asosiy vazifasi darsdan tashqari vaqtini o'zini-o'zi tarbiyalash bilan shug'ullanish uchun oqilona taqsimlashga yordam berishidir. O'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini loyihalash (6-shakl).

Darsdan tashqari faoliyatni loyihalash

O'quvchilarni mustaqil ishlash yo'li bilan ta'limga davom ettirishga yo'llash

O'quvchilarda ijtimoiy moslashuvni tashkil etish

O'quvchilarni bo'sh vaqtidan unumli foydalanish, dam olish mahoratini egalashga o'rnatish

Ta'lim oluvchining qobiliyati, qiziqishi va ishtiyoqlarini rivojlantirishga shart-sharoit yaratish

6- shakl. O'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini loyihalash.

Darsdan tashqari faoliyat tizimi ko'p komponentli bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

- ⇒ O'quv guruhi tarkibi;
- ⇒ Individual (yakka tartib);
- ⇒ Ijtimoiy birlashmalar va tashkilotlar;
- ⇒ Mehнат jamoalari;
- ⇒ Klublar, to'garaklar, muzeylar.

O'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatining o'ziga xosligi shundaki, uning har bir komponenti alohida loyihalashtiladi va har doim ham pedagogik ta'sir doirasи bilan qamrab olinmaydi.

4.4. Tarbiya maqsadini ishlab chiqish

Tarbiya -- bu insonni ijtimoiy tajribalar bilan, uning barcha shakllarida bilim, his-hayajon, estetika, odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning ichki o'ziga xos jihatlarini,

imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat hisoblanadi. Mana shu tarbiyaning asosiy manbayi shaxslar bo'lib qoladi — bu jamiyat va individning o'zidir. Tarbiyalanayotgan shaxs maqsadlari va qadriyatlari tizimida individuallik va ijtimoiylik nisbatlari muammosi tarbiya nazariyasida markaziy muammo hisoblanadi.

Jamiyat va shaxs bir-biri bilan qanday munosabatda bo'ladi? Shaxs jamiyatdan tashqarida yuzaga kelmaydigan jonzotdir, jamiyat esa, o'z navbatida, shaxslardan tashkil topadi. U shaxslar o'zaro munosabatlari jarayoni natijasi va jarayonning o'zidan iborat. Shaxssiz jamiyat yo'q va, demak, jamiyat ularga bog'liq bo'ladi. Ba'zida shaxsni mikrosotsitsi, jamiyatni esa makrosotsitsi, deb ataydilar. Bu bilan materiya harakatlanishining ijtimoiy shakli, ikki asosiy tarkibiy qismi to'g'risida gap borayotganligini ta'kidlaydilar.

Shaxs va jamiyatning yaqin bir-biriga bog'liqligi turli tomonlardan qaralishi mumkin. Biroq shaxs va jamiyat bir narsa va bir xilda o'xhash bo'lishi nimasi bilan farq qiladi? Uning farqi hajmiga aloqador bo'ladimi (kichik shaxs, katta jamiyat qabilida) yoki yana boshqa muhim farqi bormi, degan savollarga javob berish uchun o'zaro bog'liqlik mana shu doiradan chiqishi muhim. Mana shu ijtimoiy subyektlar funksiyalarining o'ziga xosligi nimalardan iborat?

Shaxs jamiyat emas. U jamiyatda paydo bo'lib, o'zini amalga oshirish jarayonida madaniyatini o'zgartiradi, ba'zan madaniyati rivojlanishida shunchalik ilgarilab ketadiki, o'n yillar, ba'zida hatto asrlar davomida jamiyat xotirasida qoladi.

O'zida jamiyat madaniyatining in'omlarini mujassam etgанилиги sababli, shaxs ijtimoiy tajribani yangicha talqin qilishda, ma'naviy va moddiy qimmatliklarni yaratishda, qayta anglashda mustaqil avtonom bo'lib qoladi.

Bunday shaxs o'zining zamondoshlari uchun ma'lum bo'lgan yoki begona tajribani olib kiradi, faqat vaqt o'tishi bilan asta-sekin jamiyatga kirib boradi. Bunday shaxs o'zini jamiyatga qarshi qo'yishi, unga qarshi chiqishi va u bilan kurashishga kirisishi mumkin.

Jamiyat — bu shaxs yoki shaxslar to'plami emas. Jamiyat — bu qadriyatlar o'z maktabini yaratadigan, har qanday subyektni xizmat qilishga majbur etishga intiluvehi, o'zining mavjudligini saqlab qolish uchun shaxsni yutib yuborishga qodir, o'zini harakatlantiruvchi ijtimoiy birlikdir. Shu bilan bir vaqtda, jamiyat insonlar to'plagan madaniyatni saqlab qolish va odamga yetkazish usuli demakdir.

Shaxs va jamiyat ijtimoiy hayotning ikki asosiy subyekti sifatida ishtirok etadi. Hatto eng qulay ijtimoiy sharoitlarda ham (eng noqulay ijtimoiy sharoitlarda ham) ular birlashmaydi va ular o'rtaсидagi farq kamaymaydi. Ma'lum sharoitlarda ular bir-biriga qarama-qarshi turishi mumkin.

Tarbiya, jamiyatdagi hodisa sifatida, o'sib kelayotgan avlodning jamiyat hayotida, turmushi, ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, ijodi va ma'naviyligida ishtirok etishi murakkab qarama-qarshi ijtimoiy-tarixiy jarayon hisoblanadi. Ularning odam bo'lishlari, rivojlanishlari va individualliklari, jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari muhim elementlari, shaxsiy baxtlarini yaratuvchilari bo'lib ishtirok etadi. U ijtimoiy taraqqiyot va avlodlar ketma-ketligini ta'minlaydi.

Tarbiya, ijtimoiy hodisa sifatida, uning mohiyatini ifoda etuvchi quyidagi asosiy belgilar bilan ifodalananadi:

1. Tarbiya o'sib kelayotgan avlodni ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish sharoitlariga jalb etish, ular bilan eskirayotgan va hayotdan chiqayotganlarini almashtirishning amaliy ehtiyojidan kelib chiqqan. Natijada bolalar katta bo'ladilar, o'z hayotlari va mehnat qobiliyatini yo'qotayotgan katta avlod hayotini ta'minlaydilar.

2. Tarbiya -- doimiy, zarur va umurniy kategoriya. U insoniyat jamiyatni yuzaga kelishi bilan birga paydo bo'ladi va jamiyatning o'zi yashar ekan, u ham mavjud bo'ladi. U jamiyatning mayjudligi va doimiyligi, uning ishlab chiqarish kuchlarini tayyorlash va insonni rivojlantirishni ta'minlashning muhim vositalasi hisoblanganligi uchun ham zarurdir. Unda qonuniy o'zaro bog'licliklar va bu hodisaning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan

o'zaro bog'liqliklari aks ettiriladi. Tarbiya, o'qitishning bir qismi sifatida, ta'limni ham o'z ichiga oladi.

3. Tarbiya — ijtimoiy-tarixiy rivojlanishning har bir bosqichida o'zining vazifasi, mazmuni va shakllari bo'yicha aniq tarixiy xususiyatga ega bo'ladi. U jamiyat hayoti xususiyati va tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun o'z davrining ijtimoiy qarama-qarshiliklarini aks ettiradi. Sinfli jamiyatda turli sinflar, qatlamlar va guruhlarda bolalarni tarbiyalashning asosiy tendensiyalari ba'zan qarama-qarshi bo'ladi.

4. O'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash — ularning ijtimoiy tajriba asosiy elementlarini o'zlashtirishlari hisobiga, ularni katta avlod ijtimoiy munosabatlariga, munosabatlar tizimiga va ijtimoiy zarur faoliyatiga jalb etishlari jarayoni va natijasi asosida amalga oshiriladi. Kattalar va bolalar o'zaro ijtimoiy munosabatlari va o'zaro aloqalari, ta'sirlari har doim ularni bolalar yoki kattalar anglab yetishlaridan qat'iy nazar, tarbiyaviy yoki tarbiyalovchi hisoblanadi. Eng umumiy shakllarida bu o'zaro munosabatlar, bolalar hayoti, sog'ligi va oziqalanishlarini ta'minlashga, jamiyatda ularning o'rnnini va ularning ruhiy holatini aniqlashga qaratilgan. Kattalar bolalar bilan o'zlarining tarbiyaviy munosabatlarini anglab yetishlari va bolalarda u yoki bu sifatlarini shakllantirish maqsadlarini o'z oldilariga qo'yar ekanlar, ularning munosabatlari yanada pedagogik, anglab yetilgan maqsadga yo'naltirilgan tus oladi.

Kattalarning ijtimoiy hodisa sifatida tarbiya xususiyatlarini anglab yetishlari asosida jamiyatda bolalar va jamiyat manfaatlari yo'lida tarbiyalash qonunlaridan tushunilgan va maqsadga muvofiq foydalanishga intilish yuzaga keladi. Katta avlod tarbiyalash munosabatlari tajribalarini umumlashtirishga, ularda namoyon bo'ladigan tendensiyalar, aloqlar, qonunlarni o'rganishga, ularidan shaxsni shakllantirish maqsadlarida foydalanishga ongli ravishda murojaat etadi.

Mana shu asosda pedagogika -- tarbiya qonunlari to'g'risidagi va bolalar hayoti, faoliyatini ongli ravishda hamda maqsadga muvofiq boshqarish maqsadlarida, ulardan foydalanish to'g'risidagi fan yuzaga keladi.

Shunday qilib, tarbiya — ijtimoiy hodisa — jamiyat va individning hayotini ta'minlash usuli sifatida zarurdir. U ma'lum tarzda shakllangan ijtimoiy munosabatlar va jamiyat hayot tarzi natijasidagi aniq tarixiy sharoitlarda amalga oshiriladi. Uni amalgaga oshirishning asosiy mezonlari shaxsning xususiyatlari va sifatlari hayot talablariga mos kelish darajasi hisoblanadi. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida butun ijtimoiy hayotning tabiiy bir qismidir. Shuning uchun uning qarama-qarshiliklari ijtimoiy hayotning eng umumiy qarama-qarshiliklarining ifodasıdir. Tarbiya aks ettiradigan bunday qarama-qarshiliklar qatoriga qotib va eskirib qolgan ishlab chiqarish munosabatlarining, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishni ortga surishi natijasida yuzaga keluvchi qarama-qarshiliklar kiradi. Bu qarama-qarshiliklar ijtimoiy tarbiyada o'sib kelayotgan avlodni tayyorlashga konservativ yonda-shishilar mustahkam o'rashib olishi ko'rinishiда namoyon bo'ladi. Bizning jamiyatimizda mustaqillik davrigacha ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish kuchlarining faqat davlat mulkchiligi asosida tashkil etilishi ishlab chiqarish o'sishini ortga surishga olib keldi. Davlat mulkchiligi va rejalashtirilishi ustunligi ijodiy shaxs faoliigi va tashabbuskorligiga, ko'pincha, to'sqinlik qiladi. Xalq ta'llimi tizimida bu o'zining mazmuni, shakli va metodlari qandaydir rasmiylashish hamda bir xilligi bilan ifodalanadi.

Tarbiyadagi boshqa bir qarama-qarshilik hayot talablari va shaxsning ijtimoiy hayotga va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyor-garligi darajasi o'rtasida yuzaga keladi. Hayot talablarini anglab yetish, mana shu talablar asosida tarbiya mazmunini va tashkil etilishini ko'ra bilish ilmiy-texnik taraqqiyot keskin rivojlanishidan ortda qoladi. Ushbu qarama-qarshilik chuqurlashib borgan sari o'sib kelayotgan avlodni zamonaviy tayyorlashga xalaqit qiluvchi „qalpoq“ va konservativ holatlarni o'z vaqtida aniqlash hamda yo'qotish zarur bo'ladi. Uni hal etish ta'llim va tarbiya mazmunini muntazam va mos ravishda hal etishni, ta'llim va tarbiya metodlarini hayot talablariga javob bera oladigan qilişni talab etadi. Mana shu holat ijtimoiy hayot yangi sharoitlari va unga bolalarni tayyorlash bilan uning eskirib qolgan usullari o'rtasidagi qarama-qarshilik hisoblanadi.

Tarbiyadagi uchinchi qarama-qarshilik — insondagi mavjud tabiat kuchlari, inson tabiatni rivojlanishi, uning cheklanmagan imkoniyatlari bilan jamiyat ijtimoiy hayotidagi bu rivojlanish cheklovi sabab bo'luvchi, dasturlashtiruvchi sharoitlar o'rtasida yuzaga keladi.

Erkinlikni cheklovchi avtoritar jamiyat iste'dodlarni so'ndiradi, odamlarni buzadi, iltifotli mansabdorlarga va befarq rasmiyatchilarga, ishlab chiqarish jarayonining bir ortiqcha qismiga, ijtimoiy hayotda to'siqqa aylantiradi. Demokratik jamiyat esa moddiy-texnik bazasini rivojlantira borib, turli ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirib, har bir inson shaxsining ijtimoiy hayot talablariga mos va o'zida mavjud tabiiy kuch, iste'dod va qobiliyatlarga nisbatan rivojlanishiga haqiqiy sharoit yaratadi.

Tarbiyaning to'rtinchchi qarama-qarshiligi — bolaning faol tabiat, uning ijtimoiy hayotda, turli munosabatlarda, muomallarda ishtirok etishga intilishi bilan hayot jarayonida amaliy, haqiqiy ishtirok etish uchun tajriba, bilim, malaka va ko'nikmalari yetishmasligi va uning tabiiy hamda ijtimoiy yetuk emasligi o'rtasida kuzatiladi. Ushbu qarama-qarshilik bolalar uchun idrok etishga, tarbiya jarayonida faol ishtirok etishga haqiqiy harakatlantiruvchi kuch, rag'bat hisoblanadi. U bolani faqat tarbiyaviy o'zaro munosabatlar obyekti sifatida emas, balki subyekti sifatida ham ijtimoiy hayotda ishtirok etishga ta'lif-tarbiyaviy tayyorlashga sabab bo'ladi.

4.5. Tarbiya tizimini ijtimoiylashtirish

Tarbiya tizimining rivojlanishi uchta jarayonning rivojlanishida aks ettiriladi: ijtimoiylashtirish, o'zini tarbiyalash va kasbiy ta'sir ko'rsatish. Bu jarayonlar uch asosiy subyektlar shaxsi bilan shakllanuvchi — jamiyat, individning o'zi va pedagogning bir obyekt bilan o'zaro munosabatlari davomida amalga oshiriladi.

Jamiyat to'g'risida to'xtalib o'tamiz. „Ijtimoiylashtirish“ tu-shunchasi tarbiya nazariyasida juda keng foydalilaniladi. Tadqiqotchilar uni qadriyatli ko'rsatmalari va tarbiyalash tamoyillariga

qarab tashuntiradilar. Hatto bu borada ma'lum an'analar yuzaga kelgan, katta ilmiy material ham to'plangan. Sotsiologik va psixologik adabiyotlarda ijtimoiylashtirish juda faol tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ijtimoiy hayotda jamiyat va shaxs rolini talqin qilish, albatta, qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiylashtirish konsepsiyasining shakllanishiga olib keladi. Qattiq ijtimoiylashtirish deb ataluvchi konsepsiya tarafdorlari, funksional maktab vakillari bu jarayonni shaxsni ijtiro ni tizimga to'la jalb etish sifatida belgilaydi. Sotsiologiya ijtimoiylashtirishni tahlil qilishda „moslashish“, „qulaylik“, „tenglik“ kabi muvozanat tushunchalariga tayanadi. Ularning tadqiqotlaridagi asosiy vazifa — individlarni ijtimoiy muhitga moslashtirish hisoblanadi.

Bu konsepsiya „yangi insonparvarlashtirish“ tarafdorlari qarshi chiqadi. Ular ijtimoiylashtirishda o'z qobiliyatlarini va la-yoqatlarini yaratuvchi shaxsni hamda shaxsning o'zini amalgalashirishi va o'zini namoyon etishiga to'sqinlik qilayotgan elementlarni tanqidiy yengishni ko'radilar.

Biroq, birinchi holatda, ma'lum tarzda ishlab chiqilgan muhitga ta'sir ko'rsatish to'g'risida gap yuritilayotgan bo'lsa, ikkinchi holatda, „ijtimoiylashtirish va shaxs“ tushunchalarini to'la adashtirish sodir bo'lmoqda. Ta'lim tizimidagi ijtimoiylashtirish deyarli chiqarib tashlashga, uning o'zini tarbiyalash bilan a'mashtirishga, tarbiyachi kasbiyligiga esa shakllanayotgan shaxsning mustaqilligini ta'minlash vazifasini yuklatishga harakat qilinmoqda. Birinchi nuqtayi nazar ijtimoiy hayot taraqqiy etgan asosiarni qayta ishlab chiqish muammosiga e'tiborni kuchaytiradi, ikkinchisi esa, madaniy ijodkorlik shaxsi ijodiy qobiliyatlariga erkinlik berishga qaratilgan.

Ma'lumki, bu ikki qarama-qarshi nuqtayi nazarlardan bioriasi ham amaliy hollarda tarbiya amaliyotini takomillashtirishga olib kelmaydi. To'g'ri, shaxs ichki dunyosini ijtimoiy manfaatlar bilan to'la bog'lab qo'yishga yo'l qo'yish mumkin emas. Lekin baribir jamiyat insonga ta'sir ko'rsatadi va ta'sir ko'rsatishni hisobga olmay bo'lmaydi. Ijtimoiylashtirish — muhit, jamiyatning shaxsga ta'siri demakdir. Shu bilan birga, ta'sir ko'rsatish shaxsning tashkil topishida juda zarur hisoblanadi.

Jamiyat, umuman, alohida kuch — o'ziga xos insoniy munosabatlар va o'zaro aloqalardir. Bu narsalar bo'lmasa, odam ham baribir muhitga juda moslasha oladigan hayvonligicha qoladi. Muomalalar davomida yuzaga keladigan insonlar munosabatlari mana shu jamiyat demakdir.

Biz ijtimoiylashtirish to'g'risida gapirar ekanmiz, odam ham, guruh ham, biomuhit, kosmos ham inson ko'ziga ko'rinishib va uning qalbida aks etib, maqsadga muvofiq bo'lmasa ham, insonga maxsus emas, faqat tasodifiy (ko'rinishi bo'yicha, mohiyati bo'yicha esa muqarrar va qonuniy) ta'sir ko'rsatib shaxsni shakllantiradi. Haqiqatda ko'zga ko'rinas ta'sir ko'rsatish nazorat qilib bo'lmaydigan jarayon. Muhitning u yoki bu elementlari qachon, qanday ketma-ketlikda, qanday nisbatlarda shaxs bilan munosabatlarga kirishishini bilib bo'lmaydi. Hatto ularning har birini aniqlash ham mumkin emas. Biroq muhit shaxs uchun shakllanib bo'lgan dunyoqarashiga yot bo'lgan faoliyat sharoitlari va tamoyillarini majbur qilishda quvonchni his etish qiyin bo'ladi. Agarda dunyoqarashi shakllanmagan bo'lsa, unda ham odamdan noqulay muhit ta'siridan qoniqishni talab qilib bo'lmaydi. Odam o'zi o'z hayotini tashkil etadi, u nima qilishi kerakligini o'zi tanlaydi: dunyoga qarab agarda unda o'z hayotini ko'rsa, xursand bo'ladi. Biroq taqdir shaxsan tanlash irkoniyatini chegaralaydi. U boshqalar tomonidan amalga oshirilgan, avvalgi avlod tanlagan mavjud vaziyatni odam oldiga qo'yadi, u bilan bahslashib bo'lmaydi. Uni meros kabi, shaxsiy turmushning bir qismi yoki asosi sifatida qabul qilish va mana shu tajribaga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerak. Muhit o'zida insonga monand axborotlarni yetkazadi, shaxs yuzaga kelishi to'g'risida ma'lumotlar beradi, shu bilan birga, bu axborotlarni insonga majburlamaydi. Xohlovchilar uni o'zlashtirishi mumkin. Shunda uning hayoti taqdiriga qarshi bo'lib qolmaydi, taqdiri rivojlanishiga to'siq bo'lmaydi. Uning dunyoga munosabati, quvonchli yoki alamli ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar, mazmuni bo'yicha ancha chuqur bo'ladi.

Shuning uchun jamiyat go'yoki tabiiy ravishda bolaga o'zining yaxshi tomonini namoyon etishga, unga „kulib boqish-

ga“ harakat qiladi. Mana shu hayotga kirib kelayotgan insonga o‘ziga xos munosabat faqat beg‘araz emas, balki jamiyatning g‘amxo‘rligi harndir. U eng to‘g‘ri, asrlar davomida shakllangan tamoyillashtirish yo‘lidir. Faqatgina mana shu narsa shaxsning tabassum qilishiga olib kelishi mumkin. Individni muhitga jaib etib, insonning keng jamoa va hodisalar bilan munosabatlarda bo‘lishi imkoniyatini taqdim etishda, ularning javoblari shaxs uchur baholash shaxsiy mezonini ishlab chiqishda asosiy me’yor bo‘lib qoladi — mana shunga ijtimoiylashtirish deviladi. U kasbiy tarbiyaviy faoliyatdan ham iborat emas, balki nisbatan mustaqil jarayon hisoblanadi, shaxsga rol o‘yinini „qiyinlash-tirish“ alohida vazifasini bajaradi. Mana shusiz u anglab yetilmagar bo‘lib, jamiyatda yakkalanib qoladi. Insonparvar bo‘lma-gan yangi shaxsning faolligi sababsiz bostirilishi, individning laycoqati, intilishlari hisobga olinmay ijtimoiy vazifalarni majbur-lash sodir bo‘ladigan insonga muhitning ta’sir ko‘rsatishi bilan ijtimoiylashtirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Ijtimoiylashtirish — bu shakllanayotgan shaxsning va uning kelajakda mumkin bo‘lgan shaklini belgilovchi birlikning o‘zaro aloqalari jarayonidir. „Insonparvarlashtirish“ tushunchasi, ko‘pincha, ma’naviyash-tirish doirasiga taalluqli deb tushuniladi.

Hozirgi kunda bu keng qo‘llaniladigan tushuncha, umumiyo‘nalish ahamiyatiga ega. Insonparvarlashtirish asosiy vazifa sifatida qaralmoqda, uni hal etmay turib ijtimoiy taraqqiyot to‘g‘risida gapirish mumkin emas. Insonparvarlik — bu inson qanday bo‘lishi, uning mohiyati qandayligi to‘g‘risida o‘ylash va g‘amxo‘rlikdir. Bu o‘zini anglashdir va shu bilan bir vaqtda, mayjudlikni himoya qilishdir. Shaxsning qimmatini tasdiqlash, shaxsni faqatgina vosita sifatida qarashga har qanday urinishlar-ning muhimsizligi ifodasidir. Shundan so‘ng insonparvarlik shaxsni ijtimoiy shaxs sifatida qarashni ko‘zda tutadi. Ijtimoiy hayotda subyektning barqarorligini ta’minlash mexanizmini shakllantirish — bu g‘oya demak. Har qanday ijtimoiy guruh, kattami yo‘ kichikmi, hamda shaxs va jamiyat ozmi-ko‘pmi shakllangan o‘z g‘eyasini paydo qiladi. G‘oya obyektiv bo‘lma-gan dunyo ko‘rinishini emas, balki g‘oya yetkazuvchi saqlanib

qolishi ta'minlanadigan doirada dunyoga qarash tizimini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Albatta, g'oya chuqur rivojlantirilgan bo'lsa, agar subyektning boshqa subyektlar bilan aloqasi hisobga olingan bo'lsa, unda bunday obyektiv ong ijtimoiy rivojlanish umumiy tendensiyasiga ham qarama-qarshilik qiladi, hatto deyarli mos kelishi mumkin. Lekin u bilan hech qachon batamom birday bo'la olmaydi, chunki jamiyat va uning alohida subyekti o'xhash bo'la olmaydi.

G'oyasiz, markazga intilgan yo'nalish subyektning mana shu bilimlar tizimisiz, ijtimoiy fikr umuman mavjud bo'lmaydi, ular markazga intilgan kuchlarni — entropiya kuchlarini, subyektning buzilishini yengish vositalari hisoblanadi. G'oyalar doirasida asosiy ijtimoiy qadriyatlar to'g'risidagi bilim yuzaga keladi, ishlab chiqiladi. Bu bilimlar ma'naviy madaniyat shakllanishi uchun asos bo'lib qoladi, uning yordamida g'oya doirasida mavjud qadriyatlar uchun xos bo'lgan egoistik aksent yo'qotiladi, insonparvarlashtirish to'g'risida tasavvurlar shakllantiriladi.

4.6. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv

Ijtimoylashtirish ta'siri va o'zini tarbiyalash, odatda, yana bir jarayonga — shaxsn tarbiyalash deb atalgan, ya'ni pedagogning kasbiy faoliyati bilan bog'liqdir. Ushbu faoliyatning mohiyati — ijtimoylashtirish, o'zini tarbiyalash jarayonlarini boshqarishdan iborat. Haqiqatan ham, siyosiy va pedagogik jarayonlarda o'xhashliklar ko'p. Ularning ikkisi ham ko'plab omillarga juda bog'liq. Siyosatning „imkoniyatlar san'ati“ kabi tushunchasi pedagogikaga ham mos keladi. Ko'pincha, bunday imkoniyat hajmi bilib turib oshirib yuboriladi, ba'zan, aksincha, kamaytiladi. Ba'zan insoniyat hamjamiyati ma'naviy hayotining yuksak obro'li odamlari go'yo „tarbiya to'g'risidagi masalani bekor qiladilar“. Masalan, L. N. Tolstoy shunday yozadi: „Tarbiya, biz o'qitish, tarbiyalashni xohlamas ekanmiz, murakkab va qiyinligicha qoladi. Agarda boshqalarni biz faqat o'zimiz orqali tarbiyalashimiz mumkinligini tushunib olsak, unda tarbiya masalasi yo'qoladi va hayot to'g'risidagi masala qoladi: O'zim qanday

yashashim kerak!“ Bunday tarbiya to‘g‘risidagi masala shunga qaramay yechilmay qoladi. Hatto „O‘zimiz qanday yashashimiz kerak!“ degan savolni his etishga e’tiborni jalg etib ham biz boshqa savollardan xoli bo‘lmaymiz: „Odamlar orasida qanday yashash kerak?“, „O‘z hayat talablarini o‘zganing hayat talablar bilan mos kelishi qobiliyatiga qanday qilib ega bo‘lish mumkin?“ Oxirgi savolni hal etishda, odam (birinchi navbatda, bola, lekin ba‘zida kattalar ham) ichki va tashqi ta’sirni tizirnash-tirishga, ularga mos ravishda javob qaytarib, shaxs shakllanishini tushunishga yordam beruvchi pedagog. o‘qituvchi ko‘magiga muhtoj bo‘ladi.

O‘qituvchiga zamonaviy talablar, asosan, uch oliy vazifani qamrab oladi. Ular: 1) fan bo‘yicha; 2) pedagogik; 3) oldindan berilgan samara bilan mos ravishda o‘qish jarayonini loyihalash-tira bish małakalariga ega bo‘lish shartidan iborat.

Ushbu vaziyatda o‘qituvchi haqida gap boradi. Agarda tarbiyachi o‘qitish bo‘yicha uy vazifalarini bajara olmaydi deb, hisoblasak, unga kamroq talablar qo‘yish kerak. Lekin shu yerda bir gapni aytib o‘tish lozim. „Bolaning aqliy rivojlanishi asosi bo‘lib xizmat qiluvchi, uning jismoniy rivojlanishi shartlari bilan tanish bo‘limgan ayol aniq va to‘g‘ri harakat qila olmaydi, — deb yozadi K. Setkin. — O‘qitish texnik metodlarini bilmagan ayol bolaning o‘n marta o‘z onasi bo‘lsa ham (hatto shunday mumkin bo‘limgan holatda ham) haqiqiy insonni tarbiyalay olmaydi, bola tarbiyasini unga ishonib bo‘lmaydi.“

Shunday qilib, Klara Setkin nuqtayi nazaridan ona qanchalik mehribon, bolasini sevadigan va sevimli odam bo‘lmasin, „o‘qitish texnik metodlari“ni bilmas ekan, bola tarbiyasi jarayonidan chetlashtirilishi kerak. Bu nuqtayi nazarda tarbiya masalasiga kasbiy tayyorgarlikni talab etuvchi juda muhim ish sifatida qaral-moqda. Tarbiyachi bu yerda yaqqol o‘qitish vazifasini ham bajradi. Kasbiy tarbiyachi zarurmi? Albatta, chunki murakkab tizim — tarbiyalash tizimi faoliyati to‘g‘risida gap bormoqda, u tizim turli subyektlari harakatlari rahbarlik qilishi va boshqa-rishi kerak. Tarbiyachi inson hayatida baxtli bolalik rolini tushunib, individni shakllantirish jarayonini madaniyatga, ijti-

moiy hayot qarama-qarshiliklariga va bilmiga yo'naltirishi zarur. Natijada bola va hayot ittifoqi yanada keng va chuqur bo'lishiga yordam berib, bu ittifoqning buzilmasligi maqsadini ko'zlash kerak. Inson rivojlanishi jarayonini maksimal evolutsion, minimal inqirozli qilish — pedagogning san'ati mana shundan iborat.

Kasbiy tarbiyachi shakllanayotgan shaxs oldida ma'lum majburiyatlarga ega bo'lgani holda, jamiyat oldida ham shunday mas'uliyatga ega bo'ladi. Jamiyat, asosan, yangi insonning o'sishi jarayonini ta'minlaydi, Shuning uchun u yangi a'zosi ijtimoiy munosabatlarga qodir, yuzaga kelgan munosabatlar tuzilishida yashay olishga va keraklicha rivojlana olishga tayyor bo'lishiga ishonishga haqlidir.

Turli milliy madaniyatlar doirasida pedagogika an'anaviy ravishda faqat jamiyat oldida va aksincha, faqat shaxs oldida ancha mas'uliyatliroq sifatida tushunilishi mumkin. Haqiqatda esa, kasbiy, ya'ni pedagogik ta'sir ko'rsatishni takomillashtirishni faqatgina ikkala manfaatdor taraflar talab va ehtiyojlariga yo'naltirishda amalga oshiriladi. Munosabatlar maqsadlari qanchalik ta'sirchan bo'lmasin, pedagog ular bilan o'z ishida tarbiyalanuvchi qiziqishlari, huquq-erkinligini poymol qilishini oqlab bo'lmaydi. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqsadi — jamiyat manfaatlarini maksimal hisobga olib, shaxsning maksimal mumkin bo'lgan rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Jamiyat tomonidan ijodiy individuallikka ehtiyoj sezilsa, unda pedagogning vazifasi osonlashadi, chunki ushbu holatda ijtimoiylashtirish va pedagogik ta'sir ko'rsatish jarayoni bir yo'nalishda boradi. Jamiyat shaxs qobiliyatlarini cheklamaydigan, uning o'sishiga to'siq bo'lmaydigan bunday vaziyatni qurish zarur bo'ladi. Bunday vaziyat muvofiqli pedagogik jarayonning majburiy sharti hisoblanadi. Shaxs rivojlanishining eng erta bosqichlarida uning jamiyat ehtiyojlariga munosabati shakllana boshlaydi. Bu munosabat tarbiyalanuvchining birinchi pedagoglari — ota-onalarining or-tiqcha e'tiborliliklari sababli egoistik ko'rinish olishi mumkin.

Ko'pchilik ota-onalar o'z bolalarining barcha talablarini bajarishga harakat qiladilar va to'laqonli hayotga tayyorlashning asosiy yo'lli mana shundan iborat deb hisoblaydilar. Bunday tar-

biyachilar jamiyat oldidagi o‘z mas’uliyatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarini yo‘qotadilar. Ba’zan bu holatni hattoki anglab yetishgan bo‘lsa ham, bolaga mehr qo‘ygan tarbiyachilarni xavotirga solmaydi, ular faqat o‘z vazifalarini faqat bir yoqlama tushunadilar — ovqat, yana ovqat berish va yana berish. Biroq tarbiyachi ning jamiyatga nisbatan mas’uliyatsizligi oxir-oqibat tarbiyalanuvchining halokatiga olib keladi, chunki o‘zini amalga oshirishga kam moslashgan iste’molchini yaratadi, shunday qilib u to‘la hayotga tayyor bo‘lmaydi.

Shunday qilib, kasbiy tarbiyachi shaxs oldida ham, jamiyat oldida ham javobgar hisoblanadi. Bu majburiyatlarni buzganda tarbiyachi ijtimoiy hayat buzilishi va shaxsning inqiroziga sabab bo‘ladi.

Inson ruhiyati asosi deb haqli ravishda hisotlanuvchi odamning mustaqil va oqilona harakatlarni amalga oshirishga qobiliyati ijtimoiy muhitda juda ko‘p sonli omillar bilan shakkantiriladi. Shuning uchun u hech qachon faqat kasbiy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish natijasi sifatida qaralishi mumkin emas. Pedagoglik kasbi o‘zi ustida mustaqil ishlashida tarbiyalanuvchining ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirmay, bolani yuzaki ta’sirlardan himoya qilib va zehnini rivojlantira borib, tarbiyalanuvchilar bilan munosabatlarda me’yorni topishida ifodalanadi.

Pestolotsi insoniylik mohiyati ichki yo‘nalganlik va faqat harakat qilish emas, balki harakat qilmaslik erkinligi bo‘lma ganda normal amalga oshirilishi mumkin emas, deb aytadi. Falsafiy nuqtayi nazardan bu tushunarli: harakat o‘z qarama-qarshiligidagi holatda o‘z o‘lchamini topadi. Sotsiologiyada esa madaniyat tushunchasi orqali ijtimoiy harakat o‘lchamini aks etti radi. Shaxs munosabati va tahlil bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bosqichlar orqali rivojlanadi. Bola atrofidaqilardan uzoqlashishga ehtiyoj his etadigan davr o‘z tarbiyalanuvchisini chindan yaxshi ko‘radigan tarbiyachilar tomonidan ba’zan tushunib yetilmaydi. Bunday holatda ko‘pchilik tarbiyaning takomillashishiga yordam bermaydi. Ba’zida esa mehribon pedagog o‘z tarbiyalanuvchilari bilan munosabatlarga doimiy tayyorgarligi bilan, odatda, faqat jismoniy emas, balki anglab yetilmagan intellektual, emotsional

tinchlikka ehtiyoji qoniqtirilmaganligi sababli yuzaga keluvchi ulardagi norozilik hissini keltirib chiqaradi. O'qituvchini ham, o'quvchini ham o'z ishidan ko'ngli qolishidan saqlash uchun tarbiya butun hayoti davomida faqat kasbiy vazifaga qaratilmasligi kerak. Tarbiyalanuvchiga pedagog bilan munosabatlardan tinchlik, dam olish zarur bo'lsa, o'qituvchi shaxsining normal rivojlanishi uchun unga ham xuddi shu kerak.

Pedagogik mehnat mazmunini aniqlashda biz pedagog — bu munosabat jarayonida shakllanayotgan shaxs va jamiyat ijtimoiylashishi va o'zini tarbiyalash jarayoni o'rtasida nizolarga yo'l qo'ymaslik maqsadini qo'yuvchi odamdir, degan fikrdan kelib chiqamiz. Pedagogik faoliyat rivojlana borgan sari mana Shu maqsadga erishishning ko'plab vositalari ishlab chiqilgan. Asta-sekinlik bilan ular jamlanib, yagona kasbiy faoliyat ichida ikkita faoliyat turini tashkil qiladi:

- 1) rivojlantiruvchi faoliyat;
- 2) muvofiqlashtiruvchi, tartibga keltiruvchi, bir tizimga soluvchi faoliyat.

Rivojlantiruvchi faoliyat kasbiy-tarbiyaviy faoliyatning yuqorida aytilgan maqsadini bajarishga bevosita yo'naltirilmagan. Bu tarbiya muammosini o'rganuvchi ko'plab tadqiqotchilar tarbiyalash so'zining „asl mazmuni“da o'qitishga kiritmasliklariga olib keladi. Biroq bundan boshqa nuqtayi nazar ham mayjud. Bu nuqtayi nazar o'qitishni rivojlantiruvchi faoliyatni tarbiyalash faoliyatining bir qismi va hatto rivojlantiruvchi faoliyatning atributi sifatida qaraydi. Bola tug'ilgandan boshlab qisman potensial, qisman aktuallashtirilgan shaxs hisoblanadi. Tug'ilgan bolaga nisbatan jamiyat ma'lum xususiyatdagi talab ishlab chiqadi. Lekin jamiyat bola bilan o'zaro munosabatlarga kirishadi, jamiyatda ushbu individga u katta bo'lganida qo'yiladigan talablar, ehtiyojlarning murakkab zanjirini shaxs va jamiyat munosabatlari „dispatcheri“ bo'lmish pedagog esdan chiqarmasligi kerak. To'g'ri, o'zaro munosabatlarga shaxsni tayyorlar ekan, pedagog uni rivojlantirmasligi mumkin emas va to'playotgan bilimlarini tizimlashtirishga yordam bermasligi ham mumkin emas. Faqat rivojlantirish, o'qitish yoki uyg'unlashtirish, insonparvarlikka

mos, ijtimoiy qoidalarga yo'naltirilgan kasbiy tarbiya ortda qolishi va butun kasbiy faoliyat muvafaqqiyatsizlikka uchrashi mumkin.

Tarbiyanı o'qitishdan alohida qarab, biz bu jarayonni faqat mustaqillikdan emas, balki mavjud subyektdan ham mahrum etamiz. Qaysi pedagog tarbiyalanuvchini rivojlantirmay, bilimlarini boyitmay, ya'ni uni o'qitmay dars berishi. qoida, me'yoyor, sifat haqida tasavvur berishi mumkin?!

Hozirgi kunda ta'limsiz o'zini jamiyatda teng huquqli da-vogar deb his etish qiyin. Shu bilan bir vaqtida ilmlilik — bu anglab yetiladigan „yashirin (patent)“ bilimlarga asoslangan shaxsning holati. Biroq o'qitishsiz jamiyatda shaxs o'zaro munosabatlarini samarali yo'lga qo'yish mumkin emas, degan fikrni to'g'ri deb hisoblab, biz uni aniqlab olishimiz kerak: „Kasbiy pedagog faoliyatining tabiiy bir qismi, elementi sifatida o'qitish qanday bo'lishi kerak?“ Ta'lim, bilimlar yetkazish jarayoni sifatida o'qitish jamiyat bilan aloqalar o'matish jarayoniga, ijtimoiy qoidalarni o'zlashtirish va ijtimoiy-ma'naviy ishonechlarini shakllantirish jarayoniga nisbatan qarama-qarshi bo'lmasligi kerak.

O'qitish — bu tarbiyaning muhim bir qismi. Bundan ikki ming yil avvalroq Platon tarbiyalovchi ta'limi to'g'risida fikr yuritgan. O'qitishning chegaradan chiqib ketgan „tarbiyaviyligi“, ko'pincha, uning axborotlar yetkazish imkoniyatlarining pasa-yishiga, ortiqcha nasihatgo'ylik, g'oyaviylikka olib keladi. Ta'lim tarbiyadan ajralishdir, lekin tarbiya doirasida rivojlantirish, bilimlar, tasavvurlar, ko'nikmalar berish vazifasini bajarishi kerak. Mana shu yo'nalishda muammolar ko'p.

4.7. Tarbiya tizimida innovatsiyalar

Maktabda innovatsiyalar masalasini muhokama etganda tarbiya tizimlarida innovatsiyalar tashkil topishi to'g'risidagi masalalarni gapirib o'tmay bo'lmaydi. Lekin buning uchun, avvalo, tarbiyaviy tizimning ichki tushunchasini kiritamiz. Shundan keyin tarbiyaviy tizimni falsafiy va texnologik jihatlarda ko'rib chiqishda innovatsiyalar yuzaga kelishini o'rjanamiz.

Shunday qilib, pedagogikada „tarbiya“ kategoriyasining bir vaqtda bir necha tushunchalari mavjud tarbiyani o‘rganayotgan avlodga tarbiyani eng muhim ijtimoiy tajribalarni yetkazish bo‘yicha maxsus tashkil etilgan jarayon sifatida tushunish eng keng tarqalgan tushunchalardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, har qanday tarbiya jarayonining asosi, haqiqatda, o‘qitish hisoblanadi, degan xulosaga kelish to‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu holatda tarbiya jarayoni didaktik vositalar bilan ko‘rina boshlaydi. Tarbiya tizimi tushunchasining o‘zi esa, o‘zining avtonomliligi va ko‘rib chiqish o‘ziga xosligini yo‘qotadi va didaktika ichiga „tortib kiritilgan“ bo‘lib qoladi.

Tarbiya jarayoni o‘zining o‘ziga xosligini „saqlab qolish“ uchun „Tarbiya, tarbiya... tarbiya!“ monografiya hammualliflari V. A. Karakovskiy, Novikova, Selivanovlar mashhur estonyalik pedagog va psixolog O. Y. Laymete taklif etgan uning boshqa tushunchasidan foydalanadilar. Agarda tarbiya jarayonini „Laymete bo‘yicha“ qaraydigan bo‘lsak, unda tarbiya tizimi didaktikadan iborat bo‘lmaydi, balki bir tomondan psixologopedagogik, boshqa tomondan esa, ijtimoiy-pedagogik tizimdan iborat bo‘ladi.

Bu, o‘z navbatida, tarbiya tizimi o‘quvchilarga faqat didaktik sifatida emas (o‘qituvchilar, darslar, darsliklar, uy vazifalari orqali), balki ijtimoiy omil sifatida ham, bolalarning atrof-muhitga jalb etilganligi orqali ham ta’sir ko‘rsatadi; ota-onalar, o‘qituvchilar va bolalar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar orqali, har bir ta’lim muassasalarida tashkil topadigan ma’lum psixologik muhit orqali ta’sir ko‘rsatadi.

„Didaktik tizim“ tushunchasi pedagogikada ancha qadimdan shakllangan. Maktabning didaktik tizimi ta’lim maqsadlari, o‘qish mazmuni, uni tashkil etishning metod va shakllari orqali ifodalanadi. Albatta, tarbiyaviy maqsadlar o‘rganilayotgan material mazmuni, uni yetkazish shakli va metodlari kabilarni belgilash orqali o‘qitish jarayonida ham amalga oshiriladi. Lekin tarbiyaning ikkinchi tushunchasi mantig‘ida didaktik tizimning o‘zi tarbiyaviy tizimning didaktik tizimida ishtirok etadi, ya’ni uning tizimi hisoblanadi.

Ta’lim muassasining tarbiyaviy vazifasi, birinchi navbatda, o‘quvchilarda, o‘zini shu dunyoda anglab yetish, boshqalar orasida o‘z o‘rnini topish bilan dunyoga, madaniyatga, atrof-muhitga qadriyatlarni shakllantirishdan iborat. Lekin mana shu vazifani faqat o‘qitish jarayonida amalga oshirib bo‘lmaydi: u individual manfaatlarini qondirish bilan bog‘liq dam olish doirasidagi o‘yin, mehnat, ijodiy faoliyat bilan ham bog‘liq. Shunday qilib, xususan, tarbiya tizimi innovatsiyalarini o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ladi. Uni yaratish va rivojlantirish jarayonida har gal qator aniq masalalarni hal etish kerak bo‘ladi.

Yuqorida nomlari keltirilgan mualliflar ularning beshtasini alohida urg‘u bilan ko‘rsatadilar:

1. Bolalarda dunyoning yaxlit va ilmiy asoslangan ko‘rinishini shakllantirish.
2. Fugarolik o‘zini anglashni, vatani taqdiri uchun javobgarlikni shakllantirish.
3. Bojalarni umuminsoniy qadriyatlarga jalb etish, ular orasida mana shu qadriyatlarga mos bo‘lgan xulqni shakllantirish.
4. O‘sib kelayotgan kelajak avlodda, shaxs xususiyatlari sifatida „ijodkorlik“ ni shakllantirish.
5. O‘z-o‘zini anglashni shakllantirish, o‘zini amalga oshirishda bolaga yordam ko‘rsatish.

Albatta, bu masalalar ro‘yxatini davom ettirish mumkin. Lekin har qanday holatda ham, mana shu vazifalarning o‘zi yuqorida sanab o‘tilgan tarbiyalash vazifalarining „alohidaligini“ ko‘rsatadi.

Yuqorida bayon etilgan didaktik qarashlarning turli jihatlarida innovatsiyalar yuzaga kelishi va shakllanishi imkoniyatlarini chuqur muhokama qilish kabi, ushbu masalada tarbiya tizimini falsafiy va texnologik jihatlarda ko‘rib chiqishda tarbiyaviy innovatsiyalarni qo‘llab o‘rganamiz.

Tarbiya tizimini ko‘rib chiqishning falsafiy jihat tarbiyaning mazmun-maqsadlarini asoslashni, uni konkretlashtirish va tarbiyaning kerakli mazmuni bilan aloqasini asoslab berishni ko‘zda tutadi. Biz avval aytganimizdek, bugungi kun qarashlari ostida, tarbiya tizimida ikki turlicha bo‘lgan konseptual (ko‘p jihatdan

qarama-qarshi) yondashishlar mavjud. Birinchi yondashish tarbiya — bu bola shaxsiga o'ziga xos mazmunga ega bo'lgan (falsafiy-pedagogik, g'oyaviy, psixologik-pedagogik, ma'naviy va b.), ijtimoiy belgilangan va maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishga asoslanadi. Bunday tarbiya ma'lum shakllarda (frontal, guruhli, individual) va ma'lum metodlar bilan amalga oshiriladi.

„Tarbiya ta'sir ko'rsatish sifatida“ paradigmaside pedagog barcha choralar bilan samarali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga erishishi kerak. U (pedagog) o'zi beixtiyor, bolalar va ota-onalarning teng qimmatli ishtirokisiz, mana shu tizimda asosiy subyekt bo'lib qoladi, chunki bolalar „olib boruvchilar“ rolida ishtirok etadilar. Va, albatta, tarbiyada teng huquqli sherik hisoblanmaydilar. Bu yerda bola „tarbiya predmeti“ sifatida ishtirok etadi va bolaning faolligi sifatida subyektivlik to'g'risidagi murojaat har gal „kerakligini faol o'zlashtirish“ yoki adaptiv faollik deb ataluvchi xususiyatga ega bo'ladi.

Bu yondashish biz ilgari keltirib chiqargan ijtimoiylashtrish kategoriyasi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq, bunda biz tarixiy ishlab chiqilgan ijtimoiy qoidalarni, qadriyatlar, munosabatlar, ma'naviy va moddiy madaniyat bilan munosabat usullarining inson tomonidan o'zlashtirilishi jarayonini tushunamiz. Umumiy qabul qilingan tip asosida aytadigan bo'lsak, bolani tarbiyalash (mana shu tushuntirilishda) — uni kattalar dunyosiga olib kirish, umumiy qonunlar bo'yicha „birga kabi“ yashashga o'rgatish demakdir.

Shunday qilib, ijtimoiylashtirish insonning „adaptik faollik“ qobiliyatiga ega bo'lishini ko'zda tutadi va maqsadga muvofiq jarayonlar (o'qitish va tarbiyalash) maktabgacha, maktab, maxsus kasb-hunar muassasalarida hamda tasodifiy omillar (oila, ommaviy axborot vositalari, san'at bilan muloqot qilish) ta'siri ostida amalga oshiriladi.

Bu ta'sir ko'rsatish tarbiya tizimi (yoki ijtimoiylashtirish) insonparvarlikka zid kabi baholanishi mumkin emas. Unda o'qituvchi va bolalar o'rtasida insonparvarlik munosabatlari mavjud bo'lishi, gumanitar qadriyatlar targ'ib qilinishi, guruhli va individual ijodkorlik elementlari tatbiq qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, ta'sir ko'rsatishning tarbiya tizimi tarbiya jarayoniغا demokratik qadriyatlar va qoidalar kiritishi kerak (at-rof-hayotdagi o'zgarishlar ortidan): hayotni tashkil etish demokratik usullarini o'zlashtirish (bolalar hamjamiyatidan boshlab), boshqalarga nisbatan huquq va majburiyatlarini o'zlashtirishga amal qilish. Lekin tarbiya bilan bog'liq bu yondashish muhit bilan bog'liq bo'lib chiqmoqda. Chunki bolaning xulqi va hayoti bu holatda to'laligicha tashqi kuchlar bilan belgilanadi. Va unda tanlovni amalga oshirish imkoniyati qolmaydi. Yetkazish kerak bo'lgan qandaydir tarbiyaviy mazmun, mana shu tarbiyaviy standartdan kelib chiquvchi ijtimoiy-pedagogik-nazariy tarbiya, bularning barchasi bolaning ichki „xohlayman“ istagiga emas, balki tashqi „kerak“ talabiga yo'naltirilgan metodlarni talab etadi. Shuning uchun ushbu tarbiyaviy tizim qandaydir jazo va majburlashlarsiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Tarbiyadan boshqa yondashish insonparvarlik tarbiyaviy tizimini yaratish bilan bog'liq. Bu yondashish, birinchi navbatda, biz ilgarigi bo'limda batafsil ko'rib chiqqan individuallashtirish jarayoni bilan mos keladi (lekin uni bola ijtirmoylashtirish masalalarini iloji boricha yaxshi o'zlashtirib olishi maqsadi bilan bog'liq yondashish bilan adashtirish kerak emas). Yana bir bor eslatib o'tamiz, individuallashtirish — bizning tushunishimizcha — bu bolada mavjud yoki o'zining individual tajribasida egal-lagan yagona, alohida va o'ziga xosligini ta'minlab turish va rivojlantirish bo'yicha kattalarning hamda bolaning o'zining faoliyati.

Individuallashtirish, birinchidan, birlamchi asosiy ehtiyojlarini individual yo'naltirilgan yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi. Busiz tabiiy „o'zligini“ his etish mumkin emas. Ikkinchidan, aynan mana shu individ uchun xos bo'lgan tarbiya bergen (meros bo'lib o'tgan) jismoniy, intellektual, emotsional qobiliyatlari imkoniyatlarni maksimal, erkin amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishini ko'zda tutadi. Va nihoyat, individuallashtirishning uchinchi belgisi, asosiy xislati — avtonom ma'naviy o'zini qurishda, o'zini ijodiy gavdalantirishda, „moslashuvchan bo'Imagan faoliik“, hayotiy o'z yo'llini tanlashdagi qobiliyatini rivojlantirishda insonga yordam ko'rsatishdir.

Shaxsni individuallashtirish uning „o‘zligini“ rivojlantirishdir, shunday qilib, keng ma’noda insonparvarlik tarbiyaviy tizimini tashkil etadi. Tarbiyada bunday yondashishning maqsadi, bolalarga ularning „subyektiv mavjudliklarini“ tashkil etishda yordam ko‘rsatish hisoblanadi. Buning uchun ushbu tarbiyaviy tizimda, insonga o‘zini anglash va o‘zini amalga oshirishda yordam beruvchi maxsus vositalar ishlab chiqiladi. Endi faqat pedagog emas, balki bolalarning o‘zlari ham insonparvarlik tarbiyaviy tizimining subyekti hisoblanadi (bola, asosan, tarbiya obyekti hisoblangan ta’sir ko‘rsatish tarbiyaviy tizimidan uning asosiy farqi ham mana shundan iborat).

Ushbu paradigmada pedagoglar ham, bolalar ham maktab oldida turgan maqsadlarini birgalikda aniqlashtiradilar, ularni amaliy vazifalar darajasiga ko‘taradilar va hamkorlikdagi faoliyatda amalga oshiradilar. Maktab insonparvarlik tarbiyaviy tizimi samaraliligining muhim sharti bolalar va kattalarni umumiy jamoaga birlashtirish hisoblanadi (lekin o‘z vazifalari bo‘yicha turlicha bo‘lsa ham: bolalar, pedagoglar, ota-onalar). Bolalar va kattalarning o‘zaro munosabatlari ma’lum munosabatlarni yuzaga keltiradi, ular, birinchi navbatda, tizimning tarbiyaviy imkoniyatlarini belgilaydi.

Munosabatlar pedagoglar alohida g‘amxo‘rligi bo‘lib qoladi. Har qanday insonparvarlik tarbiyaviy tizimi aniq tizim hisoblanadi. Uning tashkil topishi, faoliyati va rivojlanishida muhit, faqat tashqi ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida emas, balki ushbu tizimning o‘zining tarkibiy qismida katta rol o‘ynaydi.

Tarbiyaviy tizimlar ikki turini taqqoslash, tahlil qilish yakunida ta’sir ko‘rsatish ta’lim tizimi va insonparvarlik tarbiya tizimi o‘zining predmeti mazmunida ham farq qilishini alohida ayтиб o‘tamiz.

Birinchi tizim, avvalo, dunyoning ijtimoiy ko‘rinishini o‘rganadi. Ikkinci tizim o‘zini-o‘zi o‘rganish usulini o‘rganadi. Ma’lum ijtimoiy qoidalarni, qadriyatlarni, munosabatlarni yetkazib ta’sir ko‘rsatish tarbiya tizimi bolalarda o‘zini anglashga qobiliyatni rivojlantirish masalasini o‘z oldiga qo‘ymaydi — bu uning predmeti hisoblanmaydi.

Insonparvarlik tarbiyaviy tizimi — bu boshqa gap. Inson tanlab olish subyekti sifatida ishtirok etar ekan, u bu tanlovni o‘ziga nisbatan amalga oshirishi ko‘zda tutiladi, demak, o‘zini anglash jarayonisiz bu tizimni amalga oshirish mumkin emas. Shuning uchun turli insonparvarlik tarbiyaviy tizimlari hozirgi kunda aynan mana shu yo‘nalishda rivojlanmoqda. Innovatsiya (anglagan holda, umuman, yangilikni kiritish sifatida) ishchi (amaliy) tushunchasini eslab, aniq misolda tarbiya tizimini falsafiy jihatdan qarashda innovatsiya qanday shakllanishini ko‘rsatamiz.

Taqdim etilgan yondashishlarning har birida, innovatsiya yondashishlardan birini aniqlashtirish hisoblansa ham, har gal qandaydir yangi g‘oya bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, tarbiya insonparvarlik paradigmاسини muhokama qilib O. S. Gazman, birinchi navbatda, tarbiya maqsadini o‘zini rivojlantirish va pedagogik yordam ko‘rsatish g‘oyasi bilan bog‘laydi. Ko‘pchilik hozirgi zamon mualliflari insonparvarlik paradigmасини o‘rganishlarida shaxs rivojlanishiga amal qilib o‘zini rivojlantirishga (yoki o‘zining „o‘zligini“ rivojlantirishga) turli tomonlardan yonda-shadilar. Ba‘zi mualliflar ushbu so‘zning keng ma’nosidan kelib chiqadilar: o‘zini umumiylikka yetkazish, barcha odamlar uchun xosliklar, hammaga mos kelish, ya’ni u yoki bu sotsial ideologik talablarning kontekstidan chetga chiqadilar, umumin-soniylikning o‘zini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta‘kidlaydilar. Mualliflarning ikkinchi guruhi esa, o‘z diqqatini boshqacha qaratadilar: inson o‘zining individualiligini, alohidaliligini, o‘zining „o‘zligini“ rivojlantiradi (bu, ko‘pincha, umuminsoniylikni namoyon etish individual ifodalangan usullarini o‘z ichiga oladi).

Shunday qilib, pedagogik yordam ishi, erkinlik, ijodkorlik, kattalar va bola o‘rasida haqiqiy demokratiya va insonparvarlikda yuzaga keladigan tarbiya boshqa madaniyatga kiradi. Tarbiya maqsadini pedagogik yordam sifatida, mana shu umuman yangicha tushunish, mazmuni bo‘yicha tarbiya tizimi falsafiy jihatdan qaralganda, innovatsiya hisoblanadi. U mana shu maqsadga mos yangi tarbiya texnologiyasini ishlab chiqishga olib keladi.

Tarbiya texnologiyasi deganda biz tarbiyaning ma'lum maqsadlariga erishishga qaratilgan maxsus pedagogik uslublar tizimini tushunamiz. Har qanday tarbiya metodikasi tarbiya texnologiyalaridan tashkil topadi. Masalan, jamoani rejalashtirish, o'smirlar bilan aloqa o'rnatish, pedagogik diagnostika texnologiyasi va boshqalar. Agar texnologiya — bu tarbiya metodikasining yakunlangan qismi bo'lsa (uning birligi), uslub esa, o'z navbatida, bu umumiy yoki shaxsiy pedagogik madaniyatda qayd etilgan tarbiya texnologiyasiga nisbatan yakunlangan elementdir. Agarda uslub biror-bir tarbiya masalasi bilan barqaror bog'liq bo'lsa, u oddiy tarbiyaviy texnologiya bo'lib qoladi. Masalan, sinfni mikrogru-ruhlarga bo'lish (qiziqishi bo'yicha, qur'a tashlash bo'yicha, yetakchilari bo'yicha), hamkorlikdagi faoliyatda o'yin rollarini yaratish usullari, guruhning muhokamada so'zga chiqish tartibi va boshqalar — bularning barchasi tarbiyaning aniq uslublariga misollar. Lekin ulardan hech biri qandaydir aniq tarbiyaviy masala bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq emas. Shuning uchun mana shu uslublarni turli xil texnologiyalarga kiritish mumkin.

Mikroguruhlarga ajratish uslubini jamoa bo'lib maqsadni belgilashda ham, hamkorlikda rejalashtirish va umumiy ishlarni bajarish texnologiyasida ham qo'llash mumkin, Shuningdek, guruhli tahlilni tashkil qilish usuli sifatida ham, muloqot reytingida mashqlar o'tkazish uslubi sifatida ham qo'llash mumkin. Shunga mos ravishda ishlab chiqilayotgan pedagogik yordam texnologiyalari ham ilgari ma'lum bo'lgan uslublar yo'nali-shidan iborat bo'lishi mumkin, lekin ularning ma'lum tartibda tuzilgan ketma-ketliklari yangi tarbiya vazifalariga javob bera boshlashi mumkin. Pedagogik yordam texnologiyasi — bu o'sib borayotgan odamning boshqalardan o'zining farqini anglab yetishiga yordam beruvchi o'z kuchi — jismoniy, intellektual, ma'nnaviy, ijodiy vositalardan foydalanishi tizimidir.

Bu ta'lirn olishda mustaqil va muvafaqqiyatlilgari borishi, shaxsiy hayot yo'li va hayot mazmunini tanlashi uchun zarurdir.

Ushbu texnologiyani amalga oshirish o'quvchining savoldidan boshlanadi: „Men kim bo'laman?“, „Qanday bo'lishim kerak?“ Pedagog bilan birgalikda mana shu savollarni muhokama

qilish yana boshqa bir mustaqil savolni ham keltirib chiqaradi: „Qanday yashash kerak?“ Maxsus tashkil etilgan maslahatlar orqali aynan mana shu o‘quvchiga xos bo‘lgan individual hayot tarzi asta-sekin tuziladi, intellektual, emotsiyal, jismoniy yullamalar qulay rejimi tanlanadi.

O‘quvchi pedagog yordamida muvafacqiyat va baxtsizliklarga bardosh berishning o‘zi uchun mos usullarini topadi, mehnat faoliyatining mos turini aniqlaydi, bo‘sh vaqtini, uzuksiz ish shakllari, odamlar bilan munosabatlar xususiyatlarini belgilaydi.

„Pedagogik yordam“ tushunchasining semantik ma’nosи, birinchi navbatda, faqatgina biror narsaga kamroq ega bo‘lgan odamgagina yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash mumkinligidan iborat. Shuning uchun bolaning o‘zida biror narsani bilish istagi paydo bo‘lsa va bu yo‘lda uning oldida qiyinchiliklar paydo bo‘lsa, pedagogik yordam harakatga keladi.

Shunday qilib pedagogik yordam texnologiyasi, birinchi navbatda, vaziyatga javob qaytarishdan iborat bo‘ladi. O‘z navbatida, bu texnologiya turli uslublardan iborat. Ulardan biri — baholash algoritmik uslub hisoblanadi.

Bola faoliyatini tuzatish va baholash munosabati: „yaxshi-yornon“, „to‘g‘ri-noto‘g‘ri“, „mumkin-mumkin emas“ kabilalar ma‘lum yosh bosqichida belgilar xulqi doirasini belgilaydi. Bu uslub o‘qituvchi obro‘sи hali juda kuchli bo‘lmagan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun ancha samarali bo‘ladi.

Pedagogik yordam texnologiyasini amalga oshirish uchun yangi bir uslub — ijtimoiy ko‘nikmalar kursini kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu kurs yetuk madaniyat, ijtimoiy munosabatlar, shaharlararo munosabatlar, qaror qabul qilish, o‘zini anglash kabi fanlardan iborat bo‘lishi mumkin. Ushbu ikki fan — akademik einas, balki laboratoriya-amaliy mashg‘ulotlar yoki o‘zini namoyon etish va o‘zaro aloqalar hamda hamkorlik tajribasi uchun jamoani ijodkorlik bo‘yicha mashg‘ulotlar ko‘rinishida qurilishi juda muhim.

Pedagogik yordamni amalga oshirishdan keyingi uslub — bolalar jamoasini yaratish va o‘zini boshqarishda pedagogning yordami hisoblanadi.

Shu yerda bizga ma'lum bo'lgan eski oppozitsiyaga qaytamiz: jamoa va shaxs. Lekin ushbu holatda biz bolalar jamoasini tashkil etishni o'z maqsadimiz sifatida emas, balki har bir o'quvchining ijtimoiy, ijodiy o'zini amalga oshirishi sharti sifatida qaraymiz. O'zini boshqarish buyruq bo'yicha yuzaga kelmaydi, balki bolalar va o'smirlar qiziqishlari hamda mакtab fuqarosi huquqlari, o'z manfaatlarini o'zaro himoya qilishlari ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Ushbu o'zini boshqarish (aynan mana shu yerda pedagogning yordami kerak) mакtab doirasida bolalar qiziqishlarini birlashtiruvchi bo'lganida va maktabning o'zi fuqarolik jamiyatni sifatida qurilganda paydo bo'ladi.

Agarda diskoteka o'tkazish, sayohatga borish yoki qandaydir tanlovlар o'tkazish uchun o'smirlar birlashishni xohlasalar, mana shu vaziyatda o'zini boshqarish lokal tajribasi paydo bo'ladi. Kattalar esa bu vaziyatda yordamchi bo'lib qolishlari mumkin. O'zini boshqarishda qoidalar ishlab chiqarish majburiy element hisoblanadi. Bolalarning o'zлari yaratadigan qoidalar, qonunlar, huquq qoidalarining muhim ahamiyatga egaligi pedagogikada ancha avval payqalgan. Bolalarning o'zлari yaratgan qoidalar ularni birlashtiradi. Maktab hayoti muammolarini yanada demokratik hal etishga imkon beradi. Lekin asosiysi, bunday qoidalar erkinlik va mas'uliyatlilik doirasini belgilab beradi. Ushbu holatni intizomlilikni rivojlantirishning kuchli vositasi sifatida tushunib, ko'pchilik mакtablar o'zлaring qonunlarini, o'rtoqliк nizomlarini, vijdon kodekslarini yaratmoqdalar. Ammo ushbu uslubning ham ma'lum xavfli tomonlari mavjud. Pedagog ba'zi bolalar boshqalar ustidan nazoratchi bo'lib qolmasliklarini kuzatib borishi zarur. Bunday holatda bolalar jamoasida adovat ham yuzaga kelishi va bolalar qonunni bajaruvchilar va ularga qarshi kuzatuvchilarga ajralib qolishlari mumkin. Shunday qilib, yuqorida tasvirlangan uslublar to'plami (ularning ro'yxati, al-batta, davom ettirilishi mumkin) yangi maqsad — pedagogik yordam uchun texnologiyani belgilab beradi. Va mana shu mazmunda innovatsion texnologiyadan iborat bo'ladi.

Umuman olganda, har qanday tarbiya tizimining yangilanishi innovatsiyalar hisobiga amalga oshiriladi. Bu esa ikki —

revolutsion va evolutsion yo'l bilan sodir bo'lishi mumkin. Inqilobiy yo'l, odatda, maktab hayotida, jamiyat hayotidagi favqu-lodda vaziyatlar bilan kelib chiqadi. Ikkinchchi yo'l — tarbiya tizimini samarali pedagogik boshqarish bilan mumkin bo'ladi, chunki yangilanish mexanizmlari tizimning o'zida mavjuddir. Tizimning holati va faoliyati to'g'risida yakshi yetkazilib turiladigan obyektiv axborotlar, pedagoglar va o'quvchilar jamaosining doimiy ijodiy izlanishiga yo'nalgan ishlari ta'lim tizimi yangilanishini rejali va boshqariladigan qiladi. Innovatsion mакtab tashkil topishining didaktik jihatini tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelishga imkon beradi:

Innovatsion mакtab tashkil topishi jarayonini didaktik ko'rib chiqish uchta turlicha jihatlar orqali amalga oshiriladi:

- a) falsafiy-metodologik (o'qitish maqsadlari);
- b) nazariy (o'qitish mazmuni, o'qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari);
- c) texnologiya (o'qitish jarayoni qoidalar tamoyili).

Didaktik qarashning falsafiy-metodologik jihatni quyidagidan iborat: u yoki bu ijtimoiy buyurtmaning mazmunidan qat'i nazar, maqsadlarni aniqlashtirish jarayoni har doim ma'lum pedagogik strategiyani tanlash bilan berilishi kerak. Ijtimoiy buyurtmadan o'qitish jarayonini tashkil etishning aniq maqsadlariga o'tish jarayonida haqiqatda ishtiroy etuvchilar barchalari: olim-didaktiklar, mакtab ma'muriyati, birinchi navbatda esa, yangi ta'lim modellarini ishlab chiquvchi innovatsion mакtablar o'qituvchilari shunday tanlovnvi amalga oshirishga majburlar.

Turli pedagogik strategiyalardan tanlab olishning to'rtta yo'nalishi mavjud:

1. Bugungi ta'lim sohasining yaxlit eng yuksak vazifalari;
2. O'qitish va rivojlantirish jarayonlari nisbati;
3. Ta'lim mazmuni konsepsiysi ma'lum turiga yo'naliganligi;
4. Inson madaniyati tuzilishi to'g'risida tasavvur.

Ushbu ma'lum pedagogik strategiyani tanlash ilmiy obyektiv vazifalar bilan umuman hal etilishi mumkin emas. U har bir aniq innovatsion guruhning umumiy dunyoqarashi bilan,

metodologik, falsafiy, antropologik qarashlari bilan bog'liq. Didaktik qarash falsafiy-metodologik jihatida matabning innovatsionligi g'oyaning o'zi umuman yangiligidan tashqari, matabda maqsadni shakllantirish jarayoni mavjudligi qayd etilganligidan ham iborat bo'lishi mumkin. Maqsadni shakllantirish innovatsion matabning mavjudligiga sabab bo'ladi va o'z navbatida, o'qitishning o'zi u sababli bo'ladi.

Innovatsion matabning tashkil topishi didaktik qarash (o'qitish mazmuni, o'qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlar) nazorat jihatlari quyidagilardan iborat: zamonaviy ta'llim vaziyatlari sharoitlarida deyarli har bir matabda variantiv qismini aniqlash hisobiga boshlash, keyin esa, invariant asosini aniqlashtirib, shaxsiy pedagogik strategiyasini ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Ya'ni zamonaviy asosiy o'quv rejasi faqatgina turli innovatsiyalar yuzaga kelishiga yordam beruvchi omil sifatida emas, balki haqiqiy rag'batlantirish sifatida ham amal qila boshlaydi.

O'qitish nazariyasi (o'qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlar), o'qitish mazmunidan farqli ravishda, innovatsiyalar yuzaga kelishi uchun imkoniyat hisoblanmaydi. Lekin innovatsion matab tashkil topishini didaktik qarashda texnologik jihatida yuzaga keladigan innovatsiyalar uchun cheklovchi rolida ishtiroy etishi mumkin.

Innovatsion matab tashkil topishini didaktik qarashdag texnologik jihat quyidagilardan iborat:

O'qitish mazmuni va texnologiyasida o'zaro bog'liqlik mavjud. O'qitish mazmunidagi o'zgarish (misol uchun o'quvchi fikrlarini tashkil etuvchi sxemalar kiritish) darhol mana shu mazmunni yetkazib berishga qodir yangi pedagogik texnologiyani ishlab chiqishni talab qiladi. Va aksincha, ma'lum texnologiyalar o'qitish mazmuni hajmining o'ziga xos chegaralovchilarini ilgari suradi, masalan, davomiyligi va qamrab olish kengligi. Aniq pedagogik texnologiyalar ko'rinishida berilgan har qanday innovatsiyalar didaktik qarash texnologik jihatida, bir tomonidan, o'qitish nazariyasi va mavjud maqsadlar bilan cheklangan, ikkinchi tomonidan esa, ushbu innovatsion texnologiya

„mos“ keladigan yondashish xususiyati (texnoizlanish) bilan cheklangan. Innovatsion maktab tashkil topishini didaktik qarash turli jihatlariga o‘xshash tarbiyaviy tizim tashkil topishini falfasiy va texnologik jihatlarida qaraladigan innovatsiyalarini o‘rganish ham mavjud.

Ommaviy sinfdan tashqari ish formalari pedagogik jamoa orqali har bir bolaga ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi. Ular bolalarda boshqalarni tushunish, jamoada bir-biriga ta’sir ko‘rsatish, tengloshlari va kattalar bilan hamkorlik qilish malakalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Sinfdan tashqari ishning ana shu ommaviy shakllarini ikkita katta guruhgaga ajratish mumkin. Bu guruhlar bolalar faoliyatining xarakteri bilan farq qiladi.

Birinchi guruh — frontal shakllar. Bolalarning faoliyati „yoningimda“, „yonida“ prinsipi bo‘yicha tashkil etiladi, ya’ni ular bir-birlari bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lmaydilar, har bir bola aynan bir xil ishni mustaqil ravishda bajaradi. Pedagog har bir bolaga bir yo‘la ta’sir ko‘rsatadi. Cheklangan bolalar bilangina teskari aloqa o‘rnataladi. Sinfning hammasi bilan o‘tkaziladigan tarbiyaviy mashg‘ulotlarning ko‘pchiligi „yonida“ prinsipi bo‘yicha tashkil etilgan.

Bolalarning sinfdan tashqari faoliyatini tashkil etish shakllarining ikkinchi guruhi „birga“, „birgalikda“ prinsipi bilan xarakterlanadi. Umumiy maqsadga erishish uchun har bir ishtirokchi o‘z rolini bajaradi va umumiy natijaga o‘z hissasini qo‘sadi. Hammaning xatti-harakatlari muvaffaqiyati har bir ishtirokchining harakatiga bog‘liq. Ishning bunday tashkil etilishi jarayonida bolalar bir-birlari bilan yaqin hamkorlikda ish ko‘rishga majbur bo‘ladilar. Bunday faoliyat jamoaviy faoliyat nomini olgan, tarbiyaviy ish esa, jamoaviy tarbiyaviy ishlari deb nomlanadi. Pedagog har bir bolaga alohida ta’sir ko‘rsatmaydi, balki bolalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqaga ta’sir etadi, bu esa pedagog bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi teskari aloqanining yaxshilanishiga yordam beradi. Bolalarning juft-juft, kichik guruhlarda, sinfdagi faoliyati „birgalikda“ prinsipi bo‘yicha tasnifik etilishi mumkin. Har bir yo‘nalishning o‘z afzalliklari va kamchiliklari bor.

Birinchi guruh pedagog uchun tashkil etishda oddiyligi bilan farq qiladi, lekin jamoa o‘zaro ta’sir malakalarini kamroq shakllantiradi. Ikkinci guruh bolalarda hamkorlik, bir-biriga yordam berish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish malakalarini rivojlantirish uchun tengi yo‘q. Biroq kichik yoshdagi o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga ko‘ra (ular boshqa kishida teng huquqli insonni ko‘rolmaydilar, kelishib olishni, birga bo‘lishni bilmaydilar) jamoa shakllarini tashkil etish pedagogdan ko‘p vaqt va muayyan tashkilotchilik malakalarini talab etadi. Uning pedagog uchun murakkabligi ham mana shunda.

Ikkala yo‘nalish o‘zaro bog‘langan va bir-birini to‘ldiradi, shu sababli quyida biz har bir yondashuv imkoniyatlarini aniq bir shakl misolida qarab chiqamiz.

Umumsinf tarbiyaviy mashg‘ulotni tayyorlash. Faraz qilaylik, algoritmik muvofiq bolalar jamoasini o‘rganish bosqichi tugallangan va pedagog mashg‘ulotning mana shu shaklini tanlagan. Birinchi navbatda, mashg‘ulotning mazmuni belgilanadi, unga muvofiq mazkur sinf uchun dolzarb bo‘lgan mashg‘ulot mavzusi tanlanadi va mashg‘ulot g‘oyasi ifodalanadi. Pedagog o‘zidan fikran shunday deb so‘rashi kerak: „Mazkur mavzuni ochib borish orqali bolalarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish natijasida ni-maga ega bo‘lishni istayman?“ Umumsinf tarbiyaviy mashg‘ulotining mazmuni rivojlantirish, to‘g‘rilash, shakllantirish vazifalarini aks ettirishi kerak. Ta’lim berish vazifasi umumiyl vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Boshqacha so‘z bilan aytganda „... haqidagi ma'lumotlarni bayon qilish“ tarbiyaviy mashg‘ulotning maqsadi bo‘lishi mumkin emas (vazifalardan biri bo‘lishi mumkin). Pedagog sinfdan tashqari mashg‘ulotning maqsadi va vazifalarini qanchalik aniq ifodalasa, uning istalgan natijalar haqidagi tasavvuri ham aniq bo‘ladi. Faqat shundan keyingina mashg‘ulotning mazmunini, metodlarni, vositalarni tanlashga kirishish mumkin. Mashg‘ulotning mavzusi, mazmuniga alohida ahamiyat berib, uning maqsadini ifodalashga normal yondashadigan yoki uni e’tibordan chetda qoldiradigan pedagoglar noto‘g‘ri ish yuritadilar. Bunday holda tarbiyaviy ishning maqsadga yo‘naltirilganligi va tizimliligi yo‘qoladi.

Mashg'ulot modelini tayyorlash natijalari umumsinf tarbiyaviy mashg'uloti konspektida aks ettiriladi. U quyidagi tuzilishda bo'ladi:

- 1) mashg'ulotning nomi;
- 2) maqsadi va vazifalari;
- 3) jihozlanishi;
- 4) o'tkazish shakli;
- 5) mashg'ulotning borishi.

Mashg'ulotning nomida sinfdan tashqari mashg'ulotning mavzusi aks ettiriladi. U faqat aks etib qolmay, shakl bo'yicha lo'nda qilib ifodalangan, jozibali bo'lishi lozim.

Vazifalar juda aniq bo'lib, mazkur mazmuani aks ettirishi kerak. Ular universal xarakterda bo'lmasligi lozim. Masalan, „Jonajon shahriga muhabbat uyg'otish“ vazifasi o'rniغا „Shahar tarixiga qiziqishni oshirish“, „Bolalarda shahar yubileyiga tay-yorgartlik ishlariiga o'z hissasini qo'shish istagini uyg'otish“, „Bolalarda shaharning o'tmishdagi mashhur kishilariga nisbatan hurmat hissi shakllanishiga yordam berish“ kabi vazifalarni qo'yish yaxshi natija beradi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotning jihozlanishiga turli vositalar: qo'llanmalar, o'yinchoqlar, videofilmlar, diapozitivlar, adabiyotlar va boshqalar kiradi. Adabiy manbaning nominigina emas, balki uning muallifi, nashr etilgan joyi va yili ko'rsatilishi kerak.

Sinf mashg'ulotlari ekskursiya, viktorina, konkrus, spektakl va hokazo shaklda o'tkazilishi mumkin. Bunday holda mashg'ulot rejasida uni o'tkazish shakli „Matematik viktorina“, „Fantaziyachilar konkursi“, „Hayvonot bog'iga ekskursiya“ kabi nomlar bilan birlashtiriladi. Agar sinf mashg'uloti o'zida birorta o'tkazish shakllarini birlashtirsa, unda bolalarni joylashtirish usuli ko'rsatiladi: aylana, jamoalar va hokazo.

Mashg'ulotning borishida uning mazmuni, tarbiya metodlari tavsif etiladi va pedagogning mashg'uloni birinchi shaxs nomidan batafsil, izchillik bilan bayon qilishidan iborat bo'lishi mumkin yoki (pedagogning shaxsiga qarab) asosiy mazmuni kartochkalarda ifodalangan tezisli plandan tashkil topishi mumkin. Mashg'ulotning borishini modellashtirishda uning davomiy-

ligi va strukturasini hisobga olish zarur. Sinf tarbiyaviy mashg'uloti olti yoshlilar uchun 15 — 20 daqiqadan o'n-o'n bir yoshlilar uchun 1 — 2 soatgacha davom etishi mumkin.

Mazmuni va metodlari bo'yicha xilma-xil bo'lgan sinf mashg'ulotlarini samarali o'tkazish maqsadida uning asosiy to'rt bosqichdan iborat bo'lishiga amal qilish ma'qul:

1. Tashkiliy qism (0,5 — 3 daqiqa).

Pedagogik maqsad: bolalarni o'quv faoliyatidan faoliyatning boshqa turiga ko'chirish, ana shu faoliyat turiga qiziqtirish, ijobjiy his-tuyg'ular uyg'otish.

Tipik xatolar: darsning boshlanishini aynan takrorlash, uning vaqt jihatidan uzoq davom etishi.

Tavsiyalar: tashkiliy qismda kutilmagan holatni yuzaga keltirish, ya'ni topishmoqlar, muammoli masalalar, o'yin momenti, tovush yozuvlari va hokazolardan foydalanish; bolalarni uyushtirish shakllarini o'zgartirish; bolalarni boshqa xonaga, binoga (biologiya, fizika, musiqa sinflariga, kutubxonaga, maktab muzeyiga) o'tkazish yoki ularni sinfda gilamcha, aylana shaklda joylashtirish bolalarning darsdan tashqari faoliyati samarali ko'chishiga yordam beradi. Bu bo'lajak mashg'ulotga qiziqish, ijobjiy his-tuyg'ular uyg'otadi.

2. Kirish qismi (butun mashg'ulot vaqtining 1/5 qismidan 1/3 qismigacha).

Pedagogik maqsad: bolalarni faollashtirish, ularni tarbiyaviy ta'sirga moyil qilish. Pedagog o'zining pedagogik prognози haqiqatda bolalarning imkoniyatlari, shaxsiy sifatlari, mazkur mavzu yuzasidan xabardorlik darajasi, emotSIONAL kayfiyati, faollik, qiziqish darajasi bilan qanchalik mos tushishini aniqlaydi. Bu bosqichda pedagogdan bolalarni qiziqtirishgina emas, balki mashg'ulotning borishi davomida unga qanday tuzatishlar kiritishi kerakligi va tuzatishlar qanday xarakterda bo'lishini aniqlash talab etiladi. Masalan, pedagog o'zi ma'lum qiladigan narsalarning yangilligiga umid bog'lab, hikoyani rejalashtirgan edi, ammo kirish suhbati bolalarning bu muammoni bilishini ko'r-satdi. Bunday holda pedagog hikoyani suhbat yoki o'yin vaziyati bilan almashtirishi zarur. Shunday qilib, kirish qismining maq-

sadi bolaning shaxsiy tajribasidan mashg'ulot mavzusiga „ko'prik tashlash“dan iborat.

Tipik xato: pedagogning kutilmaganda bolalarning ta'sirlanishidan (bolalar pedagog kutayotgan narsani aytinasligi yoki qilmasligi mumkin) qo'rqqani tufayli bu bosqichni inkor etishi. Pedagog mashg'ulotning kirish qismini bolalarning faolligiga emas, balki shaxsiy faollik asosiga quradi, teskari aloqani mensimay, bolalarga passiv tinglovchilar rolini beradi. U bolalarning emotsiyal kayfiyatini e'tiborga olmaydi.

Tavsiyalar: kirish qismi mashg'ulotning mazmuniga qarab bilish xarakteridagi kirish suhbatidan, estetik va axloqiy mashg'ulotlar yoki aqlni „charxlab olish“ topshiriqlaridan (viktoria, konkurs va h. k.) iborat bo'lishi mumkin.

Birinchi holatda savollar, ikkinchisida esa, topshiriqlar bolalar uchun qiziqarli bo'lib qolmay, pedagogga o'quvchilarning tayyorlangan materialni idrok qilishga tayyorligi haqida axborot berishi kerak. Kirish qismida pedagog bolalarning bo'lg'usi mashg'ulot haqidagi dastlabki tasavvurlarini shakllantiradi, ularning faoliyatini tashkil etadi, ya'ni baholash tizimi bilan tanish tiradi, mashg'ulot rejasini ma'lum qiladi, ularni jamoalarga bo' ladi. Baholashning an'anaviy tizimida pedagog aniq mezonlarni berishi, zarur qoidalarni tushuntirishi kerak.

Bolalar jamoalarga bo'linganda ularning xatti-harakatlarini raqobat asosiga emas, balki hamkorlik asosiga qurish lozim. Buning uchun quyidagi usul samaralidir: jamoalarga to'g'ri javoblar uchun ochkolar o'miga qirqib ajratilgan rasmning bo'lak-chalari tarqatiladi. Mashg'ulotning yakuniy qismida bu bo'laklar dan umumiy rasm yig'iladi hamda ballar miqdori emas, balki umumiyl natija muhimligi ayon bo'lib qoladi.

Mashg'ulotning kirish qismida bolalarni faollashtirishning turli-tuman metodlari hamda vositalalaridan: muammoli suhbat, rebus, krassvord, topqiritlik va chaqqonlikka doir topshiriqlar va hokazolardan foydalanish mumkin.

3. *Mashg'ulotning asosiy qismi — vaqt jihatidan eng davomli bo'lishi kerak* (mashg'ulotning 2/4, 1/3 dan sal ko'proq qismi).

Pedagogik maqsad: mashg'ulotning asosiy g'oyasini amalga oshirish.

Tipik xatolar: bolalarning qisman yoki butunlay passivligida pedagogning faolligi. Metodlarning bir xilligi — faqat hikoya yoki suhbat. Ko'rgazmalilikning yo'qligi, foydalilaniladigan tarbiya vositalarining juda ham kamligi. Ongni shakllantirish metodlarining xulq-atvorni shakllantirish metodlaridan ustunligi. Darsning o'quv muhitini yaratilishi. Ibratlilik, o'rgatish, nasihatgo'ylik qilish.

Metodik tavsiyalar: agar bolalar maksimal ravishda faol bo'lsalar, mashg'ulotning rivojlantiruvchi, to'g'rilovchi, shakllantiruvchi, tarbiyalovchi, ta'lim beruvchi vazifalarini amalga oshirishda tarbiyaviy samara yuqori bo'ladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotda bolalarmi faollashtirishda darsdan farq qiladigan alohida emotsiyonal muhitni yaratish birinchi darajali ahamiyatga ega. Masalan, bolalardan qo'llarini ko'tarish, o'rnilaridan turish talab etilmaydi. Intizomni saqlab turish uchun alohida qoidalar joriy qilinadi. Bir masala yuzasidan bir necha o'quvchi o'z fikrini bildirishi eng qulaydir. Pedagogning nutqida „to'g'ri“, „balli“, „ofarin“ deb baholaydigan fikrlarning bo'lmashligi, baholar o'rniga xayrixohlik, his-hayajon, pedagogning his-tuyg'ularini ifodalovchi, qoyil qolish bilan aytilgan „Ha“, „Juda qiziqarli“, „Yangi xabaring uchun rahmat“, „Shundaymi?“, „Buni qarang-a!“ kabi iboralardan foydalinish iliq, xayrixohlik muhitining yaratilishiga yordam beradi.

Agar pedagog xulq-atvorni shakllantirishning xilma-xil metodlaridan iloji boricha ko'p foydalansa, vaziyatni, o'yinni tarbiyalovchi mashqlar, o'rgatish, topshiriqlar berish, mashg'ulotga turli xil faoliyat turlari: mehnat, ijodiy ishlar, sport elementlari va hokazolarni kiritsa, samaradorligi shuncha oshib boradi. Pedagog turli faoliyat turlarini tashkil etishda bolalarmi jamoalarga birlashtirar ekan, ularni bir-birlari bilan erkin muomalada bo'ladigan qilib joylashtirishi, vazifalarini esa har bir ishtirokchi o'zi uchun alohida emas, balki o'zini jamoaning bir qismi deb his etadigan qilib taqsimlashi kerak. Topshiriqni bajarish uchun vaqt berishda jamoaga uni bajarishni muhokama qilishiga bir necha daqiqa vaqt ajratish va jamoa vakilidan tay-

yorigini so'rash lozim. Shunday qilingan taqdirdagina bolalarda faoliyatning umumiy maqsadi, xilma-xil vazifalar va hamkorlik uchun sabab (motiv)lar bo'ladi.

Ongni shakllantarisht metodlari bolalarda e'tiqodning, amaliy-axloqiy tushunchalarning tarkib topishiga yordam berishi kerak. Bu maqsadlarda hikoya metodini o'quvchining axboroti, ma'ruzasi tarzida o'zgartirish, tez-tez munozaradan foydalanish yaxshi samara beradi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ommaviy shakllarida bolalarni munozara qoidalariga o'rgatish lozim:

a) shuni yodda tutingki, bahslashuvchilar haqiqatni izlaysilar, amma uni turlicha tasavvur qiladilar; bahsda umumiy mazmunni aniqlash, keyin esa qarashlardagi farqni oydinlash-tirish va bunga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerak;

b) munozaraning maqsadi — tomonlardan birining haqligini aniqlash emas, balki haqiqatni qaror toptirishdir;

d) haqiqatni opponent shaxsiga ayblar qo'yish bilan emas, balki dalillar yordamida qidirish zarur;

e) so'zlovchini avval hurmat bilan tinglash, keyin esa o'z nuqtayi nazarini bildirish lozim.

4. Mashg'ulotning yakuniy qismi.

Pedagogik maqsad: bolalarning egallagan tajribalarini o'zlarining maktabdan tashqi hayotlarida amalda qo'llashga moyil qilish (xohish uyg'otish) va mashg'ulot qanchalik muvaffaq bo'lganligini aniqlash. Shunday qilib, yakunlovchi qism pedagogning bolaga boshqa muhitda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishiga imkon beradi.

Tipik xatolar: bu qism umuman inkor qilinadi yoki „Yoq-dimi?“, „Yangidan niimalarni bilib oldingiz?“ qabilidagi ikki savoldan iborat bo'lib qoladi.

Tavsiyalar: dastlabki natijalarni aniqlash uchun krossvord, kichik viktorina, berilgan savolga uzoq o'ylamay tez javob qaytarish, o'yin vaziyatlari kabi bolalarni qiziqtiradigan test xarakteridagi nazorat topshiriqlari, bolalarning egallash tajriba-larini shaxsiy hayotlarida qo'llashga doir turliha tavsiyalar berish. Bu mazkur muammoga doir kitoblarni ko'rsatish, bolalarning

mashg'ulotda egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini qo'llashi mumkin bo'lgan vaziyatlarni muho-kama qilish bo'lishi mumkin. Hosil qilingan tajribani qo'llashga doir bolalarga maslahatlar: ular o'z yaqinlariga nimalarni gapirib berishlari, mazkur mavzu yuzasidan nimalar haqida so'rashi mumkin; qayerga borish, u yerda nimalarga e'tibor berish, qanday o'yinlar o'ynash, mustaqil ravishda nimalar qilish va hokazo. Yakunlovchi qismnda mashg'ulot mavzusini kelgusida yana yoritib borish zarurati bormi, bor bo'lsa, buni qanday yo'l bilan amalga oshirish mumkinligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotning yakunlovchi qismidan pedagog bundan keyingi sinf mashg'u-lotlarini o'tkazishda bolalar tashabbusini rivojlantirish uchun ham foydalanishi mumkin.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning individual va ommaviy shakllari, agar ularni tashkil etish va o'tkazishda ota-onalar bevosita ishtirok etsalar, bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ancha samarali bo'ladi.

4.8. Iste'dodli bolalarni aniqlash va ularni tarbiyalash

Iste'dodning o'z vaqtida namoyon bo'lishi tarbiyaga va qo'l-lab-quvvatlashga bog'liqdir. Har qanday jamiyatga iste'dodli shaxslar zarur. Shu nuqtayi nazardan iste'dodli bolalarni aniqlash, tarbiyalash va o'qitish respublikaning bo'lajak aql-zakovatli va ijodiy fikrlovchi kuchlarini tayyorlashning yagona manbayidir.

Ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun o'quvchilar iste'dodini aniq tahlil etish, bolalarning o'ziga xos psixologik jihatlarini va fazilatlarini hisobga olish zarur.

Turli yoshdagi iste'dodli o'quvchilarini namoyon etishda hozirgi kunda, avvalo, maktab pedagogika jamoasi ruhiy-diagnostika tajribalaridan unumli foydalanishlari zarur. Bunda „Respublika Iste'dod Markazi“ xodimlari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Iste'dod markazi xodimlarining faoliyati tajribasidan foydalanish, ularning iste'dodni aniqlashga mo'ljalangan psixologik tadbirlarini pedagogik tajribalar bilan ham-

ohang ishlab chiqish lozim. Yoshlar iste'dodining namoyon bo'lishida qobiliyatlarni aniq tahlil etish, bolaning o'ziga xos fazilatlarini hisobga olish ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun zarur. Qobiliyatlarni rivojlantirish daraja va besqichlari yangicha munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Qobiliyat ma'lum bir darajada istalgan o'quvchida shakllangan bo'lishi mumkin. Bu esa tashkil etilgan tarbiya va o'quv jarayoni sharoitlarida rivojlantiriladi.

O'quvchi yoshlar qobiliyatini rivojlantirish maqsadida iste'-dod va iqtidorni ongli rag'batlatirish, mukammallik uchun sharoit yaratish, ularning ijobiq qiziqishlari rang-barangligini oshirish, turli ko'rgazrnali tadbirdarda ishtirok ettirish, olimpiadalar, tanlovlardan, uchrashuvlarga jaib etish lozim.

Iste'dodli bolalarning taniqli olimlar laboratoriyalarida shug'ullanishi, shoir, yozuvchi, rassom kabi san'at namoyondalari bilan hamkorlik qilishni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oila va muhitning ahamiyati yuksak. Ayniqsa, respublikaning qishloq joylarida iqtidorli bolalarni izlash, topish va ularning ta'lim-tarbiyasini muntazam ravishda to'g'ri yo'lga qo'yish muhimdir.

Iste'dodli bolalarni joylarning hududiy xususiyatlarini hisobga olib, ijodiy kamol toptirishda diagnostik uslubiyatlar, o'quv rejalarini va o'quv-uslubiy, tarbiya va ta'lim dasturlari bilan ta'minlash lozim.

Shuningdek, iqtidorli bolalarni izlash, topish va tarbiyalash uchun zamonaviy moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan to'liq ta'minot zarur.

Iste'dodli bolalar salomatligini muhofaza qilish uchun ularni ruhiy zarbalardan asrash yo'llarini aniqlash, ruhan yordam ko'rsatish, ruhiy hayajonlanish holatlarini o'rganish — ularning ijodiy qobiliyatlarini rivoji uchun sharoit yaratish bo'yicha tavsiyalar: ishlab chiqish darkor.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun Xalq ta'limi, Oliy va o'ta maxsus ta'lim vazirliklari xodirmlari, yetakchi olimlar va mutaxasislar, ijodkorlar, amaliyotchi o'qituvchilar, to'garak rahbarlaridan iborat Respublika metodik kengashi tuzilishi lozim.

Turli yoshdagi guruhlarda iste'dodlarni qidirishning umumiy dasturi zarur. Ommaviy o'quv yurtlarida bo'lganidek, matabdan tashqari ta'lif muassasalarida ham bu borada o'quv dasturi rejalarini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Iste'dodli bolalarni aniqlash, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlash quyidagi omillarga bog'liq:

— ushbu aniqlashning ijtimoiy ahamiyati respublikaning zakovati, ijodkorligi, kuch-qudratini tayyorlashning istiqboli bilan bog'liqligini tushunishga;

— ruhiy diagnostik uslubiyat, uslubiy materiallari bo'lgani holda turli yoshdagi guruhlarda aniqlashning umumiy dasturlari yaratilishiga;

— iste'dodli bolalar (maxsus tayyorlangan rejalar, dasturlar va ilmiy asoslangan uslubiyat va hokazo bo'yicha) bilan ishlash uchun ixtisoslashgan muassasalarning yagona tarmog'ini targ'ib etishga;

— ommaviy o'quv yurtlarida iste'dodli bolalar bilan ishlash uchun zarur o'quv-dasturiy qo'llanmalarini ishlab chiqishga;

— joylarda maxsus guruhlar tomonidan ishlab chiqilgan xalq ta'limi, davlat va jamoat muassasalari, ijodiy uyushmalar tomonidan tasdiqlangan dasturlarga (bu dasturlarda iste'dodli bolalar bilan ishlashning istiqbollari va bosqichlari, o'z hududida bunday faoliyat va ko'pgina boshqa tadbirlar uchun mablag' ajratish, ularni ta'minlashga);

— qo'yilgan vazifalarni hal qilishga keng jamoatchilik diqqatini jalb qilishga, respublika metodik kengashining tuzilishiga (bu kengash tarkibiga Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, xalq ta'limi boshqaruв organlari xodimlari, yetakchi olimlari va mutaxassislari, ijodiy uyushmalar, amaliyotchi o'qituvchi, matabdan tashqari ta'lim muassasalari to'garak rahbarlari kiradilar);

— ilmiy tadqiqotlar maktablar uchun me'yoriy hujjatlar, sinf ishlanmalari majmuyiga, iste'dodli o'quvchilar haqida ma'lumotlar manbayini yaratishga, ularni o'qitish va tarbiyalashning (tabaqlashtirish, individuallashtirish, insonparvarlashtirish) yagona uslubiy asosini yaratishga bog'liq.

Iste'dodli va iqtidorli bolalarning o'qituvchi hamda tarbiyachilari alohida iste'dodlar uchun turlicha o'quv reja va dasturlariga ega bo'lishlari maqsadga muvofiq. Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va o'qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlarini yaratish, maxsus o'quv dasturlari va tizimli pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlarning faol ishtirokini ta'minlash lozim.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy va kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobit-qadarni faoliyatni amalga oshirish kerak. Akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda, iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalişlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlanтиrish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish lozim.

?! *Savol va topshiriqlar*

1. Tarbiya texnologiyasini izohlang.
2. Tarbiya tizimini ijtimoiylashtirish deganda nimani tushunasiz?
3. Tarbiya tamoyillarini izohlang.
4. Innovatsiya tushunchasiga ta'rif bering.
5. Pedagogik yordam deganda nimani tushunasiz?
7. Iste'dodli bolalarni aniqlash yo'llari nimalardan iborat?
8. Ijodiy qobiliyat deganda nimani tushunasiz?





5.1. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari

O‘zbekiston Respublikasining istiqlolga erishuvi hamda o‘z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘liga ega bo‘lishi, xalq xo‘jaligining turli sohalarida, jumladan, xalq ta’limi tizimida ham o‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasi bilan borliq jarayonini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so‘nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „Ma’naviyat va ma’rifat“ jarnoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillash-tirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida“gi farmonida ko‘rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma’naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analaramizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islo-hotlarning hal qiluvchi omilidir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish, avvalo, komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo‘nalishlarini topib joriy etishga bog‘liq. Ushbu Konsepsiya ham xuddi shu maqsadda, shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo‘naltirilgan. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalar qaytadan ko‘rib chiqilishi, asosiy e’tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribadan unumli foydalananish zarurligini taqozo etadi. Tarbiyaviy ishlar huquq-tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, davlat va nodavlat jamg‘armalar, qo‘mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzlusiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi,

maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridaagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilishdir.

Tarbiyaning bosh maqsadi — yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'alariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishib chiqib, amalda joriy etishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi — shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Buning uchun:

— yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;

— o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosi qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

— har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlanтирish. Inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit holzirash;

— insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamisitshlarga toqatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaclikka, yolg'onchilik, tuhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo'llanishi lozim;

— vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat-muloqotni o'rganish,

o‘z xalqi, davlati, uning himoyasi uchun hamisha shay bo‘lib turish, O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O‘zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog‘iga, Gerbiga, Madhiyasiga, Prezidentiga sa-doqatli qilib tarbiyalash;

— qonuniy jamoa axloqji va turmush qoidalariga hurnat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fu-qarolik va ijtimoiy mas’uliyat hislarini rivojlantirish, o‘zi yasha-yotgan mamlakatning ravnaqni, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta’lim-tarbiya;

— mustaqil davlatimiz — O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rgatish. Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o‘z xalqining turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to‘g‘ri tushuntirmoq kerak;

— turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondoshish fazilatlarini shakllantirish;

— sog‘lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlan-tirish, munosib oila sohibi bo‘lish istagini shakllantirish;

— yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagicha bo‘lishi lozim:

— tarbiyada tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh yigit-qizning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy, huquqiy va erkinligini e’tiborga olish;

— yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg‘usini qaror toptirish;

— milliylikning o‘ziga xos an‘analari va vositalariga tayanish;

— shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e’tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo‘lish.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan hol-

da ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbus-korligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xosligi shundaki, to'garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

5.2. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning nazariy asoslari

Maktabning o'quvchilar bilan olib boradigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari, xilma-xil ta'lim-tarbiya ishlari sinfdan tashqari ishlar nomini olgan. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'nga qo'yish shakllaridan biridir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga, aktiv faoliyatga tayyorlash uchur keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ng'lilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlat olishadi, ularda mustaqil, tashabbuskorona ishtirok etishi shadi. Maktab va maktabdan tashqari muassasalarining tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinf va maktabdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan taysiflanadi. Mazkur muammoni ijobjiy hal etish uchun sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi lozim:

- pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat munosabatlari shakllanganlikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish;
- ulg'atgan inson shaxsini tarbiyada oliv ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish zarur.

Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- a) fan to'garaklari;
- b) mohir qo'llar to'garaklari;
- d) duradgorlik to'garaklari;
- e) sport to'garagi;
- f) badiiy to'garak.

Bu to'garaklarni o'rta umumta'lim maktablarida sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to'-garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'-maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalari quyidagilar kiradi:

- darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalgamoshirishni nazorat qilish;
- o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarini pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollarini yordamida yo'lga qo'yish;
- sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish;
- umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish;
- o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

Bu borada tashkilotchilar faolligining uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.

Bular, ko'pincha, o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:

-- tarbiyaviy ishlardan sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;

-- tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash;

-- tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni, shakl va usullarini aniqlash;

-- sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni guruhlashtirish, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirmasdan uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko'zda tutilgan maqsadga erishish qiyin. Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoasining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishiga bog'liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi. Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faol yat ilmiy jamoa, adabiy va maktab teatrlarining ishlari, turli mavzularda o'tkaziladigan kitobxonlar konferensiysi va munozaralar, siyosiy, axloqiy, ilmiy-ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruba va suhabatlar, ijtimoiy foydali mehnat, siyosiy axborot, bayram kechlari va ertaliklari, to'garak mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari c'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisobianadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar, turli vazifatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatları qanchalik xilma-xil bo'l-

sa. ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqari-dagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoada ishlashni o'rganadilar ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar, jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyat unda qatnashuvchilarining ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu jarayonga ular ta'lim olayotgan mакtabning sharoiti ham ta'sir etadi. Garchand mamlakatimizdagi barcha maktablarning vazifalari bir bo'lsa-da, o'sha maktablarning o'ziga xos xususiyatlari bor va bu xususiyatlar madaniy va milliy sharoitlarda yaqqol ko'rindi. Tarbiyachilar, sinf rahbarlarining sinfdan va maktabdan tashqari olib boradigan tarbiyaviy ishlarida quyidagi ish usullaridan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir:

1. *Og'zaki ish usullari.* Turli axborotlar, majlislar, ertalabki yig'inlar, ma'ruzalar, kitobxonlar konferensiyalari, munozalar, uchrashuvlar, gazetalar, radiojurnallar.

2. *Amaliy ish olib borish usullari.* Turli joylarga sayohatlar, sport musobaqalari, olimpiada, iztoparlar ish faoliyati, yosh tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar.

3. *Ko'rgazmali ish usullari.* Maktab muzeylari, urush va mehnat qahramonlari xonasi, yangi kitoblar ko'rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qolibiliyatini ishga solishni, timmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, ahil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo'lishlari lozim.

Fuqarolik faoliyati o'z davlati oldidagi huquq va burchlarini tan olishni, jamiyat belgilagan yashash va axloq me'yorlariga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy yetuklikni barqaror etadi:

— islohotlarning taqdiri va samarasini uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi shaxslarni shaklantirish borasida ustuvor davlat siyosati yurituvchi;

— siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilish. Vatanparvarlik va

baynalmilaflilikni his etish, ijtimoiy siyosiy hayotda faol qatnashishga shay turishi.

— xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya’ni qonunchilik tamoyillarini, o‘zining Vatan, mahalla, oila oldidagi huquq va burchlarini bilishi, ularga qat’iy arnal qilishi. Qonunchilikning buzilishiga murosasiz munosabatda bo‘lish.

5.3. Sinfdan tashqari ishlarning shakl va metodlari

Jamoaat tashkilotlari o‘quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtarda olib boriladigan xilma-xil mashg‘ulotlarni o‘qituvchilar yordamida tashkil qiladilar. Sinfdan tashqari ishlari o‘z mazmunga ko‘ra juda xilma-xil: ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ijtimoiy foydali, badantarbiya-sog‘lomlashtirish ishlari bo‘ladi. Sinfdan tashqari ishlari uch xil shaklda: ommaviy, to‘garak va individual shakllarda tashkil qilinadi.

Ommaviy shakllar: ertaliklar, maktab kechalarini, bolalar bayramlari, ko‘riklar, quvnoqlar va topqirlari to‘garagi, sayr, sinf va maktab muzeylari, bolalar ishlarining ko‘rgazmalari va hokazolar.

To‘garak shakllari: maktabdagisi har bir to‘garak o‘zining doimiy ishlari va soatlariga ega bo‘lishi lozim. To‘garakda qat’iy intizom bo‘lishi: to‘garak a‘zolari mashg‘ulotlariga kechikmasdan kelishlari, to‘garak topshiriqlarini batartib bajarishlari, to‘garakning moddiy boyliklarini ehtiyoj qilishlari kerak.

Sinfdan tashqari individual shakllar: har bir o‘quvchi mayl va qobiliyatlarining rivojlanishiga yordam beradi. Bu ishda sinfdan tashqari o‘qish katta ahamiyatga ega. Maktabda har bir sinf uchun sinfdan tashqari o‘qish dasturi bor. O‘quvchining nima o‘qiyotgani va o‘qigan narsalarini qanday idrok qilayotganini o‘qituvchi bilishi juda muhim. Shuning uchun o‘qituvchining sinfdar tashqari o‘qishga rahbarligi eng yaxshi kitoblarni targ‘ib qilish va o‘quvchilarda o‘qilgan darsliklarni to‘g‘ri, chuqur idrok etishni rivojlantirishidan iborat.

Individual topshiriqlarning turlari juda ko‘p bo‘lib, o‘simliklar o‘stirish, gullar, sabzavotlar yetishtirish ham ana shun-

day topshiriqlar jumlasiga kiradi. Individual topshiriqlarda har bir o'quvchining imkoniyat va qiziqishlari hisobga olinsa, ular bolalarning qobiliyatlari, iste'dodlarini o'stirishga yordam beradi.

O'qituvchi ta'llim jarayonida bolalarning madaniy ehtiyojlari va kamolot darajalarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Ularga muvofiq tarzda ayrim o'qituvchilar guruh yoki butun sinf bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirishadi.

Maktabdan tashqari ishlar. Maktabdan tashqari ishlar bolalarning yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ixtiyoriy ravishda, faol va mustaqil qatnashishlari sharoitida tashkil qilinadi. Maktabdan tashqari ishlarda bolalar kutubxonasining ishi diqqatga sazovor. Bolalar kutubxonalari maktablarning 1 — 4-sinflari o'quvchilariga, shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi kitob o'qiy oladigan bolalarga xizmat ko'rsatadi. Kutubxonaning butun ishi bolalarga yaxshi tarbiya berishga, fan asoslarini o'rganishda o'quvchilarga yordamlashishga, bolalarda o'qish madaniyatini tarbiyalashga, mustaqil ravishda bilim olish mala-kalarini hosil qilish va mustahkamlashga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ishlarda o'qituvchi muayyan aholi yashaydigan joyda qanday muassasalar borligini bilib, ular bilan hamkorlikda qilinadigan ishlarni yo'lga qo'yadi, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni to'garaklarga jalb qiladi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tashkilotchisi maktabda tarbiyaviy ishning umumiyligi rejasini tuzadi hamda o'quvchilarga har tomonlama tarbiya berishda mактаб o'qituvchilar, maktabdan tashqari muassasalar hamda maktabni otaliqqa olgan tashkilotlarning ishlarini bir-biriga muvofiqlashdiradi. O'quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o'zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko'p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarning samarali ishlashiga bog'liqdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarning amaliyot, ishlab chiqarish bilan bog'lanishi zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashk lotchilarning vazifalari ham ko‘p qিralidir. Ularga quyida-gilar kiradi:

1 Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.

2 O‘quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko‘p qirrali ishlarini o‘quvchilar tashkilotlari, sinf faollari yordamida yo‘lga qo‘yish.

3 Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo‘nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, sinf faollariga uslubiy yordam ko‘rsatish.

4 Umummaktab va maktablararo o‘tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirdarda qatnashish.

5 O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foy-dalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligining uchta asosiy to-monini ko‘rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma’muriy.

Bular, ko‘pincha, o‘zaro uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari-ning tashkilotchilik faoliyatiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchilik-larni tahlil qilish.

2. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash.

3. Tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash.

4. Sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhshtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda quyidagi pedagogik talablar mavjud:

Maktabdan tashqari ta’lim muassasalarining to‘garak qatnashchilari ongida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo‘lishi kerak. To‘garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so‘nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish muhim o‘rin tutadi. To‘garak qatnashchilarida mus-

taqillik tushunchasi shakllangan bo'lishi, ular davlatimiz ramzalarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni yaxshi bilishlari kerak.

Maktabdan tashqari ta'lif o'quvchilarga, xohishlariga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtarda o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha to'garak qatnashchilariiga talablar qo'yilishi kerak:

1. Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasi;
2. Estetik ta'lif;
3. Sayyoqlik yo'nalishi bo'yicha to'garaklarga qatnashish;
4. Ekologik ta'lif yo'nalishi bo'yicha to'garaklar;
5. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy yo'nalishi bo'yicha;
6. Huquqiy ta'lif yo'nalishi bo'yicha;
7. Texnik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha;
8. Istiqloq bolalari va iste'dodli yoshlar;
9. Iqtisodiy ta'lif.

O'quvchilarning mustaqilligi turli darajada bo'lganida mustaqil tayyorgarlik amalga oshirilishi mumkinligini hisobga olish muhim, albatta. Bu esa, ular shaxsining shakllanishiga shubhatsiz ta'sir ko'rsatadi. Ayrim o'quvchilarning ishdagi faol va mustaqil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki o'quvchilarning o'zлari oldilarida turgan vazifalarini va ularni hal etish yo'llarini ancha yaxshi tushunadilar. Bolalar tarbiyachi yordamisiz ishlaydilar. Bu yerda tarbiyachining aralashuvi maqbul emas. Chunki bunday holat bolalarning mehnatsevarligini, bilish ehtiyojlarini shakllantirishda eng katta imkoniyatga egadir. O'quvchi mustaqil harakat qilib, lekin o'z ishini tarbiyalashning fikri va bahosiga bog'liq qilib qo'ygan paytda tobe mustaqil holat vujudga keladi. Ish qiziqish va ishtivoq bilan bajarilsa ham mustaqil ishni bajarayotgan harakatlarida ishonchsizlik jihatlari mavjud bo'ladi. Sinf rahbarining rahbarligi va nazorati ostida harakat qiladigan o'quvchilar toifasida majburiy ijro etish holati paydo bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishga unchalik qiziqish bildirmaydilar. Ular, ko'pincha, sind rahbarining yordamini so'rab murojaat qiladilar, kuchli o'quvchilarning qo'llab-quvvatlashidan foydalanishga intiladilar, agar bunday qo'llab-quvvatlash bo'lmasa, ishni davom ettirishga irodalarini ishga solmaydilar.

Bunday o'quvchilarda tashqaridan majbur qilish vaqtida harakat qilish odati mustahkamlanadi. Agar bunday holat barqaror bo'lib qolsa, u o'quvchining faqat aqli emas, shu bilan birga ma'naviy rivojlanishiga ham to'sqinlik qilishi mum'kin.

Maktabdan va sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning bir-biriga hurmati, axloqiy sifatlari jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan muornala madaniyati ham shakllanadi. O'quvchi o'qituvchiga taqlid asosida yoki do'stлari orasida o'rgangan tarbiyasi muomallasiga ta'sir qilish mum'kin. O'qituvchi o'quvchilar orasida muomala madaniyatini shakllantirish uchun avvalambor o'quvchining o'ziga bo'lgan muomallasini, e'tiborini o'rganishi kerak.

C'quvchi maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o'qituvchi talabiga ham javob berishi lozim. O'qituvchi talablari:

1. Darslarga to'liq qatnashish.
2. O'quv qurollari bilan ta'minlanganligi.
3. O'qituvchini diqqat bilan eshitish.
4. Topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish.
5. Tashkiliy ishlarda faol qatnashish.
6. Sinf intizomiga rioya qilish.
7. Tozalikka rioya qilish.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni nazoratsiz ijro etish holat rasmiy ijrochilik, ishtiyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan o'quvchilarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mavjud bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, aks holda o'quvchilarda ishiga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo bo'ladi, bu esa ularning mehnatdagi tashqi faolligini yo'qqa chiqaradi.

Sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarda o'quvchilarning xatti-harakatlari oldindan juda qattiq tartibga solib qo'yilganligi xususida e'tirozlar bildirilmoqda. Maktab o'quvchilarining mustaqil tayyorgariigiga pedagogik rahbarlik shunday qurilishi kerakki, u o'quvchilarni charchatib qo'ymasin, doim bir xil tusda bo'lmasisin yoki haddan tashqari oson, aqliy va irodaviy kuchg'ayratni sarflashni talab qilmaydigan bo'lmasisin. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishda tarbiya-

ching eng muhim vazifasi o'quvchilarni o'quv vazifalarini hal etishga o'rgatishdan, buning uchun harakat usullarini to'g'ri tanlashdan, o'z xatti-harakatlariga rahbarlik faoliyatini nazarat qilishdan, mustaqil ish ko'nikmalarini boshqa muhim hayotiy vaziyatlarga o'tkazishni nazarda tutish lozim. Bunda fikrlash faoliyatining mustaqilligi, intizom, uyushqoqlik va o'z-o'zini nazarat qilish kabi to'rtta tarkibiy qismni hisobga olish muhimdir. Mazkur jihatlarni shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining muhim va murakkab vazifalaridan biridir. Buning uchun o'quvchi faoliyati natijalarini hisobga olishni va bu jarayonni tahlil etishni uyushtirish zarur.

O'qituvchi sinf-dars faoliyati uchun xos bo'lган shakllarni nazarat qilishning bir necha usullarini qo'llashi mumkin. Eng kuchli va qobiliyatli o'quvchilarga xomaki yozuv bilan ishlash huquqi beriladi. Unda qoida ko'rsatiladi, bu qoidani tasdiqlovchi misollar keltiriladi, o'quv vazifasi qayd etiladi. Yozuv juda qisqa bo'ladi, lekin u o'quvchining fikrashi qanday ekanligini ko'rsatadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'quvchilarni ayrim ko'nikmalarga o'rgatishni nazorat vositasi deb hisoblash kerak. O'z-o'zini tekshirish, o'zaro tekshirish usullariga o'rgatish o'qituvchining o'quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash ishi jarayoni ravshan bo'ladi. O'quvchilarning o'zları harakatni taklif etadilar va shu bilan pedagogga muayyan ma'lumot beradilar. Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning yetakchi tamoyilidir. Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi yangi pedagogikada to'la ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kurslarida bayon etilgan jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi.

Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv-mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy

an'analarini yaratish va ko'paytirish. Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'l-lanma hisoblanadi. O'rta umumta'lim maktablarida sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda sinf rahbari va tarbiyaviy ishlard tashkilotchisi uyuştiradi.

O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyat-larga duch keladilar. Shuning uchun ham maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy bo'ladi. Maktab tashqaridagi ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarini o'rganadilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari o'z ishini reja asosida olib boradi va uning bajarilishini ham nazorat qiladi. Ish reja maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi. Unda bolalarning yosh xususiyatlari, maktabning joylashgan shart-sharoiti, ijodiy birlashmalari, ilmiy markazlar bilan o'zaro alo-qasi kabi ishlar inobatga olinadi. Ijodkor rahbar hamda ilg'or o'qituvchi, tarbiyachilar o'z faoliyatlari ijayoniда tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarni asos qilib oladilar:

- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish;
- ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish e'tiqodga ay-lantirishdan iborat ekanligi;
- tarbiya jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lab bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish;
- tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar jamoasini jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib, tarbiyaning ta'lim bilan uzviyligini ta-minlash;
- tarbiyaviy jarayonda bolalarni tarbiyalash darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o'stirish;
- bola shaxsiga hurmat va talabchaniik;
- bolalarning yosh va ruhiy holatini hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tomonlari barkamol in-sonni tarbiyalashda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, uni qay da-rajada olib borish sinf rahbari va tarbiyachining pedagogik ma-horatiga bog'liq.

5.4. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni amalga oshirishda direktor o'rinbosarining ish metodikasi

Maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari nizomda belgilangan vazifalar bilan bog'liq ravishda tegishli pedagogik xodimlarga ko'rsatma beradi. Xizmat vazifasi doirasidan kelib chiqqan holda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish va yangi to'garaklarni ochish masalalarini hal qiladi. Shuningdek, u:

- sinf rahbarining ta'lif-tarbiya ishlari bo'yicha erishgan yutuqlarini hisobga olib, uni taqdirlash uchun direktorga taklif kiritish;
- sinf rahbarlarining o'z vazifasiga nisbatan mas'uliyatsizligi yoki uni suiste'mol qilganligi uchun direktor bilan kelishilgan holda tanbeh berish;
- bolani yaxshi tarbiyalagan ota-onalarni, maktabga yordam bergen mahalla faollarini taqdirlash uchun direktorga taklif berish huquqiga ega.

Direktor o'rinbosari vazifalari:

- sinf rahbarlari ish rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;
- maktabda o'tkaziladigan sport musobaqalari rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;
- turli xildagi to'garak ishlari rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash.

Sinfdan va maktabdan tashqari muassasalarning tashkiliy shakllari, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qarorlarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinfdan va maktabdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Buning uchun sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi lozim:

- ulg'ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bolaning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish;

- milliylikning o‘ziga xos an’ana vositalariga tayanish;
- pedagoglar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish;
- mакtabning jamoat tashkiloti, otaliq qiluvchi korxonalar bilan aloqasini mustahkamlash;
- bolalar nazoratsizligi va qonun buzilishining oldini olish;
- yashash joyi bo‘yicha bolalarning bo‘sh vaqtini tashkil etish;
- o‘quvchilarning oilalariga borish va bolalarni tarbiyalashda ularga yordam berish;
- yosh avlodning Vatanga, jamiyatga va mehnatga, o‘ziga va odamlarga munosabatini anglab olishga qaratilgan axloqiy tuyg‘ularni tarbiyalash.

Tarbiyaviy ishlar bolalarning kundalik hayotidan olingan aniq dälillar va voqealarni, badiiy adabiyot, vaqtli matbuot, kinofilmardan olingan misollarni tahlil etish hamda muhokama qilish asosida o‘tkaziladi. Bu ishlarning xususiyati shundaki, bu bolalarni o‘zining axloqiy xatti-harakatlari haqida mulohaza yuritishga va ularga to‘g‘ri baho berishga o‘rgatadi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning darsdan bo‘sh vaçtlaridagi o‘quv tarbiya jarayonini to‘ldiradi va kengaytiradi, o‘quvchilarni mustaqil bilim olishlari, ijobiy qobiliyatlarini, ta-shabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Sinf jamoasi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning hajmi, asosiy yo‘nalishlari, mazmuni har bir bosqichda o‘quvchilarning psixik rivojlanishi darajasiga mos kelishi lozim. Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qobiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishini taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, ahil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo‘lishi kerak. Maktabda bashlang‘ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni olib borish, uni yo‘lga qo‘yish sind rahbari yoki tarbiyaviy ishlar tashkiotchilari tomonidan uyuştilirdi. Tarbiyaviy ishning asosiy yo‘nalishlari:

- o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarni shakllantirish, ularni milliy istiqqlol ruhida tarbiyalash;

- o'quvchilarda axloq madaniyatini, ularning o'z huquq va burchlariga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash;
- o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnatini tashkil etish;
- o'quvchilarda o'z-o'zini boshqarish malakalarini shakllantirishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi va sinf rahbari faoliyatining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning ahil tarbiyaviy jamoasi ni tashkil etishdir. Boshlang'ich jamoa ishi shunday quriladiki, undan sinfnинг boshqa jamoalari bilan aloqasi doimiy ravishda amalga oshiriladi, umumiyl maktab an'analari saqlanadi. Boshlang'ich jamoa o'qituvchi-tarbiyachi va sinf rahbari, o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish organlari rahbarligida umummmaktab ijtimoiy foydali ishlari faoliyatida ishtirok etadi. O'qituvchi va sinf rahbari sog'lom, ahil bolalar jamoasini shakllantirish bilan birga doimiy bolalar qiziqishlarini qo'llab-quvvatlaydilar, ularning ijtimoiy foydali faoliyatini yo'naltirib boradilar. Kichik yoshli o'quvchilar juda faol va harakatchan bo'ladi. Faollikka intilish bu yoshdag'i bolalarning organik ehtiyojidir. Biroq bunda bolalar hali yetarli hayotiy tajribaga ega bo'lmaydilar va kundalik pedagogik rahbarlikka ehtiyoj sezadilar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolaning ilk maktabdag'i qadamidanoq tarbiyaviy ishning chinakam jamoatchilik munosabatlarini yaratishga zo'r imkoniyat beradigan, bolalarda bir-birligiga g'amxo'r munosabatda bo'lishni tarbiyalaydigan, individual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadigan usullarni tanlaydi. O'qituvchi boshlang'ich sinflarda bolalarga o'zlarini qiziqtiruvchi faoliyat turini tanlashga yordam beradi. Biroq, ko'pincha, kichik yoshdag'i o'quvchilar yosh xususiyatlariga ko'ra, o'z xususiyatlarini to'g'ri baholay olmaydilar. Bolalarning o'sishi ularda jamoatchilik malaka va ko'nikmalarning shakllanib borishi bilan o'qituvchi-tarbiyachining bolalar jamoasiga rahbarlik qilishidagi jarayonini o'zgartirib boradi. O'qituvchi boshlang'ich sinflardayoq ahil bolalar jamoasini yaratish asosida sog'lom jamoatchilik fikrini yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bolalar tarbiyaviy jamoasini yaratish sohasidagi ishini yuqori sinflarning sinf rah-

barlari davom ettiradilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarni ta'lif va tarbiyaning tabiiy sharoitida, ularning jamoa faoliyati jarayonida o'r ganadilar. Sinfdan tashqari ish o'quvchilarga biror maqsadga qaratilgan pedagogik ta'sir vaqtini uzayti radi, u o'qituvchining darslarda egallagan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, bolalarning qobilyatini rivojlantirish, ularning xilma-xil qiziqishlarini qondirish, madaniy dam olishlarini uyuشتirish imkonini beradi. Sinfdan tashqari ish bolalar ni jarniyat hayotiga jalb qilishning katta imkoniyatlariga ega.

Har bir jamoa o'z-o'zini boshqarish organiga ega va umum-milliy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatlaridir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga ega. Bolalar jamoasi rivojlanishi jarayonini tahlil qilib, uni quyidagi ikki bosqichga bo'ladilar:

- a) jamoani dastlabki jipslashtirish;
- b) jamoani shakllantirish va uning har bir a'zosini rivoj-lantirish.

Jamoani shakllantirish jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yagona talab o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi jamoat joylari hamda uydagi xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi. Puxta o'ylab qo'yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi mакtabda muayyan tartibning o'matilishini ta'minlaydi.

Pedagoglar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

- 1 O'quvchi shaxsini hurmat qilish.
- 2 Muayyan maktab yoki sinfdagi sharoitni hisobga olish.
- 3 Qo'yilayotgan talablarning aniq bo'lishi.
- 4 O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turi-shi hamda muomalasiga qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

O'qituvchi qo'yilayotgan talablarning hajmi, tizimini bilib-gina qolmasdan, talab qo'yish metodikasini ham o'zlashtira ol-gan bo'lishi kerak. O'quvchilarga talablar qo'yish metodikasi bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirib, ularning ahamiyati-ni tushuntirish, tajriba orttirish hamda ularning muntazam suratda nazorat qilib borishdan iborat. O'quvchilarni talablar bilan tanishtirish, ko'pincha, umumiy majlislarda amalga oshiriladi, bunda ta'lif muassasasi direktori yoki o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari istiqbolli rejalar va ularni amalga oshirish jarayonidagi talablar mazmuni bilan o'quvchilarni tanish-tiradi. Batafsil tanishtirish ayrim hollarda amalda ko'rsatish, keyinroq sinflar bo'yicha sinf majlislarida, maxsus suhbatlar uyuşhtirish jarayonida amalga oshiriladi. Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur ta-lablar ustida mashq qildirish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda murakkab. O'quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mum-kin, biroq aksariyat hollarda ularga rioya qilmaydilar. Shu bois muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi.

Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shartlar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Nazorat haqqoniy va muntazam bo'lishi kerak. Uning natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish lozim.

Jamoani uyuşhtirish va jinslashtirish. U faollarni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Jamoa faollarini shakllantirish jamoa-ning u yoki bu faoliyatga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Jamoa faollarini aniqlash uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini, ularning jamoa ishlarida ishtiroki, xulq-atvorini ku-zatib borishi, har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlashi zarur.

Jamoa faollarining tarkibini bolalarning o'zlari, albatta, pe-dagog ishtirokida va rahbarligida tanlashsa, maqsadga muvofiq

bo'ladi. Bunda pedagog jamoa faollarining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifa yuklash, ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish lozim.

Maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosar o'quvchilarga nisbatan mehr va muhabbat, pedagogik jamoaga va ota-onalarga nisbatan talabchan bo'lgan holda ish tutishi va muntazam o'z ustida ishlab, sabr-bardoshli, o'z fikrlarini puxta bayon qilib, o'zgalarni o'ziga jalb qila oladigan xislatlarni o'ziga mujassamlaydi. Davlat va hukumatimiz tomenidan qabul qilingan barcha hujjatlar mohiyatini, Prezident asarlarini yaxshi bilishi, uni o'quvchi-yoshlar orasida targ'ib eta olishi, xalq pedagogikasi an'analarini, o'zbek xalqi milliy urf-odatlari, qadriyatlari, allomalari o'gitlarini yaxshi bilishi, shuningdek:

-- Mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini yaxshi bilishi va doimo uni o'z faoliyatida hisobga olishi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ilmiy asoslari hamda yangicha usul va metodlarini yaxshi bilishi;

-- radio, televideniya va ommaviy axborotning boshqa vositalari orqali berilgan eng so'nggi yangiliklardan boxabar bo'lishi hamda ularning mohiyatini o'quvchilarga yetkaza olishi;

-- sifsdan tashqari tadbirlarni tayyorlash va o'tkaza bilishi;

-- tuman, shahar, viloyat, respublika niqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi;

-- maktabda o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib bora-yotganlarga metodik tavsiyalar berib borishi;

-- muntazam ravishda o'z malakasini oshirib turishi, o'z sohasi bo'yicha o'tkaziladigan seminarlarda ishtirok etishi lozim.

5.5. Maktabda o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish metodikasi

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari e'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, „Ta'lim to'g'risida“gi, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'-risida“gi qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, xalq ta'lirai vazirligi va boshqa yuqori tashkilotlarning qaror,

buyruq va me'yoriy hujjatlari talablari asosida olib boradi. Ummiy o'rtalim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rnibosari ota-onalar hamda keng jamoatchilik bilan hamkorlikda o'quvchi-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning ongiga ona-Vataniga, xalqiga va uning bugungi buniyodkorlik ishiga ehtirom bilan qarash ruhida tarbiyalashga rahbarlik qiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rnibosari lavozimiga kamida 5 yil pedagogik ish stajiga ega bo'lgan qobiliyatli, mahalla, ota-onalar va keng jamoatchilik o'rtasida hurmat-e'tiborga loyiq bo'lganlar tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi tomonidan tayinlanadi va bo'shatiladi.

Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy tarixiy va madaniy merosimiz, milliy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida keng fikrli, sog'lom, jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan bar-kamol, iqtisodiy islohotlarning mohiyatini tushunadigan hamda ularni yangi ijtimoiy munosabatlar orqali hayotga tatbiq eta oladigan, milliy g'oya va istiqlol mafkurasi mustahkam bo'lgan shaxslarni shakllantirish direktor o'rnibosari faoliyati maqsadining asosini tashkil etadi. O'quvchi-yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosi asosida ularni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, iymon-e'tiqod, mehr-shafqatlilik kabi insoniy fazilatlar misolida har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalaydi. Shuningdek:

— „Ta'lif to'g'risida“gi Qonun, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“, Respublika Oliy Majlisi sessiyasi materiallari, Prezident farmonlari, asarlari, nutqlari, hukumatimiz qarorlari, ta'lif boshqaruvi organlari me'yoriy hujjatlari, talablari asosida o'z ishini amalga oshiradi;

— tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda sinf rahbarlarining qiziqishlari, topshiriqlarni qay darajada bajara olishlarini hisobga oladi;

— o'quvchilarda Vatanga muhabbat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Konstitusiyasi va Davlat ramzlariga sadoqat hislarini tarbiyalaydi;

O'quvchilarning o'z-o'zini idora qilish organlari faoliyatida qatnashuvi ularning ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. Bu bolalar va o'smirlarning demokratiya borasidagi tushunchalarini kengaytiradi.

O'z-o'zini idora qilish — tashabbuskorlik va mustaqillik mактабидир. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqaruvi o'qituvchilar tomonidan fan va mashg'ulotlarning to'liq o'zlashtirilishiga, biror kasb o'r ganishiga, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalanishi ga, Vatan himoyachisi bo'lishiga, mактабдан tashqari tarbiyaviy ishlarda, davlat, jamoat mulkini ko'z qorachig'iday asrashga, tabiatni muhofaza etishga ko'maklashadi. O'z-o'zini boshqarish o'quvchilarni mustaqil hayotga, turmush va jamiyatga mos qilib tarbiyalash, ta'lim muassasasida ma'naviy muhitni saqlash, qo'shimcha ta'lim olish uchun o'quvchilar talabnomasini shakllantirishda ko'maklashadi. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqaruvi a'zolari mактаб va mактабдан tashqari ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan barcha tadbirlarda, tanlovlarda, xonalarни jihozlashda faol ishtirok etadilar. Mazkur boshqaruв tashkilotchilik ishi ko'nikmalarini tarbiyalaydi, umumiy g'oyalari bilan ahil, jipslashgan o'quvchilar jamoasini tuzadi. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish tizimi mактаб o'quvchilari (jamoasi) tomonidan o'zining faoliyatida demokratik faoliyat tarzlarini chugur o'zlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Bu to'g'ri taqsimlash, ijro ustidan hisobot va nazoratni yo'lga qo'yish, harakatlar, tashabbuskorlikning uyg'unligini ta'minlash, musobaqalar uyushtirish, o'z zimmasiga mas'uliyat olish kabi ko'nikmardan iborat.

Tarbiyalanuvchilar davrimiz kishisi uchun zarur bo'lgan qator axloqiy sifatlarni, chunonchi, jamoat ishiga va unga qo'shadigan ulushi uchun shaxsiy mas'uliyat, jamoa manfaatlariga sodiqlik, qat'iylik, talabchanlik, jamoat tashabbusini qo'llab-quvvatlash kabi sifatlarni egallaydi. Mактабда o'quvchilarning

mustaqil faoliyati barcha pedagogik jamoa bu ishqga ma'naviy tayyor bo'lsagina, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro chuqur hurmat, xayrixohlik, ishonch bo'lgan sharoitdagina tashkil etilishi mumkin. Hech qanday soxtalik va sun'iylik bo'lmashligi kerak.

Barcha o'z-o'zini idora qilish tashkilotlari o'z faoliyati yuzasidan vaqt-vaqtida hisobot berib turishi, so'z va ish birligi saqlanishi, har kim huquqlari va vazifalarini bajarishda ijtimoiy rag'batlantirilishi e'tiborda bo'lishi kerak.

5.6. Sinfdan va mактабдан ташқари тарбиави ишлини рејалаштириш методикаси

Tarbiya jarayonining mohiyatini chuqur bilib, uni tashkil etishda tashabbus ko'rsatish, ishbilarmonlik va epchillik, barcha yangi va ilg'or narsalarni amalda samarali qo'llay bilish maktab o'quvchisi shaxsini rivojlantirish jarayoniga rahbarlik qilish prinsiplaridan biridir. Samarali rahbarlik uslubini maktab hayoti va faoliyatiga tatbiq etishning namunasi bo'lgan jamoaviy va yakka rahbarlikning birga qo'shib olib borilishi bolalar taqdiri, ularning tarbiyasiga pedagoglar jamoasi javobgarligini va direktorning shaxsiy javobgarligini ta'minlaydi. Rejalilik direktorga tarbiyaning barcha masalalarini aniq amalga oshirish istiqbollarini namoyon qiladi.

Mazkur ta'limotga asosan mактабдан ташқари ишилни рејалаштириш va uning amalga oshirilishiga rahbarlik hamda nazoratni uyushtirib borish maktab ichki boshqaruв tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfdan va mактабдан ташқари ишилarning umummaktab rejasini ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari rahbarligida, sinf rahbarlari, metodik birlashmasi, tajribali o'qituvchilar, maktab kutubxonasi, o'quvchi-yoshlar tashkiloti, o'quvchilar uyushmasi, ota-onalar qo'mitasi hamda to'garak rahbarlarining faol ishtirokida tuzish hamda uni maktabning yig'ilishida muhokamadan o'tkazib tasdiqlash maqsadga muvofiqdir. Direktor o'qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar va o'quvchilarga nisbatan tutgan tizimida birlik

bo'lishiga erishadi, mактабning oila, kattalarning mehnat ja-moalari, jarноат tashkilotchilari bilan uзвиy hamkorlik qilishiga intiladi.

Mактабning tarbiyaviy jarayoniga rahbarlik qilishda direktor boshlang'ich va o'quv sinflar tarbiyaviy ishida izchillikka rioya qilishga alohida e'tibor beradi, bu bilan ta'lim jarayonida ham, Shuningdek, darsdan tashqari vaqtida ham tarbiyaning uзluksizlik tamoyillarini amalga oshiradi.

Rejalashtirishga qо'yiladigan talablar:

Sinf' rahbarining tarbiyaviy ish rejasи -- bu majburiy pedagogik hujjatdir. Ish reja choraklik, yarim yillik va bir yillik tuzilishi mumkin. Hozirgi sharoitda tajribalarning ko'rsatishiga binoan yarim yillik rejasidan foydalanish ancha samara bermoqda. Rejalashtirishda quyidagilar nazarda tutilsa, uning samarasи ancha oshadi:

1. Reja mahalliy sharoitga qarab, mактабning joylashgan o'rni, albatta, o'quvchilarning saviyasi, yoshiga qarab mumkin qadar mos tuzilishi kerak.
2. Reja muayyan maqsadga qaratilishi va real (aniq) bo'lishi zarur.
3. Bolalar va o'smirlar uyushmasi bilan kelishilishi lozim.
4. Rejada o'quvchilarning kuzgi, qishki, bahorgi va yozgi ta'tillarida qiladigan ishlari aks etishi kerak.
5. O'tkaziladigan tadbirlarning bajaruvchi shaxslari, muddati va bajarilishi, turi aniq ko'rsatilishi lozim.
6. Reja mактab direktori o'rinnbosarlari tomonidan ko'rib, direktori tomonidan tasdiqlanishi shart. Rejalashtirishda sind rahbarining pedagogik tayyorgarligi, tajriba va shaxsiy xususiyatlari juda ka'tta ahamiyat kasb etadi.

Sinfga tavsifnomा berish:

Sinfda ... o'quvchi bo'lib, ...tasi qizlar va ...tasi o'g'il bolalar. Shularcan ...tasi „Bolalar va o'smirlar“ uyushmasi a'zosi. O'quvchilarning bilim darajalarini nazorat qilishning reyting tizimiga ko'ra a'luchi va o'zlashtirmovchi o'quvchilar soni ...

Sinf o'quvchilari darslarda ongli intizomga erishgan va sinfdan tashqari ishlarning ko'pgina masalalarini mustaqil hal etadilar. O'quvchilar faol, mehnatsevar va do'stona jamoadir.

Sinf rahbari o'quvchilar haqidagi quyidagi ma'lumotlarni shu bo'limga kiritishi mumkin:

1. Bola qayerda yashaydi?
2. Uning ota-onasi qayerda va kim bo'lib ishlaydi?
3. Oila tarkibi, oilaning madaniy darajasi.
4. Oiladagi o'zaro munosabat.
5. Oiladagi bolaga tarbiya berishning o'ziga xosligi.
6. Bolaning uydagi kun tartibi va maishiy ahvoli.
7. Bolaning uy va jamoat ishlariga ishtirok etishi.
8. Fan to'garaklariga qatnashishi (maktab va mактабдан ташқаридаги).
9. Bolaning maktabdan tashqaridagi do'stlari va tanishlari.
10. O'quvchi yozda qayerda dam oladi?
11. Bola hayotidagi eng muhim voqeа-hodisalar.
12. Gazeta va jurnallarga obuna bo'lganmi?
13. O'quvchi salomatligining ahvoli (kasallik varaqasidagi ma'lumotlarga ko'ra).

Tarbiyaviy vazifalar:

1. O'quvchilarning mehnatda va o'zbek xalqining mustaqil davlat qurishdagi bунyodkorlik ishlarida ishtirokini ta'minlash.
2. Yoshlarni baynalmilal va boshqa xalqlarning qardoshlarcha do'stligi ruhida tarbiyalash.
3. O'quvchilarning o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va bartaraf etish choralarini belgilash.
4. O'quvchilarni umumiylar o'rta ta'lidan keyingi bosqichga tayyorlash.
5. Yuksak ma'naviyat, iymon va e'tiqodli bo'lish, istiqlol g'oyalari singdirish.
6. Sinfidagi barcha o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga erishish.
7. O'quvchilarning ongli intizomi uchun o'qishga va mehnatga to'g'ri munosabati uchun kurash olib borish.

8. O'quvchilar faoliyatini tashkil etishda ularning mustaqilligi va tashabbuskorligini oshirib borish.
9. „Bolalar va o'smirlar uyushmasi“ga kirish uchun tayyorlash.

?! *Savol va topshiriglar*

1. Sinf va mактабдан ташқари ишларнинг мақсадини та'riflab bering.
2. Sinfdan va mактабдан ташқари тарби�ави ишларнинг назариy асослари nimalardan iborat?
3. Sinfdan va mактабдан ташқари тарби�ави ишларни rejalashtirishga qo'yiigan talablar.
4. Sinfdan ташқари ишларнинг mazmunini izohlang.
5. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rindbosarining vazifalari nimalardan iborat?
6. O'z-o'zini boshqarish ishlariga nimalar kiradi?
7. O'quvchiga sinf rahbari tomonidan qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
8. Sinfga tavsiyinoma bering va uni izohlang.





VI BOB. TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA SINF RAHBARINING ISH METODIKASI

6.1. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbarining o'rni

O'quvchi hali zimmasidagi mas'uliyatni to'liq his etmasligi, ilm olishning ahamiyati-yu o'zining qanday qobiliyatga egaligini bilmasligi mumkin. Shu bois o'g'il-qizlarimiz mustaqil hayot yo'lini tanlaguncha kattalar ko'magiga, g'amxo'rлиgiga muhtoj. Ularning asosiy vaqt vaqtida maktabda o'tishni e'tiborga olsa, bu borada sinf rahbari zimmasidagi vazifalar ko'lami naqadar kengligi oydinlashadi. Ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish, sinfda ahil jamoani shakllantirish, qobilyatini to'liq namoyon etishi uchun o'quvchilarga zarur sharoit yaratishda sinf rahbarining o'rni katta. Chunki u yoshlar taqdiriga daxldor xalqlar, ota-onalar, fan o'qituvchilari, mактab psixologи, umuman, har bir mas'ul odamning ta'lim-tarbiya maqsadlarini birlashtiruvchi asosiy vositachidir. Yoshlarda borliqni anglash, fan sirlarini egallash, kelajakda yetuk shaxs bo'lish ishtiyoqi kuchli. Ammo maqsadga qay yo'l bilan erishish lozimligi xususida yetarli tajribaga ega bo'l-maganlari bois ularni to'g'ri yo'lga boshlash lozim. Buning uchun, avvalo, sinf rahbari o'quvchilarga shaxsiy namuna bo'l-sin. Chunki bola muallimning xatti-harakatlarini doimo kuzatib yuradi, shaxsiy hayotiga qiziqadi. Kiynish va muomala mada-niyati bilan mahalla-ko'yda, oilada o'quvchilarga o'rnak bo'l-gan, shaxsiy fazilatlari bilan ajralib turgan pedagog o'quvchilar ishonchi va hurmatini qozonadi.

Masalan, o'tmishda saxovatpesha va donishmandlikda mashhur olim bo'lgan ekan. Kun kelib, olamdan o'tar chog'i o'g'illarini yoniga chorlab, ularga eng nodir adabiyotlar, bitmas-tuganmas xazina — kutubxona va bir dunyo boylikni meros qoldiribdi. Ota hayotdan ko'z yumgach, katta o'g'il mol-dunyonni tanlab, boyligiga boylik qo'shish maqsadida savdo karvonlari bilan safarga otlanibdi, kichigi esa umirini ilmga baxshida etibdi.

Oradan yillar o'tib, katta o'g'ilning karvonini qaroqchilar tunab, o'zi ularning changalidan bazo'r qochib qutulibdi. Bilimli, kamolga yetgan kichik o'g'il esa, o'z aql-zakovati ila farovon hayot kechiraveribdi. Chunki ilmni qaroqchi ham, o'g'ri ham tortib ololmaydi-da. Boylik sarflangan sari karnayadi, bilim esa, aksincha, ortib boraveradi.

Bu kabi rivoyatlar o'quvchilarning maktabdagagi eng muhim vazifasi faqat o'qib-o'rganish ekanini tushuntirishda asqotadi. Gohicä ayrim yosh pedagoglar bolalarni fanga qiziqtirish uchun sinf rahbari ko'magiga ehtiyoj sezadi. Bunday paytda sinf rahbari o'quvchilarini o'z farzandlaridek yaxshi bilsagina, kim bilan qanday ishlash kerakligini fan o'qituvchisiga aniq aytta oladi. Boshqaruvchilik qobiliyati bor o'quvchilarni sinf sardori, obodonlashtirish ishlari noziri, „Kamalak“ sardori, qatorboshi, o'g'il bolalar klubi yetakchisi, orasta qizlar malikasi etib tayinlash ham yaxshi samara beradi.

Obodonlashtirish ishlari noziri sinfning deimo orasta va tartibl. saqlanishini ta'minlasa, qatorboshilar bolalarni darslarda faol ishtirok etishga undaydi. Klub yetakchisi va qizlar malikasi esa tengdoshlarining mактаб formasida bo'lishi va xulqini jamoatchilik asosida nazoratga oladi. Ularning boshqa bolalar bilan munosabati hukmronlikka emas, aksincha, do'stona muloqotga, hamkorlik, hamjihatlikka asoslanishini ta'minlash sinf rahbaridan o'ta hushyorlikni talab etadi. Chunki sinfda sog'lom raqobat muhit ni yaratish jada muhim.

Teatr, muzey va tarixiy obidalar bo'ylab sayohatlar uyush-tirish bolalarning tasavvur doirasini, dunyoqarashini kengaytiradi, ahil guruhni shakllantirishda qo'l keladi. Umuman, mo-hir rahbar qanday yo'l bilan bo'lmasin, jamoani misoli inoq oilaga aylantiradi. Sog'lom muhit hukmron sinfda hamma bir-birini qo'llab-quvvatlaydi. Bola darslarda sustkashlikka yo'l qo'ya boshlasa, demak, oilada, o'rtoqlari orasida biror muammo yuzaga kelgan yoki sog'lig'i yomonlashgan bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda sinf rahbari ota-onalar bilan ishlashi zarur. Ota-onha hamda o'quvchilarning ma'naviy-madaniy, iqtisodiy qizi-qishlari bo'yicha so'rovnomalar o'tkazib, fikrlarini o'rganish ke-

rak. Shunday ekan, sinflarning zimmasidagi mas'uliyatni churqur his eta oladigan har jihatdan munosib pedagoglarga biriktirish ta'lif-tarbiya smadorligini oshiruvchi muhim omillardan desak, mubelag'a bo'lmaydi.

Sinf rahbari nazoratchi — o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'quvchilarning ishtirokini ta'minlaydi (davomatni nazorat qiladi, o'quvchilar uchun kerakli sharoitni yaratishga ko'maklashadi, o'quvchilarning ota-onalarga bo'lgan munosabatlarni aniqlaydi, o'quv-tarbiya jarayoniga e'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik, sindoshlari va o'qituvchilarga esa hurmatsizlik, manmanlik qilayotgan o'quvchilar bilan yakka holda ish olib boradi).

Sinf rahbari ilm mamlakatiga boshlovchi — o'qishga bo'lgan qiziqish va xohishni tashkillashtiradi (o'quvchilarga qo'yilgan talablar bilan ota-onalar va o'quvchilarni tanishtiradi, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qiladi, mustaqil ishlashda o'quvchilarga yordam ko'rsatadi).

Sinf rahbari axloqli, namunalisi, ma'naviy ustoz — o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatda hamda o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida vujudga keladigan ziddiyatlarni hal etishda, o'quv-tarbiya jarayonida ichki tartib-qoidalarga rioxaga qilishlikda, ularni kerakli me'yorda bajarishlariga ko'maklashadi (o'zini tutabilish, muomala qilish madaniyatiga o'rgatadi, odob-axloq mavzularida suhbatlar, yakka holda ishlar olib boradi, axloqiy normalarni va ichki tartib-qoidalarni buzgan yoki buzayotgan o'quvchilar bilan ularning haq-huquqlari va vazifalari to'g'risida yakka, jamoaviy suhbatlar o'tkazadi, ularning tartib-intizomiga baho beradi, axloqiy, ijtimoiy, huquqiy mavzularda turli tadbirlar tashkil etadi va boshqalar).

Sinf rahbari madaniyat sohibi — umuminsoniy va madaniy qadriyatlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiladi (eks-kursiya tashkil qiladi, teatr, muzey va ko'rgazmalarga jamoa boilib boradi, madaniyat mavzusida kecha va suhbatlar o'tkazadi, maktabda tarbiyaviy tadbirlar, bahs-munozaralar o'tkazadi).

Sinf rahbari ijtimoiy pedagog — o'quvchilarning har xil ijtimoiy muammolarini yechishga ko'maklashadi, (uy va maktabda o'zaro muloqot uchun sharoit yaratadi, o'quvchi huquqlarini

himoya qiladi, o'quvchilarda ijtimoiy hayot ko'nikmasini shakllantiradi).

Sinf rahbari o'quvchilarining yaqin do'sti — o'quvchilarni turli xil faoliyatlarga kirishishlariga ko'maklashadi, o'quvchilarga bo'lgan g'amxo'rlikning bir qismini o'ziga oladi (guruhdagi jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil qilishni shakllantiradi, o'quvchilarga o'zini-o'zini tushunishida, o'ziga-o'zini baho berishida, biror-bir faoliyatga o'z imkoniyati va e'tiborini qaratishiga yordamlashadi (suhibat, trening, o'yinlar o'tkazib, o'quvchilar bilan yakka ishlaydi).

Sinf rahbarining tashkilotchilik qobiliyati. Tashkilotchilik qobiliyat — bu shaxs individual xususiyatlarining shunday birukuviki, kishiga u yoki bu ishni tez, ishonchli, o'ziga ishongan holda tashkil etishga imkon beradi. Tashkilotchining umumiyy shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi:

- Chuqur bilimga egalik — talab etilayotgan ishni tashkil etishni bilish;
- Faoliik — amaliy vazifalarni bajarishda g'ayrat-shijoat bilan harakat qila olish;
- Tashabbuskorlik — alohida ijodiy faoliik ko'rsatish, g'oya va takliflar kiritish;
- Kirishimlilik — o'zgalarga oshkorlik, muloqotga tayyorlik, kishilar bilan aloqaga kirishish ehtiyoji;
- Ziyraklik — hodisalarning mohiyatiga qadar yetish qobiliyati, ularning sabab va oqibatlarini ko'ra olish, asosiysini belgilash;
- Qat'iyat — iroda kuchi, tirishqoqlik ko'rsatish, ishni oxiriga yetkazish mahorati;
- O'zini tuta bilish — murakkab vaziyatlarda o'z hissiyotini, o'z xulqini nazorat qila olish qobiliyati;
- Ishchanlik — chidamlilik, jiddiy ishlarni bajarish qobiliyati, uzoq muddat charchamaslik;
- Ko'zatuvchanlik — ko'ra olish mahorati, yo'l-yo'lakay diqqatga sazovor joylarini belgilash, xotirada tafsilotlarni saqlay olish;

- Mustaqillik — mustaqil hal etish, vazifani o‘zi tomonidan bajarish yo‘llarini topish mahorati, javobgarlikni o‘z ustiga ola bilish;
- Hamjihatlik (uyushqoqlik) — o‘zini ishning zarur tartibiga bo‘ysundira olish qobiliyati, o‘z faoliyatini rejalashtirish, izchillik, ixchamlikni namoyon etish.

Tashkilotchilikning o‘ziga xos xususiyatlari:

Tashkilotchilik — boshqa kishini tushunish qobiliyati, buning uchun go‘yo uning ichki dunyosiga kira olish, uning kayfiyati va ruhiy holatini sezgirlik bilan angay olishi.

Faol ruhiy ta’sir etish qobiliyati — boshqa kishilarga istehzoli kulgidan qat’iy buyruqqacha bo‘lgan vositalardan foydalangan holda ta’sir ko‘rsata olish.

Tashkilotchilik ishlariga bo‘lgan qobiliyat — bu o‘z ustiga ixтиiyoriy ravishda tashkilotchilik majburiyatlarini yuklash bo‘lib, atrofni o‘rab turganlarning ixtiyoridan qat’i nazar, tashkilotchilik ishlariga mustaqil kirisha olish.

Tashkilotchi shaxsining yo‘nalganligi — bu tashkilotchining axloqiy qiyofasi, uning fuqarolik yetukligi, g‘oyaviy e’tiqodi.

Tashkilotchining individualligi. Tashkilotchilarning (shartli ravishda) „tashkilotchi-san’atkorlar“, „tashkilotchi-mutafakkirlar“, „tashkilotchi-amaliyotchilar“ tiplari mavjud.

„Tashkilotchi-san’atkorlar“ boshqalarga jo‘sqin nutqi va imo-ishoralar, „qalb harorati“, istiqbol yutuqlarining obrazli suratlari bilan ta’sir ko‘rsatadi. Unda orzular, xayollar, hissiy ko‘tarinkilik nihoyatda ko‘p.

„Tashkilotchi-mutafakkirlar“ isbot etish mantiqiga, tafakkurdagи izchilikka tayangan holda harakat qiladilar, ishdagi qonuniyatlarni topishga intiladilar. Hodisaning tashqi tomoni ikkinchi darajaga surib qo‘yiladi. Muhimi — mazmun, maqsadga muvofiqlik topish, ishning oqilona mohiyatini ko‘ra olish.

„Tashkilotchi-amaliyotchilar“ o‘zlarining namunalari bilan ishtiyoq uyg‘otishga, qanday ishslashni isbotlash va gapirishdan ko‘ra, uni amalda ko‘rsatishga intiladilar. Ularni amaliy tirish-qoqlik, asoslilik ko‘proq xarakterlaydi.

Sinf rahbarining ish faoliyati:

- *O'quv yili boshida:*

- sinf ro'yxatini tuzadi va jurnalni rasmiylashtiradi (o'quv haftasining birinchi yarmida);

- o'quvchilar bilan hamkorlikda guruhning ish rejasini tuzadi va məktəbning mə'naviyat və mə'rifat işləri bö'yicha direktor o'rinbosarı bilən müvofiqlaşdırıcı (sentabr oyı ichida).

- *Har kuni:*

- sinf jurnalında qatnashmayotgan o'quvçilərini bəlgiləydi, ularning darslarda qatnashışlıları bilən qızıqadı;

- sinf o'quvçilarını o'zini-o'zi bəşqarış organlarına pedagoğik yordam kərsətədi;

- o'quvçılarning təşqi körinishini nəzarət qılıdı;

- sinfdə nəvbətçilikni jöriy etədi və üni nəzarət qılıdı.

- *Har haftada:*

- fən o'qituvçuları təmənidən sinf jurnalının olub borılışını nəzarətdən o'tkazadı;

- tarbiyaviy saat haqida müləqət o'tkazadı.

- *Har oyda:*

- sinf jamoasının tərəflərindən tədbirlər və işlərdə iştirak etishini təşkil etədi;

- məktəbdə sinf jamoasi üçün ajratılmış hədəfni təzəlashını təşkil etədi.

- *Yıl davomida:*

- Sinfda uch oyda bir marotaba ota-onalar yığılışını o'tkazadı;

- zaruriyat bo'lsa, har oyda bir marotaba;

- sinfdə ota-onalar qo'mitasi işini təşkil etədi.

- *Yıl oxirida:*

- sinfning o'tgan bir yıl davomida o'quv natijaları və faoliyatını yakuniy təhlil qılıdı;

- mə'naviyat və mə'rifat işləri bö'yicha direktor o'rinbosarıga bajarılmış işlər haqda hisabot berədi;

- sinf faoliyatının yakuniy natijalarını e'lən qılışını təşkil etədi;

- o'quv xonalarını ta'mirləşni təşkil etədi.

6.2. Ma’naviy-axloqiy tarbiyada sinf rahbarining faoliyati

Sinf rahbari o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalar ekan, u o‘z faoliyatida quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:

- sinf rahbari o‘quvchi ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim.
- sinf rahbari bolalarga axloqiy me’yorlarni o‘rgatishi kerak.
- gerdayishi, manmanlik, tamagirlik, nodonlik kabi illatlar o‘qituvchi axloqiga yod sifatlardir.
- xalq nazarida olim hisoblanadigan o‘qituvchilar yomon ishlardan, fisq-u fasoddan o‘zlarini tiya bilishlari zarur.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan to‘g‘ri muomala qila olishi murakkab, nozik ish. Chunki hozirgi ota-onalarning ko‘pchiligi o‘rta yoki oliy ma’lumotli kishilar, ular vaqtli matbuot, televideniya, radio orqali ko‘pgina pedagogik axborotlarni bilib oладilar. Shunday vaziyatlar ham bo‘ladiki, o‘g‘il yoki qiz bola mакtabda o‘zboshimchalik qiladi, lekin oilada xushyor va gapga qulq soladi yoki aksincha, oilada muomalasi qo‘pol, o‘zbo shimcha, maktabda esa o‘zini xushmuomala, intizomli tutadi. Buning sababi nimada? Bunday holatlarning harnmasi uchun bir xil sabab va to‘g‘ri javobni topish qiyin, albatta. Chunki har bir holatda uning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Demak, sinf rahbari va ota-onalarning maqsadlari bir xil bo‘lsa ham, ularning hamkorligi, bir-birini tushunishi, muomala munosabatlari qarama-qarshiliklarsiz bo‘lmaydi. Sinf rahbarining faoliyati kamol topayotgan kishi shaxsini tarkib toptirishga qaratilgandir. Bu faoliyatning natijalari tarbiyalanuvchining qiyofasida, uning shaxsidagi xususiyatlarida, xarakter va xulq-atvorida o‘z aksini topadi. Agar tarbiyachi pedagog nimaga intilayotganini ravshan va aniq tushunmasa, tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirishga astoydil intilish bo‘lmaydi, balki tarbiyada o‘tkaziladigan ish tasodifiy tusga ega bo‘lib, buning uchun ajratilgan vaqt ni to‘ldirish uchungina olib boriladi. Tarbiya faoliyatining maqsadlarini aniq bilmagan va bu maqsadlarni hisobga olmagan holatda to‘la qimmatli tarbiya yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar, o'z navbatida, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarinining hammasi yosh avlodda ma'naviy axloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tuzimini takomillashtirishda boshlang'ich maktab muhim o'rinni egallaydi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya ma'naviy ong'i bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg'u-larni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat.

Sirf rahbari o'quvchilarни ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning quyidagi vazifalarini hal etishi kerak:

1) Tug'ilib o'sgan joyiga, O'zbekiston Respublikasiga yuskak muhabbat tuyg'ularini, uning tabiatini va kishilari haqida, Vatanning himoyachilari va mehnat qahramonlari to'g'risida, ota-bobolarimiz, ularning dunyo taraqqiyotiga qo'shgan hissllari to'g'risida ko'proq bilishga intilishni tarbiyalash.

2) O'quvchilarda Vatanimizning boy tarixi, shuningdek, boshqa mamlakatlar to'g'risida, tinchlik uchun kurash haqida, chet ellardagi bolalar tashkilotlari haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qilish.

3) Bolalarda o'rtoqlik tuyg'usini, boshqalarga yordam ko'r-satish ishtivoqini, umumiy foyda yo'lida birgalikda faoliyat ko'r-satisiga intilishni tarkib toptirish. Bolalar o'rtasida, o'g'il va qiz bolalar o'rtasida do'stona munosabatlarni rag'batlantirish, sohta o'rtoqlik ko'rinishlariga qarshi kurash olib borish lozim.

4) O'z so'zi va va'dasi uchun, o'qituvchi va jamoa topshiriqlarining bajarilishi uchun mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalash.

5) Bolalarda kishilarga to'g'ri munosabatni, keksalar, bemorlar, nogironlarga nisbatan e'tibor va g'amxo'rlikni, xushfe'l va botartib, kamtar va haqgo'y bo'lishini tarbiyalash.

O'quvchilarни barcha kishilarning yaxshi va yomon xatti-harakatlarini farqlay olishga, o'z xatti-harakatlariga va o'rtoqlarining xatti-harakatigaadolatli baho berishga o'rgatishi hamda o'z kuch-g'ayratini o'quvchilarda nopolilik, adolatsizlik, kishilarga

rahm-shafqatsiz bo'lishga nisbatan salbiy munosabatni tarkib topshtirishga qaratishi kerak.

O'quvchilarni tarbiyalash o'qitishga qaraganda ancha qiyin degan fikrni o'qituvchilar orasida tez-tez eshitish mumkin. Ma'naviy-axloqiy tarbiya ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda, o'zining xususiyatlariga ega. Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashning barcha jarayonlarini bilim berish va o'rgatish bilan birga qamrab oladi. Bunday ikkita o'zaro bog'langan tomon: hayotni bilish va unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish jarayonlari ajralib turadi. Hayotni bilish ma'lumot olishning asosiy funksiyasi, unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish tarbiyaning asosi, vazifasini tashkil etadi. Sinf rahbari faqat ta'lim-tarbiyaning birligini emas, balki ularning xususiyatlarini ham ko'ra bilishi muhimdir. Maktabdag'i tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish yuzasidan olib boriladigan ulkan ishning bir qismi, xolos, u bolaning ilgarigi tajribalarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, undagi barcha yaxshi sifatlarni o'stirib, noto'g'ri tasavvurlar, odatlarni tuzatib borishi va bo'la-jak sifatga zamin tayyorlashi kerak. Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchi maktabni tamomlagandan keyin ham tugallanmaydi, u butun umr bo'yи davom etadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya ta'lim berish bilan bog'liq bo'lgani holda, o'z xususiyatlariga, o'ziga xos vazifalari, uni tashkil etishning shakl va metodlariga ega bo'lib, maxsus ravishda o'rganilishi lozim.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muhim sharti ularning o'quv va o'qishdan tashqari xilma-xil faoliyatlarining birligi to'g'risidagi tushunchalar bilan bog'liqdir. O'quv va ma'naviy-axloqiy tarbiya faoliyati bir-birlarini to'ldirishi lozim. Sinf rahbari tomonidan tarbiyaviy bosqichga rahbarlik qilingan taqdirdagina tarbiyada biror maqsadga qaratilganlik, ma'lum bir tizim bo'lishi mumkin. Ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, avvalo, tarbiyalanuvchi shaxsining tarkib topish jarayoniga rahbarlik qilishni taqozo etadi. Biror maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning jismoniy hamda ma'naviy-axloqiy yetukligi o'sib borishiga qarab ularning mustaqilligi va ijodiy faolligi ortib boradi. O'quvchilar jamoasining ongliligi ortib borishi bi-

lan tarbiyachining vazifalari o'zgaradi. Tarbiya davomida tarbiyalanuvchining qarashlari, hayotiy nuqtayi nazari asta-sekin tarkib topadi

6.3. Sinf rahbarining o'quv faoliyati samaradorligini oshirishga qo'yilgan talablar

Sinf rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmundir. U o'zi rahbarlik qilayotgan sinf o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligi, bolalat hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday arnalga oshirishni bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni yechadi. Bu borada sinf rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. O'quvchilarning ayrim xatti-harakatlariغا bu xatti-harakatlar namoyon bo'lishining tashkil etishi tajribalarini o'rganish va tahlil qilish asosida o'quvchilarni o'rganishda amal qilishi lozim bo'lgan talablarni shunday ifodalamoq mumkin:

1. Bolalarni o'rganish ularga tarbiya va ta'lim berish sifatini oshirishga bo'ysindirmog'i lozim. O'quvchilarni muntazam tarzda o'rganish asosida boshlang'ich jamoaga hamda alohida o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning yanada samarali usul va metodlarini tanlab olishga ijodiy yondashish mumkin bo'ladi. O'quvchilarning individual xususiyatlari, mayllari hamda qiziqishlarini qayd qilib borish bilangina cheklanib qolish noto'g'ri. Bu o'rganish asosida o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishni tashkil etish muhimdir. O'z o'quvchilarini yaxshi o'rganish, demak, tashqi tornoniga emas, balki ularning xulq-atvor sabablarini o'rganishga e'tibor bermoq darkor.

2. O'quvchilarni tabiiy hayot va ish faoliyati sharoitida o'rganish. O'quvchi ta'lim jarayonida ijtimoiy foydali mehnatga va jamoat ishiga o'rganishi lozim. O'qituvchilarning o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-onalar va tevarak-atrofdagi kishilar bilan bo'ladigan munosabatlarini o'rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlar jarayonida shaxsning qir-

ralari yanada to‘la ochiladi. O‘quvchilarни tibbiy ish va kundalik xatti-harakat jarayonida o‘rganish o‘quvchiga haqiqiy baho berishga yordam beradi.

Sinf rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O‘ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotgan u yolg‘iz emas, shu sinfda dars berayotgan turli fan o‘qituvchilari bilan yaqin hamkorlikda va ularga suyangan holda o‘quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. O‘quvchilarning darsdan tashqari tadbirlarini tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.

2. O‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishi va qobilyatini o‘sirish, har bir o‘quvchining individual ruhiy xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo‘naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda u har bir o‘quvchining sog‘ligini mustahkamlashga ham katta e’tibor beradi.

3. Sinf rahbarining diqqat markazida o‘quvchilarning darsni yuqori o‘zlashtirishlarini ta’minalash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o‘quvchining kundalik o‘zlashtirishidan voqif bo‘lib turadi. Orqada qolayotganlarga o‘z vaqtida, kechiktirmay yordam uyushtiradi.

4. Sinfdagи o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish ishlarini yo‘naltiradi, ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlaridagi ishtirokini ta’min etadi, maktab miqyosida uyuşti-riayotgan muhim tadbirlarda o‘z sinfining faol qatnashishini ta’minalaydi.

5. Sinf o‘quvchilarining ota-onalari, o‘quv kuni o‘zlashtirilgan guruhlarning tarbiyachilari, korxonalar va muassasalar-dagi, turar joylardagi otalikqa olovchilar bilan yaqin aloqa o‘rnatadi.

6. Sinf rahbari shu sinfda dars berayotgan barcha fan o‘qituvchilari o‘rtasida o‘quvchilarga nisbatan yagona talablar o‘rnatalishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilim tarqatib, oila bilan maktab o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

Sinf rahbarining axloqiy obro'si nihoyat darajada yuqori bo'lishi ham bu o'rinda muhimdir. Ana shundagina u tarbiyaviy ta'sirga ega bo'ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbari uchun malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishining o'zi yetarli emas. U o'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlari, o'z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta'sir o'tkazadi. Chunki tarbiyachilik qobiliyati juda ko'p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon-dildan ko'ngil qo'yish, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomała, nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq, oqil vaadolatlilik namunasi, alohida nazokat, sopolik va vazminlik kabi fazilatlarning bo'lishini taqozo qiladi. Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy quroolidir. Sinf rahbari pedagoglar, ota-onalar va o'quvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarning nuqtayi nazarini hisobga olishi, harakatlarini bir markazga birlashtirishi, o'zaro aloqalarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tkazishi va ayni vaqtda o'zining g'oyasini aniq ifoda eta olishi kerak. Mana shu fazilatlar sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam bo'ladi.

Sinf rahbari o'quvchilarga puxta bilim berishga, ularning fikrlash qobiliyatini faollashtirishga hamisha g'amxo'rlik qilib boradi. Hatto o'zlashtirishi yuqori bo'lgan sinflarda ham bolalarda ilmga bo'lgan qiziqish va muhabbatni o'stirishga, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilish zarur. O'qish jarayonida bolalarda mehnatsevarlik, diqqatni, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash bilimni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi.

5.4. Maktabdagagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbari ishini takomillashtirish

Sinfda asosiy ishlarni yo'lga qo'yadigan, o'quvchilarning birinchi tarbiyachisi va murabbiysi sinf rahbaridir. Maktab rahbari tajribali va obro'li o'qituvchilardan sinf rahbari tayinlaydi. Unga bolalar hayotini yo'lga qo'yish, jamoani uyushtirish va uni

tarbiyalash mas’uliyati, sinfda o‘quv-tarbiya ishlariiga javobgarlik yuklanadi. U tarbiyachi sifatida o‘quvchilarni har tomonlama kamol topishi to‘g‘risida, ularni mehnatsevarlik, ruhida tarbiyalash to‘g‘risida, o‘quvchilar bilimini oshirish va sinfda tartib-intizomni mustahkamlash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi. Sinf rahbari bu ishlarning hammasini havaskor kishi sifatida emas, balki rasmiy, mas’ul shaxs sifatida bajaradi. U maktab rahbarlari oldida, xalq maorisi tashkilotlari oldida o‘ziga topshirilgan sinfda g‘oyaviy-siyosiy ishlarning ahvoli uchun, tarbiyaviy ishlarning mazmuni va yo‘lga qo‘yilishi uchun javobgardir. Sinf rahbarining asosiy vazifasi o‘quvchilarga tarbiya berish va ularni do‘stona bir jamoa qilib jipslashtirishdan iborat. U o‘z sinfida dars berayotgan o‘qituvchilar olib borayotgan o‘quv tarbiya ishlarning xususiyatlarini, ularning o‘quvchilarga qo‘yadigan talablari hamda o‘quvchilar bilan o‘zaro aloqalarini o‘rganadi, ayrim o‘quvchilar xulq-atvori haqida ularga ta‘sir ko‘rsatish metodlari haqida o‘qituvchilar bilan fikrlashib turadi.

Sinf rahbari maktab pedagogik jamoasi va pedagogik kengashining a’zosidir. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar uslubini o‘rganadigan har bir o‘quvchi, avvalo, quyidagilarni yaxshi o‘rgangan va har jihatdan puxta o‘zlashtirgan bo‘lmog‘i lozim. Ya’ni tarbiyaviy ishlar uslubida umuminsoniy g‘oyalarni, ma’lum maqsadga intiluvchanlikni, tarbiyaning turmush bilan, mustaqilligimizning mohiyati bilan aloqasi, jarroada va jamoa orqali tarbiyalashni, tarbiyalanuvchining shaxsiga qo‘yiladigan talablar va uni hurmat qilish birligini, tarbiyaviy ta‘sirning izchilligini, tizimligi, uzlucksizligi, tarbiya o‘quvchilarining yoshiga va individual xususiyatlariga muvofiq bo‘lishini o‘z ichiga oladi. Sinf rahbari qanday sharoitda ishlanmasin, u qanday sinfga rahbarlik qilmasin, butun e’tiborni o‘quvchi shaxsiga, uni har tomonlama kamol toptirishga qaratmog‘i lozim.

Sinf rahbari olib boradigan asosiy tarbiyaviy ishlar quyidagi qismlarga bo‘linadi:

1. O‘quvchilarni o‘rganish, sinfga rahbarlik qilish sinfning har qaysi o‘quvchisini o‘rganishdan boshlanadi. Buning natija-

sida o'quvchilarga individual yondoshishni amalga oshirish uchun zatur bo'lgan sharoit yuzaga keladi.

2. Sinf o'quvchilar jamoasini tashkil etish va tarbiyalash sinf rahbari ishining asosiy qismlaridan biridir. Sinf rahbari o'quvchilarni inoq va ma'lum maqsadni ko'zlagan jamoaga jips-lashtirat ekan, o'quv-tarbiyaviy vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish uchun zamin yaratadi.

Sinf birdaniga jamoa bo'lib shakllanib qo'ya qolmaydi. Sinf rahbari bilan birqalikda faoliyat ko'rsatish tajribasi to'plangan taqdirda, faol, ijobilan an'analar barpo etilgan taqdirda, o'rtoqlik aloqalari rivojlanib mustahkamlangan, umumimaktab jamoa bilan to'g'ri munosabatlar o'rnatilgan taqdirdagina sinf jamoa bo'lib shakllanadi.

3. O'quvchilar bilim sifatini oshirish hamda ularning tartib-intizomini mustahkamlash. Bilimlarning yuksak darajada bo'lishi va ongli intizom sindida ta'llim-tarbiya ishini to'g'ri yo'lga qo'yishning eng muhim ko'rsatkichlaridandir. O'quvchilarni ongli intizomlilik ruhida tarbiyalash, ularni demokratik jamiyat, turmush qoidalarini ixtiyoriy bajarishga o'rgatish sinf rahbari faoliyatida katta o'rinn tutadi.

4. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularni o'tkazish.

5. Botalar va o'smirlar uyushmasi tashkilotlariga yordam ko'rsatish, ular bilan yaqindan aloqada bo'lish.

6. O'quvchilar ota-onalari bilan ish olib borish.

Maktab tajribasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning turli usullari tarkib topib, muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda. O'quvchilar bilan yalpisiga, yakka-yakka va guruhlarga bo'lib ham ish olib boriladi. Faol o'quvchilar bilan ish olib borish, o'z sindida dars o'tayotgan o'qituvchilar bilan, o'quvchilarning ota-onalari bilan va korxonalar bilan aloqa bog'lab turish sinf rahbarining tarbiyaviy ish faoliyatida katta o'rinn tutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sinf rahbarining olib boradigan ishlarni quyidagicha belgilash mumkin: sinf bilan yalpisiga ish olib borish. Uning o'ziga xos xususiyati — sindagi hamma o'quvchilarni bir vaqtning o'zida tarbiyaviy tadbirlarga jaib etish-

dan iboratdir. Sinf bilan yalpisiga ish olib boriladigan tadbirlar, odatda, oyiga ikki-uch marta, ba'zan esa, har haftada bir marta o'tkaziladi.

Sinf rahbari faoliyatida sinf burchagi. Maktabda o'quvchilarning o'qish va o'qishdan tashqari ish faoliyatları o'tadigan asosiy joy shu sinfga biriktirilgan sinf xonasidir. Bu sinf xonasi-dagi sinf burchagini sinf rahbari sinf faollari bilan birqalikda tuzadi. Unda sinf jamoasining asosiy hujjatlari va ishini aks etti-ruvchi materiallar qo'yiladi. Sinf burchagi sinfning hayoti va faoliyatini, uning yutuq va kamchiliklarini aks ettiruvchi ko'z-gudir.

Sinf rahbari malakasini oshirish. Endi ish boshlagan sinf rahbarlarigina emas, balki maktabda ko'p yillardan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan tajribali sinf rahbarlari ham o'z mala-kalarini oshirishga muhtojdirlar. Sinf rahbari pedagogika va psixologiya asoslari nazariyasini yaxshi o'rganishi va o'zlashtirishi, hozirgi pedagogik texnolgiyalarni va metodlarni, kompyuter texnologiyasini mukammal bilmog'i zarur. Tarbiya masalalariga oid adabiyotlarni muntazam o'qib borishi kerak.

6.5. Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari

Sinf rahbari o'quv-tarbiyaviy jarayonning tashkilotchisi, pedagogik mahoratning yuksak namunalarini o'rnak qilib ko'rsatuvchi ustoz demakdir. Shunday ekan, sinf rahbarining muhim fazilatlaridan biri uning yaxshi o'qituvchi bo'lishidadir. Sinf rahbari dars olib borishi, o'quv-tarbiya va xo'jalik ishlarini yurituchi, talabchan bo'lishi hamda o'quvchilarning dilkash murabbiysi bo'lishi kerak. Rahbarlik iste'dod va fazilati hayotning o'zida, maktabdagagi ish amaliyotida shakllanib, kishidan keng ko'lamdagi bilim va tajribani, muallimlikka xos fidokorlikni, tanlangan ishga cheksiz sodiqlikni talab qiladi.

Hozirgi sharoitda sinf rahbarining fazilati qanday bo'lishi kerak? Bizningcha, hozirgi sinf rahbari dadil, tashabbuskor, bilimdon, madaniyatli, halol va va'dasiga vafodor bo'lishi kerak.

Bunday oqil rahbar har qanday vaziyat va sharoitga to‘g‘ri yondosha oladi, voqealarga va turmush hodisalariga dadil, odil baho bera oladi, haqiqiy talab va adolatli ish uslubini vijudga keltira oladi, mehribon inson sifatida katta mavqega ega bo‘ladi. Obro‘-e’tibor inson xususiyatining ichki belgilariga bog‘liq bo‘ladi. Tashqi vaziyatlar uning rivojlanishiga ko‘maklashishi va uni rag‘baqlantirishi mumkin. Agar rahbarning amaliy va siyosiy xususiyatlari o‘zi egallab turgan lavozimga mos kelmasa, natijada o‘ziga topshirilgan ish sohasini uzoq vaqt, malakali va samarali idora qila olmaydi. Har bir kishi o‘z obro‘-e’tiborini o‘z mehnati bilan yaratadi.

Sinf rahbari esa, o‘z obro‘-e’tiborining birinchi va asosiy ijodkoridir. Sinf rahbari mavqeyini uning egallab turgan lavozimi va boshliqlarning qo‘llab-quvvatlashi emas, balki uning o‘z ishiga munosabati, bo‘ysinuvchilar va mehnatkashlarning unga munosabati belgilaydi. Ooro‘-e’tiborli rahbar sinfning g‘oyat hurmatli rahbari, ustozи va murabbiysidir. Jamiyatdagи boshqaruв tizimini ma’lum boshqarish vazifalari asosida tashkil qilish muhim ahamiyat kasб etadi. Shunga ko‘ra uni alohida ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiqdir:


- o‘quv jarayorini umumiy tashkil qilish vazifasini bajaradi;
- mustaqil davlatimizga munosib o‘quvchilar tayyorlashda asosiy javobgarlardan biri va undagi o‘z o‘rnini aniqlab olishi;
- o‘z faoliyati rejalarini aniq, o‘z vaqtida va izchillik bilan bajarishga erishish;
- vazifaning o‘ta mas’uliyatli bo‘lishini sezish bilan birga unga mos ilmli, madaniyatli, oqil, adolatli, tadbirkor, tashabbuskor bo‘lishga doimo harakatda bo‘lish;
- o‘z ishini bilishi, mas’uliyatni va javobgarlikni his qilishi lozim;
- yoshlarni milliy-ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashga muntazam ravishda e’tibor berish;
- o‘zi ishilayotgan sinf va maktab nufuzini oshirishga doimo e’tiborda bo‘lish;

- sind rahbari o'quvchilar bilan ishslashda o'ta sinchkov, ud-daburon bo'lmos'i va tadbirkorlik bilan ish yuritmog'i lozim va u har bir vazifani bajarishda o'quvchilar bilan muloqotda bo'lishi hamda ulardan kelib chiqadigan munosabat natijalariga befarq bo'lmasligi kerak;
- sind rahbari ota-onalar bilan muntazam ravishda aloqada bo'lib turishi lozim va bu orqali har bir o'quvchining xulq-atvorini o'rganish, uning uyidagi va mакtabdagi faoliyatini bilishi hamda o'quvchining o'qish va xulq-atvoridan ota-onani xabardor qilish, ya'ni ikki tomonlama tarbiyaning bir maqsadga — yetuk mutaxassis va barkamol shaxs bo'-lib yetishishiga doimo e'tibor berish;
- o'quv jarayoniga mas'ul;
- o'quv jarayonining samarali bo'lishi o'z zimmasida ekanligini doimo his etish;
- jamiyat taraqqiyotiga mos mas'uliyat negizida javobgarlik doirasi kengayib borishini doimo his qilish;
- sind rahbari tashabbuskor bo'lishi kerak va u ish yuritisha fidoyi bo'lmos'i lozim;
- ilmga intiluvchi yoshlarga rahbar va ularni mazkur yo'naliish bo'yicha yetaklovchi ekanligini doimo his qilish;
- sind rahbari o'quvchi: yosh yigit va qizni o'z farzandi, o'sib kelayotgan avlod, g'uborsiz, sofdir, yangilikka intiluvchan qalb egasi va nihoyat ota-onas, murabbiylar ko'r-satgan yo'lidan borishga astoydil bel bog'langan farzand ekanligini doimo esda tutishi kerak;
- o'quvchilarning o'z-o'zini boshg'arishiga sharoit yaratish va bunda faol o'quvchilardan foydalanish;
- o'quvchilarni kasbga tayyorlashda o'sha sohaning mashhur kishilari bilan uchrashuvlar o'tkazish sind rahbarining asosiy burchlaridan biriga kiradi.


O'qituvchi tarbiya jarayonida rag'batlantirish va jazolash usullarining psixologik-pedagogik asoslarini bilishi shart. Bunda pedagogik bilim eng muhim usul bo'lib hisoblanadi. Talab — bu tarbiyalanuvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq-at-

vor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatining bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; turli ko'rsatma sifatida namoyon bo'lishi; u yoki bu xarakterda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi; oqilona xarakter-larga undovchi bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatini to'g'ri yo'lga solish va ijtimoiy talablarga moslashtirish maqsadida rag'batlantirish va jazolashning quyidagi usullaridan foydalilanildi (7 — 8-shakllar):



7- shakl. Rag'batlantirish usuilari.



8- shakl. Jazolash usullari.

Rag'batlantirish va jazolash usulida o'quvchi shaxsi emas, balki ayni vaqtda xatti-harakati, qiziqishlari bolaning individual xususiyati, hodisa yuz berayotgan vaziyat, sabab-oqibatlar nazarida tutiladi. Rag'batlantirish va jazolash qancha tez qo'llanilsa, shuncha ta'siri kamayib ketadi. Rag'batlantirish va jazolash yolg'iz o'quvchiga yoki sinfga yoxud maktab jamoasiga qo'llanishi mumkin.

Yuqoridagi usullardan foydalanish xususiyatlariga alohida e'tibor berish lozim. Rag'batlantirishda yozma, og'zaki, imo-ishora shakllari qo'llaniladi. Imo-ishora bilan boshini qimirlatishi, tabassum va yuz-qo'l harakatlari bilan ma'qullashi yoki yozma ravishda ma'qullashi mumkin.

O'qituvchi mактабда jazo sifatida og'zaki, tanbeh, sinf o'quvchilarining o'rтасида ogohlantirish choralarini qo'llashi mumkin.

6.6. O'quvchilarni pedagogik kuzatish metodikasi

O'quvchilarni pedagogik kuzatish, darsda turli xil ko'rsatmali qurollarni kuzatishdan tashqari, o'quv jarayonida o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtarda o'tkaziladigan mustaqil kuzatishlardan ham foydalaniladi. Bu kuzatishlar qisqa muddatli va uzoq davom etadigan kuzatishlar bo'lishi mumkin. Ular o'qituvchi tomonidan tashkil etiladi. O'qituvchi dars vaqtida o'quvchilarga ularning maqsadini tushuntiradi, topshiriqlarni taqsimlaydi va ular bilan birgalikda kuzatish olib borish rejasini belgilaydi. Yo'l-yo'riq berish vaqtida kuzatish izchilligiga, kundalik yuritish tartibiga, kerakli materiallar to'plab, ularni ishslash usullariga alohida e'tibor berish kerak. Turli fan o'qituvchilari mustaqil kuzatishlar uchun topshiriqlar beradilar. Masalan, jamiyatshunoslik bo'yicha o'quvchilar mehnat brigadalari a'zolarining mehnati va dam olishi qanday tashkil etilganligini, estetik tarbiya bo'yicha kinofilmlar, teatr ko'rishlari, badiiy ko'rgazmalarga borishlari, texnikaviy fanlar bo'yicha korxonadagi ishlab chiqarish jarayonini, korxonada chiqadigan mahsulotning, yangi texnikaning xalq xo'jaligidagi va turmushda ishlatalishini kuzatishlari mumkin. O'quvchilar xilma-xil tajribalarni bajarayotgan vaqtida ham kuzatish ishlari olib boriladi. Kuzatishlarning natijalari mashg'ulotlarda muhokama qilinadi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirishda ularga tayanadi. Kuzatishlarning borishida o'quvchilar mustaqil ravishda xulosalar chiqaradilar. O'quv-tarbiya jarayonini boshqarish va rahbarlik qilishda, uning samaradorligini oshirishda rahbar o'rinnbosarining sinf jurnallari qanday tutilayotganini nazorat qilib borishi katta ahamiyatga ega.

Sinf jurnali darsda o'tkaziladigan va uyg'a berilgan mustaqil va ijodiy ishlar tizimi va maktab kursidagi barcha fanlar bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirishlari haqida, baholarning to'plani-shi, darslarda o'quvchilar so'ralishining muntazamliligi haqida, darslarda o'tilgan o'quv materialining jurnalga yozish sifati va hokazolar haqida tasavvur berishi mumkin. Rahbar va uning o'rinnbosari sinf jurnaliga qarab darslardagi davomat, darsni qoldirgan o'quvchilar bilan ishlash haqida, o'quvchilar tez-tez uy vazifalarini bajarmasliklari haqida fikr yuritishlari mumkin.

Sinf jurnallarini har oyda maktab rahbariyati tomonidan kamida ikki marta tekshirish kerak. Tekshiruvdan so'ng jurnalga uning tekshirilgan vaqt va kim tekshirgani yozib qo'yiladi. Maxsus ish kundaligi daftarida esa tekshirish natijalari bo'yicha xulosalar yozib qo'yiladi, o'qituvchilarga, sinf rahbarlariga aniq takliflar, tavsiyalar beriladi. Jiddiy kamchiliklar topilganida maktab bo'yicha alohida buyruq berilishi mumkin. Suhbat yordamida vujudga keladigan masalalarni tez hal etish, ota-onalar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish, o'quvchilar, oilaviy tarbiya sharoitlari haqida qo'shimcha ma'lumotlar olish, ota-onalarga pedagogik bilim berish, bolaning yakka tartibdagi rivojlanishi dasturini va birlikdagi pedagogik harakatlar tizimini ishlab chiqish ota-onalarning tarbiyaviy qiyin bolalar xulqini tuzatish va o'quvchilar o'rtasida munosabatlarda vujudga keladigan kelishmovchiliklarni hal etish kabi keng ko'lamdag'i ta'lim-tarbiya vazifalari hal qilinadi. Suhbat o'quvchilarning uyida ham, maktabda majlisdan keyin ham, maktabga o'z tashabbuslari bilan sinf rahbari chaqirganligi munosabati bilan kelgan ota-onalar bilan ham o'tkaziladi. Aslida sinf rahbari o'z sinfidagi o'quvchilardan har birining ota-onasi bilan suhbat o'tkazishga tayyor bo'lishi kerak. Shunga qaramay, har qanday suhbatning ta'sir etish samaradorligini oshirish uchun tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish yuzasidan eng muhim psixologik-pedagogik talablarga rioya etish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchilar va ota-onalarning muvofiq harakatlari bilan belgilanishini nazarda tutib, bolaning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olish, uning xulq-atvoridagi eng

kichik chetga chiqishlarga ham o‘z vaqtida e’tibor berish kerak, bunga sinf rahbari bilan ota-onalarning ishonchli o‘zaro munosabatlarini o‘rnatgandagina erishiladi, bunday munosabatlarni o‘rnatish va chuqurlashtirish uchun yakka tartibdagi suhbatlar-dan foydalanish juda muhim. Suhbat ota-onaga ularning o‘g‘li yoki qizining yomon xulq-atvori yuzasidan e’tiroz bildirishdan, bunda umuman bola haqida shaxs sifatida noxush fikrlar aytishga yo‘l qo‘yishdan boshlanganda, ota-onalar uchun bolalari har qachon yaxshi ekanligi unutilganida sinf rahbari mutlaqo bosh-qacha fikr yuritishga duch keladi.

6.7. Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash

Mamlakatirniz mustaqilligi jamiyatimizning barcha jahbala-rida, shu jumladan, oila, uning iqtisodiy, ma’naviy manfaatlarini himoya qilish, sog‘lom avlodni tarbiyalash, oilada sharqona tarbiyani tiklash kabi bir qator muammolarni hal etishga imkon beradi. Mustaqillik o‘zligini yo‘qotgan insonlarni, ya’ni o‘z oilasi va farzandlariga befarq bo‘lgan ota-onalarni ham insof, mehr-shafqat yo‘liga boshladi. Qardosh tojik xalqida shunday maqol bor: „Uy farzand bilan obod, dala odam bilan“. Ha, darhaqiqat, har bir oilaning bog‘boni o‘z mevalari bilan obod. Dala insonning oltin qo‘llari bilan kundan-kunga, asrdan-asrga obodonla-shib borsa, uy esa yosh go‘dakning kundan-kunga mehr, ta’lim-tarbiya olishi tufayli go‘zallahib, gurkiran, yashnab boradi. Odam-zod dunyoga bir marotaba kelar ekan, bu dunyodan yolg‘iz o‘tib ketishni xohlamaydi, orqasida farzandlarining ta’lim-tarbiyali, obro‘-e’tiborli bo‘lib qolishini istaydi. Shunday ekan, ota-onaning farzandga bo‘lgan mehr-u muhabbati hamma narsadan ham qimmatliroq bo‘lsa kerak. Bola qancha sho‘xlik qilmasin, ota-onas uning erkakiklarini ko‘taradi. Ota-onas hamisha o‘z farzandi uchun hamma narsaga tayyor turadi. Farzandini ko‘z qorachig‘iday asrab, unga gard yuqishga qo‘ymaydi. Shu bilan birga, to‘g‘riso‘z, vijdonli, karntar, chin do‘s, o‘zgalar-ning mulkiga xiyonat qilmaslikka chorlaydi.

Oila bilan maktab hamkorligi barkamol inson tarbiyasidagi muhim omillardan biridir. Maktabdagagi o'quv-tarbiya ishlarining yuqori saviyada bo'lishi, o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasasi ota-onalariga bog'liqdir. Maktab oila bilan ikki shaklda hamkorlikni amalga oshiradi.

1. Ota-onalar jamoasi orqali.
2. Yakka tartibda ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar orqali.

O'qituvchining ota-onalar bilan aloqasida o'zaro bir-birini tushunish, yuksak axloqiy munosabatda pedagogik yondoshuv, xushruomatalik, shirinso'zlik, hamma ota-onalarga bir xil muomala va to'g'ri talab bo'lishi lozim. Ota-onalar bilan yakka-ma-yakka ishlash ayrim bola tarbiyasidagi qiyinchiliklarning sodir bo'lishi, oilaviy muammolar, o'quvchilarning o'zlashtirmasligidagi sabablarni aniqlash maqsadida olib boriladi. O'qituvchilik faoliyatining eng murakkab tomonlaridan biri o'quvchilar ota-onalar bilan umumiy til topa olish, ularning hurmatiga sazovor bo'lish, hamkorlikda bola tarbiysi bilan shug'ullanishdir. O'qituvchi — sindi rahbari, mehribon tarbiyachidir. Sinf rahbarining eng muhim xususiyatlaridan biri — ular o'quvchilar jamoasi bilan to'rt yil hamkorlikda ish olib boradilar. Shu sababdan boshlang'ich sindi o'quvchilarining ota-onalar jamoasi bilan ham ishlashi o'ziga xos xususiyatga ega. Shunday ekan ota-ona birinchi sindi o'quvchisining ilm dargohidan ko'p bilim va tarbiyaga ega bo'lishi uchun nimalar qilishi kerak?

1. O'qituvchi muqaddas siymo, u sizning maslahatchingiz, uni ardoqlab, obro'-e'tiboriga sadoqatli bo'lishingiz.
2. Sinf va maktab jamoasingning ta'llim-tarbiya tadbirlariga faol qatnashib, taklif va mulohazalaringizni aytishingiz.
3. Bolangizga nima yaxshi, nima yomon ekanligini uqtirib, mardona rasm-rusum, udum-an'analarimizdan xabardor qilib, o'qituvchiga ko'makdosh bo'lishingiz.
4. Bolangizning o'quv ishlariga yordam berib borishingiz, uyg'a berilgan topshiriqlarni bajarishda ularga yordam berishingiz.
5. Maktabning yaqin yordamchisi, ko'makdosh bo'lishingiz, o'z farzandingizning kamoli bilan yashashingiz.

6. Bolangizda maktab, sinf, o'qituvchi va o'rtoqlariga nisbatan yaxshi fikr uyg'otish, chunki 1-sinf o'quvchisining maktab sharoitiga moslashishi ancha murakkab ruhiy holatdir.

7. Farzandingizdan kundalik ish faoliyatdagi munosabatini kuzatib, so'rab borishingiz. Bunday munosabatda *yaxshi, juda yaxshi, marhamat, rahmat, baraka top* kabi sehrli so'zlarni, nojo'ya harakat sodir bo'lgan bo'lsa, „chakki ish bo'libdi“, „men kutmagan edim“ kabi so'zlarni qo'llashingiz.

O'sib kelayotgan yosh avlodga fan asoslaridan chuqur va mustahkam bilim berish, ularni yuqori darajada axloqli qilib tarbiyalash vazifalari ko'proq sinf rahbarining umumiy mehnati jarayonida hal qilinadi. Lekin bu mehnatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning kuchlari qanday yo'naltirilganligiga, maqsadlar birligi va harakatlar muvofiqligi qanday ta'minlanayotganligiga bog'liqdir. Maqsadlarni tushunish birligini amalda yuzaga chiqarish, so'ngra bu maqsadlarga erishish jarayonida o'zaro aloqalarni taqsimlash va tashkiliy-pedagogik ishlarni o'z vaqtida to'g'ri amalgalashishga amalga oshirish sinf rahbarining muhim vazifasidir.

Pedagoglar jamoasining g'oyatda yuksak birligini, butun kuchining uyg'unligini, ishlarning muvofiqligini ta'minlash ishga layoqatlil qilish shartlaridan biridir. Bu muammoni hal qilishning qiyinligi o'z-o'zidan ko'rinib turibdi.

Maktab jamoasi fikr yuritishi, hayotiy tajribasi, ish staji, ma'lumoti va malakasi turli xilda bo'lgan kishilardan iborat. Har bir o'qituvchi qanchalik kuch-g'ayrat sarflamasin, ayrim xodimlar qanchalik kuchli bo'lmasin, agar ular ishgaga yuzaki qarasalar, muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan ma'lumki, hozirgi kunda pedagoglar va o'quvchilar jamoasining har bir a'zosida pedagogik mehnatga nisbatan ongli intizomni tarbiyalash va uni mustahkamlash muktab ichki boshqaruvi tizimida asosiy masala bo'lib hisoblanadi. Modomiki shunday ekan, umumta'lim maktabining har bir rahbari, undagi jamoatchilik tashkilotlari mazkur masalaga har qachongidan ko'ra bugungi kunda alohida e'tibor bilan qarashlari lozim. Sinf rahbarlari o'rtasida vazifalarni to'g'ri va aniq taqsimlash to'g'ri boshqaruvning muhim shartidir.

Sinfga rahbarlik qilishda rahbar bilan direktor o'rnibosarining vazifalari o'rtasida birmuncha farq bo'lishi kerak. Direktor o'rnibosari sinflarda kundalikning yuritilishini, bolalarning bili-mi hamma vaqt to'g'ri hisobga olib borilishini, daftarlар tutish va yozuvni yaxshilashni kuzatib boradi, amaliy tadbirlar belgilaydi. Kuni uzaytirilgan guruhlar ishlariga rahbarlik va nazorat qiladi. Boshlang'ich sinflarda fan asoslarini bo'sh o'zlashtiruv-chilar bilan ishlashga rahbarlik qiladi. O'quvchilarga beriladigan topshiriqlarning maktab nizomiga muvofiq talab darajasida bo'lishini, bolalar bilmining to'g'ri hisobga olinishini, kundalik daftarlarning to'g'ri tutilishini uyuştiradi. Maktabdagi mavjud metodik birlashmalarning samarali ishlashini ta'minlaydi. Dars jadvalini tuzadi. O'quv-tarbiya ishlariga oid hisobot ishlarini yuritadi. Maktabning ichki va tashqi jihozlanishi hamda ichki qismning toza, gigiyena talablariga mos, tartibli bo'lishini ta'minlaydi.

6.8. O'quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfda intizomni mustahkamlash

Sinf rahbari o'quvchilarga puxta bilim berishga, ularning fikrlas'i qobiliyatini faollashtirishga hamisha g'amxo'rlik qilib boradi. Hatto o'zlashtirishlari yuqori bo'lgan sinflarda ham bolallarda ilmga bo'lgan qiziqish va muhabbatni o'stirishga, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilishi zarur. Mustaqil Respublikamizda xalq ta'limini demokratlashtirish, ta'lim mazmunini takomillashtirish, ta'lim metodlarini faollashtirish borasida sermazmum ishlar qilinmoqda. O'quvchilarni faol va ijodiy bilim olishga o'rgatish maktab tajribasida muhim masala bo'lib, bunda sind Rahbarining shaxsiga katta e'tibor berilmoqda. Shu o'rinda o'quvchilarning bilim sifatini oshirishda sind Rahbarining vazifasi nimalardan iborat, degan savol tug'ilishi tabiiydir. Bular:

1. O'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lish va unga mas'uliyat bilan yondoshish hissini tarbiyalash.
2. Har narsani bilishga qiziqish va bilimga muhabbat uy-g'otish.

3. O'quv mehnati madaniyatini oshirish.
4. O'quvchilarni o'quv mehnatida muayyan rejaga amal qilishga o'rgatish.
5. Sinfda o'qish jarayonida o'rtoqlariga yordam uyushtirish.
6. Sinf o'qituvchilari bilan hamkorlik va yaqindan aloqada bo'lish.

O'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirish borasida sinf rahbari olib boradigan ishlar majmuasi quyidagilardan iborat:

1. *O'quvchilarning o'quv mehnati ustidan tizimli nazorat olib borish.* Sinf rahbari bolalarning olgan ballarini tartibli ravishda sinf jurnalida va kundaliklarda tekshirib turadi. Xulqi uchun baho qo'yadi, darsga kechikib kelish va butunlay kelmay qo'yish sabablarini o'ziga belgilab oladi. Sinf rahbari o'quvchi bilan suhbat o'tkazib, olgan yaxshi baholari uchun uni rag'batlantiradi, kamchiliklarini ko'rsatadi, tushuntiradi, tegishli maslahatlar beradi.

2. *Maktab o'quvchilariga o'quv mehnatining ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish.* Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o'qish har kimning shaxsiy ishi emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ish ekanligi o'quvchilarga tushuntirib beriladi. Mustaqil O'zbekiston davlati va uning fuqarolari maktab dargohida chuqur bilimli, hayotga har tomonlama tayyorlangan kishilarning yetishib chiqishini istaydi.

3. *Maktab o'quvchilarining bilimga qiziqishini oshirish.* Bolalarning bilimga va o'quv mehnatiga bo'lgan qiziqishini oshirishning turli shakl va metodlaridan muvaffaqiyatli foydalanish hozirgi kunda maktablarimizda odat tusiga kirib qolgan bir holdir. Chunki o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirishda har bir fandan o'tiladigan dars samarali, qiziqarli, imkonli boricha muammoli va qolaversa, sermazmun bo'lsa, shak-shubhaiszki, bu o'zining yaxshi natijasini beradi. Bundan tashqari, har bir darsda ko'rgazmalilik va texnika vositalaridan unumli foydalanilsa, o'quv xonalari turli-tuman fanniy ko'rgazmalar bilan jizholansa, ozoda, pokiza bo'lsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Uy vazifalarining bajarilishini tashkil etishda bolalarga yordam ko'rsatish. Ayrim o'quvchilarning yomon o'qishlarining sa-

babi uy vazifalarini bajarishni to‘g‘ri tashkil eta olmasliklaridan-
dir. Bunday o‘quvchilar uy vazifalarini bajarishda saranjom-
sarishthalikka ahamiyat bermaydilar, dangasalik qiladilar, tirish-
qoqlik bilan vazifa bajarishga intilmaydilar. Shuning uchun ayrim
sinf rahbarilari „O‘qishni o‘rgan“, „To‘g‘ri yoz“, „Bilim —
bizning qurolimiz“ kabi ko‘rgazmalar tashkil qiladilar. Bulardan
tashqari, sind rahbarlari tomonidan bolalarga uy vazifalarini
to‘g‘ri bajarishda yordam berish maqsadida tuzilgan quyidagi
ko‘rsatma maqsadga muvofiqdir:

- Har kuni uy vazifani kundalik daftarga batafsил yozib bor.
- Uy vazifasini ma’лum bir vaqtida bajarishga o‘rgan.
- Vazifani maxsus darsxonangda tayyorla.
- Ish joyingni to‘g‘ri tashkil qilishga o‘rgan, stoldan ortiq-
cha narsalarni olib qo‘y.
- Dars tayyorlashni o‘rta qiyinchilikdagi fandan boshlab,
sekin-asta qiyin fanga o‘т, so‘ng oson fan vazifasini bajar.
- 40 — 50 daqiqadan keyin 10 — 15 daqiqalik dam olish
uchun tanaffus qil.
- Dars tayyorlash vaqtida diqqatingni bo‘lma, radio eshit-
ma, televizor ko‘rma, atrofdagi gaplarga aralashma.
- Yozma ishlarni bajarganingdan keyin uni sinchiklab tek-
shirib chiq.
- Agar notanish so‘z uchrab qolsa yoki masalaga tushun-
masang, o‘qituvchidan, o‘rtoqlaringdan so‘rab ol.
- Har kuni ilgari o‘tilgan dars materialini qaytarib bor.
- Darsni tayyorlab bo‘lganidan keyin dam ol, ochiq
havoda aylan va uy ishlarida kattalarga yordam ber.

Tarbiyaviy ishlarda o‘quvchilarni o‘rganish.

O‘quvchilarni o‘rganish o‘qituvchining, ayniqsa, sind rah-
barining asosiy vazifalaridan biridir. O‘quvchilarni faqat darsda-
gina emas, balki sindan tashqari vaqtida ulariga tarbiya berish
vaqtida ham, o‘quvchilar uylariga borganda ham, har xil sayo-
hatlar va yurishlar vaqtida ham o‘rganadi. O‘quvchilarning o‘ziga
xos xususiyatlari, ularning qiziqishlari va mayllarini, ular olgan
tarbiya darajasini bilgan holda, ma’лum maqsadga qaratilgan va
ta’sirchan reja asosida bo‘ladi.

Ma'lumki, o'quvchi shaxsining tarkib topishi va rivojlanishi bir tekis bormaydi. Sinf rahbarining mazkur o'quvchi to'g'risidagi kechagi bilganlari bugunga kelib yetarli bo'lmay qolishi mumkin. Masalan, o'quvchi o'quv yili boshida matematikaga qiziqmas, mazkur fandan uy vazifasini naridan-beri tayyorlab borar yoki mutlaqo tayyorlamas edi, deylik. Sinfga matematikadan yangi o'qituvchi kiradigan bo'ldi. U hamma o'quvchilarni o'z faniga qiziqtira oldi. Mazkur o'quvchi masala va misollarni qiziqib yechadigan bo'lib qoldi. Birmuncha vaqtдан keyin u matematika to'garagiga yozilib, unda faol ishtirok etadigan bo'ldi. Sinf rahbari bu o'quvchi to'g'risidagi oldingi fikrini o'zgartirmog'i kerak. Bu hol o'quvchilarni doimiy suratda o'rganib borish lozimligini ko'rsatuvchi ko'plab misollarning biridir.

O'quvchilar o'z xarakteriga, qiziqishi va mayllariga ko'ra bir xil emas. Ulardan biri birmuncha chaqqon, boshqa bir xili esa, sustkash, uquvsiz, ba'zi o'quvchilar jasur va shijoatkor, boshqa birlari esa, uyatchan va tortinchoq bo'lishadi. Ba'zi bir o'quvchilar o'z tashkilotchiligi va qat'iyatliligi bilan ajralib turishsa, boshqa birlarida esa bu xususiyatlar mavjud emas. Xullas, bir-biriga o'xshamagan, turli xususiyatdagi bolalardan tashkil topgan bir guruhdir. Ana shu guruhnинг tarkibida o'sha o'quvchi alohida shaxs sifatida kamol topib boradi. A. S. Makarenko o'zining „Tarbiyaning maqsadi“ degan maqolasida „Biz uchun inson, umuman olganda, bir xilday tuyulsa-da, aslida u tarbiya vositasi sifatida bag'oyat xilma-xildir“, deb juda to'g'ri ta'kidlaydi.

Shunday qilib, o'quvchilarni o'rganishga qo'yiladigan asosiy talablarni quyidagicha belgilash mumkin:

1. Bolalarni o'rganish, ularga ta'lrim-tarbiya berish sifatini oshirish.
2. O'quvchilarni o'rganib, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish.
3. O'quvchilarni o'rganishni rejali tarzda va muntazam olib borish.
4. O'quvchilarni tabiiy hayot va ish-faoliyat sharoitida o'rganish.
5. O'quvchilarni xilma-xil metodlar bilan o'rganish.

6. O‘quvchilarni o‘rganib, ular hayoti va turmush sharoitlari bilan tanishish.

7. Shaxsning alohida xususiyatlarini emas, balki butun shaxsni o‘rganish.

6.9. O‘quvchilarda ongli intizomni tarbiyalash

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- a) o‘quvchilarda jamiyatga va Vatanga sadqatni tarbiyalash;
- b) mehnatga bo‘lgan axloqiy munosabatni tarbiyalash;
- d) atrofdagi kishilarga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
- e) shaxsning o‘z-o‘ziga, xulqiga bo‘lgan axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan biri — ongli intizomdir. Ongli intizom kishining kundalik faoliyatida, xulq-atvorida, kishilar bilan alocasida, umumiy dunyoqarashida namoyon bo‘ladi. Ongli, intizomli kishining madaniyati, muomalasi kundalik masalalarni hal qilish bilan hayotining mazmuni, yaxshilik va yomonlik, ma’naviy boylik haqidagi tasavvurlari bilan u yoki bu tarzda bog‘langandir. Ongli intizom egasi bo‘lgan kishi o‘z axloqiy burchini to‘g‘ri anglaydi, o‘z xatti-harakatlariga baho beradi, aoto‘g‘ri xatti-harakatni qoralaydi. Intizomli kishi o‘z xulq-atvoriga to‘g‘ri baho berish bilan birga biror xatti-harakat uchun shaxsiy mas’uliyatni his etadi.

Abdulla Avloniy „Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizning, ishlari nizning har birini o‘z vaqtida tartibi ila qilmoqqa aytilur. Agar yer yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar“, deb ta’kidlaydi. Demak, intizom ruhimizga, fikrim zga ta’sir qiladigan xislat, tartib-odob, ma’naviy quvvatdir. Intizom yaxshi xulqlarning manbayidir. O‘quvchilarda ongli intizomni, odobni tarbiyalashda o‘qituvchilar o‘z xulq-atvorlari, muomala madaniyati bilan namuna bo‘lishlari darkor. Chunki ularning yurish-turishi, odobi o‘quvchining ichki e’tiqodiga aylanishi va ma’naviyatiga ta’sir etishi kerak. Shundagina o‘quvchilar jamiyat va jamoa oldida axloqiy tarbiya talablariga javob

beradigan xulq-atvor egalari bo'la oladilar. Axloq-odob tarbiyasi milliy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshirilgandagina uning mazmuni yanada boyib boradi. Chunki milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar axloqiy tarbiyaning hamma tomonlarini qamrab oladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya — ta'lif berish bilan bog'liq bo'lgani holda, o'z xususiyatlari, o'ziga xos vazifalari, uni tashkil etishning shakl va metodlariga ega bo'lib, maxsus ravishda o'rganilishi lozim. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muhim sharti ularning dars va darsdan tashqari xilma-xil faoliyatlarining birligi to'g'risidagi tushunchalar bilan bog'liqdir. Dars jarayoni va ma'naviy-axloqiy tarbiya faoliyati bir-birini to'ldirishi lozim. Pedagog tomonidan tarbiyaviy bosqichga rahbarlik qilingan taqdirdagina tarbiyada biror maqsadga qaratilganlik, ma'lum bir tizim bo'lishi mumkin. Ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, avvalo, tarbiyalanuvchi shaxsining tarkib topish jarayoniga rahbarlik qilishni taqozo etadi.

Prezidentimiz erkin fuqaro, ozod shaxs, barkamol inson haqida gapirib, quyidagi to'rt jihatga e'tiborni qaratdi, ya'ni har bir fuqaro:

- o'z haq-huquqini taniydigan bo'lsin, buning uchun kurashsin;
- o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan bo'lsin, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko'rsin;
- atrofida sodir bo'layotgan voqeа-hodisalarga mustaqil munosabat bildira olsin;
- shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg'un holda ko'rib, faoliyat yuritsin.

Bular barkamol inson fazilatlari haqidagi aniq va to'liq ta'rifdir. Yuksak darajadagi ma'naviyatga ega inson — fidoyilik, jasorat, mardlik, o'z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi oliyjanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Insonning insonligi, birinchi navbatda, uning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma'naviy-axloqiy barkamollikning asosiy qirralariga, yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, quyidagilarni kiritish mumkin: ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas, butun oila a'zolari, qo'ni-qo'sh-

nilari, mahalla-ko'y, qishloq doshlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg'urishi; tevarak-atrofda insonlar unga kerak bo'lganligi singari, o'zi ham ularga kerakli bo'lishga intilishi; odob-axloqi, fe'l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblashi; ota-bobolardan, ajdodlardan yodgor bo'lib qolgan madaniy merosni qadrlashi; milliy qadriyatlarni e'zozlashi va ularga sodiq bo'lib qolishi; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularining barqaror bo'lishi; o'zaro muomala-munosabatda o'rnatko'lganligi moyillik, birovning og'irini yengil qilishi; odad qilishi; umumxalq ma'qullagan va hukumat tomonidan qonuniy qabul qilingan Konstitusiyani hurmat qilishi va unga sadoqat namunalarini amalda ko'rsatishi; Vatanni himoya qilishi, boshqacha aytganda, harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yashashi; diyonat vaadolat, mehr-shafqat va ezzulikni himoya qilishi; va'daga vafoli bo'lishi va hokazolar kiradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- tarbiyaning o'quvchilar ruhiyati va yosh xususiyatiga mosligini hisobga olish;
- o'quvchilarning aqliy-ma'naviy munosabatlari ta'sirini o'rGANISH;
- o'qituvchi-tarbiyachining savodxonlik darajasi, san'ati va mahorati.

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarning ijodi, noan'a naviy, suhbat, o'yin, bahs-munozara, uchrashuv shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Xalq pedagogikasi xalqning ijodkorligining mahsuli sifatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining tarixiy taraqqiyot bosqichini belgilab beruvchi tayanch maibadir. U ko'p qirrali jarayon bo'lib, tarkibiy vositaliga xalq og'zaki ijodi — afsona, rivoyat, ertak, doston, maqol, matal, qo'shiq, latifa, lof, xalq dramasi, askiya kabilar kiradi.

Xalq pedagogikasining muhim qismi bo'lgan xalq og'zaki ijodi ir'a naviy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari chuqur ilmiy asosga ega bo'lmasa-da, ma'naviy qadriyatlarning ikkala guruhga mansuo bo'lgan barcha qadriyatlarning devori (insonparvarlik,

bilimdonlik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, kattalarga hurmat, rostgo'ylik, mehmondo'stlik) va boshqalar o'z aksini topgan. Xalq donishmandligining ilohiyot bilan bog'liq janri asotirlarda ezgulik va yovuzlik,adolat va razolat, nur va zulmat, boylik va faqirlik, go'zallik va badxulqlik haqidagi dastlabki qarashlar ilgari suriladi. Xalq ijodining qadimiy shakllaridan biri — afsonalar real hayot haqiqatidan xabar beruvchi xayoliy uydurmalaridir.

Arastu ta'riflaganidek, „Afsona haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on haqiqatdir“¹. Rivoyatlarda o'tmishda va kelajak uchun dolzarb bo'lgan insoniyat moddiy va ma'naviy qadriyatları taraqqiyoti masalalari, ezgu orzu-umidlari, armonlar, quvonchlar, tashvishlar, g'am-qayg'ular, ehtiroslar o'z aksini topadi. Umuminsoniy qadriyatlar rivoyatlar negizida tarixiy shaxslar hayoti, faoliyati, ma'naviy xususiyatlari haqida va turar joylarining nomlanishini o'rganishga intilish bilan bog'liq joyda namoyon bo'ladi. Rivoyatlarda pedagogik narmuna asosiy vosita hisoblanadi. Ibn Sino, Amir Temur, Saroymulkxonim, Bobur, Jomiy, Hu-sayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Nodira va boshqa tarixiy shaxslar haqidagi rivoyatlar ularning ijodi va faoliyatini o'rganishda pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi va ularga xos muhim fazilatlar: vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, muruvvat, muhabbat kabilarni bo'rttirish, mubolag'a-lashtirish vositasida haqqoniyligiga ishonch hosil qilinadi.

Xalq pedagogikasida asosiy tarbiya usuli o'git, nasihat hisoblanadi. Bu usulning ifodasi naqlarda yaqqol ko'rindi. „Naqlar — muayyan asarlardagi bayon orasida kelib, u yoki bu axloqiy mezon va tushunchalar haqida yuzaga kelgan fikrlarni ko'chma ma'noda izohlovchi ta'limiy ahamiyat kasb etadigan majoziy hikoya“. Bular bugungi ta'lim-tarbiya bilan mushtarak olib borilsa, yanada chuqurroq tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zamон talabi bo'lib kelmoqda. Zerro, Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek, „Biz quradigan jamiyat O'zbekiston xalqining munosib turmushini va

¹ **Beruniy.** Tanlangan asarlar. 2- jild. 25- bet.

erkinligini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishini, insonning ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak“. Buning uchun esa ta'lif tizamingiz barcha bo'g'irlarida, jumladan, umumiyligi ta'lif maktablarida xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-qanoat, adolat, ma'rifat, insonparvarlik, iyomon, e'tiqod, mehnatsevarlik tuyg'ularini har bir yosh ongiga singdirish talab etiladi.

6.10. Sinf rahbari ishini rejalashtirish

O'quvchilarning milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda sinf rahbarining roli g'oyatda katta. Sinf rahbari o'z sinfidagi o'quvchi-larga ta'lif-tarbiya berishda muktab rahbarining yaqin yordamchisidir: u o'z sinfida dars oluvchi o'quvchilarning, kamolot va yetakchi tashkilotlarning, ota-onalarning tarbiya sohasidagi ishlarni, faoliyatlarini birlashtiradi, butun sinf va har bir o'quvchi oldiga qo'yiladigan talablarda va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'r-satishda birlik bo'lishini, shuningdek, sinfdagi hamma tarbiyaviy ishlarning rejali, tartibli olib borilishini ta'minlaydi. Sinf rahbari darsdan tashqari vaqtida o'z sinfidagi o'quvchilar o'rtasida tarbiyaviy ish olib boradi. Shuningdek, o'quvchilar o'rtasida tashkilotchi va tarbiyachi sifatida ham ish olib borib, o'quvchilarning hammasini bahamjihat, bir jamoa qilib uyuştiradi, bu jamoada tarbiya ishiarini olib boradigan bir obyektgina bo'lib qolmaydi, balki o'zining har bir a'zosini o'zi tarbiyalaydi ham. Bu o'qituvchi shu sinfga bir necha yilgacha rahbarlik qilib boradi. Sinfni bir sinf rahbari ikkinchi bir sinf rahbariga topshirganda har ikkalasi ham butun sinf va har bir o'quvchi bilan olib borilgan tarbiyaviy ishlarni rejali, tartibli ravishda davom ettirishga harakat qilmog'i lozim. Sinf rahbari o'z ishida muvaffaqiyat qozonish uchun har bir o'quvchining nazariy va amaliy bilimlarini chuqur o'zlashtirib olishga doimo harakat qilishi zarur. O'quvchilarning bilim saviyasini kengaytirish choralarini ko'rmog'i va ularning darslarni yuksak darajada o'zlashtirib olishlari uchun kurash mog'i kerak. Bu ishda sinf rahbari pedagoglar jamoasiga

suyanmog‘i lozim. O‘z sinfida o‘qitiladigan hamma fanlardan xabardor bo‘lgan sinf rahbari shu sinfda dars beruvchi o‘quvchilarning ishlarini bir-biriga bog‘laydi, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya jihatidan ta’sir ko‘rsatishi tadbirlari yo‘llarini sinf o‘quvchilari bilan birgalikda, ular bilan maslahatlashib ishlab chiqadi va bu tadbirlarni amalga oshirish choralarini ko‘radi. Sinf rahbari o‘quvchilarning yaxshi o‘qishi ularning eng birinchi vazifalari ekanini, mактабда o‘tiladigan fanlarning hammasi ham muhimligini, bolalar darslarni rasmiyat uchungina, kitobdagina o‘qib qo‘ya qolmasdan, balki chinakamiga bilib olishlari lozimligini, olgan bilimlarini amalda qo‘llay bilishlari kerakligini, shuning uchun mustaqil bilishlari zarurligini tushunib olishlariga yordam beradi. Sinf rahbari o‘quvchilarning har jihatdan yetuk kishi bo‘lib o‘sishlari, ularning aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiya hamda politexnika ta’limi olishlari yo‘lida jonbozlik ko‘rsatishi, bu sohada o‘quvchilarning o‘z tashabbuslariga suyanishi, sinfdan tashqari turli ishlarni yo‘lga qo‘yishi va bolalar mактабдан tashqari muassasalari bilan aloqa bog‘lashi kerak. Sinf rahbari sinfdagi barcha o‘quvchilarning, o‘g‘il va qiz bolalarning o‘qishiga va umumiy ishda do‘stona, hamjihat, bir jamoa bo‘lib o‘qishlariga yordam berishi, o‘g‘il va qiz bolalar bir-birlarini hurmat qilishlarini o‘rgatishi lozim. Sinf rahbari o‘quvchilar mактабга kelgan birinchi kundan boshlaboq, ular o‘rtasida tarbiyaviy ishlarni yo‘lga qo‘yib, tarbiyaviy ish shakllarini sinfdagi bolalarning yoshiga qarab murakkablashtirishi, bolalarning har bir yoshda hosil qilgan madaniy xulq malakasini mustahkamlab borishi lozim.

Sinf rahbari o‘z rahbarligidagi sinfda dars beruvchi o‘qituvchilar bilan, o‘quvchilarning ota-onalari bilan, yetakchilar bilan, mактаб kutibxonachisi bilan, mактаб shifokori bilan, kerak hollarda esa, mактабдан tashqari muassasa pedagoglari bilan hamda bolalar uy tarbiyachilari bilan aloqada bo‘lishi lozim. Sinf rahbari ba’zan ayrim o‘qituvchilarning darsiga kirib o‘tiradi (bir o‘qituvchining o‘rniga ikkinchi bir o‘qituvchi tayin bo‘lganda ularning ta’lim-tarbiyaviy ishida birlik bo‘lishini kuzatish uchun ketma-ket 2 – 3 darsga kirish tavsiya qilinadi), to‘garak mash-

g‘ulotlari vaqtida qatnashadi. Sinf rahbari ota-onalar bilan mustahkam aloqa bog‘lab, zaruriyat tug‘ilganda, ota-onalar bilan birlgilikda bolalarga ta’sir qilish va ularning kamchiligini tuzatish choralarini ko‘radi va belgilangan choralarini bolalarning ota-onalari bilan birlgilikda qattiq turib amalga oshirishga harakat qiladi.

Oila bilan aloqa bog‘lash usullaridan biri sinf rahbarining ota-onalarini suhbat uchun mакtabga chaqirishidir. Ota-onalarni o‘quvchilar intizomni buzgandan keyin yoki o‘qishda orqada qola boshlagandan keyingina suhbatga chaqirmay, balki oldinroq chaqirishni odat qilish kerak. Shuningdek, intizomni buzgan yoki yaxshi o‘qimagan bolalarning uylariga borish bilangina kifoyalanmay, balki yaxshi tarbiya namunalardan foydalanish va umuman, bolaning oila hayoti bilan tanishish uchun ham o‘quvchilarining uylariga borishlari lozim.

Sinf ota-onalar majlisini yilda to‘rt marta, ya’ni yilning har bir chорагида o‘tkazib turish lozim. Bundan tashqari, birinchi va ikkinchi sinflarda o‘quv yili boshlanishi oldidan ham ota-onalar majlisi o‘tkazilishi kerak. Bu majlislarda sinf rahbari ota-onalarni sinfdagi ta‘lim-tarbiya ishlарining ahvoli bilan, bolalarning yoshi oshgan sari tarbiya sohasida tug‘iladigan yangi vazifalar bilan tanishtiradi. Sinf rahbari, ba’zan, ayrim o‘quvchilar yordamida ota-onalarini sinf hayotidan olingan amaliy misollarda pedagogikaning asoslari bilan tanishtiradi. Ba’zi ota-onalarni boshqa kishilar oldida hadeb uyaltiraverishi va kamsita-verishdan saqlanish kerak. Sinf rahbari ota-onalar majlisidan keyin har bir ota yoki ona bilan yakka-yakka suhbat qilmog‘i lozim. Ota-onalarga o‘quvchilarning daftarlарini va boshqa shu kabi ishlарini ham ko‘rsatishi zarur. Ota-onalar yig‘ilishida o‘quvchilar o‘z ishlарidan vaqt-vaqt bilan hisob berib tursalar maqsadga muvofiq bo‘лади. Lekin bunday hisobot uzoq cho‘zilmasligi, o‘z ishini ko‘pchilik oldida chiqib ko‘rsatishga tayyorlangan bolalarni uzoq kuttirib qo‘ymasligi kerak. Sinf rahbari ota-onalar faolligini aniqlashi va o‘z atrofiga to‘plashi lozim. Bu faol o‘quvchilarning mакtab va oilada belgilangan tartib-qoidalarga rivoja qilishlarini, darslarni o‘zlashtirishlarini nazorat qilib borishda sinf rahbariga yordam beradi. Darslarini o‘zlashtirmay

qolgan o'quvchilarga ayrim hollarda sinf rahbari yordam beradi. O'quvchilarning uyiga borib ularning ahvoli bilan tanishadi. O'quvchilarning darslarini o'zlashtirmaslik, darsga kelmay qolishlik yoki darsga kechikib kelish sabablarini aniqlashida sinf rahbariga yordam beradi, muhtoj o'quvchilarga moddiy yordam berish choralarini ko'radi. Sayohatlar o'tkazishda, sinfdan tash-qari ishlar olib borishda, o'quvchilarning dam olishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishda yordam beradi.

Sinf rahbari olib boradigan tarbiyaviy ishlarning muvaffaqiyat qozonishi ko'p jihatdan uning aniq reja bilan ishlashiga va ishlarini yaxshi hisobga olishga bog'liqdir. Sinf rahbarining umummaktab rejasi asosida tuzgan ish rejasi sinfdagi o'quvchilar jamoasining hayotini ma'lum bir yo'lga solishi va o'quvchilar bilan ota-onalarning o'quvchilarga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sirida birlik bo'lishini ta'minlashi lozim. Sinf rahbarining ish rejasi tarbiyaning umumiyl vazifalariga, sinfning xususiyati talab qiladigan aniq vazifalarga va maktab oldida turgan navbatdagi vazifalarga muvofiqlashtirib tuzilishi kerak. Sinf rahbari o'quvchilar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlarining choraklik rejasini tuzib, maktab rahbarining tasdig'iga topshiradi. Sinf rahbariga, ayniqsa, birinchi marta ish boshlagan sinf rahbariga yangi sinf topshirilganda maktab ma'muriyati sinfdagi o'quvchilar bilan tanishib chiqishi uchun ma'lum muhlat berishi lozim, busiz tarbiyaviy ishlar rejasini tuzib bo'lmaydi. Sinf rahbari o'quvchilar o'rtasidagi tarbiyaviy ishlar rejasini tuzib chiqishi oldidan shu sinf haqidagi hamda ayrim o'quvchilar haqidagi tavsifnomani e'tibor bilan o'qib chiqadi.

Pedagoglar kengashida reja to'g'risida berilgan ko'rsatmalarni ham nazarda tutish lozim. Mana shularning hammasi sinf bilan olib boriladigan barcha ishlarni yaxshi o'ylab olishga imkon beradi. Sinf rahbari o'quvchilar bilan olib boradigan individual ishlarini turli vaqtda o'tkazadi. Sinf rahbarining rejasida sinfdagi hamma o'quvchilar bilan oyda ikki-uch marta darsdan bo'sh soatda uchrashuv ko'zda tutiladi. Darsdan bo'sh soatlarida o'quvchilar majlisi o'tkazish, ekskursiyaga borish va sayr qilish, badiiy havaskorlik to'garaklarining o'yin-kulgi ko'rsatishiga tay-

yorgarlik ko'rish ishlari rejashtirilishi mumkin. Bunday soatlarda sinf rahbarining o'zигина со'злаб, о'кувчиларинг ба'зи насиҳатинигина ешитиб о'tiradigan „suhbatlar“ o'tkazishga yo'l qo'yish yaramaydi. Sinf rahbarining chorak uchun tuzgan rejasida o'quvchilar va ota-onalar bilan o'tkaziladigan majlislarning muhlati ko'rsatilishi ham kerak.

Sinf rahbari sinf hujjalaring, birinchi navbatda, sinf jurnalining yaxshi yuritilishini doimo tekshirib boradi. U sinfdagi hamma o'qituvchilarning o'quvchilar bilitmiga qo'ygan baholarini sinf jurnaliga o'z vaqtiga yozib borishlarini, darsda nimalar o'tilayotgani va shu dars yuzasidan o'quvchilarga uyda ishlashga beriladigan topshiriqlarning yozib borilishini kuzatib boradi. Sinf rahbari har kuni ayrim o'quvchilarning qancha darsda bo'lma-ganini yozib boradi va har bir chorak uchun hisobot tuzib chiqadi. Sinf rahbari o'z sinfidagi o'quvchilarning shaxsiy papkalarini yuritadi va bu papkalarni maktab idorasida saqlaydi. Yu-qorida aytiganidek, o'quvchining shaxsiy papkasida bolani maktabga qabul qilish to'g'risida ota-onalarning bergan arizasi, bolasning yoshi to'g'risidagi hujjat, shifokor ko'riganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma, darslarni o'zlashtirishi to'g'risidagi tabeli va har yili berilgan tavsifnomalar saqlanadi. Sinf rahbari sinf to'g'risida yillik hisobot yozib, uni maktab ma'muriyatiga topshirishi kerak. Sinf rahbari sinfda tarbiya ishlarining qanday ahvolda ekanligi to'g'risida har bir chorak oxirida og'zaki axborot beradi. Sinf rahbarining ishi murakkab va xilma-xildir. Bu ish uchun ancha ma'lumotli bo'llish talab qilinadi. Maktabda, rahbarning rahbarligi ostida, sinf rahbarlarining bilimi va pedagoglik malakasini oshirish, amaliy ishlarga doir muhim masalalarni muhokama qilish uchun sinf rahbarlari seminar tashkil qilishi zarur.

6.11. Maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarining vazifalari

Maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari eng yaxshi va tajribali o'qituvchilardan tayinlanadi. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari maktabda ta'llim-tarbiya ishlarining

barcha sohalarida rahbarning yordamchisidir. Maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari o'z ishi uchun bevosita maktab rahbari oldida javobgardir. U barcha ta'llim-tarbiya ishlaringning to'g'ri olib borilishini, o'quvchilar bilimining to'g'ri hisobga olinishini va o'qitishning yuqori sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, maktabning umumiy rejasini va maktab rahbari bilan o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari o'rtasidagi ish taqsimotini ko'zda tutib, o'zining amaliy ish rejasini tuzib chiqishi kerak. Bu rejada aniq tadbirlar ko'rsatiladi. Rahbar bu rejani tasdiqlaydi va bajarilishini kuzatib boradi. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari ham rahbar singari „ichki tartib-qoidalar“ga binoan maktabning javobgar xodimi hisoblanadi.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari o'z mutaxassisligi bo'yicha dars beradi. Lekin darsi kuniga ikki soatdan oshmasligi kerak. U o'qituvchilarga berilgan barcha huquq va imtiyozlardan foydalanadi.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari maktabning ta'llim-tarbiya ishlariga rahbarlik qilishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. U davlat dasturlarining o'z vaqtida va aniq bajarilishini kuzatib boradi. Ammo bu kuzatish faqat faktlarni qayd qilishda, ayrim fanlarning o'quv materialini yuzaki o'tish va kechikib bajarish kabi hollarni yozib borishdan iborat bo'lmasligi kerak. Kamchilik va nuqsonlar aniqlanishi bilan o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari darhol ularning sababini o'rganishi hamda bu kamchiliklarni tugatish va o'quv kursining to'la ravishda o'tilishi uchun zarur choralar ko'rishi lozim.

2. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari o'qituvchilarning darsiga kirib, o'qitish sifatini kuzatib boradi. U darslarning yuksak g'oyaviy, siyosiy, nazariy savyada o'tkazilishiga erishmog'i kerak. Bu sohada o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribbosarining roli juda katta. U maktab rahbari singari, har kuni kamida ikkita darsni kirib ko'rishi zarur. Darslarga kirish ma'lum maqsadga qaratilishi, muayyan vazifalarni ko'zda tutishi lozim. Masalan, darsni kirib ko'rishda u ma'lum bir o'qituvchining ish tizimini o'rganishni, o'quvchilarning biror fandan ol-

gan bilmlari darajasini yoki ma'lum sinflardagi o'quvchilarning bilimi darajasini aniqlashni maqsad qilib olmog'i mumkin. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari kirgan har bir dars yozma tahlil qilinib, alohida daftarga yozib qo'yilishi ma'qul.

Maktab o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari metodika ishlariga quyidagicha rahbarlik qiladi:

1. Shu yilda maktab oldiga qo'yilgan vazifalarni nazarda tutib, mактабдаги методика ишлари режасининг лойиhasини тузуб чиқади.

2. Metodik hujjatlarning to'g'ri yuritilishini kuzatib boradi, pedagoglar yig'ilishi va metodik kengashlarga ma'ruzalar tayyorlashda yordam beradi.

3. O'qituvchilar orasida tajriba almashish, yosh va tajribasi kam o'qituvchilarga yordam berish ishlarini yo'lga qo'yadi. Bu ish o'z kasbini yaxshi bilgan o'qituvchilarning yosh, tajribasi kam, ishga yangi kelgan o'qituvchilarning darsiga kirishi va ularga har xil ko'rsatmalar berishi, metodika jihatidan yuksak saviyada o'tkazilgan dars narnunalarini ko'rsatish maqsadida yosh o'qituvchilarni tajribali o'qituvchilarning darslariga taklif etish, nazorat ishlarining mavzusi va mundarijasи masalalarida maslahatlar berish kabi shakllardan iborat bo'ladı.

Maktab hayoti murakkab va ko'p qirrali hayot yo'llidir. Binobarin, maktab rahbarlarining vazifalari ham xilma-xil. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarining yuqorida ko'rsatib o'tilgan hamma ishlarini tizimga solish, aniqlash va rejashuirish maqsadida ularni o'quv yilning asosiy davrlariga taqsimlash yaxshi natija beradi. Ma'lumki bunday asosiy davrlar uchtadir:

1. Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rishi
2. Mashg'ulotlarning boshlanishi va butun yil davomida ta'lim-tarbiya ishlarining borishi.

3. Imtihonlar va o'quv yilining tugallanishi.

Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik davrida o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari maktabga taalluqli barcha buyruqlar bilan, yangi darsliklar, o'quv qurollari va ta'lim-tarbiya mavzularida va gazetalarda bosilgan eng muhim maqolalar bilan yaxshi tanishib chiqishi kerak. U o'qituvchi kadrlarni taqsimlash loyihasini tayyorlash, o'quv dasturlarini o'tish uchun taqvim-rejalarni qan-

day tuzish haqida o'qituvchilarga yo'l-yo'riqlar berishi zarur. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari mактабнинг yangi o'quv yilidagi ta'lim-tarbiya ishlari rejasining asosiy qoidalarini ishlab chiqishi, o'zining ish rejasini hamda maktabning sinfdan va maktabdan tashqari ishlar rejasini ishlab chiqishi kerak. U kuzgi yakuniylarining yaxshi o'tkazilishi va 1 — 4- sinfda yozgi topshiriqlarning bajarilish tadbirlarini ko'radi. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari bilan birgalikda imtihonlar haqida-gi qonun-qoidalarga to'la rioya qilishini qattiq va puxta nazorat qilib turishi zarur. U o'qituvchilarning o'quvchilar bilimiga oshirib baho qo'yishiga ham qarshi kurashishi kerak. Shuningdek, hamma imtihonlar yakunlanib bo'lib, natijalar chiqarilgach, maktabning yillik hisobotini tuzishda rahbarga yordam beradi.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari maktab ishini chuqur va har tomonlama bilgan taqdirdagina o'qituvchi va o'quvchilarning ishlariiga aniq va amaliy rahbarlik qila oladi. Bu rahbarlik vazifasiga ko'tarilgan o'qituvchi bir yoki ikki fanning mutaxassisidir.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari quyidagilarni biliishi zarur:

1. O'rta maktabda o'qitiladigan hamma fanlarning dasturlarini va ularning uqtirish xatlarini, xususiy metodikalarini, darsliklarini, ko'rgazmali qurollarini.
2. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning metodlarini.
3. O'quvchilar tashkilotlari bilan ishlash metodlarini.
4. O'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar nazarasi va amaliyotini.
5. Bolalar adabiyotini.
6. Maktab gigiyenasi va ta'lim-tarbiya psixologiyasi masalalarini.
7. Rahbarlik qilish, nazorat qilish, hujjatlar yuritish va hisobga olish metodlarini.

Maktab o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari bularni bilmasa, rahbarlik qila olmaydi. Shuning uchun u o'z malakasini hormay-tolmay, har taraflama oshirib borishi zarur. Unga bu sohada o'qituvchilar malakasini oshirish instituti, pedagogika

xonalari, xalq maorifi bo'limlari, har turli seminarlar, qisqa muddatli kurslar va tajriba almashish kabilalar yordam beradi.

Maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari ham rahbar kabi ta'lim-tarbiya ishlariiga to'g'ri rahbarlik qilish uchun zarur bo'lgan mustaqillik nazariyasi bilan qurollangan siyosiy bilimdon kishi bo'lishi kerak. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarining o'qituvchi va o'quvchilar oldidagi obro'si uning o'z ishlini qanchalik bilishiga bog'liq. O'quvchilar o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosariga faqat jadvallarni tuzuvchi va maktabning ichki tartib-qoidalarini nazorat qiluvchi kishi debgina qaramasdan, balki ta'lim-tarbiya ishlari sohasidagi bilimdon rahbar, qimmatli va foydali ko'rsatmalar bera oladigan metodist va nihoyat mohir pedagog deb qarashlari lozim.

? ! Savol va topshiriqlar

1. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbarining ishini zohlang.
2. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullarini aniqlang.
3. Sinf rahbarining vazifasi nimalardan iborat?
4. Ma'nnaviy-axloqiy tarbiyani izohlang.
5. Maktabda o'quv faoliyati samaradorligini oshirishga qo'yilgan talablar nimalardan iborat?
6. Maktabdagagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbari ishini takomillashtirish yo'llarini aytинг.
7. O'quvchilarni pedagogik kuzatish deganda nimani tushunasiz?
8. Maktabning o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosarining vazifalariga nimalar kiradi?





VII BOB. MAHALLA, OILA VA MAKTAB HAMKORLIGINING UZVIYILIGINI TA'MINLASH

7.1. Mahalla tarixi

Mahallalar qadim-qadimdan e兹gulik beshigi, tarbiya o'chagi, yashash tarzi, milliy udumlar, urf-odat va an'analar shakllangan maskan bo'lib kelgan. Odamlarni bir-biriga mehr-oqibatli, muruvvatli, saxovatli qilib qo'yishda, o'ziga xos jamoani shakllantirishda mahallalar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, bugungi kunda mahallalar davlat boshqaruvingin birinchi bo'g'lnlari, asosiy ustunlari sifatida e'tirof etilayotgani ham bejiz emas. Mahalla — yurtimizda asr-asrlar mobaynida shakllangan tamoman o'ziga xos, butunlay sharqona o'zini o'zi boshqarish tizimidir.

O'rta osiyo muhitida jamoa, mahalla bo'lib, bir-biriga mehr-oqibatli bo'lib yashaydigan insonlar, davr qanchalik o'zgarmasin, tarix sinovidan o'tgan o'z qadriyatlariga sodiq bo'lib yashashni ma'qul ko'rар ekan, buni zamonoviy fikrlaydigan, dunyoga teran nazar tashlaydigan odam to'g'ri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi lozim. Azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib kelgan. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to'y-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar, avvalambor, mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov „Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch“ asarlarining birinchi bobidagi „Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar“ deb nomlangan fasilda mahalla boshqaruvi, uning ma'naviyatimizni shakllantirishdagi o'ziga xos o'mni va mavqeyiga alohida to'xtalib o'tadilar. Bu asarda mahallaning azaldan milliy qadriyatlar maskani bo'lib kelgani aytilib, jumladan, shunday yoziladi: „Xalqimizga xos

o'zini o'zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadim-dan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz „Mahalla — ham ota, ham ona“ degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz“.¹

Shuningdek, muallif mustaqillik yillarda mahalla hayoti bilan bog'liq ko'plab qadriyatlar, udum va an'analarimiz qayta tiklanib, zamon talablari asosida boyib borayotganini alohida qayd etadilar. „Mahalla“ tushunchasining Konstitutsiyamizga kiritilishi esa, Yurtboshimiz tarafidan siyosatning xalqchilligiga dalola: sifatida tilga olinadi, bunga „Kuchli davlatdan — kuchli jamiyat sari“ degan tamoyilning amaliy ifodasi sifatida qaratadi.

Milliy tariximizga xolis baho berishga kirishdik. Bir vaqtlar hukmron mafkura badnom qilgan ne-ne zotlar nomi tiklandi. Bular orasida sohibqiron Amir Temur, buyuk avliyolarimiz — Xoja Abdu lxoliq G'ijduvoniq, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahuddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy va boshqalar, buyuk islom olimlari — Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'iloniq, Imom Moturidiy, Imom Termiziyy va boshqalar, sho'ro qatag'oniga uchragan, asarlarni o'rganish taqiqlab qo'yilgan Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon va boshqalar bor.

7.2. Mahalla — demokratiya beshigi

Mahalla — noyob ijtimoiy tuzilma. U asrlar osha xalqimiz jamoaviy hayotining ajralmas uzviy bo'g'ini sifatida namoyon bo'lib kelgan. Shu bois Mustaqillik yillarda mahallaga davlat darajasida e'tibor qaratilib, uni yanada rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Yurtboshimiz tashabbusi bilan 2004- yil 29- aprelda „Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida“gi Qonun qabul qilinib, hozirga qadar bo'lib o'tgan saylovlar uning talablari asosida amalga oshirildi. Yurtimizda Istiqlol sharofati bilan ro'y bergen tub o'zgarishlar sababli hamda mamlakatimizda demo-

¹ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: „Ma'naviyat“ nashriyoti, 2008, 122- bet.

kratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar doirasida ishlab chiqilgan va bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan „Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida“gi va „Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida“gi qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi. Shu asnoda „Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida“gi qonunga hamyurtlarimizning ijtimoiy faoliyini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini yanada oshirishni ta'minlaydigan qoidalar kiritildi. Jumladan, saylov-larni o'tkazishning asosiy yo'nalishi sifatida muqobillik prinsipi belgilab qo'yildi. Bu bo'lajak fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovida ushbu lavozimlarga ikki va undan ortiq nomzodlar ko'rsatilishini ta'minlaydi.

Qonunda Oliy Majlis Senati Kengashi tomonidan ushbu saylov arafasida hamda uni o'tkazish davrida fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkillashtirish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiya, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hududida tegishlicha komissiyalar tulzilishi belgilangani, ularning vakolatlari aniq ko'rsatilgani bu tadbirni tizimli tashkil qilish hamda yuksak saviyada o'tkazish imkonini yaratadi.

Qonunda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimi nomzodlariga qo'yiladigan talablar yanada kuchaytirildi. Aniqrog'i, u O'zbekiston fuqarosi bo'lishi, qoida tariqasida, oliy ma'lumotli, bevosita saylovga qadar kamida besh yil tegishli hududda doimiy yashayotgan bo'lishi, tashkilotchilik qobiliyatiga, davlat organlarida yoki nodavlat, notijorat tashkilotlarda yoxud tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati sohasida ish tajribasiga, shuningdek, katta hayotiy tajribaga va aholi o'rtaida obro'-e'tiborga ega bo'lishi lozimligi qayd etildi. Bu yuksak ma'naviyatli, boshqaruvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan, fuqarolar yig'ini hududida yashaydigan, uning muaminolari va aholining talab-ehtiyojlarini teran his etadigan, o'zini odamlarning issiqsovug'iga mas'ul deb biladigan vijdonli fuqarolarning rais etib saylanishiga imkoniyat yaratadi.

Zero, yangi tahrirdagi mazkur qonun hayotimizga yaxshi o‘zgarishlar olib kirishiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining nufuzi yanada oshishiga, xalqning ularga ishonchi har qachongidan mustahkamlanishiga xizmat qilishiga shashubha yo‘q.

7.3. O‘quvchilarni mehnatsevarlikga o‘rgatishda maktab, oila va mahalla hamkorligi

Bola shaxsining shakllanishida butun ijtimoiy voqelik, xususan, uning o‘zi tug‘ilib o‘sgan oila muhiti hal qiluvchi vazifani bajaradi. Oiladagi turmush madaniyati, mehnat xarakteri, ota-onaning axloqiy saviyasi ijtimoiy masalaga, bolaning komil inson bo‘lib yetishishiga ta’sir ko‘rsatadi. Mehnat tarbiyasi — hozirgi kun tarbiyasining zarur sharti, shaxsdagi professional bar-karmollikning asosidir. Mamlakatimizda umum davlat ishi bo‘lgan ana shu tarbiya, ya’ni o‘quvchi yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sohalardagi mehnat faoliyatiga tayyorlashi, asosan, maktabning o‘rta va yuqori sinflarida amalga oshiriladi. Lekin bu ishning muvaffaqiyatli bajarilishi boshlang‘ich sinflarda va oilada turli darajada tayyorlanishga bog‘liq. Bolalarga mamlakatimizda har qanday mehnat sharafli ekanini, halol mehnat qilgan kishi yuksak qadrlanishini, mehnatdan qochadigan axloqsiz odamlarni hech kim hurmat qilmasligini, boshqalar hisobiga yashash, umurnan, aqli, zukko odamga to‘g‘ri kelmasligini maktabdan, ota-onalarning suhbatlaridan va ularning kuzatishidan iloji boricha ertaroq bilib olishlari lozim. Mehnat tarbiyasini oilada ham nuvaffaqiyatli tashkil etishga imkoniyatlar ko‘p. Bolaninng boshlang‘ich mehnat faoliyatida ota-onalarning mehnatga bo‘lgan inunosabatlari, harakatlari namuna sifatida xizmat qiladi. Bolalar artofidagi „mehnat“ni ko‘rib tursa ham mehnatsevarlik fazilati tarkib topaveradi. Bunda ota-onalar o‘ylab, ehtiyyotkorlik bilan ish ko‘rishlari lozim. Masalan, bolalarni mustaqillikka o‘rgatishda ularga kiyinish usullarini tushuntirib, ko‘rsatib berish lozim. Bola eshikdan kirib kelgan ustki kiyimlarini tartibsiz holda yechi tashlamasdan, aksincha, maxsus kiyim ilgichga ilishga

odatlanishlari zarur. Oilada bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktab, mahalla bilan hamkorlikda ularning yoshlariiga mos topshiriqlar berib borish, kundalik vazifalarni taqsimlab, mehnatsevarlikni tarbiyalash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘quvchilarни tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi vazifalari.

Bolalarga ta’lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik Vatan bo‘lmish mahallaning vazifalari:

- mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan masalalarni muhokama qilishda, oqilonqa yechimlarni topishda faoliylik ko‘rsatishi;
- mahalla o‘z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarini aniqlab, ularni qo‘llab-quvvatlab va farzandlarining bilim hamda tarbiya olishlatiga bosh-qosh bo‘lishi;
- ma’nana nosog‘lom oilalarini mahalla yig‘inlarida muhokama qilish, jamoatchilik choralarini ko‘rishi;
- mahalla hududidagi o‘quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy yordam ko‘rsatilishini qo‘llab-quvvatlashi;
- ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g‘urur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalmilallik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama rag‘batlantirishi;
- mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san’atkolar, ziyolilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib, turli to‘garak va „Usta-shogird“ rusumida bilim va kasb berish faoliyatini tashkil qilishi;
- mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiynalgan yoshlarni ish joylari tashkil qilishi;
- har bir yosh fuqaroda O‘zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, obodonchiligi uchun javobgarlik ruhini shakllantirishi.

O‘quvchilarни tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida maktabning vazifalari:

Bolalarga ta’lim-tarbiya berishda maktab va pedagoglarning asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlis to-

monidan qabul qilingan „Ta’lim to‘g‘risida“gi Qonunining, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ va respublike rahbariyatining dasturiy fikrlari mazmunidan kelib chiqqan bo‘lishi kerak, ya’ni:

— maktabda bolaga biror-bir kasb-korni egallashi uchun mustahkam poydevor yaratish;

— o‘quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug‘ullanishlariga yordam berish, ularning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilish;

— botalarga ta’lim berishni ilg‘or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o‘quv-uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o‘quv-tarbiya jarayonlarini jahon andazalariga mos ravishda ta’minalash;

— o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlari tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ularni turli soha bo‘yicha kasb asoslariga yo‘naltilish va ta’limda tabaqaqlashtirilgan yondashuvni joriy etish;

— Yoshlarni (16 yosh va undan yuqori) dunyo andazalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyor-garliklarini ta’minalash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta’lim olishlariga, tanlagan kasblari bo‘yicha ish bilan ta’minalashlariga, iqtisodiy mustaqil bo‘lishlariga shart-sharoit yaratish. Vatan, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to‘la shakllantirish, mustaqil oila ko‘rishga tayyorlash.

O‘quvchilarни tarbiyalashda oila, mahalla, mакtab hamkorligini amalgа oshirish mexanizmi:

„Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ning 4- bo‘lim 6- bandida „Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va horimylarning vakillarini o‘z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi“, deb belgilab berilgan.

O‘zaro hamkorlik ishlarini boshqarish uchun joylarda o‘z tarkitiga mahallalar faollari, obro‘li ota-onalardan, o‘quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning xodimlaridan iborat muvofiq-lashti uvchi jamoatchilik kengashlari tuzilishi kerak. Jamoatchilik kengashi o‘z zimmasiga olgan vazifalardan kelib chiqib o‘z tar-kibida turli yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatadigan kichik tashab-buskor guruhlarni tuzishi mumkin. Jamoatchilik kengashi ma’-

lum bir muddatga mo'ljallangan ish dasturini tuzish va uni mahalla yig'inida tasdiqlab olib, amalga oshirishi zarur bo'ladi.

Qayd etilgan tadbirlar davra suhbatlardan, biror-bir mavzuga yoki muammoga qaratilgan kengash va majlislardan, mahalla ahlini birlashtiruvchi, ularni sog'gom turmush tarziga yetaklovchi ko'rik-tanlovlar, musobaqa, bellashuv, uchrashuylar va turli sanalarga bag'ishlangan anjumanlardan iborat bo'lishi mumkin.

Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'g'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat tug'ilganda o'quv-tarbiya muassasalarini, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxona va idoralarning ta'llimtarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to'g'risida hisobotlarni tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Kengash mahalla hududida istiqomat qilayotgan, o'z farzandlari tarbiyasiga befarg' ota-onalarga nisbatan davlat boshqarav idoralari, huquqni himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma'muriy choralarni qo'llashi mumkin.

Kengash tashabbusi bilan biror-bir dolzarb mavzuda favqu-lodda mahalla yig'inlari, o'quv-tarbiya muassasalarining pedagogik kengashlari yoki boshqa zarur tadbirlar tashkil qilib o'tkazilishi mumkin. Kengash mahalla hududida o'zbek milliy tarbiya an'anlarini tiklash, turli madaniy tadbirlar o'tkazish, bolalar va kattalarning bo'sh vaqtlarini tashkil etish borasida maktablar, o'yingohlar, madaniyat muassasalarini, sport inshootlari, o'smirilar klublari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar ishini muvofiqlashtiradi. Kengash o'tkazilgan tadbirlarni tahlil qiladi, bu borada uslubiy maslahatlar tayyorlaydi va bu tadbir-larni ommaviy axborot vositalarida yoritadi. Kengash yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi tasarrufiga kirgan masala va muammolarni mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalarini, tashkilot va idoralari ishi rejalashtirilishi va amaliyot dasturlariga kiritilishida ularning bahamjihatligini ta'minlaydi. Yuqorida aytilganidek, ota-onalarning mehnatga bo'lgan munosabati bolaga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi va o'zidan katta sinfdoshlari, mahalladagi faollarning mehnatsevarligi

kichiklarga mehnat namunasiga aylanadi. Ota-onalar, maktab bolaning qiziqishi va maylini o‘z vaqtida payqab, ulardan iste-dodni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishlari lozim. Bu esa bolalarda kattalar mehnat yutuqlaridan faxrlanish hissini tarbiyalab, ularga ergashishga undaydi.

Oilada olib borilgan yaxshi mehnat tarbiyasi bolalarning muvaffaqiyatli o‘qishiga yaxshi zamin bo‘lib xizmat qiladi. Ota-onalar shuni urutmasliklari kerakki, maktabda ham bolalar bilan mehnat tarbiyasi olib boriladi, mehnat va ijtimoiy foydali mehnat darslari o‘tiladi. Mehnat ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan bolalar bu darslarda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishadi. O‘g‘il-qizlarni barcha mehnat turlariga tayyorlashda maktab, oila, mahalla hamkorligida bolalarni yangi hayotga tayyorlash faqat ijobiy natija beradi. Vaqtning qadriga yetish, daqiqalarni e’zozlash, uning barcha imkoniyatlaridan oqilona foydalanish hozirgi kunning muhim shioriga aylangan bir paytda ota-onalarning, kattalarning ibrati bolalar uchun o‘rnak bo‘lishi kerak. „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da uzluksiz ta’limga alohida e’tibor berilgan. Uzluksiz ta’limning boshlang‘ich nuqtasi oila hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining „Ta’lim to‘g‘risi“dagi Qonuning 5- bob 30- moddasida ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari quyidagicha ko‘rsatib o‘tilgan: „Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolalarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o‘rta, maxsus, kasb-hunar ta’limini olishlari uchun javobgardir“.

Ana shulardan kelib chiqib, har bir ota-on, maktab, mahalla farzandlar oldidagi fuqarolik burchlarini his etishlari lozim. Jamiatimiz uchun yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislarni tayyorlash uchun maktab, ota-onalar va mahalla hamkorlikca olib boriladigan kasbga yo‘naltirish ishlarini takomillashtirish, yangi shakl va usullarni izlab topish va bunga keng jamoatchilikni ham jalb etish kerak. O‘quvchi maktabda ta’lim tarbiya olish bilan birligida shaxs sifatida shakllana boradi. O‘zining jamiatdagi o‘rnini sindoshlari, qolaversa, murabbiy, mahalladagi ilg‘or hunarmandlar bilan taqqoslay boshlaydi. O‘zi-

dagi yaxshi jihozlarni namoyon etishga intiladi va o'zgalar ichida ajralib turishga harakat qiladi. Xuddi shu paytdan boshlab umumiy o'rta ta'lif maktablarida faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar, sinf rahbarlari, mehnat ta'limi o'qituvchilari kasb-hunarga yo'l-lash sohasidagi dastlabki ma'lumotlarni bera boshlashlari lozim. O'quvchilarning o'zлari uchun munosib kasblar tanlashlarida ota-onalarning roli alohida o'rin tutadi. Sinf rahbari, mакtab ruhshunosi kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassis va mакtab shifokori bilan hamkorlikda ish olib borib, o'quvchining psixologik-pedagogik xaritasidan yozilgan tashxis natijalariga asoslanib, kasbiy maslahat berishlari lozim. Buning uchun, avvalo, ota-onalarning o'z farzandlari haqida fikrlarini bilish kerak.

Pedagogik faoliyatimiz va tajriba-sinov ishlарimiz natijasida umumta'lif maktablarida xalqimizning milliy, tarixiy an'analardan, qadriyatlaridan foydaalanish darajasini va saviyasini aniqlashimiz uchun mahalla bilan hamkorlikda ish olib borish faqat ijobjiy natija beradi. Ma'lumki, mahallalarda hunarmandchilik texnika rivoji bilan birgalikda takomillasha bordi va turli ixtisosliklar: kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, miskarlik, binokorlik, sartaroshlik, o'ymakorlik, zargarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, tunikasozlik kabilar ajraldi. Mahallalarda ochilgan bunday hunarmandchilik shoxobchalariga bolalarni qiziqtirish, mакtab, oila, mahalla hamkorlikda, hunarmandchilikka oid ko'rgazmalar tashkil etish, ushbu tanlovda ishtirot etgan o'quvchilar mehnatiga ijobjiy baho berish o'quvchilarning o'sha kasbni egallashlari uchun aniq manba bo'lib xizmat qiladi. Qadimgi manbalarda aks ettirilgандек, Surxondaryo, Qashqadaryo, Sammarqand, Xiva va Qo'qon shaharlarida me'morchilik, quruvchilik inshootlari keng rivojlangan. Shu bois hunar va kasb haqida mahalla oqsoqollari, momolar ham o'zларining hayotlarini farovon o'tkazishlarida o'rgangan hunarlari foyda bergenini ta'kidlashadi. Mакtab, oila, mahalla hamkorlikda mehnat ta'limi avlodni mehnat qilishga tayyorlashni shakllantirish, kelajagi buyuk davlat qurishda amaliy ishtirot etishga intilish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Barchamizga ma'lumki, yosh o'quvchilar qaysi ustoz shirinso'z, yaxshi muomalada bo'lsa, bola qalbiga yo'l topa

olsa, unga bog'langan holda o'sha kasbga bo'lgan qiziqishi ortadi. O'z kasbiga fidoyi bo'igan har bir o'qituvchi o'zining tarbiyalayotgar o'quvchisining kelajagiga bafarq bo'la olmaydi.

7.4. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda pedagogik mahorat va uning asosiy tamoyillari

Sinfdan va mакtabdan tashqari tarbiyaviy ishlар konsepsiyasida tarbiyaviy tadbirlarni takomillashtirish zaruriyati alohida ta'kidlangan: siyosiy tuzumning o'zgarganligi, yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanib borishi, tarbiyaviy ishni yaxshilashda davr talabiga javob beradigan yangicha tamoyillar, g'o-yalar, ish uslubiyatlarini ishlab chiqish hamda o'qituvchining ijodkorlik faoliyatini qaytadan qurmoq lozimdir.

Tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyati negizi asosida hukumat qarorlarida, xalq ta'lim tizimida, islohotlarda, olimlar va ijodkor o'qituvchilarining izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

Prezidentimiz I. A. Karimov o'zlarining „O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari“ risolasida shunday deb yozgan edi: „Xalqimizning kelajagi uchun suvday, havoday zarur bo'lgan bunday sohalarga birinchi va eng katta homiy — davlatning o'zi. Ma'naviyat juda nozik tarbiyaviy soha, buni o'zbilarmonlikka tashlab qo'yib bo'lmaydi“. „Maqsadimizga erishishimiz, yangi jamiyat qurishimiz, siyosatda ham, iqtisodda ham, ma'naviyat sohasida ham barcha islohotlarning taqdiri o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq“. „Yurtiga, Vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab, avaylash va yanada takomillashtirish, farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning munosib c'g'il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma'naviyat yuzasidagi ishlарimizning asosiy yo'nalishini tashkil etmog'i lozim“.

O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o'quv muassasalari yosh avlodga milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, ma'naviyatni milliy merosimiz bilan bingalikda, yosh

vatanparvarlarni tarbiyalashda yangacha ish uslublari asosida ijodiy yondashmoqdalar. Ijodkor ilg'or o'qituvchi-tarbiyachilar o'z faoliyatlari jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda qu-yidagi mahorat tamoyillarini asos qilib oladilar:

— tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishdan maqsad milliy ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirishdan iborat ekanligi;

— tarbiya jarayonining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lab, bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish;

— tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar jamoasini jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib, tarbiyaning ta'lif bilan uzviyligini ta'minlash;

— tarbiya jarayonida bolalarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o'stirish;

— bola shaxsiga hurmat va talabchanlik.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tamoyillari barkamol insонни tarbiyalashda keng imkoniyatga ega bo'lib, uni qay darajada olib borish tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Tarbiyachining pedagogik mahorati ko'p qirrali bo'lib, u:

— mehribon bolalar hamkorligida;

— o'quv-tarbiya jarayonidagi hamkorlikda;

— bolalarning qayg'u-xasrati, g'ami va omadsizligiga hamdard bo'lishda;

— muomala madaniyatida;

— chuqur bilim egasi bo'lishida;

— o'qituvchining ruhiy holatida (samimiyligi, xayrixohligi, oliyjanobligi);

— jamoa bilan ishslashda vaziyatni ijobiy tomonga san'atkorona yo'naltirishda namoyon bo'ladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotida har bir hunar, u yoki bu ijtimoiy siyosiy masalalarni hal qilishda insondan mahorat talab etishini xalq og'zaki ijodiyotida, yozma yodgorliklarda, afsona, doston, ertak, qissa, hikoyat, rivoyatlarda hamda ma'rifatparvar mutafakkirlarimizning asarlari turlichal talqin etilgan.

Muomala mahorati. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi, tarbiyalanganligi, odobriligi uning muomalasida namoyon bo'ladi. Muomalaning asosiy vositasi — til. Xalqimizda shunday naql bor:

„Bola — shirin so‘zning gadosi“, bas, shunday ekan, tarbiya-chi muomalasida tilga juda ehtiyyotkor bo‘lishi kerak. Tili shirin, xushmuomala o‘qituvchi eng obro‘lidir.

Husayn Voiz Koshifiy shunday degan edilar: „Yaxshi so‘z-din bo‘lakni aytmangizlar va ko‘p so‘zlamoq ko‘ngilni qaro qilur“ yoki „Mumkin ersa yaxshi so‘z qil oshkor, yaxshi so‘z-din xo‘b yo‘qdur yodgor“; „Nasihatim shirin so‘z-u muloyimlik birla iktido qilg‘il“.

Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahoratida, eng avvalo, til shirinligi: „Shirin so‘z ko‘ngillar uchun bamisli asaldir“, degan edi.

Kaykovus o‘zining „Qobusnom“ asarida „Suxandonlik bila baland martabali bo‘lmoq“ zikrida shunday hikoyatni keltiradi: „Xorun-ar Rashid bir tush ko‘rdiki, og‘zidan barcha tishlari to‘kilmish. Erta tong turib, bul tushning ta‘birini aytuvchini chaqirib so‘radikim, „Bu tushning ta‘biri nedur?“ Ta‘birchi javob berdi: „Andog‘kim, sendan o‘zga hech kim qolmaguv-sidir“. Bu so‘zni eshitibon Xorun ar-Rashid „Mening yuzimga bundoq dardlig‘ va andug‘lig‘ so‘zni aytding. Mening barcha qarindoshlarim o‘lsalar, so‘ngra men qandog‘ ishga yararman va na yanglig‘ ro‘zg‘or so‘rarman?“ dedi va ta‘birchiga yuz tayoq urmoqni buyurdi. So‘ngra yana bir ta‘birchini chaqirib so‘radi. Ta‘birchi dedi: „Ey amir al-mo‘minin, sening umring barcha aqrabotlaring umridan uzoq bo‘lur“. Xorun ar-Rashid dedi: „Barcha aqlning yo‘li birdur va ikkovingning ta‘bringning negizi bir yerga borur, ammo bu iborat bila ul iboratning orasida farq bag‘oyat ko‘pdur“. Buyurdi: so‘nggi ta‘birchiga yuz tillo berdilar“.

Bir donishmand jamoaga qarab: „Bir gapim bor, uni ming so‘mga sotaman, istovchilar bo‘lsa marhamat!“ dedi. Suhbat ishtirokchilari hayron qolishib: „Qanday gap ekan“, deb so‘rabdilar. Shunda donishmand: „Bu „O‘ylab ish qil!“ degani“, debdi, donishmandning bu g‘oyasidan shuni anglamoq lozimki, o‘ylab ish qilgan odamning muomalasida qiyofasi bo‘lishi (bosh, yuz va xatti-harakatlarini odob yuzasidan boshqarishi) kerak ekan. Qo‘pol, odobsiz gaplar, bola shaxsiyatiga tegadigan qo‘pol muomala qilish o‘qituvchining izzati va obro‘siga putur yetkazadi.

Tarbiyachining adolat bilan ish tutish mahorati. Adolat — iymon-e'tiqodga, pok niyatga eltuvchi haqni nohaqdan ajratuvchi bir o'chov. Adolat insonlar xulqini baholovchi muhim mezondir. O'tmish ajdodlarimiz adolat va adolatsizlikka alohida e'tibor berib, bu tushunchani siyosiy, falsafiy, huquqiy, axloqiy nuqtayi nazardan turlicha talqin etib, komil insonning tarbiyasida u katta vosita ekanligini asarlarida bayon etganlar. Amir Temur saltanatni boshqarishning bosh mezoni adolat deb hisoblagan edi. U o'zining pand-nasihatlarida ham yosh avlodni adolatlil bo'lishga chorlaydi: „Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulm-u sitam yo'lini to'sdim. ...Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini esa, o'z farzandimdek ko'rdim“, degan edi. Husayn Voiz Koshifiy „Axloqi Muhsiniy“ asarida shunday yozadi: „Adolat — insonlarning bir-biriga yaxshilik ko'rsatishidir“.

Adolat va adolatsizlikning asriy ko'rinishlari insonning qilmishi, harakati, tili, muomalasi, madaniyati, tashqi qiyofasida o'z aksini topadi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati. Tarbiya jarayonida pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati o'quvchiga u yoki bu yuksak axloqiy sifatlarning mohiyatini anglatish jarayonida qo'llanadigan o'qituvchi-tarbiyachining ish usullaridan biridir. Masalan, O'qituvchi boshlang'ich sinfda „Ertak ketidan ertak“ mavzusidagi suhbatida o'quvchilarga dastlab ertak mazmunini bayon etadi: „Ota o'zi va 10 yashar o'g'li bilan daladan qaytayotib kelayotganda yo'l ustida tushib yotgan bir taqani ko'radi va o'g'-liga deydi: „Taqani ol!“ O'g'li: „Eski taqa uchun egilib o'tiramanmi?“ deb gap qaytaradi. Otasi indamasdan o'zi egilib, taqani oladi-da, yo'lida davom etadi. Kun issiq edi. Bola chanqay boshlaydi. Biroz yo'l yurganidan keyin olcha sotib o'tirgan baq-qol ko'rindi. Otasi boyagi taqani olchaga almashtirib, belbog'iga tugib oladi. O'g'liga ko'z-ko'z qilib, bir dona olchanini og'ziga tashlaydi-da, bir donasini yerga tashlaydi. O'g'li darrov egilib olchanini oladi va chanqog'ini bo'stirmoqchi bo'lib og'ziga soladi. Otasi olchanini ketma-ket tashlaydi. O'g'li o'n-o'n besh marta egilib, olchalarni terib olib yeganidan so'ng nihoyat otasi to'x-

taydi va belbog'ida qolgan olchalarni o'g'liga uzata turib deydi: „Ko'rdingmi, o'g'lim, sen taqani ko'tarib olish uchun bir marta egilishga eringan eding, olchalarni terib olish uchun o'n-o'n besh marta egilding. Endi esingda bo'lsin, agar yengil mehnatni og'ir deb hisoblasang, undan battar og'iriga duch kelasan“.

Bu ertakdagagi pedagogik ta'sirning salbiy va ijobiy ko'rinishlarini bolalarga izohlashda o'qituvchi quyidagi savollar orqali tarbiyaviy mahorat bilan aniqladi:

- Otaning talabi to'g'rimi yoki yo'qmi? Sababini aytинг.
- Otaning bolaga mehnatdan bosh tortmaslik uchun tutgan ish usuli to'g'rimi? (Bolaga dastlab o'z harakati bilan o'rnak bo'lib, so'ng xatosini tushuntiradi.)
- Bu borada sizlarning fikr va munosabatlaringiz qanday?

O'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchi-tarbiyachi o'z maqsadiga erishish uchun do'mo o'quvchilarga o'z talablari bilan yonda-shadi. Ularni rag'batlantiradi, ogholantiradi, tanbeh beradi. Bu talablarning qanchalik ta'sir etishi tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog'liqdir. Talablarning qo'yilish shakllari:

- tarbiyachi tomonidan talabni to'ppa-to'g'ri qo'yilishi. Bunday talab bolalar jamoasi bilan ishlashning dastlabki bos-qichidir. Ijodkor-pedagog A. S. Makarenko „... Samimiy, oshkorra, ishonarli, qizg'in va qat'iy talab bo'lmasa, jamoani tarbiyalashni boshlab bo'lmaydi“, degan edi;
- talab ijobiy va bolalning xatti-harakatlariga to'sqinlik qilmasligi;
- talab aniq va tushunarli bo'lishi;
- qo'yilgan talab natijasini bilish;
- talab ochiq chehra, samimiy bir ohangda berilishi: iltimos, maslahat, yaxshi niyatda chorlash;
- talab bolalarning yoshi, bilim saviyasiga mos bo'lishi;
- talablarda kesatish, luqma, minnat bo'lmasligi va b.

Tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishining yana bir shakli o'quvchi va o'quvchilar jamoasini istiqlol yo'liga boshlashdir. Bunda jamoada tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida oshkorlik va ishonch bo'lishi, o'z-o'zini boshqarish, an'ana va qonurlarga amal cilinishi muhimdir.

Tarbiyachining o‘quvchilar jamoasini jipslashtirishdagi mahorati. Kishilik jamoasi paydo bo‘lgan davrdan boshlab inson hech qachon yolg‘iz yashay olmagan. Jamoani tashkil qilish va uning tarbiyaviy ta’sirining nazariy va amaliy asoslari mutafakkir va olimlar tomonidan o‘rganilib, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Tarbiyachining navbatdagi vazifasi bolalar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jipslashtirish borasidagi nazariy bilimlarni o‘zlashtirib, ilg‘or tajribalarga suyanib, o‘quvchilarni tarbiyaviy jarayonda o‘rtoqlik-do‘stlik, o‘zaro hamkorlik, hamjihatlik, o‘z-o‘zini tarbiyalash va boshqarish kabi jamoatchilik sifatlarini tarbiyalash mahoratini o‘zlashtirishdan iborat. Ular:

- sind boshlang‘ich jamoasini tarbiyalash va ularda o‘zaro munosabat aloqalarini yaratish;
- o‘quvchilar kundalik faoliyatlarining hamma qirralarida jamoaga jipslashtirish;
- shaxsiy manfaatdan jamoa manfaatini yuqori qo‘yishga o‘rgatish;
- jamoada bir-biriga mehr-oqibat, muruvvat va saxiylik, do‘stona hamkorlik mavjud bo‘lsa, u katta tarbiyaviy kuchga aylanadi.

Kichik yoshdagi mакtab o‘quvchilari jamoasini tashkil qilishda o‘qituvchidan turli-tuman usul va vositalardan mahorat bilan foydalanish talab qilinadi:

1. O‘qituvchidan jamoa a’zolarining yangi sharoitga (maktabning 1-sinfidan boshlab) moslashuvi davrida ularga ishonch, hurmat, xushmuomalalik, talablarni to‘g‘ri qo‘ya bilish, shu bilan birga, o‘quvchini tushunish va eshitila bilish mahoratiga ega bo‘lish talab etiladi;
2. O‘quvchilar jamoasidagi yetaklovchi kuch tayanch o‘zagini tanlash;
3. Jamoa a’zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish;
4. Jamoada yangi an’ana, qonun-qoidalarning dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish;
5. Jamoa istiqbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash.

7.5. Oila, maktab, mahalla hamkorligining shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni

Inson atalmish zotning tug'ilib, kamolga yetishi uchun oz-muncha vaqt yetmaganidek, uning shaxs sifatida kamol topishida, shu yurt, qolaversa, oilasiga sodiq farzand bo'lib voyaga yetishiga ko'pchilikning mehnati „singadi“. Jumladan, inson ma'lum bir oilada tug'ilib, tarbiyalana boshlaydi. Uning kamol topishida keyingi muhim vazifa maktabning zimmasiga tushadi. Shuningdek, jamoatchilik ham bu vazifadan chetda qolmaydi. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan xalqimiz o'zining ta'lif-tarbiyaga oid ulkan merosiga ega. Bu meros bugungi avlodni insonparvarlik, mehr-muhabbat, oqibat, mehnatsevarlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Har bir inson dunyoga kelar ekan, uning insoniyligi, axloq-odobi, xulq-atvori dastlab o'z oilasida shakllanadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yosh avlod qalbida vatanparvarlik, o'z oilasiga mehr-muhabbat tuyg'usini shakllantirish har bir ota-onaning, tarbiyachi-murabbiylarning Vatan oldidagi burchidir. Barkamol shaxsni voyaga yetkazish uchun, eng avvalo, oila, mahalla, maktab, jamiyat va davlat hamkorligini yuqori pog'onada ko'rish lozim. Oila jamiyatning asosi, mahalla — milliy qadriyatlar beshigi. „Ahil xonadonda, ma'rifatli mahallada, insonparvar jamiyatda, — deb ta'kidlagan edi Islem Karimov, — zukko yigitlar, oqila qizlar, umr bo'yli elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan komil farzandlar ulg'ayadi“.

Oila muhiti farzand tarbiyasida eng muhim va dastlabki bo'-g'in hisoblansa-da, u shaxsni to'liq tarkib toptira olmaydi. Ana shunda maktab va mahallaga ehtiyoj seziladi. Bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi, didiga ta'sir ko'rsatadi. Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biridir. Oilada kundankun kamoiga yetib borayotgan farzand atalmish ne'mat, eng avvalo, shu oilaning azaliy qadriyatlariga, urf-odat va an'ana-

lariga to‘la amal qilmog‘i, qolaversa, ota-onaning o‘zi farzandiga ibrat bo‘la olishi lozim. Bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalashda maktabni oila bilan mustahkam bog‘lamay turib tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo‘lmaydi. Estetik, axloqiy va tarbiyaviy sifatlar kundalik hayot ehtiyojiga aylanib, ular oilaviy ijtomoiy tarbiya orqali tarkib toptiriladi.

O‘z o‘quvchilar jamoasini uyushtira olgan, jamoatchilikni bolalar tarbiyasiga yo‘naltira olgan, ularning ota-onalarini yaxshi bilgan maktab ma’muriyatigina tarbiyaviy yutuqlarni qo‘lga kirita oladi. O‘qituvchi ota-onalarning faol yordamisiz bolalarning barkamolligini ta’minlay olmaydi. Bu o‘rinda tarbiyachining o‘zini-o‘zi tarbiyalashi lozimligini ham esdan chiqarmaslik kerak. O‘ziga nisbatan talabchan muallim ota-onalar bilan hamkorlikda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, yangilikni sezish, tashabbuskorlik hamda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish maqsadida ularga qat’iy talablar qo‘yish uchun ma’naviy huquqqa ega bo‘ladi. Maktabni oila bilan bog‘lovchi vosita — bu o‘qituvchidir. O‘quvchilar bilan ishlash, ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faoliyklarini ta’minlash orqali ota-onalarga ta’sir ko‘rsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu borada maktab va oila aloqasini ta’minlovchi ota-onalar majislari, bolalar tarbiyasiga aloqador muammolarni jamoa bo‘lib hal etish kabilarning rolini inkor etib bo‘lmaydi. Jumladan, „Bolangizning qanday o‘qishini bilasizmi?“ „Bolangizning odobi haqida suhbatlashaylik“, „Mustaqil hayot bo‘sag‘asida“ kabi mavzularda olib boriladigan suhbatlar ota-onalarning o‘z bolalari haqida, ularning kelajagi haqida qayg‘urishlariga sabab bo‘ladi. Maktabda o‘qitiladigan darslar, ularning mazmuni va eng asosiysi, shu ma’lumotni o‘quvchiga yetkazib beruvchi o‘qituvchining xulq-atvori, kiyinishi, hattoki har bir xatti-harakati ham bola dunyoqarashi shakllanishiga ta’sir etuvchi omildir. Bola insoniy xislatlarni, ezgulikni, odamiylikni, yaxshilik va yomonlikni, eng avvalo, oiladagi kattalarning, ustozlarining xatti-harakatidan o‘rganadi. Ota-onalar bilan bir qatorda tarbiyachi-o‘qituvchilar o‘z xulq-atvori bilan bolalar hurmatiga sazovor bo‘lishlari, ularning hayot yo‘lida o‘rnak ko‘rsatishlari kerak.

Shunday muhitda tarbiyalangan bolagina ota-onani, qolaversa, o‘z ustozi larini hurmat qiladigan, mahalla-ko‘yda o‘zidan kichikni izzatlash, kattalarni hurmatlashni o‘z o‘rniga qo‘yadigan, xalqparvar bo‘lib voyaga yetadi.

Xalq ta’limi vazirligining 2004-yil 26-fevralda „Oila, mahalla, mактаб“ то‘г‘рисидаги Консепсијаси qабул qилинди. Bu Консепсиядада belgilab berilgan vazifalarni hal qilish uchun Respublikamиздаги hatsbir davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda „Jamoatchilik maslahat kengashi“ tuzilib, joylarda tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ishlash, ularning ta’lim-tarbiyasiga va „Oila, mahalla, mактаб“ Консепсијасини amalda joriy etishga e’tibor qaratildi. Kengash o‘z oldiga:

- mahallalarca bolalarning dam olishlari, qiziqarli ish bilan shug‘ullanishlariga imkoniyat yaratish;
- mahallalarda tarbiyaning ta’sirchanligini oshirish;
- horiy tashkilotlar yordamida mahallalarda sport sog‘lom-lashtirish maydonchalarini tashkil etish;
- mahallalarda qizlar hayosi, ularni turmushga tayyorlash haqida bahs-munozaalar o‘tkazish;
- yoshlarda milliy urf-odatlar, azaliy udumlar, tarixiy an‘analarni o‘rganish;
- mактаб, jamoatchilik, mahalla ahli hamkorligida tadbir o‘tkazish;
- Joylardagi hokimiyatlar, mahallalarda „Kamolot“ yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda yordam berishni maqsad qilib qo‘ygan.

Oila bolani to‘g‘ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri — tarbiyadagi birlikkadir. Bunday ulkan mas’uliyatni, sharaflishni oila, mактаб, mahalla, keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o‘rin egallaydi.

Umurta’lim mактабларida o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- O‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlik darajasini ko‘tarish;
- Kino, teatr, konsert va ko‘rgazma larga borish;
- Sayohatlar, sayillar, sport musoboqlari tashkil etish;
- Tanlovlар, tarbiyaviy tadbirlar, bayramlarda ishtirot etish;

- Milliy xalq hunarmandchiligi to‘garaklari tarmoqlarini ken-gaytirish, xalq ustalarini to‘garak ishiga jaib qilish, ushbu to‘garaklarni ko‘proq maktablar, mahallalar, ijodiy usta-xonalar qoshida tashkil etish ishlari alohida e’tibor berish;
- Novvoychilik, kashtachilik, naqqoshlik, duradgorlik hamda boshqa hunarlarga bolalarni qiziqtitish;
- O‘quvchilarning qiziqishlarini o‘rganib, ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan turli to‘garaklar, klub yoki seksiyalar tashkil etish;
- Yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya, sportni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish;
- Ta’lim muassasalaridagi kutubxonalarni badiiy adabiyotlar bilan boyitish;
- Yozgi dam olish oromgohlariga ko‘proq o‘quvchilarni jaib etishni yo‘lga qo‘yish;
- Barcha o‘quv fanlari asosida to‘garaklar tashkil etish va unga tarbiyasi og‘ir bolalarni jaib qilish;
- O‘quvchilar iqtidorini yanada takomillashtirish maqsadida turli ommaviy tadbirlar, musobaqalar va ko‘rik tanlovlар o‘rkazish yo‘li bilan boy madaniy merosimizga hurmat, ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash.

Sinf rahbarlari, ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, maktab direktorlari, bolalar yetak-chilari maktab mikrorayonida ijtimoiy-pedagogik, tarbiyaviy ishlarni olib borishda o‘tkaziladigan tadbirlarning tashkilotchilaridirlar. Ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlarni tahlil qilib, ular bilan bog‘liq bo‘lgan shakl va usul asosida rejali va izchil ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir.

1. *Ota-onalar, oilalar bilan yakkama-yakka ishlash.* Tarbiya jarayonida bu tur katta ahamiyat kasb etib, yaxshi natijani qo‘lga kiritish imkonini beradi. Bunda tarbiyachi oila va bolalarning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganib, tarbiyaviy jarayonda inobatga oladi. Buning natijasida tarbiyachi va ota-onsa o‘rtasida o‘zaro ishonch, hurmat va do‘stlik munosabatlari shakllanadi.

2. *Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar.* Bularga ota-onalar majlisi, anjumanlar, tadbirlar kiradi.

3 Tarbiya ishlarini atrof-muhit va mahalla bilan hamkorlikda olib borish. Bunda „Bir bolaga yetti mahalla ota-onा“, degariidek, mahallalar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlar yaxshi samara beradi. Biz oila ma’naviyati haqida fikr yuritar ekanimiz, uning ehtiyoj, manfaat va mafkuraviy jarayonlar bilan bog’liq yana bir jihatini, ya’ni tarbiya jarayonida yoshlar va o’smirlarning ruhiy ehtiyojlarning shakllanishiga mahalla muhiti bevosita ta’sir qilsa, jamoatchilik bu ehtiyojlarni tartibga soladi. Mahalla-ko’y, qo’ni-qo’shnilar hamkorligi, hamdardligini ko’rsatuvchi mahallalarimizdagи to’y, katta yig‘inlar, marosimlarda xalqimizning jamoatchilik fikri ta’sirida shakllangan qadriyatlar namoyon bo’ladi. Aynan shu qadriyatlar ta’sirida yoshlarimiz o’zi yashab turgan mahalladaga, insonlarga nisbatan mehr-muhabbatli, oilasiga sadoqatli bo’lib tarbiyalе nadilar.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida: bu yoshdagи o’smirlarning yildan-yilga atrof-muhitga, voqealarga qiziqishi ortib boradi. Ular ko’proq o’zları qiziqqan ishni kattalardan yashirinchha bajarishga harakat qilishadi. Yolg’on so’zlash, qilgan aybini yashirish va kattalar oldida o’zini aqli raso qilib ko’rsatishga urinishadi. Bu yoshdagи bolalarning barkamollik darajasini oshirib borish uchun barcha o’qituvchi-murabbiylar, ota-onalar, mahalla-ko’y, nazorat inspeksiyasi hamkorligida tarbiyaviy ishlar yo’lga qo’yib borilnog’i lozim. Bu yoshdagи bolalarning uyda va ko’chadagi bo’sh vaqtlarini qanday o’tkazayotganligi doimo kattalar nazoratida bo’lmog’i shart. Bolalarni teatr, muzeylarga olib borish, asosan, maktabning zimmasida. Ammo shunga yarasha ota-onalar „Bugun teatrga boribsan, nimani ko’rding, nimani tushuning?“ deya ular bilan suhbatlashish ota-onalarning vazifasidir.

O’rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarida: bu ta’lim dargchiga o’qish uchun kelgan o’quvchilar asta-sekin maktabdan, oiladan va ko’cha-ko’ydan o’rgangan tarbiyalarini namoyish eta boshlaydilar. Agar o’qituvchi-marabbiylarimiz bu mas-kanda o’ta kuzatuvchanlik bilan muntazam shug’ullanmasalar, bu yoshdagи o’smirlarning barkamollik darajasini rivojlantirib

borish ancha mushkul kechadi. Chunki ta'limning bu bosqichida o'qituvchi-murabbiylar ilmiy savodxonlikni kuchaytirish, kasbiy savodxonlikka erishish uchun o'quvchilar bilan tinimsiz muloqot qiladilar. Sergak tarbiyachi o'smirlarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga to'g'ri ta'sir eta bilishi lozim.

Umuman, ta'limning qaysi bosqichida bo'lmasin, tarbiyachi-o'qituvchi yuksak pedagogik, psixologik va metodik tayyoragarlik darajaga ega bo'lgan holda, ularning yosh xuxsusiyatlarini inobatga olib, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishi lozim. Ertangi kun, porloq kelajakka ishontirish, yomon illatlardan xoli bo'lishga o'rgatib borish barcha oila, mahalla va maktab ahlining vazifasidir. Tobora rivojlanib borayotgan jamiyatimizga sog'lom fikrlovchi avlodni tarbiyalash uchun ota-onalar va o'qituvchilar hamkorligi muhimdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday ezgu maqsadimizni yoshlari orqali amalga oshiramiz. Ularning yetuk inson bo'lib voyaga yetishlarida esa, oila, mahalla-ko'y, maktab va davlatning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati juda muhim hisoblanadi.



Savol va topshiriqlar

1. Hamkorlik ishlari deganda nimani tushunasiz?
2. Maktab, oila va mahalla hamkorligining uziyiligini izohlang.
3. O'quvchilarni mehnatsevarlikka o'rgatishda maktab va oilaning hamkorligini izohlang.
4. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda pedagogik mahorat va uning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
5. Shaxs ma'nnaviyatini shakllantirishda oilaning o'rni nimalardan iborat?
6. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish usullarini izohlang.
7. Bayram tadbiri ssenariysini tuzing.
8. O'quv faoliyatida hamkorlik ishlarini kim boshqaradi?



VIII BOB. OILA – MILLAT VA JAMIYAT TAYANCHI

8.1. Oila va jamiyatning inson hayotidagi o'rni

Oila — jamiyatning tayanchi, ustuni. Oila tinch — jamiyat tinch. Oiladagi baxt-saodat jamiyat osoyishtaligini belgilaydi. Ma'lumki, har qanday inson oilada o'sib-ulg'ayadi, tarbiya topadi. Uning kelajakda komil yoki noqobil inson bo'lib voyaga yetishi esa, hech shubhasiz, oilada berilgan tarbiyaga bog'liq.

Insoniyat tarixida, davlat va jamiyat boshqaruvidaadolatli fuqarclik jamiyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, millat tayanchi hisoblangan oila fuqarolik jamiyati institutini rivojlantirish, ijtimoiyadolat, qonun ustuvorligi hamda inson erkinligini ta'minlashning kafolati va asosidir. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda oila instituti va ma'naviyatini shakllantirish bilan bog'liq jarayondir.

Davlat va jamiyat hayoti, barkamol avlod tarbiyasida oilaning o'rni beqiyos. Shu bois oila hamma vaqt va har qachon dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Oila har bir xalq, millatning davomiyligini saqlovechi, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlovchi, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovechi muqaddas maskandir. U jamiyat deb atalmish bu-yuk bir olemning poydevorini tashkil etadi. Jamiyat va davlatning farovonligi, gullab-yashnashi bevosita ana shu poydevorning qay darajada mustahkamligiga bog'liq. Shu bois mam'lakatimizda oila manfaatlarini huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatdan himoya qilinishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmocoqda. Milliy oila deganda darrov bola-chaqali, pir-u badavlat, keksa buva-buvilarini bor xonardon ko'z oldimizga keladi. Oila — azal-azaldan insonning his-tuyg'ulari, aql-idroki, ma'naviyati, qo'yingki, butun borlig'i kamol topadigan tarbiya maskani bo'lib kelgar. Insonni shaxs sifatida kamolga yetkazishda jamiyatdagijitimoiy muassasalarning birortasi oila kabi beqiyos o'ringa ega emas. Ota-bobolarimizning qadimdan oilani millat tayanchi va ma'naviyat qo'rg'oni, deb atab kelganliklari ham bejiz emas.

Prezidentimiz Islom Karimov oilaga shunday ta’rif berganlar: „Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birgalikda, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini tan olishimiz darkor“.

Oila insonlarni faqat manfaatlар vositasida emas, balki qon-qardoshlik, haqiqiy insoniy tamoyillar asosida bog‘lab turgani uchun ham bebahodir. Jamiyatda insonlarni o‘zaro biriktiruvchi, do‘sit, ahil-inoq bo‘lib, umrguzaronlik qilishlariga o‘rgatuvchi ijtimoiy muassasa va institutlar juda ko‘p. Jamiyat taraqqiyotida ularning har birining o‘z o‘rni bor. Biroq oila, eng avvalo, tarbiya maskanidir. Masalan, mahallani olaylik. U, asosan, bir ko‘cha yoki guzarda yashaydigan odamlarni birlashtiradi. U o‘zida ana shu odamlarning hayotiy orzu-umid va armonlarini uyg‘unlashtiradi. Ularning hayotiy maqsadlari ham juda o‘xhash: to‘y, ma’raka, hashar, yolg‘iz va kam ta’minlangan kishilarga yordam ko‘rsatish, turli bayram hamda tantanalarini birgalikda nishonlash... Mahalla odamlarda, ayniqsa, jamoaviylik tuyg‘usini kamol toptirishda muhim o‘rin tutadi. Lekin mahalladagi o‘zaro munosabatlarga, eng avvalo, oila ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Jamoaviylik (ishxona yoki mehnat jamoasi)da ko‘proq odamlarning ishlab chiqarish manfaatlari ustuvor bo‘ladi. Odamlar tili, millati va e’tiqodidan qat‘i nazar o‘zaro ana shu asosda ahil va birodar bo‘lib ketishadi. Oilada esa bulardan farqli o‘laroq, hayot yoki ishlab chiqarish manfaatlari emas, aksincha, qon-qardoshlik munosabatlari, insonning tabiiy yaqinlik tuyg‘ulariga asoslanib yashash tamoyili ustuvorlik qiladi. Barchamiz ish-yumushlarimizdan bo‘shagach, oila bag‘riga shoshilamiz.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘zbek oilasi o‘zining barkamolligi, axloqiy-ma’naviy asoslari, umuminsoniy va milliy qadriyatlar bilan butun dunyoga namuna maktabi bo‘la oladigan darajadagi mustahkam poydevorga ega. Poydevori mustahkam bino asrlar o‘tsa ham hayot to‘fonlariga bardosh berib, salobat bilan qad rostlab turaveradi. O‘zbeklarda o‘z shaxsiy manfaatidan ko‘ra oila sha’nini baland tutish, qon-qarindosh, yaqin odamlari

va qo'ni-qo'shniiga g'amxo'rlik qilish oliy darajadagi qadriyat bo'lib, millat qalbidagi bunday „gavhar“lar oilaviy muhitni samimiyatga to'ldirishga, oilani tashqi muhit bilan bog'lash va mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiladi. Oilada mustahkam intizom shakllangan bo'lsa, o'sha oila vakiti davlat va jamiyat ishida ham ana shunday tartibda xizmat qiladi, har bir ishni o'z joyi va vaqtida, belgilangan tartib asosida bajaradi. Bunday intizom va tartib butun xalq va millatning fazilati va sharafiga aylanadi. Nemis va yaponlarga xos tartib-intizomning jahon miqyosida e'tirof etilish sabablari ham ana shunda.

Abdurauf Fitrat o'zining „Oila va oilani boshqarish tartibili“ asarida shunday yozadi: „Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muntazam bo'ladi“.

Dunyo miqyosida yuz beradigan har qanday o'zgarish, u xoh iqtisodiyot, xoh ma'naviy-siyosiy sohadá bo'lsin, o'z ta'sirini dastavval oila muhitida namoyon etadi. Mamlakatimizda boshqa ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda oila omiliga katta e'tibor qaratilayotganligining yana bir sababi ana shundadir. Xalqimizda qadim-qadimdan oila — muqaddas dargoh sanalgan. Zero, oilaga sadoqat, ota-onaga oqibat, aka-ukalarga mehrlilik Vatan tuyg'usining debochalaridir. Oilaga sadoqat bo'limgan joyda ota-onaga nisbatan ham hurmat yo'qoladi. Bunday holatda na qarindosh, na mahalla va na Vatanga nisbatan muhabbat uyg'onmaydi. Prezidentimiz Islom Karimovning „Oilaga e'tiborimni tubdan o'zgartirish, oilalarni, avvalo, ijtimey jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo'llab-quvvatlash — bugungi kunimiz uchur va ertangi istiqbolimiz uchun naqdalar muhim va dolzarb ekanligini yaxshi tushunishimiz va anglashimiz darkor“, deb alohica qayd etganliklari bejiz emas. Oilani torn ma'noda millat tayanchi, ma'naviyat qo'rg'oni, ma'naviy immunitet tizimidagi muhim halqa, deyish mumkin. Oilaning bu boradagi ulkan vazifasi maskuraviy kurashlar, globallahuv, madaniyatlar va turli manfaatlar o'zaro to'qnash kelayotgan bugungi murakkab ax-

borot asrida juda ham muhimdir. Prezidentimizning „Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar“ risolasida ham oilaning bu boradagi o‘rni va ahamiyatiga alohida e’tibor berilgan. Shuning uchun oila va uning an’analari, milliy urf-odatlar, qadriyatlar hamda mezonlariga ehtirom ko‘rsatish, ko‘z qorachig‘i-day asrab-avaylash har birimizning muqaddas vazifa va burchimizga aylanmog‘i lozim.

Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan ilgari surilgan „Oila sog‘lom ekan — jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan — mamlakat barqaror“ g‘oyasiga asosan har bir oila mohiyatan kichik bir mamlakatga o‘xshaydi: o‘ziga tegishli moddiy va ma‘naviy sarhadi, o‘ziga mansub tartib-qoidalari bor. Ammo ularni muhim bir rishta — umummilliy qadriyatlar tizimi birlashtirib turadi. Bu — kechagi kunidan xulosa, bugunidan ma’no va ertasidan umid topib yashayotgan insonlar tanlovi. Prezidentimiz qarori bilan tasdiqlangan „Mustahkam oila yili“ Davlat dasturida jamiyatimizning ma‘naviy negizlarini rivojlantirish va mustahkamlashda oilaning roli va ta’sirini yanada kuchaytirishga doir keng qamrovli chora-tadbirlar belgilangan. Mustahkam oila — buguni va ertasiga ishongan inson mehnati va mehridan yaralgan poydevor, baquvvat qo‘rg‘ondir. Bunday ma‘naviyat qo‘rg‘onida, avvalo, o‘zi oldida javob berishga qodir farzandlar tarbiyalanadi, voyaga yetadi. O‘z vijdoni oldida javob bera olgan insonning Vatan, millat, insoniyat va tarix oldida ham javob bera olishiga ishonish mumkin. Prezidentimiz I. A. Karimov aytganlaridek: „Xalqinuz qadim-qadimdan oilani muqaddas deb bilgan. Oila ahil va totuv bo‘lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oila farovonligi — milliy farovonlik asosi bo‘lib hisoblanadi“. Yosh avlod hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shuning uchun bolar turmushning murakkab muammolari bilan oilada tanishadilar. Oiladagi mavjud an’analari, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiyligi ta’sirlarida yigit-qizlar asta-sekin kamol topib boradilar. An’ana va marosimlar tarbiyaning qudratli qurliga aylanadi. Oila tarbiyasi — murakkab jarayon, chunki har bir oila o‘ziga xos bir olamdir. U tarbiya ishida ham o‘ziga xos xu-

susiyatlarni namoyon qiladi. Oila tarbiyasining muvaffaqiyatli bo'lishi ota-onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo'yicha tajribalar almashish va ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga bog'liqdir. Oila tarbiyasining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalash borasi-dagi burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashiari lozim. Bundan tashqari, normal oilaviy muhit, ota-onaning obro'si, to'g'ri kundalik rejim, bolani kitob o'qishga, mehnat qilishga o'rgatish kabilarga bog'liq.

Oila inson uchun muqqaddas va ulug' dargohdir. Inson ana shu dargohda tug'iladi, o'sadi, voyaga yetadi. Xalejimizda „Oilang tinch --- olam tinch“ degan hikmat bor Darhaqiqat, shunday. Oilada tarbiyaviy muhit oqilonqa yo'lga qo'yilgan bo'lsa, jamiyatda tinchlik va komillik bo'ladi. Shu jihatdan, oilaning mustahkamligi mamlakat rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda oilaning jamiyat taraqqiyotidagi rolini oshirish maqsadida ko'plab ishlar qilindi. Birinchi galda huquqiy asoslar takomillash-tirildi, oila salomatligini saqlash, uning farovon bo'tishiga shart-sharoit yaratish uchun chuqur islohotlar amalga oshirildi. Konstitutsiyamizning alohida bobiga oilaga bag'ishlanib, unda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega, deb belgilab qo'yilgan. Oila bilan bog'liq konstitutsiyaviy qoidalarni hayotga tatbiq etish meqsadida 50 ga yaqin qor'un, Prezidentning 20 ga yaqin farmon va qarorlari, 70 dan ortiq hukurnat qarotlari, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi qabul qilindi. Oila to'g'risidagi qonun hujjalarda oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni o'zaro hurmat, hamjihatlik va ishonch ruhida qurish, oila oldida uning barcha a'zolari mas'ulligi, biror-bir shaxsnинг oilaga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'yilmasligi, oila a'zolari o'z huquqlarini to's-qiniksiz a'malga osibirishi hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlovchi qoidalarni qat'iy belgilab qo'yildi. Ayni vaqtida kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish, oilaviy tadbirkorlikni rag'batlantirish, oilaga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'r-satish dasturini amalga oshirish, bolalarni oila shuroitida tarbiyalashda samarali psixologik-pedagogik tadbirlar joriy etish iz-

chil yo'lga qo'yildi. 1998- yil mamlakatimizda „Oila yili“ deb e'lon qilindi va shu yili respublika „Oila“ ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Shuningdek, 2002- yil 5- iyulda Vazirlar Mahkamasi „Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog'lig'ini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida“ Qaror qabul qildi. Unga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining „Ayollar va o'sib kelayotgan avlod sog'lig'ini mustahkamlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida“ 2002- yil 25- yanvardagi qarorini bajarish yuzasidan dastur ishlab chiqildi. Unda aholining tibbiy madaniyatini yanada oshirish, ayollar salomatligini mustahkamlash, bolalar tug'ilishi va ularni tarbiyalash uchun shart-sharoit yaratish, oilada sog'lom muhitni shakllantirishga urg'u berilgan. Mazkur dasturda yoshlarning reproduktiv salomatlik bo'yicha bilimi va tibbiy madaniyatini oshirish, erta va qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarning oldini olish, tug'ishlar o'rtasidagi maqbul oraliqqa rioya qilishning dolzarbligi masalalarini aholining keng qatlamlariga yetkazish ishlarini tizimli tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi. Aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi va uni tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida Prezidentimizning 2009- yil 13- apreldagi „Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida“gi, 2009- yil 1- iyulda „2009 — 2013- yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida“gi qarorlari qabul qilindi.

Oilada tarbiyaning kaliti — ayolning qo'lida. Ayniqsa, bugun milliy tabiatimizga mutlaqo zid bo'lgan buzg'unchi g'oyalarning zararli ta'siridan yoshlarni asrashda, sog'lom va ma'naviy olami boy yigit-qizlarni tarbiyalashda onaning tabiat ato etgan salohiyatidan unumli foydalanish zarur. Yangilanayotgan jamiyatimizda fuqarolarning huquqiy savodxonlik darajasi qanchalik muhim o'rin tutsa, xalqimizning yaratuvchanlik salohiyatini

yuksaltirish, ya’ni iqtisodiy bilim hamda ma’naviy kamolot masalalari ham shu qadar zarur. Bu esa o‘z-o‘zidan oilada sog‘lom muhit qaror topishiga bog‘liq. Shu o‘rinda Yurboshimiz I. A. Karimov o‘z ma’ruzalarida, „O‘zbeklarning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘snilarining omonesonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajada ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir“. Darhaqiqat, oila jamiyatning ajralmas bir bo‘lagidir. Chunki jamiyat oilalardan tashkil topadi, oila esa shaxslardan. Shu jihatdan olib qarasak, jamiyat, oila va shaxs uzlusiz silsila bo‘lib, ularning har biri boshqasidan ayri holda mukammal bo‘la olmaydi. Oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ravnaqiga shu darajada mustahkam poydevor bo‘ladi.

Mustaqillik yillarda oilani mustahkamlash, onalik va bolaslikni muhofaza qilish borasida ko‘plab tadbirlar amalga oshirildi. Respublikamiz Konstitutsiyasining 63-moddasida „Oila jamiyatning əsosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega“, degan qoida mustahkamlab qo‘yilgan. Oilalar tinch-totuv yashasa, jamiyatning yutuqlari ham ko‘payadi, farzandlar yaxshi tarbiya oladi. Oilaga g‘amxo‘rlik qilish va unga har taraflama moddiy va ma’naviy yordam berish inson-parvar demokratik davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Oila va nikoh munosabatlari huquqiy asoslarining yaratilishi, ya’ni 1998- yil 30-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksining qabul qilinishi jamiyatimiz rivoji uchun oila mustahkarnligi yo‘lidag muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Hozirgi zamон олимларининг фикрича, инсониёт кечиришнинг бирдан-бір тоғ‘ри юли оиласиёттірді. Оила инсон учун меҳнат қоби-лиятини тиклаш ва дам олиш жойи hisoblanadi. Shuningdek, oila muhiri tarbiyachi hamdir. Oilada bolalar tarbiyasi uchun otabobolar va momolardan qolgan, ming yillar mobaynida hayot sinovlaridan o‘tgan yaxshi udum, odatlar mavjud bo‘lib, ularni asrab-avaylash, yosh avlodga yetkazib berish oldimizda turgan muhim vazifalaridan hisoblanadi.

8.2. Oila tarbiyasida ota-onaning o‘rnı

Ota-onal farzandlari nigohiga eng buyuk kishilardir. Shuning uchun ular farzandlari oldida eng yaxshi sifatlari bilan obro‘ qozonishlari mumkin. Insoniy fazilatlar sohibi bo‘lgan ota-onal o‘z farzandlari tomonidan bir umr e’zozlanadi.

Oilada farzandlarimiz ota-onalarining bir-birlariga bo‘lgan munosabatlariga qarab izzat-hurmatni, muomalani o‘rganib boradilar. Ota-onalarimiz bir-birlariga mehribon bo‘lsalar, shirin muomala qilsalar, bolalar ham shunga ko‘nikma hosil qilib, shunday muomalaga o‘rganadilar. Oilada ayol turmush o‘rtog‘ini hurmat qilsa, oiladagi o‘g‘il-qiz farzandlarimiz ham onaning bu harakatini ko‘rib, otasiga hurmati oshadi. Ota-onani hurmat qilish kerakligini tushunib boradi. Afsuski, hamma oilalarda ham shunday o‘zaro hurmat va mehr-oqibat mavjud emas. Ba’zi oilalarda erni hurmat qilish o‘rniga ularga hukmron bo‘lish, ularni „o‘z izmiga solish“ga bo‘lgan intilish harakatlari ham uchraydi. Ba’zi ayollarimiz borki, ular eridan ozgina ko‘proq topsalar minnat qiladilar. Ba’zi holatlarda erkak ichkilik ichib, mast holatda uyga kelib, ayolini farzandlari oldida haqoratlab, be-hurmat qiladi. Bu holatni ko‘rgan bolalar ota-onalarini hurmat qilmaydi. Bolalar haddan tashqari taqlidchan bo‘ladilar. Ota-onalardan ko‘rganlarini takrorlaydilar. „Qush uyasida ko‘rganini qiladi“ deganlaridek, farzandlar ham ota-onal bag‘rida o‘sib-ul-g‘ayar ekanlar, ularning yurish-turishlaridan, xatti-harakatlaridan ibrat olib, tajriba orttirib boradilar.

Oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi ekan, uning mustahkamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat manfaatdordir. Oilada ma’naviy va jismoniy yetuk avlodni tarbiyalash, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish lozim. Shuni unutmaslik lozimki, farzandlarimizning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina oila tarbiyasi muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Yosh avlod hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan turmushning murakkab muammolari bilan oilada tanishadilar. Oiladagi mavjud an’analalar, urf-odatlar,

rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida yigit-qizlar asta-sekin kamol torib boradilar. An'ana va marosimlar tarbiyaning qudratli quroliga aylanadi. Oilaviy tarbiyaning murakkabligi shundaki, har bir oila o'ziga xos bir olam, u tarbiya ishida ham o'ziga xos xususiyatlarni narmoyon qiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'minlashi mumkin.

Oi'ada ota yoki onaning yo'qligi yoki ketib qolishi tarbiyaga juda katta zarar ko'rsatadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta'siri yo'qoladi. Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bolaning qalbi qattiq jarohatlanadi. U tajang, serjahl, qo'pol bo'lib qoladi, kattalarga ishommay qo'yadi. O'qishi ham pasayib ketadi. Oila tarbiyasidagi muammolardan yana biri yolg'iz farzandni tarbiyalashdir. Bunday sharoitda bola faqat kattalar davrasida bo'ladi. O'ziga yaqin yoshdagি bolalar bilan muomala qilish imkoniyati bo'lmaydi. Oilada ko'p bola bo'lsa, ular bir-birini tarbiyalaydi. Bundan tashqari, oiladagi kelishmovchiliklar, ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi tengsizlikka asoslangan munosabatlar, ayrim ota-onalarning madaniyat va ma'lumotining nisbatan past saviyada ekanligi tarbiyaga xalaqit beradi, oilaviy muhitda o'zaro kelishmovchiliklarni vujudga keltiradi.

Oila tarbiyasida quyidagi omillarga diqqatni qaratmoq lozim. Jumladan, oilada ruhiy xotirjamlik, sarnimiylig munosabatlari shakllangan bo'lishi, ota-onalarning obro'si yuqori bo'lishi, bolalarga talab co'yishda oiladagi kattalar o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatda tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, boladagi mustaqillikka intilishni va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash va hokazo. Oila tarbiyasida ota-onalarning obro'si muhim tarbiyeviy ahamiyatiga ega. Bu obro'ni esa ibratli xulqi, odobi, intizomi, kamtarligi, ishbilarmonligi bilan qo'lga kiritadilar. Obro' orttirishda, eng avvalo, ibrat-namuna muhim rol o'ynaydi. Ota-onalarning odilona, me'yorli talabchanligi obro' orttirishning muhim yo'llaridan biridir. Tarbiya jarayoni zerikarli,

quruq haqiqatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. O'zbek oilasi tarbiyasida, ayniqsa, otaning obro'si katta ahamiyatga ega. Ayoli, bolalari oldida obro'ga ega bo'lgan ota jamoat orasida ham obro' topadi. Oilada obro'si yo'q otadan tarbiya olgan bola, ko'pincha, o'g'ri, muttaham, yolg'onchi bo'lib yetishishi mumkin. Ota-onalari farzandlari nigohida eng buyuk kishilardir. Shuning uchun eng yaxshi sifatlari bilangina obro' qozonishlari kerak. Insoniy fazilatlar sohibi bo'lgan ota-onalari o'z farzandlari tomonidan bir umr e'zozlanadi.

Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog'lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun maktab va ota-onalar o'rtasidagi ta'lim-tarbiyaga oid ishlarni kengaytirish lozim. O'qituvchilarining ota-onalar bilan bo'lgan uchrashuvlarida aytgan fikrlari, ayniqsa, ota-onalar uchun qimmatlidir. Chunki ular o'z farzandlari to'g'risida ko'proq ma'lumotlarni bilib oladilar. Shunday ekan, bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-onalari oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabga kirib, to uni tamomlab chiqqunga qadar ota-onalari maktab bilan yaqin aloqa o'rnatib, farzandining o'zlashtirishi, xulqatvordan hamisha xabardor bo'lishi, tarbiya masalalari bo'yicha o'qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib, uni darsdan so'ng nima bilan mashg'ulligidan xabardor qilishi lozim. O'z navbatida, o'qituvchi ham bolaning o'qishi, odobi, xulqi, maktabda o'zini tuta bilishi haqidagi ma'lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tug'ilganda hosil bo'lgan muammolarni birlashtirishda hal qilishi zarur. Bolasi maktabga borgan ota-onalari maktabning ijtimoiy hayotida faol qatnashishlari shart. Ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan tarbiya sohasida hamkorlik qilishlari oila tarbiyasiga salmoqli hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida oilaviy tarbiya masalalariga e'tibor yanada kuchayib, dolzarb mavzuga aylanmoqda. Xalqimiz qadim-qadimdan ota-onani olamda eng ulug', eng mo'tabar, eng hurmatga loyiq zot deb hisoblaydi. Qur'oni Karim, Hadisi Shariflar,

son-sanoqsiz hikmatlarda va rivoyatlarda ota-onaning farzand uchun qanchalar qadrli, mehribon kishilar ekanligi qayta-qayta uqtiriladi. Kattalarga quloq solish — o'zbek oilasidagi an'anaviy tarbiyaning xarakterli belgisi. Kattalarga quloq solish — ongli intizom yo'lidagi dastlabki qadam. Yangi munosabatlar eski ajoyib cilaviy an'analar bilan, jumladan, oilada otaning ustunligini e'tirof etish an'anasini bilan uyg'unlashib ketadi. Otaning obro'yini kuch bilan emas, balki oilaning unga bo'lgan umumiy hurmati bilan qo'llab-quvvatlanadi. Hozirgi kunda oilada bola tarbiyasida buyuk mutafakkirlarimizning fikrlaridan foydalanmaslikning iloji yo'q, albatta. Hazrati Alisher Navoiy ham bolalarning ota-onalariga doimo hurmatda bo'lishlari zarurligini uqtirib, ota-onalariningaizni hurmat qilinglat, birini oy deb bilsanglar, birini quyosh deb bilinglar, deydi. Har bir ota-ona o'z farzandlarini tarbiyalash borasidagi burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari kerak.

Ojada ota-onaning farzand oldidagi va farzandning ota-ona oldidagi burchlari quyidagilardan iborat.

Ota-onaning farzand oldidagi burchlari:

- 1) Farzandga chirolyi ism qo'yish;
- 2) Savodini chiqarish;
- 3) Iqtidoriga qarab bilim berish;
- 4) Imkoniyatiga yarasha o'qitish va kasb-hunar o'rgatish.
- 5) Uylantirish, turmushga chiqarish;
- 6) Uyli-joyli cilish;
- 7) Farzandlar orasidagi meros taqsimotida adolatli bo'lish.

Farzandning ota-ona oldidagi burchi:

- 1) Ota-onaning pand-nasihatlariga quloq solish, ularga har doim yordam berish, mehribon, e'tiborli bo'lish, oila ishlariiga ham ma'naviy, ham iqtisodiy yordam berish;
- 2) Har bir farzand o'z singil va ukalariga mehribon yo'l-boshchi va yo'ldosh, odobda, axloqda, ishda, ilm-hunar o'rghanishda o'rnak bo'lishi;
- 3) Ota-onalarining nimaga muhtoj ekanliklarini qalban his qilish, ularga bu borada amaliy mehribonlik ko'rsatish;

- 4) Oilaga berayotgan ma'naviy va iqtisodiy yordamini min-nat qilmaslik;
- 5) Tavallud, bayram va xayit kunlarida yo'qlab turishni kanda qilmaslik;
- 6) Keksa ota-onalarga alohida g'amxo'rlik qilish, shirin muo-malada bo'lish, orzu-niyatlarining amalga oshishida yordam berish;
- 7) Vaqt-soati yetib, bandalikni bajo keltirsalar, izzat-ikrom bilan oxirgi manzilga kuzatish, ma'rakalarini kamtarona, dabda-basiz, qarindosh-urug'lar, uni bilgan, hurmat qilgan eng yaqin odamlar bilan o'tkazish. Ularni doimo xotirlab, haqlariga duo qilib yurish.

8.3. Oila muhitining bola tarbiyasiga ijobjiy ta'siri

Bola ota-onasining hayot mazmuniga aylanganidek, ota-onsa ham bolaning hayot mazmunini tashkil etadi. Ya'ni ota-onaning farzandiga bo'lgan mehr-muhabbati javobsiz qolmaydi. Bola ham ota-onasini juda yaxshi ko'radi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimiz-dek, oila his-tuyg'ularga boy bo'lgan muqaddas maskandir. Shu nuqtayi nazardan, bola tarbiyasiga muhim ta'siri bo'lgan omillardan biri sifatida oilani ko'rsatish mumkin. Go'daklarni parvarishlash va tarbiyalash ota-onsa uchun ham haq-huquq, ham vazifadir. Bu borada aytilgan ushbu so'zga qulqoq solaylik: „Nafasining senda haqqi bordir, oilangning senda haqqi bordir, har qanday haq egasiga uning haqqini qaytar...“ Bolaning ham ruhan, ham jismonan ulg'ayishi uchun eng yaxshi muhit — oila muhitidir. Bola o'ziga kerak bo'lgan mehr, shafqat va e'tiborni faqat oilasidangina topishi mumkin. Oilada his-tuyg'ularning baravar baham ko'riliши bola shaxsiyati va uning aqliy jihatdan rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bola bilan birgalikda qilinadigan ishlar, masalan, birgalikda taom yeyish, o'yin o'ynash, so'zlashish, televizor tomosha qilish, ertak aytish va hokazolar bola uchun oilaning qimmatini yanada oshiradi. Bola oiladagi hurmat-izzat, insonga bo'lgan e'tiborga qarab xulosa chiqaradi, tengdosh do'stlari, kattalar, kichiklar va jamiyatga bo'lgan o'z munosabatini shakllantiradi. Ota-onasining xotirjam hamda bax-

tiyorligi — bola uchun xotirjamlik, baxtiyorlik demakdir. Uyda totuvlik bo'lsa, bola ham baxtiyor, uyda muammo bo'lsa, bolada ham muammo bo'lishi shubhasizdir. Bu bilan hech qanday muammesi bo'lmagan xonadonlar ham bor demecchi emasmiz, albatta. Muammolar har joyda, har doim bo'lishi tabiiy. Muhimi, ana shu muammolarni hal qilishdagi muvaffaqiyatimiz va muammolarga yondashish tarzimizdir. Bolani kaltaklash ham, uning „tilini topish“ ham ko'pchilik oilalarda muammolarni hal qilishning o'ziga xos yo'lidir. Odatda, ota-onalar muammoning yechirnini topish uchun turli xil yo'llarni tutishga urinadilar. Bizning muammori hal etish yo'limiz farzandimizning jamiyat, do'stlari va oilada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish uchun namunaviy yo'l bo'la oladi. Bolaning oilada jiddiy qarorlar qabul qilinayotganda faol ishtirok etishi, o'z ehtiyoj va xohishlarini bemalol ifoda eta olishi, oila a'zolarining o'z his-tuyg'u va fikrlarini erkin ifoda eta olishlari oilaning ahil bo'lishi va oila a'zolari o'rtasida cheksiz mehr-muhabbat, o'zaro hurmat hamda ishonch rishtalarining mustahkamlanishiga zamin yaratadi. Bunday sharoit oila a'zolarining o'zlarini to'la himoyada his qila olishi va sog'lom muhitning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bolalar huquqi va imkoniyatlari cheklanmagan, o'zlarini erkin his etadigan oilalarda har doim yaxshi niyat, o'zarc tushunish va hamkorlik, kelishuv, his-tuyg'ularni o'rtoqlashish, fidokorlik, samimiyat va mehr, kelajakka ishonch kabi qadriyatlar hukmron bo'ladi. His-tuyg'u va fikrlarini ifoda eta olmaslik oila a'zolarining oila muhitidan bezishi, behuzur bo'lishi, o'z qobig'iga berkinib olishi va buning uchun o'zini aybdor his etishi kabi noxush holatlarga sabab bo'lishi mumkin. Qo'rqliv, bezovtalik, nafrat va tushkunlik kabi sifatlar bunday oilalarda yashayotgan bolalarga xos alomatlardir. Bola uchun eng zaruriy oziqa unga beriladigan mehhrdir. Har qanday sharoitda ham bolaga gapirilgan so'z chin ko'ngildan ifoda etilmasa, hech qanday oila muhiti va hech qanday ta'llim-tarbiya ijobjiy natija bermaydi. Farzandlar ma'lum bir yoshga kиргунча qilingan amallari uchun vaqt-soati kelib hisob bermasliklari va qo'rquv hissining ularga hech qanday aloqasi yo'qligi uqtirib borilsa,

istalgan natijaga erishish mumkin bo‘ladi. Biz esa, aksincha, farzandlarimizni yoshligidanoq turli xil so‘zlar bilan qo‘rqita boshlaymiz. Butun hayotimizni qo‘rquv poydevori ustiga bino qilishga harakat qilamiz. Qo‘rquv poydevori uzra bino etilgan bunday ta’lim-tarbiya va anglash tarzi mehr-muhabbat paydo qila olmaydi. Bunday anglash tarzi bola shaxsiyati rivojiana boshlagan 4 — 5 yoshdan to maktabgacha, ya’ni u 7 yoshga kirkunga qadar oilada berilgan tarbiya vositasida hayotini to‘kis tarzda davom ettira olmasligini yaqqol ko‘rsatib turadi. Shu o‘rinda allormalarimizning „Bola boshidan“, degan hikmatli so‘zi asosida bir hikoyani bayon qilmoqchimiz: „Ibn Sino qishloqda yashab, tabiblik qilar ekan. Kunlardan bir kun shu qishloqlik bir yigit bilan bir qiz turrnush qurishibdi. Ular yaxshi hayot kechirishibdi. Oradan to‘qqiz oy o‘tgach, farzand ko‘rishibdi. Biroz vaqtidan so‘ng, ular bir-biriga maslahat qilishibdi: „Bolamizni qanday tarbiya qilamiz? Uni shunday tarbiya qilaylikki, katta bo‘lganda el-yurtga foydasi tegadigan chin inson bo‘lsin“, debdi eri. „To‘g‘ri aytasiz, men ham shuni o‘ylab turgan edim. Yaxshisi Ibn Sinodan so‘rab qo‘ya qolaylik“, debdi xotini. Bu gap eriga ma’qul tushibdi. Er-xotin bolani ko‘tarib, Abu Ali ibn Sinonikiga kelishibdi. U bir kichik, tor kulbada yashar, ammo dong‘i olamga ketgan olim ekan. Abu Ali ibn Sino er-xotinni yaxshi kutib olibdi. Nima ish bilan kelganliklarini so‘rabdi. „Bolamizning tarbiyasi haqida maslahat bersangiz. Toki katta bo‘lgach, el-yurtga foydasi tegadigan bo‘lsin“, debdi eri. „Qachon tug‘ildi?“ deb so‘rabdi Ibn Sino. „Erta bilan tug‘ildi“, erining o‘rniga xotini javob beribdi. „Ey azizlar, bola erta tongda tug‘ilgan ekan, hozir choshgoh bo‘ldi, kechikibsizlar. „Niholni boshdan, bolani yoshdan“, deb bekorga aytishmagan, axir. Bola tug‘ilishi bilan uning tarbiyasi haqida qayg‘urish kerak“, debdi Ibn Sino.

8.4. Oilada bolalarni mehnatga o‘rgatish

Vatanimiz xalqlari jamiyat qurishning aniq vazifalarini hal qilishga zo‘r g‘ayrat va shijoat bilan kirishdilar. Jamiyat a’zolaringning ongi va madaniyatini o‘stirmasdan turib, eng yuqori darajadagi mehnat unumdarligini vujudga keltirishga, ijtimoiy mu-

nosabatlarni rivojlantirishga va turmush qoidalarini o'rnatishga erishib bo'lmaydi. Jamiyat a'zolarining ongliligi yuqori bo'lsa, ularning ijodiy faoliyoti to'la va keng ko'lamda avj olsa, biz „Ta'-lim to'g'risida“gi qonun, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ mohiyatini tez va muvaffaqiyatli amalga oshiramiz.

Mehnat — insoning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, hayot kechirishning asosiy shartidir. Mehnat tufayli inson o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini amalga oshiradi. Insonning o'zi esa, mehnatkash bo'lib, u tufayli o'zining iste'dodi, qobiliyati, layoqatini namoyon etadi. Mehnat jarayonida insonning dunyoqarashi kengayib, bilim saviyasi oshib, o'z-o'zini jismoriy va ma'naviy jihatdan shakllantirib boradi. Har bir inson bitta kasbni yoki bir necha kasb-hunarni egallashi mumkin. „Bir yigitga qirq hunar ham oz“ degan maqolning mazmunida harn bir necha kasbni egallash hayotiy ehtiyoj ekanligiga ishora bor. Har bir kasbning, hunarning o'ziga xos mashaqqati va lazzati bo'ladi. Uning mashaqqatini matonat, tinirnsiz izlanish, sabr-toqat bilan yenggan insongina lazzatidan bahra oladi. Yoshlikda puxta egallangan hunar, mehnat malakalari inson umrining oxirigacha rohat-farog'at turmush kechirishning garevidir. „Hunarli er xor bo'lmas, burda nonga zor bo'lmas“, „Hunarli yigit mevali daraxt“ kabi magollarda ham rizq-nasibaning butunligi hunar orqasidan bo'lishiga ishora bor. Hunar shunday katta, mangu boylikki, uni yondirish ham, yo'q qilish ham mumkin emas.

Oilada yoshlarning kasb-hunar egallashlarida ustoz-shogird an'analariga rioya etmoq zarur. Chunki ustoz ko'rmagan hunarmandning ishida urum bo'lmaydi, hunarning sir-asrorlarini mukammal bilmaydi, yaratgan mahsulotining sifati yomon yoki xaridorgir bo'lmaydi. Oilada farzandning u yoki bu hunarning egallashida birinchi ustoz ota-onadir. Ota-onadan o'zi sevgan hunar haqida dastlabki ma'lumotni olgan farzand, albatta, shu hunarning mohir ustasidan ta'limni olmog'i zarur. Xalqimiz aytganidek: „Ustoz ko'rmagan shogird ming maqomga yo'rg'alar“.

Ustozning shogirdga nisbatan qattiqqo'lligi, talabchanligi, rag'barlantirishi yoki jazolashi uning kelajakda mohir hunar sohibi bo'lib shakilanishida muhim rol o'yndaydi. Shogirdga

nisbatan o‘ta mehribonlik, ayash, yuz-xotirchilik uni o‘rtamiga yona hunarmand qilib qo‘yadi. Shuning uchun ustoz o‘zida mavjud bilimni shogirdi ongiga sabr-toqat bilan singdirishi, o‘zidan so‘ng uning hunarini davom ettiruvchi haqiqiy shogird yetishtirishga harakat qilmog‘i lozim. Hunar egallagan, mehnatdan bo‘yin tovlamaydigan odam jamiyatda qadr topadi. Xalq ichida obro‘-e’tibor, mansab pillapoyalariga chiqish ham halol mehnat, hunar sirlarini mukammal egallash natijasidir. Shuning uchun ham xalqimiz „Mehnat qilgan elga aziz“ deydi. O‘zbek xalqi azal-azaldan kasb-hunari, mehnatsevarligi, halol va pokligi bilan dunyoga tanilgan. Xalqimizning zargarlik, naqqoshlik, duradgorlik, sartaroshlik, o‘ymakorlik, kulolchilik, bog‘bonlik, chorvadorlik, chevarlik, kashtado‘zlik, to‘quvchilik, do‘ppido‘zlik, ganchkorlik, sandiqsozlik, beshiksozlik, etikdo‘zlik kabi yuzlab hunar mahsulotlari o‘zining betakrorligi, go‘zalligi, maftunkorligi bilan dunyo xalqlarini lol qoldirib kelmoqda.

Oilada tarbiyalanayotgan har bir farzandga o‘ziga xos va mos hunar ilmini o‘rgatish ularning kelgusi farovon turmushini ta‘minlash demakdir. O‘g‘il bolalar qadim-qadimdan chorvachilik, dehqonchilik, duradgorlik kabi og‘ir jismoniy mehnat talab etuvchi hunar bilan shug‘ullangan bo‘lsalar, qizlar kash-tachilik, do‘ppido‘zlik, jiyakdo‘zlik, tikuvchilik kabi nafis did, mahorat, san‘at talab etadigan hunar bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Yoshlarni turmushga tayyorlashning asosiy mezoni ham ularga kasb-hunar sirlarini puxta o‘rgatishdan iborat bo‘lgan. Ushbu mezon mustaqillik sharoitida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan „Ta‘lim to‘g‘risida“gi qonun, „Kadarlar tayyorlash milliy dasturi“ mohiyatida ham yosh avlodni mehnatsevar, bir necha kasb-hunar sirlarini egallagan, ma‘naviy va jismoniy barkamol kishilar qilib tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor berilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hunarli bo‘lish hayotiy ehtiyojdir. Uni qunt bilan egallahsha oila, mahalla, maktab, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimidan katta mas’uliyat talab etiladi.

Hayotda shunday ota-onalar ham uchraydiki, farzandining mayli, qobiliyati, qiziqishini hisobga olmasdan, uni o‘zlari ma-

qul ko'rgan kasbni egallahsga majbur qiladilar. Natijada bu kasbni xohishsiz, qiziqishsiz o'rgangan farzand o'z kasbi bo'yicha chuqur bilimsiz, layoqatsiz bo'lib, ota-oni hurmati uchun shunchaki mehnat qiladi yoki umuman boshqa soha bo'yicha ishlaydi. Uning qilgan mehnatida unum va sifat bo'lmaydi. Bunday kasb egasican jamiyat ham, oila ham manfaat ko'rmaydi. Hunarning yaxshi-yomoni bo'lmaydi, muhimi tanlangan kasbhunarga mehr-muhabbat qo'yishdir, uning sir-asrorlarini chuqur o'rganishga intilishdir. Ota-onaning boyligi, mansabi hech kimga hech qachon vafo qilmagan. Boshga musibat tushganda, turmushda qiyinchiliklarga duch kelganda uni faqat qo'lidagi hunari, mehnati asrab qoladi. Har bir inson egallagan hunarning muva'faqiyatini ta'minlovchi talablar mavjud. Ular: bugungi ishni ertaga qoldirmaslik, chunki ertaga bajarish lozim bo'lgan boshqa ishlar ham bor. Mehnat taqsimotida nomutanosiblik paydo bo'lmashen desangiz, har kunlik ishni o'z vaqtida qilishni odatlanish kerak. Qisqa muddatda, shoshib, pala-partish bajarilgan ishning umri qisqa va sifati yomon bo'ladi. Siz yaratayotgan mahsulot diqqat-e'tibor bilan, butun mahoratni ishga solib yaratilgan taqdirda, u go'zal va umrboqiy bo'ladi. Aks holda mehnatingiz zoye ketadi. Yaxshi kayfiyat bilan amalga oshirilgan ish naqadar murakkab bo'lmashen, u yengil va sifatlari bajariladi. Egallangan hunar sirlari bilan qanoatlanmaslik zarur. Balki uning ochilmagan qirralarini doimo izlash, taraqqiy ettirish, o'z ustida tinimsiz ishslash va mehnat qilish mohir mutaxassis bo'lib yetishishning muhim omilidir.

Har bir kasb-hunar poklik, rostgo'ylik, ishonch, va'dada turish, xiyonat qilmaslik, tarozida aldamaslik, mehnat madaniyatiga xilof ish qilmaslikni talab etadi.

Bola ilk mehnat malakasini oilada o'z-o'ziga xizmat qilish, uy ishlarida kattalarga yordam berish, qo'lidan keladigan ishlarni bajarish jarayonida egallaydi. Ota-oni, qarindosh-urug' va boshqalar mehnatini qadrlash va hurmat qilish ko'nikmasi oilada tarkib topadi. Bolalar 5 — 6 yoshdan boshlab uy ishlarini bajarishga kirishadilar. Ilgari ota-bobolarimiz farzandlarini kattalarining hurmati uchun o'rnidan turib salom berish, qo'liga suv

quyish, umuman, kattalarni izzat-hurmat qilish ruhida tarbiyalaganlar. Ro'zg'orda ularga „Bir ko'yak ortiq kiyganni hurmat qil“ degan naql doimo uqtirilgan. Keyinchalik oila qurganda ham otalarining ruxsatsiz, maslahatisiz ayrim ishlarni o'zлari bajara olmaganlar ham. Mehnat tarbiyasi oilada juda erta boshlangan. Chunki ro'zg'orda bolalarning mehnati doimo kerak bo'lgan. Kattalar bolalar qilgan xatolarni doimo tuzatib, mehnat jaryoni turli bajarilishini kuzatib borishgan.

Oilaning qut-barakasi, hamjihatligi, hamkorligi a'zolarning kasb-hunar malakalarini egallaganliklari va mehnat taqsimotini adolatli yo'lga qo'yishga bog'liqidir. Oilada ro'zg'or yumushlari oila a'zolari jinsi, yoshi, qobiliyati, mehnatga munosabatlariga qarab to'g'ri taqsimlanmog'i zarur. Oila boshliqlarining ro'zg'or yumushlarini faqat o'zлari bajarishlari bolani ishyoqmas, yalqov takabbur, ota-onas mehnatini qadrlamaydigan bo'lib o'sishlariga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham ro'zg'or va xo'jalik ishlarida ota-onas bilan bir qatorda o'g'il-qiz, kelinning ham o'z burch va vazifalari mavjud, ularni to'liq ado etish har biridan o'z burchlariga mas'uliyat bilan yondashish talab etiladi. Jumladan, o'g'il otaga bozordan oziq-ovqat, xo'jalik mahsulotlarini xarid qilishga, yer chopish, ekin ekish, chorvachilik, dehqonchilik, polizchilik, qurilish ishlarida, to'y-tantanalarini va motam marosimlarini o'tkazishda, xotin-qizlar uchun og'irlilik qiladigan ishlarda yordam beradi. Qiz bola esa, onaga hovli va xonalarni supurib-sidirish, taom tayyorlash, qish mavsumi uchun quritilgan mevalar, turli tuzlamalar, murabbolar tayyorlash, mehmon kutish kabi yumushlarda ko'maklashadi va shu jarayonda o'zi ham mustaqil hayotga tayyor bo'la boradi. Oiladagi mehnatning bajarilish vaqt, mazmuniga ko'ra turli tarzda amalga oshiriladi. Quyidagi mehnat turlari oila a'zolari ichida teng va adolatli ravishda taqsimlanishi zarur:

- kundalik yumushlar;
- qish, bahor, yoz, kuzda bajariladigan mavsumiy ishlar;
- oilaviy marosimlar (mehmon kutish, to'y va bayram tantanalari, motam va xotirlash marosimlari)ga tayyorgarlik ko'rish va ularni nishonlash bilan bog'liq yumushlar;

— mahalla, jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan ommav'y tadbirlar (hashar, obodonlashtirish ishlari, umum-xalq bayramlariga tayyorgarlik) bilan bog'liq yumishlarda ishtirok etisi.

Ba'zan ota-onan topshiriqni so'zsiz, toza, vijdonan bajaradigan farzandga oilaning aksariyat yumushini topshiradi. Erinchoq topshirilgan vazifani qo'l uchida „Mendan ketguncha, egasiga yetguncha“ qabilida bajaruvchi loqayd, ishyoqmas farzand esa chetda qoladi. Yoki ota-onan shu o'g'lim yoki qizimga buyurgunimcha o'zim bajarganim ma'quldir, deb, farzand qilishi zarur bo'lgan yumushlarni ham o'zлari bajaradilar. Natijada bunday farzandlar ota-onani qadrlamaydigan, ishyoqmas, hayot qiyinchiliklariga bardoshsiz, oila yuritishga tayyor emas, og'irning ustidan, yengilning ostidan yuradigan, mehnatni sevmaydigan bo'lib o'sadilar. Natijada uddaburon farzand bilan hech narsa qo'lidan kelmaydigan farzand, ota-onan, qaynana-qaynata, qayin uka-singil, opa, aka va kelin o'rtasida nizo paydo bo'ladi.

Oilada mehnat madaniyatiga rioxha etish uning samaradorligini ta'minlovchi muhim omildir. Bolaga yoshligidanoq mehnat madaniyatini o'rgatib borish ishida tartib bo'lishini talab qilish muhim. Masalan, ota-onan quyidagi oddiy, lekin zaruriy narsalarni boladan talab etmog'i zarur: „Ishlayotgan joyingni yelim bilan iflos qilmaslik uchun qog'oz to'sha, yaxshisi, maxsus taxtacha ishlat, ishing tamom bo'lganidan keyin cho'p-xaslaringni yig'ishtir! Yelimni barmog'ing bilan emas, maxsus cho'p yoki mo'yqalam bilari surka!“ „Tikish ishlariga kirishishdan oldin qo'lingni yaxshilab yuv! Ovqat pishirishga yordam qilganingda yoki id.sh-tovoq, pc'l yuvganda belingga fartuk tut, soching xalaqit bermasligi uchun boshingga maxsus qalpoqcha kiy yoki ro'mol o'ra!“ „Ishni tamom qilganingdan so'ng mehnat qurollaringni tartib bilan yig'ishtir, o'rni-o'rniga qo'y (chelak, bolg'a, arrachalarini ma'lum bir joyga qo'y)!“ „Ip, igna, qaychi, pichoq, qog'oz, lattalarni bir qutichaga solib qo'y!“ „Ish kiyimlaringni ma'lum bir joyga osib qo'y! Ishdan keyin yuz-qo'llaringni yuvib, art! bironta ish qilishga kirishar ekansan, albatta, ish davomida kerak bo'ladigan narsalarni oldindan tayyorlab qo'y!“

Bu talablarni bajarishda ota-onaning o'zi ham bolaga namuna ko'rsatishi kerak. Mehnat madaniyatini egallash, ish qurollarini ma'lum joyda, ma'lum tartibda saqlash, saranjom bo'lish vaqtini tejash, ishni tez, sifatli va ozoda bajarishda juda muhim ekanini bolaga tushuntirish zarur. Xonadonning har bir a'zosi o'z zimmasidagi vazifani rejali, to'g'ri tashkil etsa, mehnat qurollari dan ehtiyyotkorlik bilan foydalansa, ro'zg'or buyumlarini avaylab-asrasa, vaqtdan umumli foydalanish malakasiga ega bo'lsa, ish o'rnini saranjom-sarishta saqlasa, pala-partishlikka, isrof-garchilikka yo'l qo'ymasa, har bir yumushni did, qunt, sabrmatonat bilan amalga oshirsagina u mehnati natijalaridan huzurhalovat topadi. Xalq maqollarida aytiganidek: „Mehnat rohatning poydevoridir“, „Rohatning onasi — mehnat“, „Halol mehnat — huzur-halovat“, „Suvsiz hayot bo'lmas, mehnatsiz — rohat“, „Mehnatsiz rohat bo'lmas, tashvishsiz — ne'mat“, „Halol mehnat — yaxshi odat, berur senga saodat“. Oilaning har bir a'zosi zimmasidagi vazifa umumiylar maqsadni ko'zlab tashkil etilgan va uning natijalaridan barcha oila a'zolari bahramand bo'lgan taqdirdagina unday mehnat foydali hisoblanadi.



Savol va topshiriqlar

1. Oila tushunchasiga izoh bering.
2. Oilaning bola tarbiyasida tutgan o'rni.
3. Jamiyatda oilaning o'rnini izohlang.
4. Oila tarbiyasida ota-onaning vazifalari nimalardan iborat?
5. Oila muhitining bola tarbiyasiga ijobjiy ta'siri.
6. Oilada bolalarni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodidan namunalar keltiring.
7. Oilada farzandning vazifalari nimalardan iborat?
8. Maktab, mahalla, jamoatchilik va oilaning ma'naviy yuksalishdagi o'rni.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **I. A. Karimov.** O'zbekiston: o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. - T., „O'zbekiston“, 1992.
2. „Ta'llim to'g'risida“gi Qonun va „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“. - T., 1997.
3. **I. A. Karimov.** O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat. - T., „O'zbekiston“, 1992.
4. **I. A. Karimov.** „Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch“. - T., 2008.
5. **I. A. Karimov.** Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - T., „O'zbekiston“, 1995.
6. **Kaykovus.** „Qobusnoma“. - T., „O'qituvchi“, 1986.
7. **O. Bo'triyev.** Oila va yangi an'analar. - T., „O'qituvchi“, 1988.
8. Oila etikasi va psixologiyasi (T. Maqsudov tahriri ostida). T., „O'qituvchi“, 1991.
9. **T. Javliyev.** An'analar — hayot sabog'i. - T., „O'zbekiston“, 1992.
10. **A. Avloniy.** Turkiy Guliston yohud axloq. - T., „O'qituvchi“, 1992.
11. **X. Uzoqov, E. G'oziyev, A. Tojiyev.** Oila etikasi va psixologiyasi. - T., „O'qituvchi“, 1992.
12. **J. Yo'ldoshev, S. Hasanov.** „Avesto“da axloqiy-ta'llimi qarashlar. - T., „O'qituvchi“, 1992.
13. **M. Imomova.** Farzand — nihol, ota-onal — bog'bon. - T., „O'qituvchi“, 1993.
14. **I. Jo'rabelev.** Yangi O'zbekiston — yangi qadamlar. - T., „O'zbekiston“, 1994.
15. **A. J. Jo'rayev.** Tarbiyaviy darslarni o'tish. - T., „O'qituvchi“, 1994.
16. **A. K. Munavvarov.** Oila pedagogikasi. - T., „O'qituvchi“, 1994.
17. **U. Mahkamov.** Axloq-odob saboqlari. - T., „Fan“, 1994.
18. **M. Xaydarov.** Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq a'r'analaridan foydalanish. - T., „Yozuvchi“, 1995.
19. **O. To'rayeva.** Odobnoma. - T., „O'qituvchi“, 1995.
20. **J. Yo'ldoshev.** Ta'llimiz istiqboli yo'lida. - T., „Sharq“, 1996.
21. **Z. Qo'ziyev.** Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. - T., „O'qituvchi“, 1997.

22. **M. Imomova.** Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. - T., „O'qituvchi“, 1999.
23. **J. Yo'ldoshev.** O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. - T., „Sharq“, 2000.
24. **R. Mavlonova, O. To'rayeva, K. Xoliqberdiyev.** Pedagogika. -T., „O'qituvchi“, 2002.
25. **J. Yo'ldoshev, S. Usmonov.** Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: „O'qituvchi“, 2004.
26. **Z. D. Baubekova** Tarbiyaviy ishlar metodikasidagi ko'rsatmalar. - T. 1991.
27. **J. G'. Yo'ldoshev.** O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish (qo'llanma), T., 2000.
28. **M. Mahkamov** „Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot maddaniyatini shakllantirish“ nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2005.
29. **Z. Qurbaniyazova.** „Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyalanuvchilarda milliy o'zlikni anglashni shakilantrishning pedagogik asoslari“ nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2002.
30. **M. Qur'onov.** Milliy tarbiya. Monografiya. T., 2004.

Internet saytlari:

www.bilimdon.uz

www.ziyonet.uz

www.google.ru

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Ta'lim va tarbiya tizimi	5
1.1. I. A. Karimovning ta'lim tizimidagi islohotlar va barkamol insonni ma'naviy tarbiyalash masalalari	5
1.2. Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari.....	12
1.3. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.....	23
1.4. Ma'naviy qadriyatlar -- ta'lim-tarbiyaning omili	32
1.5. Shaxs ma'naviy yuksalishida qadriyatlarning ahamiyati	38
1.6. Intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish	45
1.7. Ta'lim tizimida o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish	53
II bob. Jamoa. Jamoani tashkil etish metodikasi	63
2.1. Jamoada shaxsni tarbiyalash	63
2.2. Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari	67
2.3. Jamoa ijodiy faoliyatini rivojlanirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni	71
III bob. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish	77
3.1. Tarbiyaviy ishlarning maqsadi, vazifalari va yo'naliishlari ..	77
3.2. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va rejalashtirish	79
3.3. Zaronaviy maktab direktorining vazifasi	83
3.4. Pedagoglarning kasbiy faolligini oshirishda rahbarning vazifalari	87
3.5. Maktabda to'garak ishlarini tashkil etish	89
IV bob. Tarbiyaviy ishlar tizimida texnologiyalar	94
4.1. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiysi	94
4.2. Tarbiya texnologiyasi asoslari	95
4.3. Tarbiya texnologiyalari	107
4.4. Tarbiya maqsadini ishlab chiqish	108
4.5. Tarbiya tizimini ijtimoiylashtirish	113
4.6. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv	117
4.7. Tarbiya tizimida innovatsiyalar	122
4.8. Iste'dodli bojalarni aniqlash va ularni tarbiyalash	141
V bob. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar	145
5.1. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari	145
5.2. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning nazariy asoslari	148

5.3. Sinfdan tashqari ishlarning shakl va metodlari	152
5.4. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni amalga oshirishda direktor o'rinnbosarining ish metodikasi	159
5.5. Maktabda o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish metodikasi	164
5.6. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi	167
VI bob. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sınıf rahbarining ish metodikasi	171
6.1. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sınıf rahbarining o'rni	171
6.2. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada sınıf rahbarining faoliyati	177
6.3. Sınıf rahbarining o'quv faoliyati samaradorligini oshirishga qo'yilgan talablar	180
6.4. Maktabdagı tarbiyaviy ishlar tizimida sınıf rahbari ishini takomillashtirish	182
6.5. Sınıf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari	185
6.6. O'quvchilarni pedagogik kuzatish metodikasi	189
6.7. Sınıf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash	191
6.8. O'quvchilar bilim sifatini oshirish va sınıfda intizomni mustahkamlash	194
6.9. O'quvchilarda ongli intizomni tarbiyalash	198
6.10. Sınıf rahbari ishini rejalashtirish.....	202
6.11. Maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarining vazifalari	206
VII bob. Mahalla, oila va maktab hamkorligining uzviyigini ta'minlash	211
7.1. Mahalla tarixi	211
7.2. Mahalla — demokratiya beshigi	212
7.3. O'quvchilarni mehnatsevarlikga o'rgatishda maktab, oila va mahalla hamkorligi	214
7.4. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda pedagogik mahorat va uning asosiy tamoyillari	220
7.5. Oila, maktab, mahalla hamkorligining shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni	226
VIII bob. Oila — millat va jamiyat tayanchi	232
8.1. Oila va jamiyatning inson hayotidagi o'rni	232
8.2. Oila tarbiyasida ota-onaning o'rni	239
8.3. Oila muhitining bola tarbiyasiga ijobiy ta'siri	243
8.4. Oilada bolalarni mehnatga o'rgatish	245

R. A. MAVLONOVA, N. X. RAHMONQULOVA,
B. A. NORMURODOVA, K. O. MATNAZAROVA

**TARBIYAVIY ISHLAR
METODIKASI**

Darslik

Toshkent — 2014

Muharrir *S. Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *D. Mulla-Axunov*
Texnik muharrir *T. Greshnikova*
Kompyuterda sahifalovchi *S. Xo'jaahmedov*

Original-maketedan bosishga ruxsat etildi 03.03.2014.
Bichimi $60 \times 84 \frac{1}{16}$. Garn. Tayms. Kegli 11, 10 shponli.
Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozli. Bosma t. 16,0.

Buyurtma № 09. Adadi 100 nusxa.
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi.